

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH  
ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA  
XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

**FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI**

**YURIDIK TEXNIKUM O'QUVCHILARI  
UCHUN DARSLIK**

**TOSHKENT – 2020**

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-sonli buyrug‘iga asosan nash etishga tavsiya etilgan.

**M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova,**

**D.Y.Xabibullayev.** Fuqarolik protsessual huquqi.

Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. -

Toshkent, nashriyoti, 2020. – 250 b.

**Taqrizchilar:**

**O.Ganiyev** – Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi” kafedrasи dotsenti v.b, yuridik fanlar nomzodi.

**S.Safoyeva** – Fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent shahar sudining sudyasi, yu.f.n.

Mazkur darslik Davlat ta’lim standarti asosida yuridik texnikum o‘quvchilari uchun tuzilgan “Fuqarolik protsessual huquqi” fani o‘quv dasturiga muvofiq hamda shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta’lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida tayyorlangan.

Darslikda fuqarolik protsessual huquqining umumiyligi va maxsus qismiga oid barcha mavzular, har bir mavzu bo‘yicha nazorat savollari, kazuslar, ushbu fanga oid o‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati o‘z aksini topgan.

Mazkur darslik nafaqat yuridik texnikum o‘quvchilari uchun, shuningdek amaliyotchi va ilmiy xodimlar, keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

© M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova,  
D.Y. Xabibullayev, 2020 y.

© Toshkent davlat yuridik universiteti,  
2020 y.

## **KIRISH**

Fuqarolik protsessual huquqi nafaqat yuridik oliy o‘quv yurtlarida, balki o‘rtta maxsus ta’lim muassasalarida ham o‘qitiladigan fanlardan biri hisoblanadi. Zero, o‘rtta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining sud orqali himoya qilinishi masalalarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan fuqarolik protsessual huquqi faniining asosiy maqsadi ham O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta’minlashga ko‘maklashish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonun hujjatlarini takomillashtirish va uni amaliyotda qo‘llash samaradorligini oshirishdir.

Fuqarolik protsessual huquqi sohasida subyektiv huquqlarni sud orqali himoya qilish shakllari asosiy o‘rinni egallaydi. Subyektiv huquqlarni sud yoki boshqa shakllarda himoya qilish masalalarini puxta bilish bo‘lajak suda, prokuror, advokatlar, yuriskonsultlar, notariuslar, turli davlat va nodavlat tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib boradigan bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda, ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirishdagi muhim shartlardan hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqini o‘rganish jarayonida o‘quvchida fuqarolik protsessi ishtirokchilari va manfaatdor shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilish borasidagi bilim va dunyoqarash rivojlanadi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish trtibi va xususiyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniyati yuzaga keladi, moddiy va protsessual huquq normalarini qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalar hosil bo‘ladi, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishga doir qonunchilik va sudga oid protsessual hujjatlar bilan ishlashni o‘rganadi.

Fuqarolik protsessual huquqi fanini bilish fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, o‘z vaqtida buzilgan huquqni tiklash borasida sudga murojat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **1-BOB. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI TUSHUNCHASI, TIZIMI VA PRINSIPLARI**

### **1.1. Fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi va predmeti**

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjalarda mustahkamlangan fuqarolik protsessual qoidalarning majmui mustaqil huquq sohasi bo‘lmish fuqarolik protsessual huquqini hosil qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, fuqarolik protsessual huquqi fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining sud orqali himoya qilinishini ta‘minlaydi.

***Fuqarolik protsessual huquqi o‘zida fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovnvi amalga oshirish jarayonida sud va protsessning boshqa ishtirokchilar o‘rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan protsessual normalar tizimini jamlagan huquq sohasi hisoblanadi.***

Fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi har bir shaxs uchun protsessual huquq va majburiyatlar belgilanadi. Masalan, sud fuqarolik ishini mazmunan ko‘rish va hal etish vakolatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlariga qat’iy amal qilishi talab etiladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa

shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e’tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo‘lishi va o‘z huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar (FPKning 40-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquq normalari sud protsessini olib borish tartibini belgilaydi, mazkur tartibni buzuvchi fuqarolik protsessual munosabatning har bir subyekti uchun muayyan choralarini nazarda tutadi. Fuqarolik protsessual huquqi normalarining huquqiy tartibga solish ob’ektini fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ishlarini yuritish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Fuqarolik protsessual huquqining predmetini** fuqarolik sud ishlarini yuritish sohasida vujudga keladigan fuqarolik protsessual munosabatlar tashkil etib, ushbu munosabatlar fuqarolik ishlari tufayli vujudga keladigan sud va protsessining boshqa ishtirokchilari, sud qarorlarini ijro etuvchi idoralar o‘rtasida yuzaga keladi.

## 1.2. Fuqarolik protsessual huquqining tizimi

Fuqarolik protsessual huquqining barcha qoidalari bir biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning yaxlit tizimini tashkil qiladi. Ushbu tizimda **umumiyligi** va **maxsusligi** ahamiyat kasb etuvchi normalar majud bo‘lib, ular birgalikda fuqarolik protsessual huquqining tizimini hosil qiladi. Protsessual normalar sud ishlarini yuritish turlari hamda fuqarolik protsessining barcha bosqichlari uchun umumiyligi bo‘lgan normalarga ajratiladi. Ular fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini aniqlaydi, fuqarolik protsessi prinsiplarini mustahkamlaydi, fuqarolik ishlarida ishtirok etuvchi shaxslar

doirasini, dalillar, protsessual muddatlar, sud xabarnomalari, chaqiruvlari va hokazolarni belgilaydi.

Fuqarolik protsessual huquqining **umumiyligi qismida** Fuqarolik protsessual kodeksining “Umumiy qoidalar” deb nomlangan birinchi bo‘limida fuqarolik sud ishlarini yuritishning prinsiplari, sud tartibi, sudyani va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish, sudga taalluqlilik va sudga tegishlilik, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari, sudda vakillik, dalillar, da’voni ta’minalash, ish yuritishni to‘xtatib turish, arizani ko‘rmasdan qoldirish, ish yuritishni tugatish, sud xarajatlari, protsessual majburlov choralari, protsessual muddatlar, sud xabarnomalari va chaqiruvlari, kelishuv bitimini tuzish kabi institutlar nazarda tutilgan.

Fuqarolik protsessual huquqining **maxsus qismi** – protsessning turli bosqichlarini (birinchi instansiya sudida ish yuritish, sud qarorlari ustidan shikoyat berish va ularni qayta ko‘rish, sud hujjatlarini ijroga qaytarish) tartibga soluvchi, shuningdek fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtiroki masalasini nazarda tutuvchi normalar yig‘indisidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, maxsus qismda fuqarolik ishlarining ayrim turkumlarini ko‘rish, hal qilish uchun va fuqarolik jarayonining ayrim bosqichlari uchun maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy me’yorlar bayon etiladi.<sup>1</sup>

Fuqarolik protsessual huquqining yuqorida bayon etilgan tizimi o‘zida Fuqarolik protsessual kodeksining tuzilishini belgilab beradi.

---

<sup>1</sup> Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал хукуки. Дарслик. -Тошкент: Адолат. 2001. -Б.18.

### **1.3. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy, fuqarolik, oila, mehnat, ma'muriy sud ishlarini yuritish, iqtisodiy protsessual va jinoyat protsessual huquqi hamda boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi**

Fuqarolik protsessual huquqi mamlakatimiz huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida huquqning aksariyat tarmoqlari bilan o'zaro aloqador hisoblanadi. Ayniqsa, fuqarolik protsessual huquqi moddiy huquq bilan uзвиy aloqada bo'lib, o'z navbatida moddiy huquq normasida nazarda tutilgan majburiyatlar boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilmagan taqdirda huquqni sud orqali himoya qilishning, boshqacha qilib aytganda, fuqarolik, mehnat, oila, ma'muriy va boshqa majburiyatlarni majburiy ravishda amalga oshirishning muhim shakli sifatida e'tirof etiladi. Undan tashqari, sud yuzaga kelgan fuqarolik ishini moddiy huquq normasi asosida hal etadi. Biroq moddiy va protsessual huquq sohalari o'zaro mustaqil va tartibga solish predmeti va uslubiga ko'ra turlicha hisoblanadi. Masalan, muayyan munosabat, xususan mulkiy, shaxsiy nomulkiy, mehnat, oila va boshqa sohadagi ishtirokchilarning xatti-harakatlari moddiy-huquqiy sohani tartibga solishning predmeti hisoblanadi.

*Fuqarolik protsessual huquqini tartibga solish predmetini fuqarolik sud ishlari bo'yicha odil sudlovnii amalga oshirish sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.*

Fuqarolik protsessual huquqining moddiy huquq tarmoqlari bilan aloqasi keng va ko'ptomonlamadir. Moddiy huquqda fuqarolik protsessual tusdagi normalar, xususan isbotlash predmeti, ishning sudga taalluqliligi, sud xaratjalardan ozod qilish va shunga o'xhash normalar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 268-moddasida mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqi, 269-moddasida bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'riliishi lozim bo'lgan mehnat nizolari,

277-moddasida xodimlarni sud xara-jatlaridan ozod qilish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, Oila kodeksining 40-moddasida nikohdan sud tartibida ajratish, 44-moddasida nikohdan ajratish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar, 45-moddasida sudning nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarishida davlat boji miqdorini belgilash, 62-moddasida otalikning sud tartibida belgilanishi masalalari bayon etilgan.

Sud muayyan fuqarolik ishi yuzasidan o‘z qarorini chiqarar ekan, albatta moddiy huquq normalarini qo‘llaydi. Moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanishi sud hal qiluv qarorining bekor qilinishiga olib keladi. Undan tashqari, fuqarolik protsessining vujudga kelish shartlaridan biri – sudga taalluqli bo‘lgan moddiy-huquqiy nizoning (da’vo bo‘yicha ish ko‘rishda) mavjud bo‘lishidir. Boshqacha qilib aytganda, moddiy huquq normalarining buzilishi, basharti sudga himoya qilish to‘g‘risida murojaat qilinadigan bo‘lsa, fuqarolik protsessual huquqini harakatga keltiradi. Mamlakatimiz huquq tizimining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fuqarolik protsessual huquqi boshqa huquq sohalari, xususan konstitutsiyaviy, ma’muriy, jinoyat-huquqi sohalari bilan ham aloqadordir.

Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy huquq bilan o‘zaro aloqadorligi quyidagi ikki jihatda ko‘proq namoyon bo‘ladi:

- har ikki huquq manbalarining umumiyligi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai hisoblanadi. Shu o‘rinda Konstitutsiyada odil sudlovning eng muhim prinsiplari ham o‘z ifodasini topgan;

- konstitutsiyaviy huquqning ayrim kichik tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Bu yerda gap sudlarning tuzilishi va prokuror nazorati haqida bormoqda. Sudlarning tuzilishi bilan fuqarolik protsessual huquqining ayrim prinsiplari o‘rtasida umumiyligini mavjud (xususan, sudyalarining mustaqilligi va

ularning faqat qonunga bo‘ysunishi, odil sudlovning faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi va hokazolar).

Sud tuzilishiga oid normalar sud tizimining va odil sudlov sohasidagi vakolatli organlarning tashkil etilishini tartibga soladi. Protsessual huquq normalari esa sud vakolatlarini amalga oshirish tartibi va shakllarini belgilaydi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha davlat bojini to‘lash masalasini tartibga soluvchi normalarning mavjud bo‘lishi fuqarolik protsessual huquqining moliyaviy huquq bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Fuqarolik protsessual huquqi jinoyat protsessual huquqi bilan ham yaqin aloqadadir. Zotan, har ikki tarmoq protsessual hisoblanadi va odil sudlovni amalga oshiruvchi ayni bir organning – sudning faoliyat tartibini belgilaydi. Har ikki tarmoq ko‘plab faoliyatning umumiy prinsiplariga ega (bevositalik, og‘zakilik va boshqalar). Ularning protsessual shakli, ko‘pgina huquqiy institutlari (isbotlash, ishlarni birinchi instansiya sudida ko‘rib chiqish, sud hujjatlarini appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida qayta ko‘rish va hokazo) bir-biri bilan o‘xhash. Biroq fuqarolik protsessual huquqi va jinoyat protsessual huquqi tarmoq jihatidan ularning mustaqilligini belgilovchi bir qator tafovutlarga ega: fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishni ko‘rib chiqishning predmeti fuqarolik ishi bo‘lsa, jinoyat protsessual huquqida esa bunday predmet jinoyat ishidan iborat. Jinoyat protsessual huquqi tizimi nafaqat sud faoliyatini, balki dastlabki tergov organlari faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi o‘rtasida juda ko‘p o‘xhash jihatlar ko‘zga tashlanadi (masalan, prinsiplarning, protsessual shaklning umumiyligi). Jinoyat protsessual huquqi bilan qiyoslaganda ushbu huquq sohalarida ko‘riladigan nizoning xarakteri anchayin bir-biriga o‘xhash. Lekin fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi turli sudsarning faoliyatini tartibga soladi.

Fuqarolik protsessual huquqining boshqa huquq tarmoqlari bilan o‘zaro aloqadorligi huquq tizimining tarkibiy

qismlari o‘zaro birgalikda ishlashini nazarda tutuvchi mamlakatimiz huquq tizimining tizimliligi bilan izohlanadi.

#### **1.4. Fuqarolik protsessual huquqining manbalari**

*Fuqarolik protsessual huquqining manbalari fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual normalardan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalar hisoblanadi.*

Undan tashqari, umumiy yurisdiksiya sudlarida fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi, “Sudlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

Fuqarolik protsessual huquqining asosiy manbai o‘zida sud ishlarini yuritishning muhim prinsiplarini mustahkamlagan **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** hisoblanadi (11, 106, 107, 108, 110, 112, 113, 114, 115, 116-moddalari). Konstitutsiya fuqarolik protsessual qonunchilikning rivojlanishidagi muhim huquqiy bazadir.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiyamizning ayrim boblari va xatto moddalari ham fuqarolik protsessual huquqining institutlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Konstitutsianing “O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati” deb nomlangan XXII bobi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi” (106-modda). Bu haqdagi maxsus qoidaning kiritilishi ham sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlash, ularning insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi rolini oshirishga xizmat qiladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida amal

qiladigan asosiy prinsiplarga doir qoidalarning (112, 115-moddalar) Bosh qomusimizda belgilanishi sud ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rilishi hamda hal etilishimi ta’minlaydi. Xususan, Konstitutsiyaning 112-moddasida sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysunishlari to‘g‘risida qoida mavjud bo‘lib, ularning odil sudlovni amalgga oshirish borasidagi faoliyatiga biron bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi o‘z ifodasini topgan. Qayd etish lozimki, sudsarning mustaqilligi mamlakatimizda odil sudlovni hech kimning aralashuvisiz, xolisona amalgga oshirishga qodir bo‘lgan mustaqil va nufuzli sud hokimiyatining mavjud bo‘lishining asosiy shartlaridan biridir.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalgga oshirishga oid Davlat dasturi<sup>2</sup> asosida qabul qilingan qonunchilik bilan suda birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o‘n yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda tayinlanishi yoki saylanishi belgilandi (“Sudlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunning 63<sup>1</sup>-moddasi).<sup>3</sup> O‘z navbatida mazkur yangilik xalqaro standartlar va rivojlangan demokratik davlatlarning

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017. 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 12 апрелдаги “Судлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ва Хўжалик процессуал кодексларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги Қонуни // “Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами”, 2017 йил 17 апрель, 15-сон, 242-модда.

qonunchilik tajribasiga mos keladi.

Konstitutsiyaning 107-moddasida mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshiradigan sudlarning to‘liq ro‘yxati berilgan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida sud tizimini quyidagi sudlar tashkil etadi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma’muriy sudlar, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma’muriy sudlaridan iborat.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidaning Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo‘yilishi esa jamiyatda sud hokimiyatining nufuzini oshirishga, hokimiyatlarning bir-birini tiyib turishi to‘g‘risidagi tamoyilning amalda o‘z ifodasini topishiga hamda inson huquq va erkinliklarini qo‘srimcha ravishda kafolatlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘rilishi, ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yilishi haqidagi qoidalar belgilangan. Mazkur qoida shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksida ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unga ko‘ra barcha sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o‘tkaziladi. Davlat siriga, farzandlikka olish siriga taalluqli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan ishlar bo‘yicha va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishning muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tkaziladi. Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o‘qib eshittiriladi (FPKning 12-moddasi).

Fuqarolik protsessual huquqining muhim manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni

muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qonunda sud tizimi, sudning vazifalari, sudda ish ko‘rish bo‘yicha muhim prinsiplar, sudlarning tuzilishi, sudyalarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq normalar mustahkamlangan.

Fuqarolik protsessual huquqining manbasi sifatida fuqarolik protsessining alohida yo‘nalishlarini tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlari ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik protsessual huquqining bunday manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи “Prokuratura to‘g‘risida”gi, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunlari, shuningdek 2017-yil 6-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi to‘g‘risida”gi Qonuni shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlarni ijro etish maqsadida 2018-yil 22-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda FPK deb yuritiladi) qabul qilindi va 2018-yilning 1-apreldidan amalga kiritildi. Mazkur Kodeks besh bo‘lim, 47-bob va 462-moddadan iborat.

FPKning “Umumiyl qoidalar” deb nomlangan birinchi bo‘limida quyidagi boblar mavjud: asosiy qoidalar, fuqarolik sud ishlarini yuritish prinsiplari, sud tarkibi, sudyani va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish, sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik, fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilar, sudda vakillik, dalillar, da’voni ta’minalash, ish yuritishni to‘xtatib turish, arizani ko‘rmasdan qoldirish, ish yuritishni tugatish, sud xarajatlari, protsessual majburlov choralar, protsessual muddatlar, sud xabarnomalari va chaqiruvlari, kelishuv bitimi.

FPKning “Birinchi instansiya sudida ish yuritish” deb nomlangan ikkinchi bo‘limi sud ishlarini yuritishning barcha turlarida qo‘llaniladigan umumiyl qoidalar va sud ishlarini yuritish turlari uchun tatbiq etiladigan maxsus normalar mustahkamlangan kichik bo‘limlardan iborat. 1-kichik

bo‘limda buyruq tartibida ish yuritish, 2-kichik bo‘limda da‘vo ishni yuritish, 3-kichik bo‘limda alohida tartibda ish yuritish, 4-kichik bo‘limda esa hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni yuritishga doir normalar o‘z ifodasini topgan.

FPKning “Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning ishtiroki” deb nomlangan 3-bo‘limda umumiy qoidalar, chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijro etishga oid masalalar o‘rin olgan. Muqaddam amalda bo‘lgan FPKdan farqli ravishda mazkur bo‘limda chet el fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlari, fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning fuqarolik protsessual huquqlari, chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loaql bittasi chet elda yashab turgan taraflar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha fuqarolik ishlari O‘zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga tegishli bo‘lishi, chet davlatlarga nisbatan da‘volar, chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O‘zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriqlar bilan murojaat qilishi bilan bog‘liq normalar belgilab qo‘yildi.

FPKning “Sud hujjatlarini qayta ko‘rish” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limda umumiy qoidalar, appellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish, cassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish, nazorat instansiyasi sudida ish yuritish, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish masalalariga oid normalar belgilangan.

FPKning beshinchi bo‘limi “Sud hujjatlarining ijrosi” deb nomlanib, ushbu bo‘limda sud hujjatlarining ijrosiga bag‘ishlangan qator moddalar o‘rin olgan.

Ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish tartibini belgilovchi protsessual normalar o‘z ifodasini topgan **bir qator Kodekslar** ham fuqarolik protsessual huquqining manbasi hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Uy-joy kodeksi, Soliq kodeksi shular jumlasidandir. Masalan, Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish shakllarini (10-modda), fuqaroni sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topish (30-modda), fuqaroning muomala layoqatini cheklash (31-modda), fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish (33-modda), fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish (36-modda) asoslarini nazarda tutadi.

Shuningdek, Mehnat kodeksida mehnat nizosini ko‘rishi so‘rab sudga murojaat qilish, bevosita tuman (shahar) sudlarida ko‘rilishi lozim bo‘lgan mehnat nizolari, mehnatga doir ayrim ishlar bo‘yicha qarorlarni ijro etish, xodimlarni sud xarajatlaridan ozod qilish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Oila kodeksida fuqarolik protsessi sohasini tartibga soladigan ko‘plab normalar mavjud. Masalan, xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinining rozilgisiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish-ga haqli emasligi (39-modda), sud ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli bo‘lishi (40-modda) to‘g‘risidagi normalar shular jumlasidandir.

Fuqarolik protsessual huquqining manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan **xalqaro shartnomalar** ham e’tirof etiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrdagi “1954-yil 1-martda imzolangan Fuqarolik protsessi masalalariga doir Gaaga konvensiyasini ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi 183 I-sonli

qarori, O'zbekiston Respublikasi va Ozarboyjon Respublikasi o'rtaida fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida Sharhnomalar (Toshkent, 1997-yil 18-iyun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagagi 488 I-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 30-apreldagi 624 II-son qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan hamda 2004-yil 11-noyabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o'rtaida fuqarolik ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida shartnoma (Sofiya, 2003-yil 24-noyabr) va boshqalar. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasingning muqaddimasida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinishi nazarda tutilgan. Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan mazkur qoidani rivojlantirish maqsadida 1995-yil 22-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan.

Fuqarolik protsessual huquqining manbalari sifatida qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham e'tirof etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-ton, 2017-yil 7-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-ton, 2017-yil 21-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4966-ton, 2017-yil 10-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini shakllantirish to'g'risida"gi PF-5006-ton farmonlari, 2017-yil 30-avgustdagagi "Sudlar faoliyatiga zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3250-son Qarori shular jumlasidandir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqadi va qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berishga vakolatli hisoblanadi. Qonun hujjatlarini qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirishlar berilgan qonun hujjatlarini qo‘llayotgan boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdar shaxslar uchun majburiydir (“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasi).

### **1.5. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari va bosqichlari**

<b>Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari (FPKning 1-moddasi)</b>				
Da’vo tartibida ko‘riladigan ishlar	Buyruq tartibida ko‘riladigan ishlar	Alovida tartibda ko‘riladigan ishlar	Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar	Chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining ) hal qiluv qarorlarini tanolish va ijroga qaratish bilan bog‘liq ishlar

Da'vo tartibidagi ishlarda huquq to'g'risida nizo mavjud bo'ladi. Masalan, oila, uy-joy, mehnat, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar kiradi. Ushbu ishlarda taraf sifatida da'vogar va javobgar ishtirok etadi.

Buyruq tartibida ko'rildigani ishlarda huquq to'g'risida nizo mavjud bo'lmaydi. Mazkur ishlarda taraflar undiruvchi va qarzdon nomlanadi. Ushbu ishlar bo'yicha sud majlisi bo'lmaydi va sud arizaga ilova qilingan hujjatlar asosida o'zi nomidan 3 kun ichida sud buyrug'i chiqaradi.

Alohiba tartibida ko'rildigani ishlarda huquq to'g'risidagi nizo bo'lmaydi, biror bir shaxsiga nisbatan da'vo ham qo'zg'atilmaydi, arizachi sudga faqat o'z muddaosini bildiradi va uning arizasi asosida ish qo'zg'atiladi. Masalan, yuridik faktni belgilash, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish va xakozo. Agar sud alohiba tartibda ish ko'rayotganida manfaatdor shaxs biron-bir huquq to'g'risidagi nizo qo'zg'atsa, sud arizani ko'rmasdan qoldiradi va arizachiga umumiy tartibda murojaat qilish huquqini tushuntiradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladigan, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar jumlasiga hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish haqidagi arizalar bo'yicha ishlar kiradi.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlarda ariza hal qiluv qarori foydasiga chiqarilgan nizo tarafi ya'nii undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan ariza beriladi.

### Fuqarolik protsessining bosqichlari quyidagilar:



## **1.6. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari tushunchasi, ahamiyati va tasnifi**

Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarining mazmun-mohiyatini tahlil qilishdan avval “prinsip” so‘zining ma’nosini anglab olish lozim.

---

**“Prinsip”** so‘zi lotincha **“principium”** so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida *asos, qoida, negiz*, degan ma’noni anglatadi.

---

Demak, fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari ham mazkur huquq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda hamda qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

**Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari** bu – qonunda mustahkamlangan, protsessual institutlarning barcha tizimlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan, iqtisodiyishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etishda odil sudlovni ta’minlaydigan asosiy rahbariy qoidalardir.

---

**Fuqarolik protsessual huquq prinsiplari** fuqarolik protsessual huquqi fanini rivojlanishida, iqtisodiy protsessual qonunchiligini takomillashtirishda hamda iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik ishlarni hal qilishdagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- ◆ fuqarolik sud ishlarni yuritishda sudning odil sudlovni amalga oshirishdagi rahbariy va yo‘naltiruvchi rolini belgilab beradi;
  - ◆ fuqarolik protsessual huquqi normalarini to‘g‘ri qo‘llash va huquq yoki qonun analogiyasi qo‘llaniladigan hollarda ishlarni to‘g‘ri hal etish imkoniyatini beradi;
  - ◆ ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud protsessi davomida o‘z manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositalaridan to‘liq ravishda foydalanish imkoniyatini
-

ta'minlaydi;

◆ fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarining to'liq bajarilishini, ya'ni qonuniy, asosli vaadolatli hal qiluv qarorini chiqarish yo'li bilan fuqarolik ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida ko'rish hamda hal qilinishini ta'minlaydi;

◆ fuqarolar, tashkilotlar, davlat va jamiyat manfaatlarining himoya qilish bo'yicha odil sudlovning umumiyligini maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishni ta'minlaydi;

◆ fuqarolik protsessual huquq sohasini istiqboldagi rivojlanishimi oldindan belgilab beradi.

Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarini turli xil mezonlarga ko'ra tasniflash amalga oshirilgani bilan ular bir-biriga o'zaro aloqador hamda chambarchas bog'liqdir. Chunki, prinsiplardan ba'zilari boshqa prinsiplarning qoidalarini to'ldiradi va rivojlantiradi, boshqa hollarda ayrim prinsiplar boshqalarining kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi  
Qonun hamda Fuqarolik protsessual kodeksini tahlil qilish  
asosida fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarini quyidagicha  
tasniflash mumkin**

<b>Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy prinsiplari</b>	<b>Fuqarolik protsessual huquqining maxsus prinsiplari</b>
1) odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi; 2) qonun va sud oldida tenglik; 3) sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'y sunishi; 4) sud ishlari yuritiladigan til; 5) sud muhokamasining oshkorali;	1) ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilinishi; 2) ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi (obyektiv haqiqat); 3) erkin huquq, ya'ni dispozitivlik; 4) taraflar tortishuvi va teng huquqliligi; 5) sud muhokamasining bevositaligi va og'zakiligi; 7) sud orqali himoyalanish huquqi; 8) sud hujjatlarining majburiyligi.



*Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi.* O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 7-moddasida ham mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra Fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlov faqat sud tomonidan, FPKda belgilangan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

*Qonun va sud oldida tenglik prinsipi.* O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, FPKning 8-moddasi va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, qonun va sud oldida tenglik prinsipi odil sudlovni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan, tashkilotlarning esa tashkiliy-huquqiy shaklidan, mulkchilik shaklidan, joylashgan yeri, shuningdek boshqa holatlardan qat’i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

*Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi prinsipi.* Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida, FPKning 9-moddasida, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 9-moddasiga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga ko‘ra javobgarlikka sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘ri-sida”gi PF-4850-son, 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini

yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son va 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini sud tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmonlarining qabul qilinishi sudyalarning mustaqilligini mustahkamlashda va ularning ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirishda, odil sudlovni sifatini oshirishda hamda suda kadrlarni tanlash va ularni tayinlash (saylash)da, sudyalikka qo'yilgan talablarni samarali tizimini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sudyalarning mustaqilligi prinsipining amal qilishi odil sudlovning fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning, ular o'rtasidagi nizolarni hal etishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

*Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi.* Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, FPKning 11-moddasi hamda "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi FPKning 11-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlari o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yuritiladi. Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, sudda ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda so'zlash, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, arz bilan murojaat etish, iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek ushbu Kodeksda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatlaridan foydalanish huquqi ta'minlanadi. Ishda ishtirok etuvchi va sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxs ishdagi sud hujjatlari berilishini so'rab yozma ariza bilan murojaat etgan taqdirda, unga sud hujjatlari uning ona tiliga yoki u biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va sud majlisi zalida hozir bo'lgan shaxslarga jarayonning tushunarli, shu bilan birga sudda ish ko'rishning

tarbiyaviy xarakterda bo‘lishini ta’minlaydi. Sud ishlari yuritiladigan til prinsipiغا rioya etilishi ish holatlarini to‘g‘ri aniqlashiga qonuniy, asosli hal qiluv qarori chiqarilishiga ko‘maklashadi.

### **Eslab qoling!**

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 377-moddasiga binoan ishni ko‘rishda sud ishi yuritiladigan til to‘g‘risidagi qoidalarning buzilishi protsessual huquq normalarining buzilishi hisoblanib, har qanday holda ham sudning hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

***Sud muhokamasining oshkoraligi prinsipi.*** Mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, FPKning 12-moddasida mustahkamlangan.

Fuqarolik protsessual kodeksining 12-moddasiga ko‘ra, barcha sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o‘tkaziladi. Davlat siriga, farzandlikka olish siriga taalluqli ma’lumotlar mavjud bo‘lgan ishlar bo‘yicha va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishning muhokamasi yopiq sud majlisida o‘tkaziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar oshkor bo‘lishining oldini olish, yozishmalar sirini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni saqlash maqsadida yopiq sud muhokamasi o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ish sudning yopiq majlisida ko‘rilayotganida ishda ishtirok etuvchi shaxslar, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham hozir bo‘ladi. Ishni sudning yopiq majlisida eshitish fuqarolik sud ishlari yuritishning barcha qoidalariга rioya qilingan holda olib boriladi. Sudning yopiq majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o‘qib eshittiriladi. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjalari taraflarning roziligi bilan yoki shaxsini ko‘rsatmagan tarzda sudning rasmiy veb-saytida e’lon qilinishi mumkin, bundan sudning yopiq majlisida

qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

***Ishlarni qonun hujjatlari asosida hal qilish prinsipi.*** Sud ishlarni O'zbekiston Respublikasi-ning Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa qonun hujjatlarini ham qo'llaydi.

Nizoli munosabatni tartibga soladigan huquq normalari mavjud bo'lмаган taqdirda, sud shunga o'xhash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llaydi, bunday normalar mavjud bo'lмаганда esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqqan holda hal etadi.

Sud O'zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi (FPKning 14-moddasi).

***Erkin huquq (dispozitivlik) prinsipi.*** Fuqarolik protsessual huquqda erkin huquq prinsipi – bu o'zining yoki boshqa shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida iqtisodiy protsessini vujudga keltirish, harakatlantirish va tugatish bilan bog'liq bo'lган protsessual huquqlardan foydalanish erkinligidir.

---

Erkin huquq prinsipi mazmunini fuqarolik sud ishlarini yuritishda da'vo qo'zg'atish, da'vodon voz kechish, da'veoni tan olish, kelishuv bitimi tuzish, sud qarorlari ustidan shikoyat (protest) berish, qarshi da'vo keltirish tashkil etadi.

---

***Taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipi.*** O'zbekiston Respublikasi FPKning 10-moddasiga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshiriladi.

Tortishuvlik prinsipiiga muvofiq ishda ishtirok etuvchi har bir shaxs o'z talab va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlashi kerak. Taraflar tortishuvi orqali obyektiv

haqiqat aniqlanadi. Chunki tortishuvchilik prinsipi sudga ishni to‘g‘ri hal qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli darajada imkon beradi.

Taraflarning teng huquqliligi prinsipi bir tomondan, ularning protsessual huquqlarining to‘liqligini, ikkinchi tomondan, protsessda taraflarning holati sudga nisbatan tengligini ifoda etadi. Taraflarning teng huquqliligi prinsipiga mulkiy jihatdan emas, balki protsessual nuqtai nazardan yondashish kerak. Shuning uchun ham taraflarning teng huquqliligi protsessual ma’nodagi tengligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu protsessual ma’nodagi tenglik taraflarning protsessual huquqlardan teng foydalanishida namoyon bo‘ladi.

*Sud muhokamasining bevositaligi va og‘zakiligi prinsipi.* Sud fuqarolik ishini ko‘rayotganda ishga oid dalillarni bevosita tekshirishi: ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvohlarning ko‘rsatuvlarini, ekspert-larning xulosalarini va mutaxassislarning maslahatlarini (tushuntirishlarini) eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashayoviy dalillarni ko‘zdan kechirishi shart. Ishning muhokamasi og‘zaki ravishda o‘tadi (FPKning 13-moddasi).

Bevositalik prinsipi ish bo‘yicha faqat dalillarni tekshirishdangina iborat bo‘lmay, balki butun sud muhokamasi vaqtida sud tarkibining o‘zgarmasligini ham kafolatlaydi. Masalan, suda sud muhokamasining tayyorlash qismida almashtirilsa, dastlabki sud tarkibi dalillarni hali tekshirmagan bo‘lsa ham ish boshidan qayta ko‘rilishi kerak. Bevositalik prinsipining eng qo‘pol tarzda buzilishi, ya’ni hal qiluv qarori sudyalardan birortasi tomonidan imzolamagan bo‘lsa yoki hal qiluv qarorida ko‘rsatilmagan sudyalar tomonidan imzolangan bo‘lsa, yoki hal qiluv qarori ishni ko‘rgan tarkibdagi sudyalardan boshqa sudyalar tomonidan qabul qilingan bo‘lsa protsessual huquq normalarining buzilishi hisoblanib, sud hal qiluv qarorini bekor bo‘lishiga olib keladi (FPKning 377-moddasi).

Sud muhokamasining og‘zakiligi prinsipi bu ishda ishtirok

etuvchi shaxslar sudga og‘zaki tushuntirish berishlari, odil sudlovnii amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar – guvoh-larning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalar, mutaxassislar, tarjimon-larning tushuntirishlari og‘zaki ravishda ifodalanishi tushuniladi. Sudga taqdim qilingan yozma dalillar ham og‘zakilik prinsipiiga ko‘ra sudda og‘zaki muhokama qilinadi. Sud majlisida og‘zaki tekshirilgan vaqtida aniqlangan va tasdiqlangan material-largina sud qaroriga asos qilib olinadi.

*Ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatlarini sud tomonidan aniqlanishi.* Sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatlarini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlash uchun qonunga muvofiq choralar ko‘rishga haqli.

Sud ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik oqibatlari to‘g‘risida ogohlantirishi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishida ko‘maklashishi kerak (FPKning 15-moddasi).

*Sud orqali himoyalanish huquqi prinsipi.* Sud orqali himoyalanish huquqi prinsipi – bu fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida manfaatdor shaxslarga qonunda belgilangan tartibda o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish imkoniyatining kafolatlanishidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o‘z huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga (sudga) murojaat qilishga haqli. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas (FPKning 3-moddasi).

*Sud hujjalarning majburiyligi prinsipi.* Sudning

qonuniy kuchga kirgan hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim. Sud hujjatini bajarmaslik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sud hujjatining majburiyligi manfaatdar shaxslarni o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun, basharti bularga daxldor nizo sudda ko‘rib chiqilmagan va hal etilmagan bo‘lsa, sudga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etmaydi (FPKning 16-moddasi).

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Fuqarolik protsessual huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. Fuqarolik protsessual huquqining predmeti deb nimaga aytildi?
3. Fuqarolik protsessiga tushuncha bering?
4. Fuqarolik protsessual huquqining tizimi qanday qismlarga ajratiladi?
5. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy huquq sohasi bilan aloqadorligini nimada?
6. Fuqarolik protsessual huquqining fuqarolik, oila va mehnat huquqi sohalari bilan aloqadorligi haqida gapirib bering.
7. Fuqarolik protsessual huquqining iqtisodiy protsessual va jinoyat protsessual huquqi bilan aloqadorligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
8. Fuqarolik sud ishlarini yuritish deganda nimani tushunasiz?
9. Fuqarolik protsessul huquqining manbalari deganda nimani tushunasiz?
10. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining tuzilishini gapirib bering.
11. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning qanday turlari mavjud va ularning o‘ziga xos belgilari nimada?

12. Fuqarolik protsessining bosqichlari haqida gapiring.  
Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
13. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplarining ahamiyati nimada?

### **Kazus**

Xayitmetova uydan ko‘chirish haqida Yesenovga nisbatan sudga da’vo bilan murojaat qilgan. Sud da’voni rad qilgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi 2017-yil 19-apreldagi o‘z ajrimi bilan hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 2018-yil 22-iyundagi qarori bilan mazkur fuqarolik ishini birinchi instansiyada ko‘rishda qatnashgan sudya, shu ishni 2017-yil 19-aprelda appellatsiya tartibida ko‘rilishida ham qatnashganligini ko‘rsatib, appellatsiya instansiyasi sudi ajrimini bekor qilib, ishni yangidan appellatsiya instansiyasida ko‘rish uchun yuborgan.

**Savol:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 2018-yil 22-iyundagi qarori qonuniymi?

## **2-BOB. FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI**

## VA SUDLOVLILIGI


### 2.1. Taalluqlilik tushunchasi va turlari

**Taalluqlilik deganda**, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish vazifasi qonun bilan muayyan davlat organi yoki jamoat tashkiloti zimmasiga yuklatilganligi tushuniladi.<sup>4</sup>

Mazkur ta’rifdan ko‘rinadiki, taalluqlilik haqidagi qoidalar faqat qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilishi hamda fuqarolik ishlari muayyan davlat organi yoki jamoat tashkiloti zimmasiga yuklatilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Ta’kidlash joizki, taalluqlilik sud hokimiyati bilan boshqa davlat organlari o‘rtasidagi vakolatlarning bo‘linishida muhim hisoblanib, ushbu vakolatlarning amalda qo‘llanilishiga sharoit yaratadi.

Taalluqlilik quyidagi turlarga ajratiladi:



**Mustasno taalluqlilik.** Fuqarolik, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan aksariyat nizoli ishlar bevosita sudlarga taalluqli bo‘lib, boshqa organlar tomonidan mazmunan ko‘rilishi mumkin emas. Taalluqlilikning bunday turi mustasno taalluqlilik deb

---

<sup>4</sup> Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал хукуки. Дарслик. -Тошкент: Адолат. 2001. -124 б.


nomlanadi. Mustasno taalluqlilikka muvofiq, nizoli ishni sudda ko'rib hal qilish uchun sudga qadar u yoki bu organlarda mazkur ishning ko'riliishi talab etilmaydi. Masalan, xodimni ishga tiklash, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan er va xotinni nikohdan ajratish, turar joyga nisbatan berilgan orderni haqiqiy emas deb topish va shu kabi ko'plab fuqarolik ishlari mustasno taalluqlilikka misol bo'la oladi.

**Alternativ taalluqlilikka** ko'ra, subyektiv huquq to'g'risidagi nizo manfaatdor shaxslarning xohishiga ko'ra sudda yoki boshqa davlat organlari yoki jamoat tashkilotlarida ko'riliishi mumkin.

**Shartnomaviy taalluqlilik** alternativ taalluqlilikka o'xshab ketadi. Bunda ham taraflar nizoni hal etish vakolatiga ega bo'lgan organni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Faqat bu yerda nizoni qaysi organda ko'riliшини taraflar o'zaro kelishib belgilaydilar. Masalan, taraflar yuzaga kelgan nizoni hal qilishni hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimini tuzishlari shular jumlasidandir. Qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ishlar dastavval sudga qadarli boshqa organlarda ko'riganidan keyingina sudga taalluqli bo'ladi. Bunday taalluqlilik turi **shartli taalluqlilik** deb nomlanadi.

## 2.2. Fuqarolik ishlaring taalluqliligin belgilash qoidalari va umumiylar mezonlari

U yoki bu organlarga ishlarning taalluqli bo'lishi qonun va qonunosti hujjatlari bilan belgilanadi. Mazkur qonun hujjatlarida ishlarning qaysi organlarga taalluqli bo'lishini belgilovchi umumiy qoidalalar va ayrim istisno etuvchi qoidalalar nazarda tutiladi. Aynan mana shu qoidalalar yordamida huquqiy ishlarning umumiy yurisdiksya sudlariga, iqtisodiy sudlariga, ijro hokimiyati, notariat, hakamlik sudlari va boshqalarga taalluqli bo'lishini aniqlash imkoniy yaratiladi.



FPKning 26-moddasiga muvofiq, fuqarolik ishlari bo'yicha sudga quyidagi ishlar taalluqli bo'ladi:

1) Fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech bo'limganda bittasi fuqaro bo'lsa, bundan qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollar mustasno;

2) FPKning 293-moddasida sanab o'tilgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar;

3) FPKning 18-bobida ko'rsatilgan va buyruq tartibida hal etiladigan ishlar;

4) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risidagi va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish haqidagi ishlar;

5) chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar.

6) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar.

Sudlarga qonun bilan ularning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlar ham taalluqlidir.

### **2.3. Fuqarolik, mehnat, oila, turar-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi**

Fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ham sudga taalluqliligi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Masalan, merosni bo‘lish, shartnomalarni bekor qilish, haqiqiy emas deb topish, yetkazilgan zararni undirish va boshq.

Oila huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qoidalari bo‘yicha belgilanadi. Xususan, Oila kodeksining 38-moddasiga ko‘ra, nikohdan ajratish sud tartibida, ushbu Kodeksning 42 va 43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi.

Undan tashqari, agar er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa; sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli er-xotindan biri muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa; agar er-xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo‘lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, o‘rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat’i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko‘ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.

O‘zaro nikohda bo‘lмаган ota-onadan bola tug‘ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi bo‘lmasa, Oila kodeksning 61-moddasida ko‘rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin. Shuningdek, bolaning onasi bilan nikohda bo‘lмаган, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi (Oila kodeksining 80-moddasi). Shuningdek, ota-ona (ulardan biri) o‘z xulqatvorini, turmush tarzini (yoki) bola tarbiyasiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin. Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da‘vosiga binoan sud tartibida

amalga oshiriladi (Oila kodeksining 82-moddasi).

**Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi.** Mehnat nizolarining taalluqliligi, ya’ni ularning qayerda ko‘rib chiqilishi lozimligi Mehnat kodeksining 269 va 276-moddalari hamda FPKning 26-moddasi bilan tartibga solinadi. Yakka tartibdagisi mehnat nizolarida nizoning xususiyati va uni keltirib chiqaruvchi huquqiy munosabat hamda nizolashuvchi shaxslarning tarkibi, ayrim hollarda esa nizoning predmeti taalluqlilikni belgilovchi asosiy mezon sifatida e’tirof etiladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mehnat ishlarining taalluqligini belgilash shular jumlasidandir. Masalan, ishga joylashtirish, ishga qabul qilishni rad etish bilan bog‘liq mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasida ko‘rish uchun taalluqli bo‘lmaydi. Shuningdek, mazkur komissiya nafaqa to‘lash bilan bog‘liq mehnat nizolarini ham ko‘rib, hal qilish vakolatiga ega emas. Shuning uchun ham mehnat nizolarining yuqoridagi xususiyatlariga alohida e’tibor berish talab etiladi, aks holda mehnat ishlarining taalluqliligi noto‘g‘ri belgilanishi hamda ish ko‘rishga vakolatli bo‘lmagan organ tomonidan chiqarilgan qaror bekor qilinishi mumkin.

**Uy-joyga oid nizolarning taalluqliligi** O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida belgilangan. Uy-joy nizolari quyidagi organlarga taalluqli:

ma`muriy organlar (mahalliy davlat hokimiyyat organlari, prokuratura);

fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar.

Turar-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 104-113-moddalarida ko'rsatilgan, ya'ni turar joylar o'zboshimchalik bilan egallangan hollarda uyning yemirilish xavfi bo'lgan xollar bunday uylarda yashov-chilarni xizmat bilan bog'liq bo'lgan turar joylardan, yotoqxonalardan va mehmonxonalardan ko'chirish to'g'risi-dagi ishlar sudlarga taalluqli bo'lmasdan, ma'muriy organ-larga, ya'ni prokatura organlariga taalluqli bo'ladi. Turar joylarni o'zboshimchalik bilan egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslar prokuror sanksiyasi asosida ma'muriy tartibda ko'chiriladilar (Uy-joy kodeksi 70-moddasi).

Sudlarga huquq to'g'risida nizo bo'lмаган – alohida tartibda yuritiladigan fuqarolik ishlari ham taalluqli bo'ladi. Bu to'g'risida FPKning 293-moddasida ko'rsatilgan.

#### **2.4. Fuqarolik ishlaringin sudlovligi tushunchasi**

*Fuqarolik ishlaringin sudlovligi deganda, sudlovga tegishli bo'lgan ishlarning turlari hamda joylashgan hududiga qarab bir tizindagi sud bo'g'linlari o'rtaida taqsimlanishini belgilab beruvchi fuqarolik protsessual huquqi normalari majmuiga aytildi.*

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudlovga tegishliligining quyidagi ikki turini belgilaydi:



**Turdosh sudlovlik deganda**, sudlovga tegishli bo'lgan fuqarolik ishlaringin ijtimoiy ahamiyati, murakkablik darajasi va subyektlar tarkibiga qarab fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar o'rtaida taqsimlanishini tushunish lozim.

Mamlakatimizdagi fuqarolik protsessual huquqiga oid

darsliklarda ham turdosh sudlovililik deganda ishning turiga, nizoning predmeti nimadan iborat bo‘lishi va taraflarning kimlar bo‘lishiga qarab chegaralanishi tushuniladi.<sup>5</sup>

*Darhaqiqat, muayyan bir fuqarolik ishi uchun turdosh sudlovililik qoidalarini belgilash jarayonida ushbu huquqiy munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq normasida belgilangan xususiyatlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etishi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning tarkibi e’tiborga olinishi talab etiladi.*

Turdosh sudlovililik ikki xil mezon bilan, ya’ni **ishning turi** va **da’vo talabining miqdoriga** qarab belgilanishi haqida fikrlar ham ilgari suriladi.<sup>6</sup> Turdosh sudlovililikning bu xildagi mezonlar bilan belgilanishi xorijiy davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligidagi ko‘plab uchraydi.

Italiya GPKning 7-moddasiga ko‘ra, yarashtiruvchi sudlar 2 582,28 yevrodan ko‘p bo‘lмаган miqdordagi nizolarni ko‘rishga haqli bo‘ladi, Germaniyada uchastka sudlari 5 000 yevrodan ko‘p bo‘lмаган miqdordagi nizolarni, Avstriyada tuman sudlari 10 000 yevrodan ortiq bo‘lмаган mulkiy talablardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni, Shveysariya Konfederatsiyasida yarashtiruvchi sudlar 500 Fr (frank)gacha bo‘lgan miqdordagi nizoli ishlarni ko‘rish vakolatiga ega. Da’vo undagi talablarning miqdoriga qarab turdosh sudlovga taalluqli bo‘lishi Yevropaning yana bir qator davlatlari fuqarolik protsessual qonunchiligidagi ham o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qonunchilikda fuqarolik ishlari uchun turdosh sudlovga taalluqlilik qoidalari bo‘yicha bitta

<sup>5</sup> Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал хукуки: Дарслик. -Тошкент: Адолат. 2001. -141 б.

<sup>6</sup> Елисеев А.Г. Гражданское процессуальное право зарубежных стран: учеб. -2-е изд., перераб. и доп. –М.: ТК Велби, Изд-во проспект, 2006. -82 с.

holat nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 298-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishni istovchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmasan shaxslar farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudiga beradi.

Sudlovlikning **hududiy sudlovga tegishlilik** turi fuqarolik ishlaringin hudud bo‘yicha sudlovga tegishliligi haqidagi umumiy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, arizalarning javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga berilishi, tashkilotlarga nisbatan arizalar esa ular davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagи sudga berilishi haqidagi qoidalalar shundan dalolat beradi.

#### **Hududiy sudlovlik turlari:**

da‘vogarning tanlovi bo‘yicha sudlovga tegishlilik (FPKning 34-moddasi);

sudlovga tegishlilikning alohida hollari (FPKning 35-moddasi);

kelishilgan sudlovga tegishlilik (FPKning 36-moddasi);

bir-biri-bilan bog‘liq ishlarning sudlovligi (FPKning 37-38-moddalari).

### **2.5. Ishni bir suddan boshqa sudga o‘tkazish asoslari va tartibi**

Ma’lumki, fuqarolar va tashkilotlar tomonidan sudga taqdim etilgan da‘vo arizasi, ariza va shikoyatlarni sudya qabul qilgach, fuqarolik ishi qo‘zg‘atiladi. Fuqarolik ishining sudlovligi to‘g‘risidagi masala da‘vo arizasining qabul qilinishida sudyaning yakka o‘zi tomonidan hal etiladi. Fuqarolik protsessual qonunchilikka muvofiq, sud sudlovga tegishlilik qoidalariga rioya qilgan holda o‘zining ish

yuritishiga qabul qilib olgan ishni, garchi keyinchalik bu ish boshqa sudning sudloviga taalluqli bo‘lib qolsa ham, mazmunan hal qilishi kerak (FPKning 31-moddasi). Biroq, istisno tarzida, faqat qonunda nazarda tutilgan holatlarda sud o‘z yuritishiga qabul qilib olgan ishni boshqa sudga o‘tkazishi mumkin.

Sud quyidagi hollarda ishni ko‘rish uchun boshqa sudga o‘tkazadi:

muayyan ish  
boshqa sudda,  
xususan dalillarning  
ko‘pchilik qismi  
joylashgan yerdagi  
sudda o‘z vaqtida  
va har tomonlama  
ko‘rib chiqiladi deb  
hisoblasa

bir yoki bir  
necha sudya rad  
qilinganidan so‘ng  
bu sudda ularni  
almashtirish imkonni  
bo‘lmasa

ish mazkur sudda  
ko‘rilayot-ganida, u  
sudlovga taalluqlilik  
qidalar buzilgan  
holda ish yuritisha  
qabul qilinganligi  
ma’lum bo‘lib  
qolsa (FPKning  
31-moddasi ikkinchi  
qismi).

Ishni bir suddan boshqasiga o‘tkazish ishlarning ishi qaysi sudning ish yuritishida bo‘lsa, o‘scha sudning asoslantirilgan ajrimiga asosan amalga oshiriladi. Sudning mazkur ajrimi ustidan shikoyat berish yoki unga nisbatan protest keltirish muddati o‘tganidan keyin, shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan taqdirda esa, shikoyatni yoki protestni qanoatlantrimay qoldirish haqida ajrim chiqarilganidan keyin o‘tkaziladi.

Ishni bir suddan boshqasiga o‘tkazish ishlarning o‘z yechimini to‘g‘ri topishida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ish bo‘yicha mavjud dalillarning to‘liq tekshirilishini, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi. Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish sud tomonidan ko‘rish uchun qabul qilinishi kerak. Sudlovga tegishlilik to‘g‘risida nizolarga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **2.6. Fuqarolik ishlari bo'yicha taalluqlilik va sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlari**

Fuqarolik ishlari bo'yicha taalluqlilik qoidalariga rioya qilmaslik quyidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi:

arizani ish yuritishga qabul qilish rad etiladi (*FPKning 194-moddasi*);

ish yuritish tugatiladi (*FPKning 124-moddasi*).

Sudlovlik qoidalariaga rioya qilmaslik o'ziga xos huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan, da'vo arizasi sudlovlik qoidalariaga rioya qilinmasdan berilsa, *FPKning 195-moddasi talablari asosida ariza qaytariladi*. Biroq shu o'rinda ta'kidlash kerakki, sudyaning arizani qaytarishi qilishni rad etishi sudga ikkinchi marta murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

*Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslikning navbatdagi oqibati FPKning 31-moddasida nazarda tutilgan.* Unga ko'ra ish bir suddan boshqa sudga o'tkaziladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Taalluqlilik nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Oila, mehnat va uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligini o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
3. Fuqarolik ishlaring sudlovligi deganda nimani tushunasiz?
4. Sudlovlikning qanday turlari mavjud?
5. Hududiy sudlovlik nima va uning qanday turlari mavjud?
6. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazishning qanday asoslari mavjud?
7. Fuqarolik ishlari bo'yicha taalluqlilik va sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslikning qanday oqibatlari bor?

## **1-kazus**

Raxmonov viloyat hokimi qarorini g'ayriqonuniy deb topish haqida sudga da'vo bilan murojaat qilgan.

Sud da'voni qanoatlantirgan.

Apellatsiya instansiysi sudi hal qiluv qarorini ish sudga taalluqli bo'lmanligi uchun bekor qilib, ish yuritishni tugatdi.

### **Savol:**

**1) Nima uchun mazkur ish fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli emas deb topildi?**

**2) Taalluqlilik qoidalariga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?**

## **2-kazus**

Da'vogar *I.* javobgar "O'zbekbirlashuv" AJga nisbatan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan Uchtepa tumanlararo sudiga murojaat qilgan.


Da'vogar o'zining da'vo arizasida ko'rsatishicha, Chilonzor tumani Farhod ko'chasida "O'zbekbirlashuv" AJga qarashli avtomashinani boshqarib ketayotgan *N.* tomonidan yo'l harakati qoidalari buzilib, uning mol mulkiga 500.000 so'mlik zarar yetkazilgan.

Uchtepa tumanlararo sudi da'vogarning da'vo arizasini qabul qilish va ishni sudda ko'rishga tayrlash to'g'risida ajrim qabul qildi. Sud jarayonida javobgar "O'zbekbirlashuv" AJning vakili da'vo arizasi sudlovgaga taalluqlilik qoidalariga rivoя qilinmagan holda qabul qilinganini va ish javobgarning joylashgan joyidagi sudda qo'zg'atilishi lozimligini ko'rsatib, ishni Mirzo-Ulug'bek tumanlararo sudiga o'tkazish to'g'risidagi iltimosnama bilan murojaat qildi. Uchtepa tumanlararo sudi javobgar vakilining iltimosnomasini qanoatlantirishni rad etish to'g'risida ajrim qabul qildi.

**Savol: 1) Sudning ajrimi asoslimi? 2) Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslarini ayting?**

### **3-BOB. FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARI**

#### **3.1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatları**



Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilarining asosiy guruhi ishda ishtirok etuvchi shaxslar tashkil qiladi. Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksining “Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilar” deb nomlangan 6-bobida ishda ishtirok etuvchi shaxslar alohida (39-modda) bayon etilgan. Bu esa protsess ishtirokchilarining doirasasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasidan birmuncha keng ekanligini ko'rsatadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari	Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatları
<p>Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nuxsalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, sud muhokamasi davomida yuzaga keladigan barcha masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlarini, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e’tirozlar bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish, sud hujjatlarining majburiy ijrosini talab qilish, davlat ijrochisi tomonidan harakatlar sodir etilishida hozir bo‘lish va o‘z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadir.</p> <p>Ishda ishtirok etuvchi shaxslar FPKda nazardautilgan boshqa protsessual huquqlardan ham foydalanadi.</p>	<p>Sudga o‘z vaqtida kelish va sud majlisida tartibga rioya qilish;</p> <p>har bir taraf o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlashi shart;</p> <p>davlat bojini to‘lash;</p> <p>dalillarni taqdim etish va boshqalar;</p> <p>ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishi va o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi shart.</p>

### 3.2. Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy holati

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabat subyektlarining keyingi guruhini **odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar** tashkil etadi. Guvohlar, ekspertlar, mutaxas-sislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqlovchilar, ijro ishi yuritish xolislari va saqlovchilar odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslardir (FPKning 54-moddasi).

Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari haqida shuni aytish kerakki, ushbu shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslardan farqli ravishda FPKda ko‘rsatilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquqlaridan foydalana olmaydilar. Aynan ular ishning hal etilishidan moddiy manfaatdor bo‘limganliklari tufayli ham, masalan, taraflarning protsessual huquqlaridan (da’vogarning o‘z arzida bayon qilingan talablarining asosini yoki predmetini o‘zgartirishi, da’vo talablarining miqdorini oshirishi yoki kamaytirishi, ulardan butunlay yoki qisman voz kechishi, javobgarning da’vogar talabini to‘liq yoki qisman tan olishi, har ikkala tarafning protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlash huquqi shular jumlasidandir) foydalana olmaydilar. Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar o‘z tushuntirishlarini og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilishga, yozuvlardan foydalanishga haqlidirlar.

Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar o‘z zimmalariga yuklatilgan protsessual majburiyatlarni bajarishlari lozim. Masalan, guvoh, ekspert yoki mutaxassisning sud majlisiga kelish majburiyati shular jumlasidandir. Agar ushbu shaxslar sud majlisiga sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra kelmasa, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni guvoh, ekspert yoki mutaxassis kelmasa ham ko‘rish mumkinligi haqidagi fikrini eshitib, ishni sudda ko‘rishni davom ettirish yoki ishni ko‘rishni keyinga qoldirish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Agar chaqirilgan guvoh sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud majlisiga kelmasa, u sudga hurmatsizlik qilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 180-moddasiga asosan javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar chaqirilgan guvoh ikkinchi chaqiruv bo‘yicha ham sud majlisiga kelmasa, u sudning ajrimiga binoan majburiy tartibda keltirilishi mumkin.

Ekspert yoki mutaxassisning sud majlisiga kelmaganligi FPKning 60 va 62-moddalarida nazarda tutilgan oqibatlarga sabab bo‘ladi.

### 3.3. Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi va turlari

Da’vo tartibida ko‘riladigan fuqarolik ishlarida taraflar protsess ishtirokchilari ichida markaziy va asosiy o‘rinni egallaydi. Aynan taraflar fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarning manbai hisoblanadi, ularning tashabbusi bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish qo‘zg‘atiladi, aynan ular o‘rtasida kelishuv bitimining tuzilishi ish yuritishni tugatishga olib keladi va hokazo.

FPKning 43-moddasi birinchi qismiga binoan da’vogar va javobgar fuqarolik protsessining taraflaridir. Demak, fuqarolik protsessida ikki taraf: da’vogar va javobgar ishtirok etadi. Bu o‘rinda har ikki tomonda necha shaxs ishtirok etishi ahamiyatga ega emas. Masalan, ishga tiklash, majburiy bekor yurgan vaqt uchun ish haqi undirish to‘g‘risida bir necha shaxs sudga da’vo taqdim etgan taqdirda ham ularning barchasi bir taraf, ya’ni da’vogar hisoblanadi. Qonunga muvofiq fuqarolik protsessida taraflar fuqaro va tashkilotlar bo‘lishi mumkin.

**Da’vogar deganda**, o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan yoinki manfaatini ko‘zlab ish qo‘zg‘atilgan shaxsga aytildi.

Mazkur ta’rif da’vogarning fuqarolik protsessidagi ishtirokining ikki shakli mavjudligini ko‘rsatadi: **birinchidan**, da’vogar deganda, o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan shaxs tushunilsa, **ikkinchidan**, da’vogar deb boshqa shaxslarning

huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslarning arizasiga ko‘ra ish qo‘zg‘atilgan shaxs tushuniladi. Birinchi holatda da’vogar protsessni boshlab beradi, ikkinchisida esa, sud protsessi boshlanganligi haqida xabardor qilingan holda sud tomonidan jalb etiladi.

Fuqarolik protsessining ikkinchi tarafi javobgar hisoblanadi.

**Javobgar** da’vogar talabiga muvofiq sud tomonidan da’vogarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari yuzasidan javob berish uchun jalb etilgan shaxsdir.

### **Taraflarning protsessual huquqlari *umumiyligi* va *maxsus huquqlarga ajratilishi*.**

FPKning 40-moddasida hamda boshqa moddalarda nazarda tutilgan hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ham foydalanishi mumkin bo‘lgan huquqlar taraflarning **umumiyligi huquqlari** hisoblanadi. FPKning 44-moddasi hamda boshqa moddalarda nazarda tutilgan hamda faqat taraflargina foydalanishi mumkin bo‘lgan huquqlar **maxsus huquqlar** sanaladi. Taraflarning maxsus huquqlari sifatida da’vogarning da’vo asosini yoki predmetini o‘zgartirishga, qo‘sishimcha talablar taqdim etishga, da’vo talablarining miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to‘liq yoki qisman vos kechishga haqli. Javobgar da’voning talabini to‘liq yoki qisman tan olishga, qarshi da’vo taqdim etishga haqli. Undan tashqari, da’vo ishini yuritishda taraflar sud protsessining har qanday bosqichida kelishuv bitimi tuzish yoki birinchi instantsiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar mediativ kelishuv tuzish orqali tugallashga haqli. (FPKning 44-moddasi).

Sud da'vogarning da'vodan voz kechishini, javobgarning da'voga iqrorligini basharti, bu harakatlar qonunga xilof bo'lsa yoki kimning bo'lmasin huquqini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzsa, qabul qilmaydi va taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlamaydi. Shuningdek, agar da'vodan voz kechish, da'voga iqror bo'lish, kelishuv bitimi taraflarning erkiga, qonunga, davlat manfaatlariga xilof bo'lsa, taraflardan birining yoki boshqa shaxslarning manfaatlariga zarar keltiradigan bo'lsa, sud ish yuzasidan to'plangan dalillarni tekshirishni davom ettiradi va mazkur ishning holatlariga muvofiq tarzda qaror chiqaradi.

Fuqarolik protsessida taraflar teng protsessual huquqlardan foydalanadilar. Taraflar o'zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan vijdonan, insofli ravishda foydalanishga majburlar. Jarayonni cho'zish yoki buzish maqsadida har qanday g'ayriqonuniy harakatlar qilinishiga sud yo'l qo'ymaydi.

Taraflarning protsessual huquqlari ularning protsessual majburiyatları bilan bog'liq. Taraflar protsessual majburiyatlarını sidqidildan bajarishlari lozim. Har bir taraf o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlashi shart (FPKning 71-moddasi).

Taraflar ish yuritilayotgan vaqtida familiyasini, ismini, otasining ismini o'zgartirganligi, manzili o'zgarganligi haqida sudga xabar qilishi shart (FPKning 163-moddasi), ular qonunda nazarda tutilgan sud xarajatlari va qonunda nazarda tutilgan boshqa bir qator majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Protsessual huquqlardan noto'g'ri foydalanish yoki protsessual majburiyatlarni bajarmaslik taraflar uchun salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi (masalan, da'vo arizasining qaytarilishi, arizaning ko'rmasdan qoldirilishi, ishning keyinga qoldirilishi, ishni sirtdan ko'rib chiqilishi va hokazo).

Qonunda nazarda tutilgan holatlarda protsessual majburiyatlarni bajarmaganligi uchun aybdor taraf javobgarlikka tortilishi, masalan, sud aliman undirish

to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha javobgarning sudga kelishini shart deb topishi mumkin. Agar bunday holda javobgar sud majlisiga sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra kelmasa, u majburiy tartibda keltiriladi va FPKning 146-moddasida nazarda tutilgan tartibda jarimaga tortiladi (FPKning 186-moddasi). Undan tashqari, sud insofsizlik bilan asossiz talablarni qo‘ygan yoki arz qilingan talablarga qarshi nizolashgan yoxud ishning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi va hal etilishiga muntazam qarshilik qilib kelgan taraf zimmasiga amalda yo‘qotilgan vaqt uchun ikkinchi taraf foydasiga haq to‘lash majburiyatini yuklashi mumkin. Undiriladigan haq sud tomonidan oqilona miqdorda belgilanadi (FPKning 137-moddasi).

### **3.4. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va ularning turlari**

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar sudda o‘zining huquqi yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilishni so‘rab murojaat qilgan shaxsning, prokurorning hamda agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo‘lsalar, ularning bergen arizalari bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar natijasida yuzaga keladi. Protsessda yana shunday shaxslar ham borki, ular boshqa shaxslar tomonidan boshlangan jarayonga kirib keladilar va fuqarolik huquqiy nizolarning hal etilishidan taraflar kabi manfaatdor bo‘ladilar. Da‘vogar va javobgarga nisbatan ushbu shaxslar (hisob bo‘yicha) uchinchi shaxslar deb e’tirof etiladi va shuning uchun ham ushbu shaxslar fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deb nomlanadi.

FPKning 39-moddasiga muvofiq, uchinchi shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibiga kiradi. Uchinchi shaxslar fuqarolik protsessida taraflarga tenglashtiriladi.

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar

ishning hal etilishidan qanday mazmunda manfaatdor ekanliklari hamda ish yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarori bilan qanday oqibatlar yuzaga kelishiga qarab, quyidagi ikki turga ajratiladi:

**nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;**

**nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.**

FPKning 48-moddasiga asosan nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin. Ular da'vogarning hamma huquqlaridan foydalanadilar va uning hamma majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar. Xususan, uchinchi shaxs-lar o'z arzida bayon qilingan talablarning asosini yoki predmetini o'zgartirishga, da'vo talablarining miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga, ulardan butunlay yoki qisman voz kechishga haqli. Undan tashqari, protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlashga haqidirlar. Mazkur shaxslarning da'vogarlardan birgina farqi mavjud bo'lib, u ham bo'lsa, protsessga kirishish vaqtida namoyon bo'ladi.

Uchinchi shaxsning nizo predmetiga o'zining mustaqil haqqi borligini bildirishi uning mustaqil da'vo bilan protsessda ishtirok qilishi uchun asos bo'ladi.

Da'vogar javobgarning boshqa shaxs bilan almashtirilishiga rozi bo'lmasa, sud bu shaxsni sherik javobgar sifatida ishga jalb etishi mumkin. Ishga daxldor bo'lмаган javobgarni almashtirish haqida sud ajrim chiqaradi. Ishga daxldor bo'lмаган javobgarni almashtirilgandan so'ng ishni ko'rish boshidan boshlanadi (FPKning 46-moddasi).

Uchinchi shaxslar da'vo taqdim etishning barcha talablariga rioya qilish lozim bo'ladi. Uchinchi shaxsning ishga kirishishi umumiy asoslarga FPKning 188 – 190-moddalariga binoan sudga ariza berish bilan qo'zg'atiladi.

Ushbu shaxslar o‘z arizasiga tegishli hujjat-larni ilova qilishi, arizani taraflarning soniga mutanosib miqdorda nusxalari bilan berishi, agar davlat bojini to‘lashdan ozod qilinmagan bo‘lsa, tegishli bojni to‘lashi lozim bo‘ladi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning ishga kirib kelishlari protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga nisbatan ham huquqiy oqibat keltirib chiqaradi. Mazkur shaxslar da‘vogarlar bilan bir xilda huquqiy maqomga ega bo‘lganliklari sababli ularning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi talab etiladi. Masalan, agar uchinchi shaxs sud majlisi boshlanganidan keyin protsessga kirishadigan bo‘lsa, ishni ko‘rish yangidan boshlanadi.

Fuqarolik protsessual kodeksida uchinchi shaxs aynan qaysi tarafga nisbatan da‘vo qo‘zg‘atishi mumkinligi nazarda tutilmagan. Uchinchi shaxs da‘voni faqat bir tarafga nisbatan yoki bir vaqtning o‘zida har ikkala tarafga nisbatan ham taqdim etishi mumkin. Sud amaliyotida uchinchi shaxslar ko‘proq da‘voni har ikkala shaxsga qaratishi va ushbu shaxslar uchinchi shaxsga nisbatan sherik javobgar holatini egallashi kabi holatlar kuzatiladi.

M. sudga nikohdan ajratish va nikoh davomida orttirilgan mulkni, shu jumladan javobgarning nomiga rasmiylashtirilgan turar joyni bo‘lish haqida N. ga nisbatan da‘vo tadqim etadi. Javobgarning onasi K. esa sudga uyga bo‘lgan mulk huquqini e’tirof etish haqida da‘vo arizasi bilan murojaat qilgan. K. o‘z da‘vo arizasida uy o‘g‘lining nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsada, biroq uning mablag‘i evaziga sotib olinganligini ko‘rsatadi. Mazkur holatda javobgarning onasi K. har ikkala tarafga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs hisoblanadi.

Uchinchi shaxslarning navbatdagi turiga oid normalar FPKning 49-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, **nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar**

**bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar**, agar ish bo‘yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadigan bo‘lsa, sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar da’vogar yoki javobgar tomonida ishga kirishishlari mumkin. Shuningdek, ular taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomasi bo‘yicha yoxud sudning tashabbusi bilan ham ishda ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, uchinchi shaxslarning mazkur turi, birinchidan, shartli ravishda taraflarning biri (da’vogar yoki javobgar) tomonida turib ishtirok etadi. Ikkinchidan, ular o‘rtasidagi huquqiy munosabat sud muhokamasining predmeti bo‘lmaydi. Uchinchidan, ish bo‘yicha chiqariladigan hal qiluv qarori uchinchi shaxslarning taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadi.

Teatr garderobidan palto yo‘qoladigan bo‘lsa, garderob xizmatchisi tomoshabinning – palto egasining teatrga nisbatan yo‘qolgan mulkining qiymatini undirish haqida sudga tadqim etgan da’vo ishida ishtirok etishdan manfaatdor hisoblanadi. Mazkur holatda garderob xizmatchisining manfaatdorligi shu bilan izohlanadiki, agar sud da’vogarning da’vosini qanoatlantiradigan bo‘lsa, teatr o‘z navbatida, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida palto egasiga to‘langan summani garderob xizmatchisidan regresss da’vo taqdim etish orqali undirib olishi mumkin.

Mazkur holatda garderob xizmatchisi (uchinchi shaxs) protsessda tomoshabinga (da’vogarga) va teatrga (javobgarga) nisbatan hech qanday talabni ilgari surgani yo‘q. Unga nisbatan ham yo‘qolgan paltoning qiymatini undirish haqida da’vo talabi bildirilishi mumkin emas. Chunki mazkur ishda taraflar o‘rtasidagi nizoning predmeti mulkni saqlash haqidagi shartnomadir va ushbu shartnomaga tomonlari teatr va

tomoshabin hisoblanadi. Biroq boshqa shaxslar tomonidan boshlangan protsessda ishtirok etish barobarida garderob xizmatchisi (uchinchi shaxs) paltoning yo‘qolishida o‘zining aybi yo‘qligini isbotlovchi dalillarni keltirish orqali o‘zining huquqlarini himoya qilishi va kelajakda unga nisbatan bo‘ladigan regresss da’voning qanoatlantirilishi rad etilishiga erishishi mumkin. Shunday qilib, ushbu turdag'i uchinchi shaxslarning manfaatdorligi nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning manfaatdorligidan farqlanadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalg qilish (kirishish)ning yuridik asoslaridan biri regress huquqining ro‘y berishi hisoblanadi. Undan tashqari, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalg qilish har doim ham uning regresss huquqi bilan bog‘liq bo‘lavermaydi. Masalan, agar bolalar ta’minoti uchun aliment undirish haqida da’vo taqdim etilgan bo‘lib, javobgar boshqa nikohdan tug‘ilgan farzandlariga aliment to‘layotganligi aniqlansa, u holda foydasiga aliment undirilayotgan manfaatdor shaxslar javobgar tomonida turib ishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxs sifatida jalg etilishi lozim. Mazkur holatda uchinchi shaxsning regress huquqi yuzaga kelmasada, biroq agar da’vo talabi qanoatlantirilgudek bo‘lsa, bu hol boshqa nikohda bo‘lgan farzandlarga to‘lanayotgan aliment miqdoriga, ya’ni uchinchi shaxsning manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarni protsessga jalg qilishni talab qiluvchi normalar ayrim qonun hujjalarda ham mustahkamlab qo‘yiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 394-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, agar uchinchi shaxs oldi-sotdi shartnomasi bajarilgunga qadar yuzaga kelgan asos bo‘yicha tovarni olib qo‘yish to‘g‘risida sotib oluvchiga da’vo qilsa, sotib oluvchi sotuvchini ishda qatnashishga jalg qilishi, sotuvchi esa bu ishda sotib oluvchi

tomonida qatnashishi shart. Undan tashqari, yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi nazarda tutilgan Fuqarolik kodeksining 989-moddasiga muvofiq yuridik shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan taqdirda uning o‘z xodimi javobgar tomonida turib ishtirok etuvchi uchinchi shaxs sifatida e’tirof etiladi.

Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar taraflarning protsessual huquqlaridan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini o‘z zimmalariga oladilar. Biroq da’vogar bildirgan talablarning asosini yoki predmetini o‘zgartirishga, qo‘sishimcha talablar taqdim etishga, da’vo talablari miqdorini oshirishga yoxud kamaytirishga, ulardan to‘liq yoki qisman voz kechishga haqli emas. Boshqacha qilib aytganda, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar FPKning 40-moddasida ko‘rsatilgan huquqlardan foydalanadilar. Nizo predmetiga mustaqil da’vo qilmaydigan uchinchi shaxslar nizoli moddiy huquqiy munosabatlar subyekti bo‘limganligi sababli ularga qarshi da’vo qilinmaydi hamda ular ham qarshi da’vo taqdim eta olmaydi.

Agar mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligi oqibatida da’vogarning huquqlari buzilganligi to‘g‘risida arz qilingan talablarni tan olsa, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishga haqli. Xuddi shunday hollarda, da’vogar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o‘rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo‘l qo‘yiladi (FPKning 49-moddasi uchinchi qismi).

### **3.5. Prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va shakllari**

Fuqarolik protsessual qonunchilik prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etishining quyidagi **uchta asosini** belgilaydi:

- 1) qonunda nazarda tutilgan hollarda;
- 2) sud ishda prokurorning ishtirok etishini zarur deb topgan hollarda;
- 3) prokurorning arizasi bilan qo‘zg‘atilgan ishlar bo‘yicha (FPKning 50-moddasi ikkinchi qismi).

Shu o‘rinda fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etish asoslarini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Prokuratura” deb nomlangan XXIV bobida mustahkamlab qo‘yilgan normalar prokurorga O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga vakolat beradi. Shuningdek, qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkinligining belgilanishi ham prokurolarning fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

**Prokurorning fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok etishi asoslari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Oila kodeksi va Bosh prokurorning 2015-yil 17-noyabrdagi “Sudlarda fuqarolik ishlari ko‘rilishida prokuror ishtirokiing samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi 124-sonli buyrug‘ida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra sudlarda quyidagi ishlar ko‘rilishida prokuror ishtiroki majburiy ekanligi belgilab qo‘yilgan:**

- sud ishda prokurorning qatnashishini zarur deb topgan hollarda;
-

- 
- prokurorning arizasi bilan qo‘zg‘atilgan ishlar;
  - saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha ishlar;
  - prokurorning huquqiy hujjatni g‘ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi bo‘yicha ishlar;
  - fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ishlar;
  - fuqaroning muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlar;
  - ota-onalik huquqidan mahrum qilish, shu huquqni tiklash yoki cheklash to‘g‘risidagi ishlar;
  - shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi ishlar;
  - farzandlikka olish va farzandlikka olishni bekor qilish to‘g‘risidagi ishlar;
  - sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga, g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlarda;
  - qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan suv fondi va zaxira yerlarini noqonuniy ravishda egallab olish bilan bog‘liq ishlarda;
  - ishga tiklash to‘g‘risidagi ishlar;
  - mulkni ro‘yxatdan chiqarish to‘g‘risidagi ishlar;
  - fuqarolarni boshqa turar joy bermasdan yashash joyidan ko‘chirish to‘g‘risidagi ishlar;
  - voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya);
  - appellatsiya, cassatsiya va nazorat instansiylarida ko‘rilayotgan ishlar;
  - Oliy sudning barcha instansiylarida ko‘rilayotgan ishlarda.
-

## **Prokuror bиринчи инстансиya судларидаги кийидаги иккi шаклда иштирок этади:**

- agar fuqaro sog 'lig 'ining holati, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, prokuror fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish;

- boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zg 'atilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish (FPKning 50-moddasi).

Ariza bergen prokuror da'vogarning barcha protsessual huquqlaridan foydalanadi va barcha protsessual majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi va sud xarajatlarini to'lash majburiyati mustasno. Prokuror bergen arizasidan butunlay yoki qisman voz kechish, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun o'zi arz qilgan talablar bo'yicha sudga tushuntirishlar berish, ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishning muhokamasi vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon etish, sud hujjati ustidan protest keltirish huquqiga ega. Agar da'vogar rozi bo'lmasa, prokuror o'zi arz qilgan talablarining asosini yoki predmetini o'zgartirishga, qo'shimcha talablar bildirishga, da'vo talablarining miqdorini ko'paytirishga yoxud kamaytirishga haqli emas.

Agar da'vogar prokuror tomonidan arz qilingan talabni qo'llab-quvvatlamasa, agar bu uchinchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qilmasa, sud da'veoni (arizani) ko'rmasdan qoldiradi. Prokurorning boshqa shaxs manfaatlarini himoya qilish uchun taqdim etган o'z da'vosidan (arizasidan) voz kechishi, ushbu shaxsni ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqidан mahrum etmaydi.

### **3.6. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishi asoslari va maqsadi**

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar quyidagi asosga ko‘ra ishtirok etadilar:

qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun sud tomonidan sud protsessida ishtirok etishga jaib qilinishi;

o‘z tashabbusi bilan protsessaga kirishishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessidagi ishtirokining asosiy shakli da’vo taqdim etish hisoblanadi. FPKning 52-moddasi tartibida fuqarolik protsessida asosan davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar ishtirok etadi.

Masalan, Oila kodeksining 11-moddasida oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo‘yicha, Oila kodeksida nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mustahkamlab qo‘yilgan. Undan tashqari, vasiylik va homiylik organlari zimmasiga belgilangan tartibda ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risida da’vo taqdim etish, sudlarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning huquqini cheklash to‘g‘risida, shuningdek ota-onalik huquqlarini tiklash to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda ishtirok etish

vazifasi yuklatiladi (Oila kodeksining 80, 82, 83-moddalari).

Qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollarda fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun da’vo taqdim etish yo‘li bilan jamoat tashkilotlari, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning vakillari va ayrim fuqarolar ham ishtirok etishlari mumkin.

Masalan, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga ko‘ra, fuqarolar yig‘ini raisining (oqsoqolining) vakolatlaridan biri sifatida davlat organlarida, shu jumladan sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolar yig‘inining manfaatlarini ifodalash bayon etiladi. Shuningdek, spiptli ichimliklap, giyohvandlik vositalapi va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishi natijasida fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘pisida yoki fuqaponi puiyi holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqida sudga ariza beradi. Fuqarolik kodeksining 123-moddasida ko‘rsatilganidek, aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish ta’siri ostida yoki bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishivi tufayli tuzilgan bitim, shuningdek boshqa ba’zi g‘ayriqonuniy bitimlar faqat jabrlangan shaxsning da’vosi bo‘yichagina emas, davlat yoki jamoat tashkilotining da’vosi bo‘yicha ham qonunda ko‘rsatilgan organlarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Biron bir fuqaroning spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalarni is’temol qilishi tufayli muomala layoqatini cheklash to‘g‘risida yoki ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi

sababli muomalaga layoqatsiz deb topilishi to‘g‘risidagi fuqarolik ishi uning oila a‘zolari arizasi bo‘yicha kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlarining, davolash muassasasining arizasi bo‘yicha sudda vasiy, homiy organlarining vakillari ishtirokida ko‘rib hal etiladi.

Mualliflik huquqidan kelib chiqadigan nizolarda muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadlarida sud ishida muallif huquqlarini himoya qilish bo‘yicha respublikadagi Agentlikning vakili ishtirok etishi mumkinligi qonunda o‘z ifodasini topgan.

Fuqarolik kodeksining 1054-moddasida muallif vafot etganidan so‘ng uning shaxsiy huquqlari himoya qilinishi mualliflar huquqlarini muhofaza qiladigan tashkilotlarning da‘vosi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Ba‘zi hollarda fuqarolik ishining to‘g‘ri hal qilinishidan manfaatdor bo‘lgan jamoat tashkilotlari ham sudda qatnashishlari mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, huquqlari va ularning faoliyati kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasiga ko‘ra, kasaba uyushmalari mehnatkashlarning mehnat huquqlarini himoya qilib, da‘vo ariza bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Shu maqsadda kasaba uyushmalari huquqiy yordam xizmatlari va boshqa zarur idoralarga ega bo‘lishi mumkin. Xodimlarning vakillik organlari boshqa ishlar bilan bir qatorda mehnat nizolarini ko‘rvuchchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilishda qatnashishlari mumkin.

Mehnatga oid ishlarni sudda ko‘rishda xodimlarga ishlab chiqarishda yetkazilgan zararlarni undirish va baxtsizlik hodisasining ro‘y berishi sababları to‘g‘risida xodimlar vakillik organlarining fikr berishi (FPKning 52, 53-moddalari, MKning 259-moddasida) ko‘rsatilgan. Yakka mehnat nizolarini sudda ko‘rishda xodim manfaatini ifoda etuvchi taraf sifatida xodimlarning vakillik organi ishtirok etishi qonunda o‘z ifodasini topgan.

Mehnat nizolarini ko‘rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar qatorida

Mehnat huquqi bo'yicha inspektorlari ham e'tirof etiladilar (MKning 268-moddasi).

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishining asosiy maqsadi sog'lig'ining yomonligi, mehnatga layoqatsizligi, yoshi va boshqa sabablarga ko'ra o'zlarining huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasdan shaxslarga sud orqali himoya qilishda ko'maklashish va yordamlashishdan iboratdir. Shuningdek, davlat boshqaruvi idoralari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida xulosa berish maqsadida sud tomonidan jalg etilishi fuqarolik ishini to'g'ri hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

### **3.7. Suddagi vakillik tushunchasi, ahamiyati va asoslari**

Sudda vakillik masalasi amaldagi FPK 7-bobining 65–70-moddalarida belgilangan bo'lib, sudda vakillik fuqaroning o'z ishini vakili orqali yuritishi demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlab qo'yilgan bo'lib, o'z navbatida, fuqarolar uchun malakali yuridik yordam turli shakllarda berilishi mumkin. Aynan suddagi vakillik malakali yuridik yordam ko'rsatishning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. FPKning 65-moddasida fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishlari mumkinligi mustahkamlangan bo'lib, bu fuqaroning ishda shaxsan qatnashuvini inkor etmaydi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda vakil oldida turgan maqsadlar o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni birinchidan, vakil vakolat bergen shaxsga malakali yuridik yordam ko'rsatadi, ikkinchidan esa, sudlar tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda protsessual qonunda nazarda tutilgan vositalardangina, ya'ni

qarshi da'vo qo'zg'atish, e'tiroz bildirish, iltimosnoma bildirish kabilardan foydalanish mumkin.

**Sudda vakillik qilish** mustaqil institut hisoblanib, uni fuqarolik huquqidagi vakillikdan vakil va unga ishonch bildiruvchi shaxs o'rta sidagi munosabatlarning xarakteri va maqsadi, subyekt tarkibi, ma'lum yuridik harakatlarni bajarishga berilgan topshiriqlar, keltirib chiqaruvchi oqibatlari va asoslari bo'yicha farqlash mumkin.

**Sudda vakillik qilishning maqsadi** – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda va nizoning to'g'ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o'rtasidagi moddiy huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo'ladi.

**Sudda vakillik qilish turlari quyidagilarga ajratiladi:**

*qonuniy vakillik;*

*shartnomा bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik;*

*yuridik shaxs vakilligi;*

*ustavli vakillik;*

*kasaba uyushmalarining va boshqa jamoat tashkilotlarining vakilligi.*

**Qonuniy vakillik.** Ma'lumki, vakillikning barcha turlari vujudga kelishining umumiy asosi huquq normasidir. Bu ma'noda vakillikning barcha turlari qonuniydir. Boshqacha qilib aytganda, qonuniy vakillik qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda yuzaga keladigan vakillikdir. Ishonch bildiruvchi muomalaga layoqatsizligi yoki qisman muomalaga layoqatliligi sababli, o'z ixтиyori bo'yicha o'ziga vakil tanlay olmaydi, shuning uchun vakilni qonun belgilaydi. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan

shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari himoya qiladilar. FPKning 66-moddasiga muvofiq, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiyalar qonuniy vakillar hisoblanadi.

Suddagi vakillikning navbatdagi turi **shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillik** hisoblanib, FPKning 67-moddasida nazarda tutilgan. Shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan ishonch bildiruvchi o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha sudda ish yuritishni vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil bo‘la oladilar:

- 1) advokatlar;
- 2) nasl-nasab shajarasи bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan yoki yon shajara bo‘yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarin-doshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo‘yicha;
- 4) notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a’zolarining ishlari bo‘yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarining vakolatli vakillari;
- 6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa ishtirok-chilarning topshirig‘i bo‘yicha;
- 7) ishni ko‘rayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida qatnashishga ruxsat berilgan shaxslar.

Sudda ish yuritish bo‘yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug‘ullanishlari mumkin (FPKning 67-moddasi).

Protsess ishtirokchisi sifatida suddagi vakil sudda o‘ziga xos, maxsus protsessual huquqiy holatga ega hisoblanadi.

Suddagi vakil protsessul harakatlarni vakolat beruv-chining nomidan va uning topshirig‘iga ko‘ra amalga oshirar ekan, vakolatlar doirasi taraflar (da‘vogar, javobgar), uchinchchi shaxslar tomonidan berilgan vakolatnomada ifoda etilgan bo‘lishi kerak.

Vakilning umumiyligi vakolatlari	Vakilning maxsus vakolatları
Ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nuxxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirot etish, ishda ishtirot etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko‘rish davomida tug‘iladigan hamma masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalar, vajlariga qarshi e’tirozlar bildirish kabilarni kiritish mumkin (FPKning 40-moddasi).	Shartnoma bo‘yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talablardan butunlay yoki qisman voz kechish, ularning asosini yoki predmetini o‘zgartirish, miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish, da‘vogarning talablarini tan olish, kelishuv bitimi tuzish, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to‘g‘risidagi kelishuv yoki mediativ kelishuv tuzish, vakolatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sudning hujjati ustidan shikoyat qilish, arizalarni imzolash, ijro varaqasini undiruvga taqdim etish, undirilgan mol-mulkni yoki pullarni olish vakolati har bir alohida holda vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak(FPKning 69-moddasi).

Fuqarolik protsessual qonunchilik sudda vakillik qilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar ro‘yxatini belgilaydi. Unga ko‘ra, quyidagilar sudda vakillik qilishi mumkin emas:

- 1) voyaga yetmagan shaxslar, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;
- 2) vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar;
- 3) sudyalar, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno;

4) manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo‘lgan shaxslarga huquqiy yordam ko‘rsatayotgan yoki ilgari yordam ko‘rsatgan shaxslar;

5) sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslar (FPKning 70-moddasi).

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar deganda kimlar nazarda tutiladi?

2. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatları mavjud?

3. Odil sudlovni amalgal oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar kimlar va ularning qanday protsessual huquq va majburiyatları mavjud?

4. Fuqarolik protsessida taraflar sifatida kimlar e’tirof etiladi va ularga ta’rif bering?

5. Taraflarning qanday protsessual huquq va majburiyatları bor?

6. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar deganda kimlar tushuniladi va ularning qanday turlari mavjud?

7. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar kimlar va ularning ishga kirishish asoslari haqida gapiring?

8. Nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning qanday protsessual huquq va majburiyatları bor?

9. Prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari nimalardan iborat?

10. Prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari haqida gapiring.

11. Prokurorning fuqarolik protsessida qanday huquq va majburiyatları mavjud?

12. Fuqarolik protsessida boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning ishtirokinining ahamiyati nimada?

13. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari haqida gapiring.

14. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etishning qanday shakllari mavjud?

15. Sudda vakillik qilishning turlarini aytинг.

16. Qonuniy vakillarning sudda ishtirok etishining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

17. Sudda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillikning o‘ziga xos jihatlari haqida gapiring.

18. Suddagi vakilning vakolatlari hajmi va uni rasmiylashtirish tartibi haqida gapiring.

19. Kimlar sudda vakil bo‘la olmaydilar?

### **1-kazus**

Boliyev ish haqini undirish to‘g‘risida “Uchqun” korxonasiga nisbatan da’vo bilan sudga murojaat qilgan.

Birinchi instansiya sudi 15 yoshda bo‘lgan Boliyevning voyaga yetmaganligini asos qilib arizani qaytarish haqida ajrim chiqargan.

**Savol:** 1) Birinchi instansiya sudining ajrimi asoslimi?

2) Fuqarolik protsessual muomala layoqati haqida gapirib bering?

### **2-kazus**

Tuman prokurori Toshmatovaning manfaatlarini ko‘zlab, Toshmatovga nisbatan nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan tumanlararo sudga murojaat qilgan. Sud majlisida prokuror o‘z da’vosidan voz kechdi va sud ish yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqardi. Bundan habar topgan Toshmatova esa ish yuritishning tugatilishiga qarshi chiqib, ishni mazmunan ko‘rishni davom ettirishni talab qildi.

**Savol: 1) Prokuror o‘z da’vosidan voz kechishga haqlimi?**

**2) Prokuratorning da’vodan voz kechishi qanday oqibatlarga olib keladi?**

## **4-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR**

### **4.1. Fuqarolik protsessida isbotlash tushunchasi va predmeti**

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning muhim tarkibiy qismi qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori qabul qilish maqsadida ko‘rilayotgan ishdagi holatlar va faktlarning haqqoniyligini isbotlash masalalari hisoblanadi. Ma’lumki, sudda dalillardan faktik holatlarni belgilash maqsadida foydalaniladi. Sud bironbir fuqarolik ishini undagi mavjud holatlarni aniqlamasdan turib hal etishi mumkin emas.

Ma’lumki, dalil voqelikning haqiqiy (faktik) holatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud ishning holatini aniqlamay turib, biron bir fuqarolik ishni mazmunan hal qila olmaydi. Sud fuqarolar va tashkilotning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlarini himoya qilish kabi asosiy vazifasini to‘liq amalgalash uchun, avvalo, da’vogar talab qilayotgan da’vosida haqiqatan ham uning huquqi mayjudligini; uning aynan nimada ifodalanishini; ma’lum bir majburiyat javobgarga tegishliligi to‘g‘risidagi huquq mavjud ekanligini belgilashi, ya’ni nizolashuvchining huquqiy munosabatlarini aniqlashi kerak. Biroq huquq va majburiyat o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Ularning vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi qonunda ma’lum yuridik faktlarning mavjudligi bilan bog‘lanadi. Shu sababli, nizoli huquqiy munosabatlarni aniqlash uchun haqiqatda qanday yuridik faktlar sodir bo‘lganligini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik protsessida ish uchun muhim bo‘lgan dalillarni aniqlash borasidagi faoliyat sud orqali amalgalashiriladi va u “**dalillarni isbotlash**”, deb nomlanadi. O‘z navbatida, sud tomonidan aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar **isbotlash predmeti** deb atalsa, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni isbotlash amalgalashiriladigan vositalar **sudga oid dalillar** deyiladi.

Tortishuvchilik prinsipiga muvofiq, sud taraflarga ish bo'yicha dalillar to'plashga ko'maklashadi, agar qo'shimcha dalillar taqdim etish taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirsa, sud ularning iltimosnomasiga ko'ra dalillar to'plashda ularga yordam ko'rsatadi.

**Isbotlash** sudga oid dalillar yordamida ish holatlarini aniqlash bo'yicha faoliyat hisoblanib, taraflarning va manfaatdor shaxslarning ishga doir dalillarni to'plash, sudga taqdim etish, uni tekshirish va baholash jarayonlarida ishtirok etishi kabi protsessual harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Suddagi isbotlashning subyektlari sifatida faqat taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar e'tirof etiladi.

Sudga murojaat qilgan da'vogar o'z talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillarni taqdim etishi shart. Aynan mazkur faktlardan ish bo'yicha isbotlash predmeti yuzaga keladi.

Isbotlash predmetiga, birinchi navbatda, da'veoning asosiga qo'yilgan faktlar, ya'ni da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar mansub bo'ladi. Isbotlash predmetiga, shuningdek javobgar tomonidan da'voga qarshi bildirilgan e'tirozlarni asoslaydigan faktlar ham kiradi.

Agarda protsessga mustaqil da'vo bilan murojaat qiluvchi uchinchi shaxs kirishadigan bo'lsa yoki javobgar da'veogarga qarshi da'vo taqdim qiladigan bo'lsa, u holda isbotlash predmeti bunday da'volarning asosiga qo'yilgan faktlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 2-oktyabrdagi “Fuqarolik ishlarini ko‘rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida ham tushuntirishlar berilgan. Unga ko‘ra, ayrim faktlar isbotlash predmetiga kirmaydi va isbotlashga muhtoj emas, chunonchi, sud hammaga ma’lum deb topgan holatlar, sudning qonuniy kuchga kirgan fuqarolik ishi bo‘yicha hal qiluv qarori va jinoyat ishi bo‘yicha sudning hukmi bo‘yicha aniqlangan faktlar shular jumlasidandir. Ish uchun ahamiyatga ega bo‘lmagan dalillarni qabul qilishga, shuningdek kelib chiqqan nizo bo‘yicha isbotlash vositalari bo‘la olmaydigan ma’lumotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Har bir fuqarolik ishi bo‘yicha isbotlash predmetini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlar aniqlanmas ekan, bu ish yuzasidan asoslantirilmagan hal qiluv qarori qabul qilinishiga olib keladi.

### **4.3. Sudga oid dalillar**

Sud faoliyatida ish bo‘yicha haqiqiy holatlarning mavjud bo‘lish yoki bo‘lmasligi isbotlanadi. Sudga oid dalillar faktik ma’lumotlar hisoblanib, sudning haqiqiy bilimga asoslangan faktlari asosida shakllanadi.

Bu ma’lumotlar quyidagi yo‘llar bilan, ya’ni:

- taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari;
- guvohlarning ko‘rsatuvlari FPKning 209-moddasida belgilangan tartibda videokonferensaloqa tizimidan foydalanish orqali olinadi (FPKning 71-moddasi birinchi qismi).

Anonim xatlarda va kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan yoki qonunni buzgan holda olingan boshqa ma’lumotlar dalil bo‘la olmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, FPKning 71-

moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan dalillarning ro‘yxati tugal hisoblanadi.

FPKning 73-moddasida berilgan qoidaga ko‘ra, sud faqat ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarnigina ko‘rish uchun qabul qiladi.

*Sudga oid dalillar, birinchidan, faktik ma’lumotlar hisoblanib, o‘z mazmuniga, ikkinchidan, protsessual shaklga, uchinchidan, isbotlash vositalarini olish va tekshirishning ma’lum protsessual tartibiga ega bo‘ladi. Mazkur belgilar sudga oid dalillarning haqiqiy tabiatini ochib beradi.*

Dalilning yuqoridagi belgilardan birortasining mavjud bo‘lmasligi dalilning bir butunligini istisno qiladi. Protsessual shaklga ega bo‘lмаган dalil esa dalil bo‘la olmaydi.

#### **4.4. Isbotlashdan ozod qilish asoslari**

**Isbotlashdan ozod qilinadigan holatlar fuqarolik protsessual huquqida ikkita asosga:** hammaga ma’lum deb topilgan holatlarga va preyuditsial (avvaldan aniqlangan faktlar, lotincha «prayejudicium» dastlabki hal qiluv qarori) asoslarga bo‘linadi.

FPKning 75-moddasiga ko‘ra, **sud hammaga ma’lum deb topgan holatlar isbotlashga muhtoj emas**. Darhaqiqat, hammaga ma’lum bo‘lgan, shu jumladan sudyalarga ham ma’lum bo‘lgan shunday faktlar borki, ularning bo‘lgan-bo‘lмаганligini isbotlash mutlaqo talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Fuqarolik ishlarini ko‘rishda sudlar tomonidan dalillarga oid qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 4-bandida shunday tushuntirish beriladi: hammaga ma’lum bo‘lgan fakt deganda, taraflarga, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar va sudyalarning o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni tushunish lozim. Bunday fakt hammaga ma’lum

bo‘lganligi sababli, uni isbotlash shart emas, biroq taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni tegishli faktlarni isbotlashdan ozod etish uchun, sud uni hammaga ma’lum holat deb e’tirof etishi lozim. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, faktning hammaga ma’lumligi to‘g‘risida asoslangan xulosa har qanday sud instansiysi tashabbusiga ko‘ra sud jarayonining har qanday bosqichida yoki o‘z talab va e’tirozlarini isbotlash maqsadida ushbu faktga murojaat qilgan shaxsning iltimosiga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

Shunday qilib, hammaga ma’lum faktlar isbotlashga muxtoj emasligi bois, faktlarni hammaga ma’lum faktlar deb topish to‘g‘risidagi vakolat sudlarga taqdim etilgan.

#### **4.5. Isbotlash vositalariga yo‘l qo‘yilishi**

Fuqarolik protsessual qonun normalari bilan belgilangan isbotlash qoidalariga muvofiq, sud muayyan fuqarolik ishlari bo‘yicha dalillar aloqadorligi va yo‘l qo‘yilgan isbotlash vositalaridan kelib chiqishi lozim bo‘ladi. Sud faqat ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan dalillarnigina ko‘rishga qabul qiladi (FPKning 73-moddasi).

Dalillarning daxldorlik qoidasi sudga ishga daxldor bo‘lgan barcha faktlar va holatlarni aniqlash va tekshirish majburiyatini yuklaydi. Dalillar daxldorligi sud tomonidan ko‘rilayotgan ishdagi mavjud materiallarni tahlil qilish asosida sudyaning ishonchiga ko‘ra aniqlanadi.

Dalillarning aloqadorligi nuqtai nazaridan, fotosuratlar ishda ishtirok etuvchi shaxslarning talab va e’tirozlarini asoslovchi holatlarni tasvirlagandagina dalil bo‘lishi mumkin. Guvohlarning ko‘rsatuvlari, shuningdek ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim qilinayotgan yozma va ashyoviy dalillar ish uchun ahamiyatga ega bo‘lishini nazarda tutib, sud barcha holatlarda ularga ushbu dalillar va guvohlar

ko'rsatmasi aynan qaysi holatlarni tasdiqlashi mumkinligini ko'rsatishni taklif qilishi lozim.

Ish uchun ahamiyatga ega bo'limgan dalillarni qabul qilishga, shuningdek kelib chiqqan nizo bo'yicha isbotlash vositalari bo'la olmaydigan ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Har bir dalilning ishga tegishliliqi sud tomonidan belgilanadi. Sud o'zi ish holati to'g'risidagi ma'lumotni qaysi dalil isbotlash vositasi hisoblanishi, qaysi dalil isbotlash vositasi hisoblanmasligini hal qiladi. Isbotlash vositalariga yo'l qo'yilishi qoidasi ishga tegishli bo'limgan materialni protsessdan chetlatishga imkon beradi. Yo'l qo'yish qoidasi protsessni dalilning kerakli turlari bilan ta'minlashga imkon beradi.

Isbotlash vositalariga yo'l qo'yilishi to'g'risida FPKning 74-moddasida ko'rsatma beriladi. Bunda qonun bo'yicha muayyan isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi shart bo'lgan ishning holatlar boshqa hech qanday isbotlash vositalar bilan tasdiqlanishi mumkin emasligi tushuniladi.

Masalan, uy-joyning olingen, sotilgan bo'lishi Fuqarolik kodeksining 112 va 488-moddalariga muvofiq, notarial tartibda guvohlantirilgan va tegishli davlat ro'yxatidan o'tkazilgan shartnomaga bilangina tasdiqlanishi mumkin. Eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq summaga tuziladigan qarz shartnomasi oddiy yozma formada tuzilishi lozim. Aks holda shartnomani tuzilganligini (arz berilganligini) yoki shartnomaning ijro etilganligini (qarzning to'langanligini) guvohlarning ko'rsatmalarini bilan isbotlab bo'lmaydi. Ammo jinoiy jazoga tortiladigan xatti-harakatlar ro'y bergenida, chunonchi, qarz olgan shaxs birovlarining ishonchidan foydalanib, bir necha fuqaroning haqiga xiyonat qilsa (olgan qarzini tan olmasa), ya'ni firibgarlik qilsa, umumiyligida (FKning 733-moddasidan) mustasno tariqasida da'vo guvohlarning ko'rsatmalarini bilan isbotlanishi mumkin (FKning 737-moddasi).

#### **4.6. Taraflar o'rtasida isbotlash burchini taqsimlash**

Isbotlash majburiyatining taqsimlanishi to‘g‘risidagi FPKning

72-moddasiga binoan, har bir taraf o‘zining talab va e’tirozlarini asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlashi shart.

Ta’kidlash kerakki, qonun normasida belgilangan umumiy qoida, ya’ni har bir taraf o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlashi shartligi faqat fuqarolik protsessidagina mavjud bo‘lmay, balki protsessual huquqning boshqa sohalariga ham taalluqli bo‘ladi.

Ma’lumki, isbotlash majburiyatining taqsimlanishiga doir umumiy qoidalar protsessual qonunlarda, maxsus qoidalar esa moddiy huquq normalari asosida belgilanadi.

Taraflarning huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan moddiy huquq normalari umumiy qoidadan farqli ravishda o‘z talab va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatgan holatlarni isbotlash majburiyatini uning mavjudligini ta’kidlayotgan shaxsga emas, balki qarama-qarshi tomon zimmasiga yuklaydi.


Taraflar o‘rtasida isbotlash majburiyati taqsimlanishi ning maxsus qoidalari ichida nisbatan keng tarqalgan turi dalillar prezumpsiysi, ya’ni muayyan faktning mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligini uning aksi isbotlanmagunga qadar taxmin qilishdir. Mazkur qoida mehnatga oid nizoli ishlarda ko‘p uchraydi. Masalan, xodimga mehnatda mayib bo‘lganligi natijasida zarar yetkazilsa, xodim zarar uchun javobgar bo‘ladigan shaxs harakatida ayb bo‘lish-bo‘lmasligini isbotlashdan ozod etiladi. Ushbu holatda zarar yetkazilishida aybi yo‘qligini ikkinchi taraf (ish beruvchi) isbotlab berishi kerak. To ish beruvchi buni isbotlamagunicha u zarar yetkazishda aybli deb faraz qilinadi. Masalan, MKning 189-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, mehnatda mayib bo‘lish oqibatida yoki o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli xodimga yetkazilgan zararni ish beruvchi, basharti zarar uning aybi bilan kelib chiqmaganligini isbotlab berolmasa, to‘lashi shartligi belgilab qo‘yil-

gan. Shuningdek, o‘z mehnat vazifalarini bajarayotgan vaqtida yuqori xavf manbai natijasida xodimning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni ish beruvchi, basharti zarar uni bartaraf qilish mumkin bo‘lmagan kuchlar tufayli yoki jabrlanuvchi qasddan qilganligi oqibatida kelib chiqqanligini isbotlab berolmasa, to‘lashi shart.

#### **4.7. Dalillarning tasnifi**

Dalillar haqida chuqur bilimga ega bo‘lish maqsadida ular tasniflanadi (klassifikatsiyalanadi).

Fuqarolik protsessual huquq nazariyasida dalillarning ikkita umum e’tirof etilgan tasnifi mavjud:



Dalilni dastlabki va hosila turlariga bo‘lish shu va boshqa dalillarning shakllanish jarayoniga asoslangan. Dastlabki dalil bevosita birinchi manbadan olingan dalil bo‘ladi. Dastlabki dalil o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan guvohning ko‘rsatmasi bo‘ladi, boshqa shaxsdan faktlar to‘g‘risida bilib olgan guvohning ko‘rsatmasi hosila dalil bo‘ladi. Hujjatning asl nusxasi (masalan, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma) – dastlabki dalil; undan olingan nusxa – hosila. Hodisa joyida qolgan izlar yoki qandaydir predmetda qolgan izlar dastlabki dalil; izlardan olingan nusxa, qayta ishlangan barmoq izlari plenkalari – hosila dalil hisoblanadi.

Hosila dalillar dastlabki dalilning mazmunini aks ettiradi, ular ko‘pincha, dastlabki dalilga ko‘ra chalkashroq, yanglishroq bo‘la-di. Shuning uchun sud bevositalik

prinsipiqa muvofiq, dastlabki manba bo'yicha ish holatini tekshirishi kerak, hosila dalillarni esa dastlabki manbani topish uchun qo'llash kerak.

Dalilning to'g'ri va egriga bo'linishi dalilning noma'lum fakt to'g'risida bitta ma'lum xulosani berish imkoniyatiga – uning borligi yoki yo'qligi yoki tasodifiy xulosaning bir nechta ligiga asoslangan. Hattoki alohida olingan, to'g'ri dalil deb, noma'lum fakt bo'yicha bitta ma'lum xulosani olishga imkon beradigan faktga aytildi.

Alohida olingan egri dalil noma'lum faktga nisbatan bir nechta fikrlar, taxmin qilingan xulosalarga asos bo'ladi. Shuning uchun bitta egri dalil noma'lum fakt bo'yicha xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Agar egri dalil alohida emas, boshqa ish bo'yicha boshqa dalillar bilan olinsa, unda ularni taqqoslab turib, asoslanmagan fikrlarni chiqarib yuborish kerak va bitta xulosaga kelish kerak.

Masalan, javobgar da'vogardan qarzga pul so'rayotgan xatning sudga taqdim etilishi, taraflar o'rtasidagi qarz shartnomasining kelishuvni egri hisoblanadi. U albatta, javobgar so'ragan pulni da'vogar bergen taxminni beradi, biroq boshqa taxmin ham bundan mustasno emas – ya'ni, ushbu xatga rad javobi berish. Agar javobgar olgan pulni belgilangan muddat ichida topshira olmasligini va da'vogarni kelib turishini so'rasa, endi bu egri hisoblanmaydi, balki qarz shartnomasi bo'yicha to'g'ri dalil bo'ladi, chunki boshqa hech qanday fikrlar (taxminlar) uchun asos qolmaydi.

Egri dalillar fuqarolik ishi bo'yicha to'g'ri dalillar yo'q bo'lganda ishlataliladi. Ayniqsa, to'g'ri dalillar yolg'on ma'lumotlarga ega bo'lgan kategoriyadagi ishlarda ko'pincha egri dalillarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Mulkni hisobga olishdan ozod qilish to'g'risidagi ishlarda mulkning xaqiqatan tegishli ekanligini aniqlash uchun ko'pincha egri dalillarga murojjat qilishga to'g'ri keladi.


Egri dalillardan foydalanish to'g'ri dalillarga qaraganda qiyinroq. To'g'ri dalilga nisbatan sudning asosiy vazifasi ularning xaqiqiyligini aniqlash; agar xaqiqiyligi aniqlansa, unda to'g'ri dalildan keyinchalik foydalanish qiyinchilik

to‘g‘dirmaydi, chunki noma’lum faktlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlanadi va rad etiladi. Egri dalilning haqiqiyligini tekshirib bo‘lgandan keyin, barcha fikrlarni, taxmin qilingan barcha takliflarni tekshirish vazifasi paydo bo‘ladi. Buning uchun vaziyatning holatini tiklovchi barcha faktlarni bir tizimga solish uchun yoki egri dalilning chigal zanjirini yechish uchun egri dalilli ish bo‘yicha barcha dalillarning majmuasi va holatlarini tekshirish kerak. Bu suddan barcha ish materiallarini sinchiklab tekshirishni talab qiladi.

Odatda, olingan manbasi bo‘yicha dalillar ikki turga bo‘linadi – shaxsiy va ashyoviy.

Shaxsiy dalillarga taraflar va uchinchi shaxslarning tilxati, guvohlarning ko‘rsatmasi, ekspertlarning xulosasi; ashyoviy dalillarga: turli shakldagi buyumlar kiradi.

Yozma dalilga kelsak, ayrim mualliflar ularni shaxsiy dalilga kiritadi, chunki ular inson tomonidan tuziladi. Boshqalar esa, hujjatlar keng ma’noda buyumlar, moddiy dunyoning obyekti hisoblanar ekan, demak ularni ashyoviy dalillarga kiritish mumkin.



#### **4.8. Isbotlash vositalari va ularning turlari**

Sudda nizoli fuqarolik da’vosi qo‘zg‘atilganida, avvalo taraflardan isbot keltirish, ya’ni da’vo talabining asosli bo‘lishi yoinki uning asossizligini isbotlash talab qilinadi.

Isbotlash vositalariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida quyidagicha tushuntirish beriladi: isbotlash vositalari deganda, fuqarolik protsessual qonun normalarida ko‘zda tutilgan ishni hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlar tushuniladi.<sup>7</sup>

FPKning 71-moddasi isbotlash vositalarining quyidagi beshta turi mayjudligini ko‘rsatadi:



Ish bo‘yicha hal qiluv qarorini chiqarishda sud tomonidan tekshirilmagan ma’lumotlarga tayanish mumkin emas, balki faqat qonunda belgilangan manbalardan isbotlash vositasi sifatida foydalanilishi lozim.

*Taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari deganda, Fuqarolik protsessual kodeksi mazmunidan kelib chiqqan holda, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sudga xabar qilishi nazarda tutiladi.*

Isbotlash predmetlarining faktlari va fuqarolik ishini to‘g‘ri hal qilishda ahamiyatli bo‘lgan boshqa faktlar da‘vogar, javobgar, shuningdek da‘vo predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi yoki arz qilmaydigan uchinchi shaxslarning va ularning qonu-niy vakillari bergen

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 2 октябрдаги “Фуқаролик ишларини кўришда судлар томонидан далилларга оид конун нормаларини кўллашнинг айрим масалалари тўғрисида” ги карори 19-банди.

tushuntirishlar asosida aniqlanishi mumkin.

Qonun ish holatlarini aniqlashda yordam beradigan isbotlash vositalari ichida taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari birinchi navbatga qo'yadi. Ular boshqa dalillar bilan uyg'unlikda tekshirilishi, o'rganilishi va baholanishi zarur. Tushuntirishlar og'zaki yoki yozma tarzda berilishi mumkin. Taraflarning ish bo'yicha tushuntirish berish huquqi qonun bo'yicha kafolatlanadi va himoyalanadi. Masalan, agar ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lган, ammo sud majlisining vaqtি va joyi to'g'risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo'qligida ko'rilgan bo'lsa chiqarilgan sud qarori appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida bekor qilinishiga asos bo'ladi (FPKning 377-moddasi).

Taraflarning tushuntirishlari yozma va og'zaki bo'lishi mumkin. Da'vogarning ishning holati to'g'risidagi da'vosi da'vo arizasida aks etadi. Qonunga ko'ra da'vogar o'zining talablarini asoslab berishi va da'vo arizasida asoslangan holatni ko'rsatib berishi kerak. Bu faktlar to'g'risidagi birinchi ma'lumot. Agar javobgar yozma e'tirozni da'voga qarshi bersa, unda ham ma'lum faktlarga ko'ra tushuntirishlar berilishi kerak. Sud majlisida taraflarning tushuntirishi og'zaki beriladi. Sud ularni ma'ruzadan keyin darhol eshitadi. Agar yozma tushuntirishlar bo'lsa, sud ularni o'qib eshittiradi.

**Guvohlarning ko'rsatuvlari.** Ishga doir biror holatdan xabardor bo'lган har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Fuqarolik protsessida guvoh sifatida ishtirok etish uchun qonun bir qator talablarni ilgari suradi: guvoh bo‘ladigan fuqaro ro‘y bergen hodisalarni o‘zlashtirishga, yodida saqlashga va so‘ngra ular to‘g‘risida ma’lumotlar berishga qobiliyatli bo‘lishi kerak. Biron bir faktni, ish holatini to‘g‘ri qabul qilish, yodda saqlash va bu to‘g‘rida sudda to‘g‘ri ma’lumotlar berish uchun guvohning sezgi organlari normal bo‘lishi kerak. Ammo bu organlardan birida nuqson bo‘lishi, hodisani o‘zlashtirishga yaroqsiz bo‘lishi, uning boshqa sezgi organlari bilan qabul qilingan faktlar to‘g‘risida ma’lumot berishga to‘sinqilik qilmaydi. Masalan, ko‘zi ojiz fuqaro qulog‘i bilan eshitganlari to‘g‘risida guvohlik berishi mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksida guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslar ro‘yxati ko‘rsatilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kirdi:

1) *vakil yoki himoyachi vazifalarini bajarishlari munosabati bilan o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida fuqarolik ishlari bo‘yicha vakillar yoki jinoyat ishlari bo‘yicha himoyachilar;*


2) *jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari sababli faktlarni to‘g‘ri idrok qilishga yoki ular haqida to‘g‘ri ko‘rsatuvin berishga layoqatsiz shaxslar (FPKning 56-moddasasi).*

Guvoh chaqirish haqida iltimosnama taqdim etuvchi shaxs guvohning ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qanday holatlarni tasdiqlay olishini ko‘rsatishi, ismi, otasining ismi va familiyasini hamda yashash yoki ishslash joyini sudga ma’lum qilishi shart.


Agar guvoh sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud chaqiruviga binoan kelmasa, ko‘rsatuvarlar berishdan bo‘yin tovlasa, u FPKning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin. Bila turib yolg‘on ko‘rsatuvarlar bergenlik uchun guvoh O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

**Yozma dalillar** sifatida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon etilgan hujjatlar, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalar ya’ni, rasmiy yoki

shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan xatlar e’tirof etiladi.



Yozma dalillarni taqdim etuvchi shaxs, birinchidan, ushbu dalil yordamida ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan qanday holatlarni aniqlash mumkin ekanligini ko‘rsatishi, talab qilib olish haqida iltimosnomasi taqdim etilganda esa bu qanday dalil ekanligini, ikkinchidan yozma dalil muayyan shaxsda deb hisoblashi uchun qanday asosi borligini ko‘rsatishi shart (FPKning 85-moddasi).



**Ashyoviy dalillar** deb, o‘zining tashqi ko‘rinishi va boshqa xususiyatlari qarab, ishni to‘g‘ri hal etish uchun

ahamiyatli bo‘lgan faktlarning mavjudligini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi narsalarga aytildi.

Fuqarolik protsessida, qoida bo‘yicha, ashyoviy dalillar sifatida nizoning predmeti hisoblangan ashyolar yuzaga chiqadi va tabiiyki, sud ashyoning nusxasini emas, bevosita o‘zini (asl ashyoni) tekshiradi. Agar mulkdorga bu ashyo tarixiy, madaniy va boshqa qiymatga ega bo‘lgani va uni saqlash yuzasidan ogohlantirishdan keyin da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, ashyoviy dalil sifatida, masalan, tarix va madaniyat yodgorligi hisoblanishi mumkin (FKning 190-moddasi).

Agar ashyoviy dalillarni talab qilish haqidagi iltimosnama ishni tayyorlash bosqichida kelib tushgan bo‘lsa, u holda bu masala sudya tomonidan yakka tartibda hal etiladi. Sud tomonidan fuqarolar va tashkilotlardan talab qilinayotgan ashyoviy dalillar bevosita sudga yuboriladi. Sud ashyoviy dalillarni talab qilub olish haqida iltimosnama taqdim etgan shaxsga ushbu dalilni sudga taqdim etish uchun olish huquqiga doir so‘rov berishi mumkin (FPKning 91-moddasi).

**Ekspertning xulosasi.** Haqiqatni aniqlash zaruriyati yuzaga kelsa, ular faqatgina maxsus bilimga ega bo‘lgan ekspert (ekspertlar) xulosasi bilangina tasdiqlanishi mumkin. Ekspertlar faqat sud (sudya) ajrimiga asosan tayinlanadilar. Ekspert (ekspertlar) xulosasi ko‘rilayotgan ish bo‘yicha asosiy dalillar qatoriga kiradi.

*Sud ekspertizasi deganda, fuqarolik sud ishlarini yuritishda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlar asosida tekshirishlar o‘tkazishdan va xulosa berishdan iborat protsessual faoliyat tushuniladi.*

Ekspert xulosalarining xolisligi uning ishni qanday hal qilinishidan manfaatdor emasligi, taraflarning birortasiga qarindoshlik munosabatlari emasligi bilan ta’milnadi. Ushbu talablar buzilishi ekspertga nisbatan rad etish to‘g‘risida arz berish uchun asos bo‘ladi. Xususan, FPKning 22-moddasiga ko‘ra, quyidagi hollarda ekspertning ishda ishtirok etishi mumkin bo‘lmaydi va u rad qilinadi:

- agar ekspert ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa yoxud uning xolisligi va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa;
- agar ekspert taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo‘lsa;
- agar ekspert taraflar yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda qaram bo‘lsa;
- ekspert taftish o‘tkazgan yoxud xulosa ham bergen bo‘lib, ularning materiallari mazkur ishni qo‘zg‘atishga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa.

O‘z vazifalarini bajarish jarayonida ekspert bir qator zarur protsessual huquqlarga ega bo‘ladi.

Agar ekspert sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud chaqiruviga binoan kelmasa, ko‘rsatuvalr berishdan bo‘yin tovlasa, u FPKning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortilishi mumkin. Bila turib yolg‘on xulosa bergenlik uchun guvoh O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Fuqarolik protsessi bo‘yicha tayinlangan ekspert xulosalari ikki shaklda: og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘ladi. Ekspert xulosalarining og‘zaki yoki yozma shakllari bir-birini mazmunan to‘ldiradi. Amaldagi qonunlar asosida ekspert o‘z xulosalarini faqat yozma shaklda topshiradi. O‘tkazilgan ekspertiza xulosalarida bajarilgan tadqiqot, mazmuni, bajarilgan tekshiruv natijasida vujudga kelgan xulosalar va sud tomonidan qo‘yilgan savollarga berilgan asosli javoblar ko‘rsatilishi va ekspert sud majlisida o‘z xulosalarining mazmunini sud hay‘atiga tushuntirib, og‘zaki xulosalar berishi ham mumkin. Ekspert xulosalarida vujudga kelgan haqiqatning qonuniy ekanligi hisobga olinadi. Chunki bu xulosalar fantexnika va ekspertni o‘z sohasining mutaxassisini ekanligiga tayanib, bajarilgan ekspertiza xulosasi ishdagi boshqa dalillar bilan uzviy bog‘liq ekspert xulosalari natijalari ish bo‘yicha dalillarning boshlang‘ich dalili hisoblanadi.

#### **4.9. Dalillarni ta'minlash**

Sud amaliyotida manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyatga egadir. Dalillarni ta'minlash bilan ish ko'rish tezlashadi, shu boradagi ayrim to'siqlar bartaraf etiladi. FPKning 76-moddasida ko'rsatilganidek, o'zлari uchun zarur bo'lган dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki kiyinlashadi deyishga asos bo'lган shaxslar ariza berishdan oldin ham yoki keyin ham suddan bu dalillarni ta'minlashni iltimos qilishlari mumkin. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudgacha bo'lган jarayonda notarial tartibda dalillarni ta'minlash choralarini ko'rishga haqli.

Qonunga muvofiq taraflar, chunonchi, biron-bir guvohning boshqa joyga ketib qolishini nazarda tutib, undan so'roq olib qolinishini, biron-bir hujjatning yo'qotilishi to'g'risida xavotirlanish bo'lganida, uning asli yoki tasdiqlangan ko'chirmasi olinishini va shu kabi boshqa dalillarning sud majlisiga qadar saqlanishini ta'minlash to'g'risida iltimos qilishlari mumkin.

*Dalillarni ta'minlash deganda, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qolishi yoki qiyinlashishining oldini olish maqsadida dalillarni toplash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan amalgalashiriladigan taraflarning, uchinchi shaxslarning tushuntirishlari eshitish, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza tayinlash, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib olish yoki ko'zdan kechirish, joyga borib ko'zdan kechirishga qaratilgan protsessual harakatlarga aytildi.*

Ariza dalillarni ta'minlash uchun protsessual harakatlar qilinishi lozim bo'lган joydagi sudga topshiriladi. Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi ariza dalillarni ta'minlash bilan bog'liq protsessual harakatlar amalgalashirilishi kerak bo'lган hududda faoliyat olib borayotgan sudga beriladi (FPKning 77-moddasi).

Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi arizada yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, ish uchun ahamiyatli bo'lган boshqa ma'lumotlar ham ko'rishi mumkin. Dalillarni

ta'minlash tartibi FPKning 78-moddasida belgilangan. Dalillarni ta'minlash ushbu Kodeksda belgilangan dalillarni toplash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan amalga oshiriladi. Arizachi va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga dalillarni ta'minlash vaqt va joyi haqida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Kechiktirish, shuningdek arizachi bilan kimning o'rtasida nizo kelib chiqishini aniqlash mumkin bo'lмаган hollarda, dalillarni ta'minlash faqat arizachining o'zini xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Dalillarni ta'minlash tartibida taraflarning, uchinchi shaxslar-ning tushuntirishlari eshitiladi, guvohlar so'roq qilinadi, eksper-tiza tayinlanadi, yozma va ashyoviy dalillar talab qilib olinadi yoki ko'zdan kechiriladi, joyga borib ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Dalillarni ta'minlash tartibida toplashgan barcha materiallar ishni ko'rib chiqayotgan sudga yuboriladi yoki arizachiga beriladi.

FPKning 77-moddasida dalillarni ta'minlash to'g'risidagi arizaning suda tomonidan ko'rishi va to'plangan materiallarning ishni ko'radigan sudga yuborilishi muddati ko'rsatilmagan. Bunday hollarda sudning protsessual harakatlari mazmuni va natijalari jihatidan sud topshiriqlarini bajarish harakatlariga o'xshash bo'lганligi tufayli analogiya bo'yicha FPKning 103-moddasida ko'rsatilgan o'n besh kunlik muddatda bajarilishi kerak. Bu to'g'rida tuzilgan bayonotlar esa – tuzilgan zamon darhol yuborilishi lozim. Dalillarni ta'minlash to'g'risida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berish mumkin emas. Dalillarni ta'minlashni rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 79-moddasi).

#### **4.10. Sud topshiriqlari**

FPKning 103-moddasiga ko'ra, ishni ko'rayotgan sud dalillarni boshqa tumanda yoki shaharda toplash zarur

bo‘lgan taqdirda, tegishli sudga muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirishni topshiradi. Sud topshirig‘i ajrim bilan rasmiylashtiriladi va unda ko‘rilayotgan ishning mazmuni, aniqlanishi zarur bo‘lgan holatlar, topshiriqni bajaruvchi sud to‘plashi lozim bo‘lgan dalillar ko‘rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yozilgan bo‘lsa, shu sud uchun majburiydir va o‘n besh kunlik muddat ichida bajarilishi kerak.

Sud topshirig‘i axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Sud topshirig‘ini bajarish tartibi FPKning 104-moddasida belgilangan. Sud topshirig‘ini bajarish ushbu Kodeksda belgilangan qoidalarga ko‘ra sud majlisida amalga oshiriladi. Ishda ishtirok etayotgan shaxslar majlisning vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi, biroq ularning kelmaganligi topshiriqni bajarishga to‘sinqinlik qilmaydi. Topshiriqni bajarish vaqtida tuzilgan bayonnomalar va to‘plangan materiallar ishni ko‘rib chiqayotgan sudga darhol yuboriladi. Agar sud topshirig‘ini bajarayotgan sudga tushuntirishlar yoki ko‘rsatuylar bergen ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki guvohlar ishni ko‘rib chiqayotgan sudga kelsa, ular umumiylar tartibda tushuntirishlar yoxud ko‘rsatuylar beradi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Fuqarolik protsessida isbotlash deganda nimani tushunasiz?
2. Isbotlash predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. Sudga oid dalillarga ta’rif bering.
4. Dalillarning qanday belgilari mavjud?
5. Isbotlashdan ozod qilishning qanday asoslari mavjud?
6. Dalillarning aloqadorligi deganda nimani tushunasiz?
7. Isbotlash vositalariga yo‘l qo‘yilishi qoidasini tushuntirib bering.
8. Taraflar o‘rtasida isbotlash burchi qanday taqsimlanadi?
9. Dalillarni tasniflang.
10. Isbotlash vositalari qanday turlarga ajratiladi?
11. Taraflar va uchinchi shaxslar hamda ularning qonuniy vakillarining tushuntirishlari haqida gapiring.
12. Yozma dalillar deganda nimani tushunasiz va ularning qanday turlari mavjud?
13. Ashyoviy dalillar haqida gapiring.
14. Sud ekspertizasiga ta’rif bering.
15. Dalillarni ta’minlashning qanday asoslari mavjud?
16. Sud topshiriqlari deganda nimani tushunasiz?

### **1-kazus**

**Y.** moddiy va ma’naviy zararni undirish haqida **B.** ga nisbatan da’vo bilan sudga murojaat qilgan.

Sud **Y.**ning da’vosini qisman qanoatlantirib, uning foydasiga **B.** dan 1.500.000 so‘m moddiy va 10.000.000 so‘m ma’naviy zarar undirgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 2018-yil 21- iyunda sud qarorlarini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rish uchun yubordi.

**Savol: 1) Sudning ma'naviy zarar summasini belgilashda nimalarga e'tibor berishi talab etiladi?**

**2) Ma'naviy zararni undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha isbotlash va dalillar sifatida nimalar e’tirof etiladi?**

## **2-kazus**

Tuman sudiga V. va S. lar otalari V. ni muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganlar.

Sud arizachilarning og‘zaki ko‘rsatmalari asosida V.ni ambulatoriya tartibida sud ruxiy ekspertizasini o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqargan va ushbu ajrimda ekspertlar oldiga «ruxiy kasalligi tufayli V. o‘z harakatlarining ahamiyatiga tushunadimi va ularni boshqara oladimi?” degan savol qo‘ygan.

**Savol: 1) Sud qaysi asoslarga ko‘ra sud ruxiy ekspertizasini o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqarishga haqli bo‘ladi?**

**2) Sud ajrimida ko‘rsatilgan ekspertlar oldiga qo‘yilgan savollar to‘g‘rimi?**

## **5-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA DA'VO**

### **5.1. Da'vo tushunchasi va da'veoning elementlari**

Suddagi fuqarolik ishlarining asosiy qismi da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'rildi.

Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'rila-digan ishlarga, agar qonun xujjalarda ularni ko'rishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolik, mehnat, oilaviy, uy-joy va boshqa xuquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da'volar bo'yicha ishlar kiradi (FPKning 182-moddasi).

**Da'veoni aniq tavsiflaydigan bo'lsak,** da'vo da'veogarning javobgarga nisbatan o'zining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida birinchi instansiya sudiga qilgan murojaati hisoblanadi. Da'vo da'veogarning manfaatlarini himoya qilishning protsessual vositasi hisoblanib, u o'z navbatida, sudda da'vo tartibida ish yuritishni boshlab beradi va shu orqali nizoning sudda ko'rilihini ta'minlaydi.

**Da'veoning bir-biridan farq qiladigan quyidagi ikki elementi mavjud:**



Mazkur elementlar birgalikda da'veoning mazmunini tashkil qiladi va ayni paytda har bir aniq da'veoni individuallashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

**YODDA TUTING!! Da'veoning predmeti.** Da'vo tuzilmasi murakkab huquqiy tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham qonunchilik unda bir qator elementlarni ajratish imkoniyatini beradi.

**Da'vo elementlari deganda, da'vo tuzilmasini aks ettiruvchi ichki qismlari tushuniladi.**

***Da'voning birinchi elementi – bu da'vo predmeti hisoblanib, da'vogarning javobgarga nisbatan bildirilgan talabi tushuniladi.***

Masalan, mualliflik huquqini tan olish, ishga tiklash, yetkazilgan zararni qoplash haqidagi da'volar.

FPKning 189-moddasi birinchi qismi 4-bandida belgilanganidek, da'vogar da'vo arizasida javobgarga nisbatan bildirilayotgan o'z talabini ko'rsatishi lozim. Da'vo predmetini aniqlash huquqi faqat da'vogarga tegishlidir.

Da'vogarning moddiy huquqiy talabi o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Darhaqiqat, da'vo qanday turda bo'lmasin, unda da'vogar tomonidan ko'rsatilgan moddiy huquqiy talablar yuridik faktlarga asoslangan holda vujudga keladi.

Da'voning tarkibiy qismi uning predmetini tashkil qiladigan da'vogarning javobgarga bo'ladigan moddiy-huquqiy talab bilan bunday talabni keltirib chiqaradigan yuridik faktlar (da'voning asosi) birgalikda ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sud majlisida ko'rib chiqish ko'lagini va yo'nalishini ma'lum ma'noda aniqlab beradi.

***Da'voning asosi deganda, da'vogarning talab qilish huquqini keltirib chiqaradigan yuridik faktlar, da'vogar o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlari va bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar tushuniladi.***

Da'vo asosini bunday tushunishga FPKning 189-moddasi birinchi qismi 6-bandi xizmat qiladi. Da'vogar da'vo arizasida nafaqat o'zining talablariga asos qilib ko'rsatayotgan holatlarni, balki yuridik faktlarni, ya'ni fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlari vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishini belgilaydigan holatlarni ham keltirishi lozim.

## **5.2. Da'voning turlari**

Da'volar o'z protsessual xususiyatiga qarab undirish va tan olish to'g'risidagi da'volarga bo'linadi.

**Undirish to'g'risidagi da'voda** sudga murojaat qilgan da'vogar, birinchidan, nizoli huquqni, uning foydasiga hal qilib berishni so'rasa, ikkinchidan, huquqni tiklashni yoki yo'l qo'yilgan qonun buzilishini bartaraf qilish uchun javobgarni ma'lum harakatlarni qilishga majbur etishni so'raydi. Boshqacha qilib aytganda, undirish haqidagi da'vo, da'vogar o'ziga ma'lum subyektiv huquqni tan olinishini, javobgarni bu tan olingan huquqqa muvofiq ma'lum harakatlarni amalga oshirishni – pul mablag'lari, mulknini berish, yer maydoni, yashash joyini ozod etish harakatlarini amalga oshirishni talab qilishi bilan tavsiflanadi.

Undirish haqidagi da'vo yuridik tavsifiga ko'ra kengroqdir. Chunki da'vogar suddan ma'lum huquqni tan olishni va uni majburiy amalga oshirish bo'yicha muayyan harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi, masalan, pul mablag'larini undirish, ziyonni qoplash, mulknini olish va hokazo. Aksariyat hollarda tan olish va undirib berish haqidagi da'vo talablari bitta da'vo arizasida bo'lishi ham mum-kin, masalan, turar joyning oldi-sotdi bitimini tan olish haqida va turarjoydan chiqarish haqidagi da'vo. Undirish to'g'risidagi da'volar ba'zida ijro qilish da'volari deb ham yuritiladi, ya'ni bunda javobgar da'vogar foydasiga belgilangan harakatlarni bajarishga majbur bo'ladi. Bunday da'voli ishlar yuzasidan ijro varaqasi beriladi, ya'ni ijro tartibida ish yuritish qo'zg'atiladi.

**Tan olish haqidagi da'volarda** esa, da'vogar suddan nizoli huquqiy munosabatning mavjudligini yoki yo'qligini tasdiqlashni yoxud nizoli huquqning o'ziga tegishli ekanligini tan olishni so'raydi.

Tan olish haqidagi da'volar ikki turga – ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Tan olish haqidagi ijobiy da'vo da'vogar o'ziga ma'lum bo'lgan huquqni tan olish haqidagi talabni, masalan yashash joyiga mulk huquqini tan olish haqidagi

talabni asoslab berishdan iboratdir.

Tan olish haqidagi salbiy da'vo bo'yicha da'vogar ma'lum huquqning mavjudligini rad etadi, da'vogar o'zining biron bir majburiyatga ega emasligini tasdiqlaydi, masalan, otalik haqidagi akt yozuvi bo'yicha nizolashish haqidagi da'vo shular jumlasidandir. Shunday qilib, tan olish haqidagi da'volarni umumiyl tafsiflovchi xarakteri da'vogar suddan o'ziga bir narsani olib berish yoki undirib berishni emas, balki subyektiv huquq, manfaatni tan olish yoki ularni rad etishni talab qilishidan iborat.

### **5.3. Da'vo talablarining asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablaridan voz kechish**

Da'vogar o'z talablarining asoslarini da'vo arizasida ko'rsatishi va uni boshqasi bilan o'zgartirishi mumkin. Aynan shunday maqsadni ko'zlab da'vo arizasini o'zgartirish vaqtida da'vo asoslarining asosiy qismini saqlab qolish belgilangan. Har bir huquqiy munosabatlar turli xil usullar bilan qanoatlantirilishi mumkin bo'lgan muayyan bir manfaatlarni himoya qiladi. Masalan, xaridor bilan sotuvchi o'rtasida tuzilgan shartnomalar buzilgan vaqtida FKning 401-moddasiga muvofiq, sotuvchi oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovarlarni shartnomaga mos kelmaydigan assortimentda topshirgan taqdirda sotib oluvchi ularni qabul qilishdan va haqini to'lashdan bosh tortishga, bordiyu, ularning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Agar sotuvchi sotib oluvchiga assortimenti oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarlar bilan bir qatorda assortiment to'g'risidagi shartlarga mos kelmaydigan tovarlar ham topshirgan bo'lsa, sotib oluvchi o'z ixtiyoriga ko'ra:

shartnomaning assortiment to'g'risidagi shartlariga mos bo'lgan tovarlarni qabul qilish va qolgan tovarlarni qabul qilishdan bosh tortish;

topshirilgan barcha tovarlarni qabul qilishdan bosh tortish;

shartnomaning assortiment to‘g‘risidagi shartlariga mos bo‘limgan tovarlarni shartnomada nazarda tutilgan assortimentdagi tovarlarga almashtirib berishni talab qilish;

topshirilgan barcha tovarlarni qabul qilish huquqiga ega. Sotib oluvchi assortimenti oldi-sotdi shartnomasi shartlariga mos kelmaydigan tovarlarni qabul qilishdan bosh tortganida yoki assortiment to‘g‘risidagi shartlarga mos kelmaydigan tovarlarni almashtirishni talab qilganida bu tovarlar haqini to‘lashdan bosh tortishga, bordiyu, ularning haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, to‘langan pul summasini qaytarib berishni talab qilishga ham haqli.

Mazkur talablarning hammasi bir asosdan kelib chiqadi va da‘vogarning tanlashi asosida o‘zgartirilishi mumkin. Bunda da‘voning predmeti o‘zgaradi, lekin asosi saqlanib qoladi.

Da‘vo predmetining o‘zgartirilishi da‘vo asosining to‘la yoki qisman o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Da‘vogar da‘vo talablarini ko‘paytirish yoki kamaytirish huquqiga ega. Qonun o‘zgartirishning hajmini cheklamagan. Sud da‘vogarning talablarini hisobga olgan holda hal qiluv qarori chiqaradi. Qonun sudga da‘vo arizasining asosini va predmetini sudning tashabbusi bilan o‘zgartirish huquqini bermagan.

Da‘vo arizasi o‘zgarishining har qanday ko‘rinishi (qonun bo‘yicha) nafaqat talablarni qanoatlantirish vazifasini, balki ish jarayonini qisqartirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, moliyaviy jihatdan taraflarning mehnati va vaqtı tejaladi, da‘vogar qaytadan yangi da‘vo (shu ishni ko‘rish uchun) berishdan ozod etiladi. Agarda qonunga zid bo‘lmasa va da‘vogarning manfaatlariga mos kelsa, da‘vogar da‘vodan voz kechishi mumkin va da‘vodan voz kechish sud protsessini tugatishga olib keladi.

Taraflarning protsessda sud himoyasidan voz kechishlari quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

da‘vogar tomonidan – da‘vodan voz kechish,

javobgar tomonidan – da‘voni tan olish.

**Da‘vodan voz kechish** – da‘vogarning sud protsessida

olib borilayotgan ishni tugatishga qaratilgan da'vodan voz kechishini bildiruvchi ma'lumoti. Da'vogar agarda uning da'vosi bir necha qismidan iborat bo'lsa, da'voning bir qismidan voz kechishga ham haqli. Da'vodan voz kechish da'vogarning bir taraflama harakati bo'lib, har xil holatdan kelib chiqishi mumkin. Bunda ish asosan javobgarning foydasiga hal bo'ladi, chunki uning da'vogarning huquqlarini buzishdagi ayblarini oqlashiga hojat qolmaydi va ish tugatiladi.

**Da'voni tan olish** – javobgar tomonidan sudda da'vogar talablarining qanoatlantirilishiga rozilik bildirishi ishning da'vogar foydasiga hal bo'lishiga olib keladi. Da'voni tan olish hech qanday tazyiq ostida bo'lmasligi, ya'ni javobgarning o'z xohishi bilan amalga oshirilishi kerak. Agarda qonunga zid bo'lmasa va boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasa, sud javobgarning da'voni tan olish haqidagi arizasini qabul qiladi.

Sud hal qiluv qarori chiqarish vaqtida da'vo tan olinganligini hisobga oladi. Da'voning tan olinganligini sud tekshirib ko'rishi kerak. Agarda da'voni tan olish qonunga zid yoki boshqa shaxslarning huquqlariga zid bo'lsa, sud da'voni tan olishni rad etadi. Javobgarning da'voni tan olganligi sud tomonidan mustahkamlanganidan so'ng, barcha talablar qanoatlantirilgan hisoblanadi.

**Ishning kelishuv bitimi bilan tugatilishi** fuqarolik ishida taraflarning moddiy va protsessual huquqlardan to'la foydalanishga haqliligi to'g'risidagi dispozitiv prinsiplarda o'z aksini topgan. Taraflar o'rtasidagi kelishmovchilik sudga murojaat etmasdan ham kelishuv bitimi asosida hal qilinishi mumkin. Har qanday holatda ham bunday kelishuv huquqiy aloqalarni o'zgartirishga yoki tasdiqlashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun kelishuv bitimi taraflar orasidagi murosa, ya'ni fuqarolik huquqidagi shartnoma bo'lib xizmat qiladi. Sudga murojaat etmay tuzilgan kelishuv bitimi suddan tashqari hisoblanadi. Suddan tashqari tuzilgan kelishuv bitimi agarda taraflardan biri shartnomani bajarishdan bosh tortsa yoki bajarmasa, ikkinchi tarafni shu munosabat bilan sudga

murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi. Biror kelishmovchilik yuzasidan suddan tashqari ham bitim tuzilishiga yo'l qo'yiladi. Bunday bitim sud tarafidan tasdiqlanganidan so'nggina yuridik kuchga ega bo'ladi.

Kelishuv bitimiga ko'ra, da'vogar va javobgar o'z huquqlarini kelishuv yo'li bilan belgilashadi va bu bitim sud tomonidan tasdiqlanadi. Kelishuv bitimi faqatgina taraflar o'rtasida tuziladi, bunda uchinchi shaxs ishtirok etmaydi. Sud kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin ikkala tarafning roziligini tekshirib ko'rishi, kelishuv bitimining qonuniyligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kelishuv bitimining shartlari aniq va tushunarli qilib belgilanib berilishi kerak. Kelishuv bitimini tuzish munosabati bilan sud ishni tugatgandan keyin, huddi shunday da'vo bilan sudga qayta murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi (FPKning 124, 126-moddalari). Agar kelishuv bitimi taraflarning o'z xohishiga ko'ra bajarilmasa, uning ijrosi majburiy tartibda amalga oshiriladi.

#### **5.4. Da'voni birlashtirish va ajratish**

FPKning 196-moddasiga ko'ra, da'vogar bir arizada o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talabni birlashtirishga haqli bo'ladi. Bir necha talablarni birlashtirish ishda ishtirok etuvchi taraflar bir xil bo'lganligi, dalillar umumiy bo'lganligi munosabati bilan bir necha fuqarolik ishining tez va o'z vaqtida samarali ko'rilihini ta'minlaydi. Bularning barchasi sudyaning, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vaqtini tejaydi, sud xarajatlari ko'payishining oldini oladi. Sud amaliyotida mehnat, turar-joy, oila huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha da'vogarlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgan talablarni o'zaro birlashtirishlari mumkin. Masalan, ishga tiklash, majbur bekor yurgan vaqt uchun ish haqini undirish va ma'naviy zararni undirish haqidagi yoki nikohdan ajratish va aliment undirish haqidagi talablar shular jumlasidandir.

FPKning 197-moddasiga ko'ra, suda shu sudda aynan

bir taraflar ishtirok etayotgan bir turdag'i bir necha ish yuritilayotganligini yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga yoki bir necha da'vogarning aynan bitta javobgarga nisbatan arizalari bo'yicha bir necha ish yuritilayotganligini aniqlasa, agar bu ishlarni birlash-tirish ishning o'z vaqtida va to'g'ri hal qilinishiga yordam bersa, ularni birqalikda ko'rish uchun bitta ishga birlashtirishga haqli bo'ladi.

Sudya bir necha talablarni birlashtirish huquqiga ega bo'lganidek, unga bunday talablarni ajratish huquqi ham beriladi. FPKning 198-moddasiga ko'ra, agar arizani qabul qilayotgan sudya talablarni alohida ko'rishni maqsadga muvofiq deb topsa, birlashtirilgan talablardan birini yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

Bir necha da'vogar tomonidan yoki bir necha javobgarga nisbatan talablar qo'zg'atilsa, arizani qabul qilayotgan sudya, agar talablarni alohida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb topsa, ulardan biri yoki bir nechasini alohida ish yuritish uchun ajratishga haqli.

### **5.5. Da'voga qarshi javobgar huquqlarini himoya qilishning protsessual vositalari**

Fuqarolik protsessual qonunchilik da'vogar va javobgarga sud ishini yuritishda o'z huquqlarini himoya qilishda teng imkoniyatlar beradi. Shunga muvofiq qonun javobgarga da'voga qarshi e'tiroz bildirish imkonini beradi. Javobgarning da'voga qarshi himoya-lanishi da'voga qarshi e'tirozning moddiy huquqiy va protsessual huquqiy vositalarini qo'llash hamda qarshi da'vo berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Avvalambor, javobgar **da'voga qarshi e'tiroz** bildirishi mumkin.

*Javobgar o'ziga nisbatan qo'zg'atilgan da'voni inkor etishi va buning sabablari (vajlari)ni ko'rsatishi mumkin. Da'voni bunday asoslanadirilgan ravishda inkor etishga e'tiroz deb aytildi.*

E'tiroz o'zining sohaviy tavsifi va mazmuni bo'yicha **moddiy huquqiy** va **protsessual huquqiy** jihatlarga

ajratiladi.

Da'voga qarshi javobgarning moddiy huquqiy himoyasi moddiy huquq borasida mazkur da'voning mohiyati bo'yicha tan olmaslikda namoyon bo'ladi. Masalan, javobgar da'vogarning talabi asoslangan qonun yoki o'zga normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligini yoxud mazkur qonun yoki normativ-huquqiy hujjat o'z kuchini yo'qtgan, deb ta'kidlashi va ushbu holatni isbotlashi mumkin. Javobgar moddiy huquq me'yorlari nazarda tutgan da'voning barcha yoki alohida asoslarining yo'qligiga da'vo muddati o'tganligini ko'rsatishi mumkin.

**Da'voga qarshi moddiy huquqiy e'tirozlarning mazmuni** *da'vogar suddan talab qilgan subyektiv moddiy huquq turli sabablarga ko'ra mavjud emasligi haqidagi dalillarni keltirishdan iboratdir.*

Da'voga qarshi e'tirozlarning sud tomonidan e'tiborga olinishi oxir oqibat da'vogarning da'vo talablari qanoatlantirilishini rad etishga, javobgarning manfaatlariga xizmat qiluvchi hal qiluv qarorining chiqarilishigi xizmat qiladi.

**Da'voga qarshi protsessual huquqiy e'tiroz bu – mazkur sud jarayonining haqiqiy emasligini isbotlashga qaratilgan javobgar tomonidan bildirilgan dalildir.**

Masalan, javobgar sudga fuqarolik ishining tegishli emasligini ko'rsatib, uni tegishlichcha isbotlashi mumkin. Bu esa sud tomonidan ish yuritilishini tugatilishiga olib keladi. Javobgar manfaatini himoya qilishning ikkinchi protsessual vositasi qarshi da'vodir. Qarshi da'vo javobgar da'vogarga asosiy protsessda birgalikda ko'rib chiqish uchun bergen da'vosidir.

*E'tirozdan qarshi da'voning farqi shundaki, bunda da'vogarning talabiga qarshi boshqa biron bir moddiy huquqiy talab qo'yiladi.*

FPKning 199-moddasiga muvofiq, sud tomonidan ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar javobgar

dastlabki da'vo bilan bиргаликда ко'rib чиқиш учун да'вогарга нисбатан qарши да'во тақдим etishga haqli. Qарши да'во тақдим etish да'во тақдим etish to'g'risidagi umumiy qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni u FPKning 189-moddasiga muvofiq rasmiylashtirilishi, u bo'yicha davlat boji to'lanishi, javobgarlar (ya'ni birinchi da'vo bo'yicha da'vogarlar) soniga muvofiq nusxalar ilova qilinishi lozim.

Qарши da'voni qabul qilish шартлари FPKning 200-moddasida belgilangan. Quyidagi hollarda sudya qарши da'voni qabul qilishi shart:

1) qарши da'vo dastlabki da'voni qoplashga qaratilgan bo'lsa;


2) qарши da'voning qanoatlantirilishi dastlabki da'vo qanoatlantirilishini butunlay yoki qisman istisno etsa;

3) qарши va dastlabki da'vo o'rtaSIDA o'zaro bog'lanish mavjud bo'lib, ularni birga ko'rish nizo tezroq va to'g'ri hal qilinishiga yordam bersa.

## **5.6. Da'voni ta'minlash tushunchasi, da'voni ta'minlash choralar**

Da'voni ta'minlash учун bo'lган asoslar FPKning 105-moddasida belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, sud (sudya) da'voni ta'minlash choralarini ishda ishtirot etuvchi shaxslarning arizasi yoki o'z tashabbusi bo'yicha ko'rishi mumkin. Agar da'voni ta'minlash choralarini ko'rmaslik sud hujjati ijrosini qiyinlashtirsa yoki uni bajarib bo'lmaydigan qilib qo'ysa, da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi. Da'voni ta'minlashga sud protsessining har qanday bosqichida yo'l qo'yiladi. Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqayotganda sud (sudya) da'voni ta'minlash choralarini ko'rishi shart. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizada da'voni ta'minlash choralarini ko'rish asoslari va zaruriyati ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash choraları hakamlik muhokamasi tarafining tanloviga ko'ra, hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar turgan joydagи yoki

yashaydigan joydagi yoinki javobgar-ning mol-mulki turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'riliishi mumkin. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizaga da'vening hakamlik sudiga taqdim etilganligini isbotlovchi dalillar ilova qilinadi.



Umumiy qoida bo'yicha da'voni ta'minlash chorasi da'vo qo'zg'atilganidan so'nggina ko'rildi. Bu qoidadan ayrim istisnolar Jinoyat protsessual kodeksi qoidalari bilan belgilangan bo'lib, ba'zi sharoitlarda hali qo'zg'atilmagan da'volarni ham ta'minlash choralarini ko'riliishi nazarda tutiladi. Xususan, JPKning 57-moddasi birinchi qismiga ko'ra, fuqaroviylar da'vogar surishtiruvchidan, tergovchidan, prokurordan yoki suddan da'voni ta'minlash choralarini ko'rish haqida iltimos qilish huquqiga egadir.

Quyidagilar da'voni ta'minlash choralar bo'lishi mumkin:

- 1) javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulkni yoxud pul mablag'larini xatlash;
- 2) javobgar muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;
- 3) boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;
- 4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to'g'risida da'vo arz qilingan taqdirda, uni realizatsiya qilishni to'xtatish;
- 5) qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashayotgan bo'lsa va agar bunday nizolashishga qonun hujjatlarida yo'l qo'yilsa, bu hujjat bo'yicha undiruvni to'xtatish;
- 6) nizoli mol-mulk buzilishi, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklatish;
- 7) nizoli mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxsga (saqlovchiga) topshirish.

Zarur hollarda, sud (sudya) da'voni ta'minlash bo'yicha boshqa choralar ham ko'rishi mumkin.

Odatda, da'volarning ish haqini, daromadni, pensiya va stipendiyani xatlash yo'li bilan ta'minlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Biroq ayrim toifadagi ishlar, xususan aliment undirish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik, shuningdek boquvchining o'limi oqibatida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi, o'zgalar mol-mulkini talon-toroj qilganlik natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha qonun da'voni ta'minlash choralar sifatida ish haqini, daromadni, pensiya va stipendiyani xatlashga yo'l qo'yadi. Javobgarning moddiy ahvoldidan kelib chiqqan holda, da'voning bajarilishini ta'minlashda, bir vaqtning o'zida bir nechta chora qo'llanishi mumkin. Biroq ularning umumiy

summasi da'voning bahosidan oshib ketmasligi kerak.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza dalillarni ta'minlash haqidagi masalani hal qilishdan farqli ravishda ishni ko'rayotgan sud (sudya) tomonidan ariza tushgan kuniyoq javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi. Ish davomida da'voni ta'minlash choralarining qo'llanishi haqida sudya ajrim chiqaradi va shu ajrimning ijro varaqasini da'vogarga topshiradi va nusxasini javobgarga yuboradi.

Da'voni ta'minlash choralarini ko'rishda qonun javobgarning ham manfaatlarini ko'zlab sud ishida ishtirok etuvchi shaxslarning bayonotlarini eshitib, da'voni ta'min qilishning bir turini boshqa turi bilan almashtirishga yo'l qo'yish mumkinligini belgilaydi. Da'voni ta'minlashning bir turini boshqa turi bilan almashtirish masalasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinib, sud majlisida hal etiladi. Lekin bu shaxslarning kelmasligi da'voni ta'minlashning bir turini boshqa turi bilan almashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Da'vo rad etilgan taqdirda yo'l qo'yilgan ta'minlash choralarini hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirkunga qadar saqlanadi. Lekin sud hal qiluv qarori bilan bir vaqtida yoki shunday qaror chiqargandan so'ng da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi ajrim chiqara oladi.

Qonun da'voning ta'minlanishi natijasida javobgarning ma'lum huquqlari cheklanishini hisobga oladi. Shuning uchun taraflarning teng huquqligi asosida javobgarning manfaatlarini ham kafolatlaydi. Da'vo arizasining ta'minlanishi borasidagi har qanday ajrimga xususiy shikoyat bilan murojaat qilish mumkin. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi iltimosni qanoatlantirish yoki uni rad etish haqidagi ajrim, shuningdek da'voni ta'minlash chorasini bekor qilish yoki ta'minlash chorasining bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat qilinishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Sudda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'rildigan qanday ishlarni bilasiz?
2. Da'vo deganda nimani tushunasiz?
3. Da'veoning qanday elementlari bor?
4. Da'vo qanday turlarga ajratiladi?
5. Da'vo taqdim etishga bo'lgan huquq deganda nimani tushunasiz?
6. Da'vo talablarining asosini yoki predmetini o'zgartirish, da'vo talablaridan voz kechish haqida gapiring.
7. Da'veoni birlashtirish va ajratishning asoslari hamda tartibi qanday?
8. Da'veoga qarshi javobgar huquqlarini himoya qilishning qanday protsessual vositalari mavjud?
9. Qarshi da'vo nima va uni qo'zg'atishning tartibi qanday?
10. Da'veoni ta'minlash deganda nimani tushunasiz va uni ta'minlashdan maqsad nima?
11. Da'veoni ta'minlashning qanday choralari mavjud?

### **1-kazus**

**K.** sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, **I.** bilan o'zaro tuzilgan nikohdan ajratishni hamda javobgar muntazam ravishda spirtli ichimliklarni suiste'mol qilishi va o'z oilasini moddiy jihatdan qiyin ahvolga solib qo'yganligini ko'rsatib, **I.** ning muomala layoqatini cheklashni so'ragan.

Tumanlararo sud da'vogarning da'vo arizasini qabul qilib, ishni mazmunan ko'rib chiqqan va da'vogarning barcha da'vo talablarini qanoatlantirish to'g'risida hal qiluv qaror qabul qilgan.

**Savol: 1) Sudning harakatlari to‘g‘rimi? 2) Mazkur ish qanday hal etilishi lozim?**

**2-kazus**

A. sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, “Mumtoz” korxonasiga nisbatan ishga tiklash va majburiy bekor yurgan vaqt uchun ish haqi undirishni so‘ragan.

Da’vogar sudda da’vo talablarini qisman o‘zgartirib, korxonaga ishga tiklash o‘rniga majburiy bekor yurgan vaqt uchun ish haqi va ma’naviy zararni undirishni hamda korxonaning mulkidan o‘ziga tegishli bo‘lgan xissani ajratib berishni so‘ragan.

Sud da’vogarning talablarini to‘liq qanoatlantirish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilgan.


**Savol: Sud qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yan?**

## **6-BOB. SUD XARAJATLARI**

### **6.1. Fuqarolik protsessida sud xarajatlari tushunchasi va turlari**

**Sud xarajatlari deganda**, fuqarolik ishini ko‘rish va hal qilish bilan bog‘liq ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qilinadigan qonunda nazarda tutilgan xarajatlar tushuniladi.

**Sud xarajatlari ikki turga bo‘linadi:**



### **6.2. Davlat boji va uning turlari**

**Davlat boji** yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolati muassasalar va (yoki) mansabdar shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to‘lov (O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuning 5-moddasiga ko‘ra, davlat boji:

fuqarolik ishlari bo'yicha sudsiga beriladigan da'vo arizalaridan;

alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan;

fuqarolik ishlari bo'yicha sudsarning hal qiluv qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi ajrimlar ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan;

hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalardan;

hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijob etish uchun ijob varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan;

hakamlik sudining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijob etish uchun ijob varaqasi berish to'g'risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan;

chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish haqidagi arizalardan;

chet davlat sudining hamda chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ishlar yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sud ajrimlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va nazorat tartibidagi shikoyatlardan;

fuqarolik ishlari bo'yicha sudsiga tomonidan hujjalarning dublikatlarini va ko'chirma nuxsalarini bergenlik uchun undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi qarorining 3-bandiga ko'ra, shu jumladan, takroriy ravishda beriladigan sud hujjalarning ko'chirma nuxsalarini bergenlik uchun ham davlat boji undiriladi.

Davlat bojlari yuqoridagi undiruv ob'ektlaridan tashqari, qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to‘g‘risidagi arizalardan hamda sud dastlabki da‘vogarni uning roziligiga ko‘ra boshqa shaxs bilan almashtirganda bu shaxsdan davlat boji umumiy asoslarda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, davlat boji, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, davlat boji undiriladigan yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilguniga qadar va (yoki) bunga vakolatlil bo‘lgan muassasalar (mansabdar shaxslar) tomonidan hujjatlar berilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘-risida”gi Qonuni ilovasiga muvofiq fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga belgilangan miqdorda davlat boji to‘lanadi.

Davlat bojini to‘lovni amalga oshirish tartibiga qarab turlarga ajratish mumkin:

**oddiy davlat boji** qat’iy, avvaldan belgilangan stavkada undiriladi. Hozirgi kunda oddiy davlat bojining miqdori bazaviy hisoblash miqdori bilan bog‘liq. Masalan, nikohdan ajratish haqidagi da‘vo arizalaridan BHMning 2 barobari miqdorida davlat boji undiriladi;

**proportsiyal davlat boji** da‘vo bahosiga nisbatan foiz bilan hisoblab undiriladi. Masalan, mulkiy tusdagi da‘volar bo‘yicha da‘vo bahosining 4 foizi miqdorida, biroq BHMning eng kam bo‘limgan miqdorda davlat boji to‘lanadi.

### 6.3. Da'voning bahosi

**Da'vo bahosi nizoli mulkning pul ko'rinishidagi ifodasi hisoblanadi.** Da'vo bahosidan kelib chiqib davlat bojining miqdori aniqlanadi.

<b>Da'vo bahosi quyidagicha belgilanadi (FPKning 129–moddasi)</b>		
1) pul undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	undiriladigan summaga qarab;
2) mol-mulkni talab qilib olish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	talab qilinayotgan mol-mulkning qiymatiga qarab;
3) bir nechta mustaqil talabdan iborat da‘volar bo‘yicha	—	barcha talablarning umumiy summasiga qarab;
4) alimert undirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	bir yillik to‘lovlarning yig‘indisiga qarab;
5) muddatli to‘lovlar va pul berish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	to‘lovlarning yoki beriladigan pullarning yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan uch yillik yig‘indisiga qarab;
6) muddatsiz yoki umrbod to‘lovlar va pul berish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	to‘lovlarning yoki pullarning uch yil ichidagi yig‘indisiga qarab;
7) to‘lovlarni yoki pul berishni kamaytirish yoxud ko‘paytirish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	to‘lovlar yoki beriladigan pullar kamaytiriladigan yoki ko‘paytiriladigan summaga, lekin ko‘pi bilan bir yillik summaga qarab;
8) to‘lovlarni yoki pul berishni to‘xtatish to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha	—	qolgan to‘lovlar yoki pullar yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan bir yillik yig‘indisiga qarab;
9) mol-mulk ijarsi shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish haqidagi da‘volar bo‘yicha	—	shartnoma amal qilishining qolgan muddatida mulkdan foydalanish uchun to‘lanadigan to‘lovlarning yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan uch yil ichidagi to‘lovlarning yig‘indisiga qarab;
10) xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga tegishli	—	imoratning bozor qiymatiga qarab, lekin bu miqdor kadastr

imoratlarga egalik huquqi to‘g‘risidagi da‘volar bo‘yicha, tashkilotlarga qarashli imoratlar bo‘yicha esa	qiymatidan, bunday baho bo‘lmanida esa, majburiy sug‘urta bahosidan kam bo‘lmasligi kerak, imoratlarning haqiqiy bahosidan kam bo‘lmasligi kerak.
---	---

#### 6.4. Ish yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlar

Sud xarajatlari davlat bojidan tashqari ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarga bo‘linadi.

Ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlar

guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga,  
tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar

joyida ko‘zdan  
kechirish bilan  
bog‘liq  
bo‘lgan  
xarajatlar

FPKning 165-  
moddasida naz  
arda tutilgan  
hollarda  
javobgarni  
qidirish uchun  
qilingan  
xarajatlar;

sud  
xabarnomalari  
va sud  
hujjatlarini  
yuborish bilan  
bog‘liq pochta  
xarajatlar

sud majlisini  
videokonferent  
saloqa  
rejimida  
o‘tkazish bilan  
bog‘liq  
xarajatlar

sud tomonidan  
tan olingen  
boshaq zarur  
xarajatlar

**Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarni undirish miqdori va tartibi Fuqarolik protsessual kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarning qilgan xarajatlarini to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida”gi 1992-yil 3-iyuldagisi Qonuni bilan tartibga solinadi.**

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga tegishli bo‘lgan summalar ular o‘z vazifalarini bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, xarajat taraflardan undirib olingen olinmaganidan qat‘i nazar, sud tomonidan to‘lanadi.

Ekspertlar va mutaxassislar sudning topshirig‘iga muvofiq bajargan ishlari uchun haqni bu ish ularning xizmat burchlari doirasiga kirmagan taqdirda oladilar.

Mehnat munosabatlariaga kirishmagan guvohlarga odatdagi mashg‘ulotlaridan qoldirilganligi uchun amalda sarflagan vaqt va belgilangan eng kam ish haqidan kelib chiqilgan holda haq oladi. (FPKning 134-moddasasi).

Ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarning yana bir turini **joyga borib ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar** tashkil qiladi. Fuqarolik protsessual qonunchilik joyga borib ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator holatlarni nazarda tutadi. Xususan, FPKning 239-moddasiga ko‘ra, sudga olib kelish imkonni bo‘lmagan yozma va ashyoviy dalillar ular turgan joyda ko‘zdan kechiriladi va tekshiriladi. Joyida ko‘zdan kechirishni o‘tkazish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi. Dalillarni joyida ko‘zdan kechirish sudning butun tarkibi tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilgan, zarur hollarda esa, ekspertlar, mutaxassislar va guvohlarni chaqirgan holda amalga oshiriladi. Ko‘zdan kechirish joyiga borganda, raislik qiluvchi sud muhokamasini FPKda belgilangan qoidalar bo‘yicha olib boriladi. Ko‘zdan kechirish natijalari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomaga ko‘zdan kechirish paytida tuzilgan yoki tekshirilgan barcha rejalar, chizmalar, suratlar, hisob-kitoblar, hujjatlarni ko‘zdan kechirish vaqtida olingan ko‘chirma nuxsalar, yozma va ashyoviy dalillarning videoyozuvlari, fotosuratları, shuningdek ekspert xulosasi va mutaxassis maslahati ilova qilinishi mumkin. Shuningdek, FPKning 93-moddasiga ko‘ra, oziq-ovqatlar va tez buziladigan boshqa ashyolar ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, sud tomonidan darhol ko‘zdan kechiriladi.

**Javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar** ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlar turiga mansub hisoblanadi. FPKning 165-moddasiga ko‘ra, aliment undirish haqidagi, mayib bo‘lish yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganligi, shuningdek boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi

da'volar bo'yicha javobgarning (qarzdorning) amaldagi yashash joyi noma'lum bo'lsa, javobgar (qarzdor) qidirilishi shart. Bunday hollarda sud ichki ishlar organlari javobgarni (qarzdorni) qidirishi to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar ichida **sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar** alohida o'rinni tutadi. Sud majlisini videokonferentsaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar summasi sud tomonidan belgilanadi va ishda ishtirok etuvchi shaxslardan ishni ko'rish natijalariga ko'ra FPKga muvofiq undiriladi.

**Sud xabarnomalarini va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlari.** O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 132-moddasiga 2018-yil 11-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-496-sonli Qonuniga asosan 31-band sifatida kiritilgan. Unga ko'ra, pochta xarajatlarining summasi sud tomonidan belgilanadi, biroq bu summa **bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismidan oshmasligi kerak** va sudning depozit hisobvarag'iga kiritilishi lozim.

**Sud tomonidan tan olingen boshqa zurur xarajatlar.** Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 14-sonli «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'-risida»gi qarorining 13-bandida tushuntirish berilgan. Unga ko'ra, boshqa sud xarajatlariga, sud tomonidan oqilona miqdorlarda belgilanadigan, haqiqatda yo'qotilan vaqt uchun undiriladigan kompensatsiya, vakilning yordami uchun to'lanadigan xarajatlar va h.k. kiradi.

## **6.5. Sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari**

FPKning 133-moddasida, davlat bojini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash va ularning miqdorlarini kamaytirish belgilangan.

Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergen bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, sud taraf-larning mulkiy ahvoliga qarab, ulardan birining yoki ikkalasining davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'-risida"gi Qonunning 8-moddasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilganda davlat boji to'lashdan ozod qilish asoslari ko'rsatilgan.

## **6.6. Sud xarajatlarini qaytarish uchun asoslar**

Davlat boji quyidagi hollarda to'liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

- 1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida;
- 2) sud da'vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarganda yoki qabul qilishni rad etganda, shuningdek davlat notarial idoralari notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;
- 3) apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyati qaytarilganda yoki uni qabul qilish rad etilganda;
- 4) davlat boji to'langan da'vo arizasi (ariza, shikoyat) yoki apellyatsiya, kassatsiya va nazorat shikoyati sudga kelib tushmaganda;
- 5) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;
- 6) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;
- 7) sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslар bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda;

8) agar taraflar o‘rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilganda;

9) agar taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilganda;

10) ishda ishtirok etgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa;

11) da‘vogar nizoni sudga qadar hal etish (e’tiroz bildirish) tartibiga rioya etmaganda, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo‘lsa;

12) voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotinning nikohi o‘zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to‘langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo‘lsa;

13) agar ishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo‘lsa;

14) sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish rad etilganda.

Davlat boji summalarini qaytarish to‘lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o‘z hisobvaraqlariga o‘tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini to‘lovchining yozma arizasi olingan kundan e’tiboran besh kun ichida yoki sud hujjatlari asosida qaytaradi. O‘z navbatida davlat organi yoki tashkilot qaytarilishi lozim bo‘lgan, ilgari O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadiga o‘tkazilgan davlat boji summasining bir qismini qaytarish to‘g‘risida davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda xabar yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadiga o‘tkazilgan davlat bojini qaytarish to‘g‘risidagi qaror soliq organi tomonidan davlat organi yoki tashkilotning tegishli xabarnomasi olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida qabul qilinadi. Davlat bojini qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda soliq organi davlat bojini to‘lovchiga qaytarishni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining G‘aznachiligiga qaytarish to‘g‘risida tegishli topshiriqnomalar yuboradi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Sud xarajatlari deb nimaga aytildi?
2. Sud xarajatlarini joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nimada?
3. Sud xarajatlarining qanday turlari mavjud?
4. Oddiy davlat bojiga misollar keltiring.
5. Proportsional davlat bojiga misollar keltiring.
6. Davlat boji nima va uning qanday turlari mavjud?
7. Sudlarda davlat boji nimalardan undiriladi?
8. Da’voning bahosi qanday belgilanadi?
9. Ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarga nimalar kiradi?
10. Kimlar sud xarajatlarini to‘lashdan ozod qilinadi?
11. Sud xarajatlarini qaytarish uchun nimalar asos bo‘ladi?
12. Taraflar o‘rtasida sud xarajatlarini taqsimlash deganda nimani tushunasiz?

#### **1-kazus**

Haydarov sudga da’vo bilan murojaat qilib, viloyat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasiga ishga tiklash hamda 10.000 000 so‘m moddiy va ma’naviy zarar undirishni so‘ragan.

Sud davlat boji to‘lanmaganligini asos qilib, arizani qaytarish haqida ajrim chiqargan.



**Savol: 1) Birinchi instansiysi sudi o‘z ajrimi bilan qanday xatolikga yo‘l qo‘ygan?**

**2) Sud xarajatlarini to‘lashdan ozod qilish asoslarini aytинг?**

## **2-kazus**

Abdullayev tuman hokimligiga nisbatan sudga da’vo bilan murojaat qilib, o‘zboshimchalik bilan qurilgan uy-joyni olish-sotish haqidagi qarorlarini bekor qilib, bu uy-joyga egalik huquqini belgilashni so‘ragan.

Tuman hokimligi sudga qarshi da’vo taqdim qilib, Abdullayev tomonidan o‘zboshimchalik bilan egallab olingen 270 kv. metr yer maydonida qurilgan 4 xonali uy, yerto‘la va omborxonadan iborat imoratlarni hokimlik balansiga olib berishni so‘ragan.

Sudning hal qiluv qarori bilan da’vo qanoatlantirilib, qarshi da’vo rad qilingan. Abdullayevdan davlat foydasiga 81.000 so‘m davlat boji undirish belgilangan.

Apellatsiya instansiysi sudi ajrimi bilan sud xarajatlariga oid qismi bekor qilinib, davlat bojini tuman hokimligidan undirish haqida yangi hal qiluv qarori chiqarildi.

### **Savol:**

**1) Birinchi instansiya sudi sud xarajatini undirishda qanday kamchilikga yo‘l qo‘yilgan?**

**2) Sud xarajatlarini taraflar o‘rtasida taqsimlanishi haqida nimalar bilasiz?**

## **7-BOB. PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI VA PROTSESSUAL MUDDATLAR**

### **7.1. Protsessual majburlov choralar**

Protsessual majburlov choralar jumlasiga quyidagilar kiradi:



Shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralarining qo'llanilishi uni FPKda yoki sud tomonidan belgilangan tegishli majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

**Majburiy keltirish.** O'zbekiston Respublikasi FPKning 144-moddasida ko'rsatilishicha, agar FPKning 313-moddasiga muvofiq sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi FPKda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzsiz sabablarga ko'ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma'lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin. Mazkur ajrimning ijrosi hududiy ichki ishlar organining zimmasiga yuklatiladi. Masalan, agar chaqirilgan guvoh ikkinchi chaqiruv bo'yicha sud majlisiga kelmasa, u sudning ajrimiga binoan majburiy tartibda keltirilishi mumkin (FPKning 222-moddasi).

Majburiy keltirish voyaga yetmaganlarga, homilador ayol larga, kasalligi, yoshi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra sud majlisiga kela olmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimida FPKning 272-moddasida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari shaxs majburiy keltirilishi lozim bo'lgan sana, vaqt va joy, shuningdek

majburiy keltirish qaysi hududiy ichki ishlar organiga topshirilganligi ko'rsatiladi. Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi darhol ijro etilishi lozim va ish yuritiladigan joydagi yoki majburiy keltirilishi kerak bo'lgan shaxsning yashash joyi, turgan joyi (joylashgan yeri), ish, xizmat yoxud o'qish joyidagi hududiy ichki ishlar organiga ijro uchun yuboriladi. Majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to'xtatmaydi.

**Ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish.** Sudda tartib qoidani buzgan yoki ichki tartib qoidalariga roya qilmagan shaxslarga nisbatan sud tomonidan ogohlantirish yoki sud majlisi zalidan chiqarib yuborish chorasi qo'llashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi FPKning 145-moddasiga ko'ra, sud majlisida taraf yoki uchinchi shaxs tartibni buzgan taqdirda, sud tartibbzurni ishni ko'rishning hamma vaqtiga yoxud uning bir qismiga majlis zalidan chiqarib yuboradi. Vaqtincha chiqarib yuborilgan shaxs sud majlisi zliga qaytadan qo'yilganda raislik qiluvchi uni zalda yo'q bo'lganda amalga oshirilgan protsessual harakatlar bilan tanishtiradi. Sud majlisida har ikki taraf yoki uchinchi shaxslar tartibni buzgan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzgan taqdirda sudning ajrimiga binoan, ishni ko'rishda hozir bo'lgan fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Fuqarolar ommaviy tarzda tartibni buzgan taqdirda sud ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin.

Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'y sunmagan taqdirda, ular ogohlantiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana bo'y sunmasa, agar ularni ishga zarar yetkazmagan holda boshqa shaxs bilan almashtirishning imkonи bo'lmasa, ishni ko'rish sudning ajrimiga binoan keyinga qoldirilishi mumkin. Sud bir vaqtning o'zida xususiy ajrim chiqaradi, ushbu ajrim tegishincha yuqori turuvchi prokurorga yoki O'zbekiston

Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuboriladi.

**Sud jarimalari.** Fuqarolik protsessi ishtirokchilarini va sudda ko‘rilayotgan fuqarolik ishlariga aloqasi bo‘lgan boshqa shaxslar ham sud tomonidan jarimaga tortilishlari mumkin. Sud jarimalarini solishdan ko‘zlangan asosiy maqsad sudda fuqarolik ishlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rilishini ta’minlash, sud protsessida belgilangan tartibni saqlash hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z zimmalaridagi protsessual burchlarni bajarilishini ta’minlashdan iboratdir. Sud jarimalari davlat hisobiga undiriladi va protsess ishtirokchilarini hamda protsessga jalg etilgan boshqa shaxslar tomonidan tartib-intizomga rioya qilinishini ta’minlash va shu orqali fuqaro va tashkilotlarning buzilgan huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Sud jarimalari faqat FPKda nazarda tutilgan hollardagina undiriladi. Masalan, sud FPKning 60, 62, 86, 92, 110-moddalarida ko‘rsatilgan hollarda jarimalarini solish asoslari va uning miqdori ko‘rsatilgan. Xususan, ishda ishtirok etmayotgan tashkilotlar va fuqarolar sud talab qilgan yozma yoki ashyoviy dalillarni taqdim etish imkoniga ega emasliklarini sudga ma’lum qilmagan taqdirda, shuningdek yozma yoki ashyoviy dalil taqdim etish uzrli sababsiz rad qilingan taqdirda, sud bunda aybdor bo‘lgan tashkilotlarning mansabдор shaxslariga FPKning 146-moddasida belgilangan tartibda jarimaga tortiladi. Jarima solish tegishli mansabдор shaxslarni va fuqarolarni sud talab qilayotgan yozma dalilni taqdim etish majburiyatidan ozod qilmaydi. Sud jarimalari ekspert yoki mutaxassislarga nisbatan ham solinishi mumkin. Masalan, agar ekspert sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sudning chaqirushi bo‘yicha kelmasa, mutaxassis sud uzsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud chaqirushi bo‘yicha kelmasa sud jarima soladi.

Tashkilotlarning mansabдор shaxslariga sud tomonidan solingen jarimalar ularning shaxsiy mablag‘laridan undiriladi. Jarima solish to‘g‘risida ajrim chiqariladi va uning nusxasi darhol jarima solingen shaxsga jo‘natiladi. Sudning jarima solish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan o‘n kunlik muddat ichida

xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Suddan jarimadan ozod qilishni yoki uning miqdorini kamaytirishni sud ajrimining ko‘chirma nusxasini olganidan keyin besh kun ichida iltimos qilishi mumkin. Bu ariza jarima solingan shaxsni xabardor qilgan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq uning sudga kelmasligi arizani ko‘rib chiqish uchun to‘sinqilik qilmaydi (FPKning 148-moddasi).

## **7.2. Protsessual muddatlar tushunchasi va ahamiyati**

Qonun fuqarolik ishlarining nafaqat to‘g‘ri, shu bilan bir qatorda qonunda belgilangan muddatlarda ko‘rilishini ham nazarda tutadi. Shuning uchun ham fuqarolik ishlarini o‘z vaqtida ko‘rish hamda hal etish fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalaridan biri hisoblanadi (FPKning 2-moddasi).

**Protsessual muddatlar deganda** fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va hal qilish bilan bog‘liq protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan vaqt tushuniladi. Mazkur muddatlar sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovnii amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar, shuningdek ayrim hollarda ishda ishtirok etmaydigan shaxslarga nisbatan ham belgilanadi.

Protsessual harakatni bajarish uchun protsessual me’yorlarda belgilangan protsessual muddatlar asosan **ikki turga** bo‘linadi:

**qonun bilan belgilab qo‘yilgan protsessual muddatlar;**  
**sud tomonidan tayinlanadigan protsessual muddatlar.**


Qonun bilan belgilangan protsessual muddatlar FPKda belgilab qo‘yiladi. Masalan, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozimligini aytish mumkin.


## **7.3. Protsessual muddatlarni hisoblash**

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan

hisoblanadi. Protsessual muddatlar protsessual harakatlar bajarilishi mumkin bo‘lgan davr e’tiborga olinib, aniq kalendar kuni bilan belgilanadi. Muddatning o‘tishi kalendar sananing yoki muddatning boshlanishi deb belgilangan voqeа yuz bergen kunning ertasidan boshlanadi. Yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tamom bo‘ladi. Oylar bilan hisoblanadigan muddat tegishli oyda va muddat oxirgi oyining tegishli kunida tamom bo‘ladi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan muddatning oxiri tegishli kuni bo‘lmagan oyga to‘g‘ri kelsa, muddat shu oyning oxirgi kunida tamom bo‘ladi. Bu muddatning oxirgi kuni ish kuni bo‘lmagan kunga to‘g‘ri kelgan taqdirda undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tamom bo‘lish kuni hisoblanadi. Muddati belgilangan protsessual harakat muddatning oxirgi kuni soat yigirma to‘rtgacha bajarilishi mumkin. Shu bilan birga muddat boshqacha tarzda ham, masalan, FPKning 51-moddasi bayonida uchinchi qismida ko‘rsatilganidek, albatta sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqeani yoki harakatni ko‘rsatib yoxud muayyan davrni ko‘rsatib ham belgilanishi mumkin. Agar protsessual harakat sudda bajarilishi lozim bo‘lsa, belgilangan qoidalarga muvofiq sudda ish tugagan soatda muddat tamom bo‘lgan hisoblanadi. Agar ariza, shikoyat, hujjatlar yoki pul summasi muddatning oxirgi kuni soat yigirma to‘rtgacha aloqa tashkilotiga topshirilgan bo‘lsa, muddat o‘tmagan hisoblanadi. Ba‘zi hollarda protsessual harakatlarni bajarish uchun qonunda belgilangan yoki sud tayinlagan muddatlarni ishda ishtirok etuvchi shaxslar turli sabablar bilan o‘tkazib yuboradilar. Bunday hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual harakatni bajarish uchun o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirib yoki tiklab berish to‘g‘risida tegishli sudga ariza berishi mumkin.





Qonun bilan belgilangan protsessual muddatlar faqat tiklanishi,

Sud tomonidan tayinlangan muddatlar esa faqat uzaytirilishi mumkin. Protsessual muddatlarni uzaytirish yoki tiklash, bu muddatlarni o'tkazib yuborganlikning sababiga bog'liq bo'ladi. Agar uning sabablari uzrli bo'lsa (kasal bo'lib qolish, uzoq muddatga xizmat safariga ketib qolish va shunga o'xshash boshqa holatlar) qonun bilan belgilangan muddat tiklanishi, sud tomonidan tayinlangan muddat esa uzaytirilishi lozim.

Sud tomonidan tayinlangan muddatlar taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosi bo'yicha, prokurorning arizasi bo'yicha va sudning o'z tashabusi bilan ham uzaytirilishi mumkin. Protsessual muddatning uzaytirilishi muayyan protsessual harakatlar qilish uchun yangi muddatning tayinlanishidir, sud tomonidan tayinlangan muddatlar ham uzaytirilishi mumkin. Sud tomonidan muddatning uzaytirilishi (kechiktirilishi), masalan, FPKning 165-moddasida ko'rsatilganidek, javobgarni qidirish nazarda tutilgan hollarda, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish sud majlisida taraflarning ishtirokida hal qilinadi.

Da'vo muddati o'tib ketganligini asos qilib, da'vo arizasini qabul qilib olishni rad etish qonunga xilofdir. Da'vo muddatining o'tib ketishi da'vo arizasini qabul qilib olishni rad etish uchun asos bo'lmaydi. Bunday holda sud da'vo arizasini qabul qilib olishdan oldin uni o'tkazib yuborganlik sabablarini tekshirib chiqishi lozim. Agar da'vo muddati uzsiz ravishda o'tkazib yuborilgan bo'lsa, sud da'vogarning da'vo talabini rad etishi kerak. Agar sud da'vo muddati o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, shaxslarning buzilgan subyektiv huquqini himoya qilishi lozim.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Protsessual majburlov choralarini ayting?
2. Sud jarimalari deb nimaga aytildi?
3. Sud jarimalarini solish uchun nimalar asos bo'ladi va

uni solish tartibi qanday?

4. Protsessual muddatlar deb nimaga aytildi?
5. Fuqarolik protsessida muddatlarning qanday turlari mavjud?
6. Qonunda belgilangan protsessual muddatlarga misollar keltiring.
7. Sud tomonidan tayinlangan muddatlarga misollar keltiring.
8. Protsessual muddatlar qanday tartibda hisoblanadi?

### **1-kazus**

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirobod tumanlararo sudi ish yurituvida da'vogar Olimova A.ning javobgar Olimov Sh.ga nisbatan aliment undirish haqidagi fuqarolik ishi yuzasidan javobgar Sh.Olimovni 2018-yil 15-iyul kuni soat 10.00ga belgilangan sud protsessiga majburiy tartibda keltirish haqida 2018-yil 20-mayda ajrim chiqargan. Ajrim nusxasi Yunusobod tuman IIB ga yuborilgan. Mazkur ajrim ijrosiga nisbatan javobgar Sh.Olimov ish bo'yicha majburiy keltirishga norozilik bildirib, hech kim uni aliment undirishga majbur qila olmasligini, sud majlisini to'xtatishni ta'kidladi.

**Savol: Javobgarning harakatlari qonuniymi? Qaysi ishlarda sudga fuqaro majburiy keltiriladi?**

### **2-kazus**

Olimov tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga nisbatan ishga tiklash va majburiy progul vaqtiga uchun ish haqi undirish haqida da'vo bilan sudga murojaat qilgan.

Sud da'vo muddati o'tganligini asos qilib ko'rsatib, da'vo arizani qabul qilishni rad qilgan.

**Savol: Sudning ajrimi to'g'rimi?**

## **8-BOB. FUQAROLIK ISHLARINI QO'ZG'ATISH VA SUD MUHOKAMASIGA TAYYORLASH**

### **8.1. Sudga murojaat qilishning asosiy talablari va unga rioya qilmaslik oqibatlari**

FPKning 4-moddasida sudga murojaat qilish shakllari sifatida quyidagilar keltirilgan:


1) fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha – da'vo arizasi shaklida;

2) buyruq tartibida ish yuritish bo'yicha, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha, shuningdek FPKda nazarda tutilgan boshqa hollarda – ariza shaklida;

3) appellatsiya, cassatsiya va nazorat instansiyasi sudlariga murojaat etilganda – shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi.

Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Sudga murojaat qilayotgan shaxslar fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan shartlar va tartibga rioya qilishlari talab etiladi.



Fuqarolik ishlarini sudda qo'zg'atish quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirish oqibatida ro'y beradi:

- *manfaatdor shaxslarning sudga murojaat qilishi;*
- *berilgan arizaning sud tomonidan qabul qilinishi.*

Sudya shaxsning sudga murojaat etish huquqi borligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng, sudga murojaat etish qoidalari buzilma-ganligini tekshirishi lozim. Bunday qoidalalar quyidagilardan iboratdir:

- mazkur nizoni sudgacha bo‘lgan tartibda hal qilish qoidalariга rioya qilganligini aniqlash;
- sudga bu ishning tegishlilagini aniqlash;
- vakilning mazkur ishda qatnashishga vakolatli ekanligi aniqlash;
- arizaning shakli va mazmuniga oid protsessual qonun talablariga rioya qilinganligini tekshirish;
- davlat bojining to‘langanligi aniqlash.

Sudya faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha arizani qabul qilishni rad etishga haqli bo‘ladi. Keltirilgan talablarining isbotlanmaganligi, da’vo muddatini o’tkazib yuborilganligi va boshqa, qonunda nazarda tutilmagan asoslar bo‘yicha arizani qabul qilish va fuqarolik ishini qo‘zg‘atish rad etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Da’vo arizasi FPKning 189 va 190-moddalari talablariga rioya qilinmay berilgan hollarda sud tomonidan qaytariladi va kamchiliklarni bartaraf etish muddati ko‘rsatiladi (FPKning 195-moddasi). Ko‘rsatilgan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmasa, ariza berilmagan hisoblanib, da’vogarga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Sudya tomonidan arizani ko‘rib chiqish va qabul qilish to‘g‘risida qoniqarli xulosalar qabul qilinganidan so‘ng, fuqarolik ishi qo‘zg‘atilgan hisoblanadi. Fuqarolik ishining qo‘zg‘atilishi oqibatida fuqarolik ishining harakati boshlanadi. Sudning taraflar o‘rtasidagi nizoni ko‘rish va bu to‘g‘rida qaror chiqarish burchi vujudga keladi.

## **8.2. Da’vo arizasi, uning tuzilishi va mazmuni**

Da’vo arizasida da’vogarning talablari va iltimoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘ladi. Taraflar o‘rtasida kelib chiqqan moddiy-huquqiy nizoni sudda ko‘rib hal qilish maqsadida

sudga taqdim etilgan da'vogarning da'vo arizasi sudda bir vaqtning o'zida huquq himoyasining protsessual vositasi bo'lish bilan birga sudda ish qo'zg'atishning protsessual vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

*Da'vo arizasi subyektiv huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish uchun sudga murojaat qilishning qonun bilan belgilab qo'yilgan shaklidir.*

FPKning 188-moddasiga ko'ra sudda ishlar yozma shaklda, shu jumladan pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida ariza berish yo'li bilan qo'zg'atilishi nazarda tutiladi.

#### **FPKning 189-moddasida arizaning mazmuni o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra:**

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) da'vogarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar da'vogar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari, shuningdek, agar ariza vakil tomoni-dan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va manzili;
- 3) javobgarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, agar javobgar tashkilot bo'lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari;
- 4) da'vogarning talabi;
- 5) agar da'vo baholanishi kerak bo'lsa, da'veoning bahosi;
- 6) da'vogar o'z talabiga asos qilib ko'rsatayotgan holatlar va da'vogar tomonidan bayon qilingan holatlarni tasdiqllovchi dalillar;
- 7) javobgar bilan nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;
- 8) arizaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati bayon etilishi lozim.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, arizaga ishonchnama yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizada ushbu moddada sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari ariza kimning manfaatini ko'zlab berilgan bo'lsa, o'sha shaxsnинг familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi) hamda manzili ko'rsatilishi kerak. Arizada da'vogarni yoki uning vakilining, shuningdek boshqa tarafning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin.

Arizada elektron manzili ko'rsatilganligi arizachining sud chaqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarorlarining hamda ajrimlarining ko'chirma nuxsalarini elektron hujjat tarzida olishga bo'lgan roziligidir.

Da'vening bahosi FPKning 129-moddasiga binoan aniqlanadi. Da'vening bahosi da'vogar tomonidan ko'rsatiladi. Da'vogar ko'rsatgan baho da'vo qilinayotgan mulkning haqiqiy qiymatiga muvofiq emasligi yaqqol bo'lsa, da'vening bahosini sudyda belgilaydi. Agarda da'vo aynan pul bilan bog'liq bo'lsa, undirilishi kerak bo'lgan pul aniq qilib ko'rsatiladi. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolar tomonidan beriladigan arizalar FPKning 189-moddasi talablariga javob berishi lozim.

Agar qonunda yoki shartnomada taraflarning nizolarni sudgacha hal qilish tartibi ko'rsatilgan bo'lsa, da'vogarning arizasida bu haqida ma'lumot berilishi kerak. Da'vo arizasida arizaga ilova qilingan hujjatlar haqida ham aytib o'tilishi kerak. Da'vogar o'zining va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, javobgarning telefon raqamini, faksini, elektron pochtasini va ishni ko'rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Da'vo arizasi da'vogar tomonidan imzolanadi. Lekin, da'vogar nomidan boshqa shaxs ish olib borish huquqiga ega bo'lsa, o'sha shaxs imzolashi mumkin.

### **8.3. Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarish**

**Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni qaytarish asoslari FPKning 195-moddasida bayon etilgan bo‘lib, unga ko‘ra:**

- 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 2) manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 3) ish mazkur sudning sudloviga tegishli bo‘lmasa;
- 4) ariza FPKning 189-moddasida belgilangan talablarga rioya etilmagan holda berilgan bo‘lsa;
- 5) bitta arizada bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan bir nechta talab birlashtirilgan bo‘lsa, basharti bu talablar o‘zaro bog‘liq bo‘lmasa;
- 6) ish yuritishga qabul qilish va ishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida ajrim chiqarilguniga qadar arizachidan arizani qaytarish haqida ariza kelib tushgan bo‘lsa;
- 7) davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda va miqdorda to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilmagan bo‘lsa, davlat bojini to‘lashni kechiktirish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnama mavjud bo‘lmasa yoki iltimosnama rad etilgan bo‘lsa;
- 8) mol-mulkni (ashyon) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki qonunda nazarda tutilgan mol-mulkni (ashyon) aniqlash va hisobga olish tartibi buzib berilgan bo‘lsa;
- 9) da‘vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rivoj etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan bo‘lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa.

Arizani qaytarish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat

qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi.

Arizaning qaytarilishi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to‘sqinlik qilmaydi.

#### **8.4. Arizani qabul qilish, uni rad qilish asoslari va rasmiylashtirish tartibi**

Arizalar sudlarda sudning raisi, uning o‘rinbosari yoki sudya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi qo‘zg‘atish masalasini sudya hal qiladi va bu haqda sud ajrim chiqaradi.

*Sudya fuqarolik ishini qo‘zg‘atish bosqichida quyidagi ajrimlardan birini chiqarish huquqiga ega bo‘ladi:*

arizani ish yurituvga qabul qilish to‘g‘risidagi ajrim

arizani da‘vogarga qaytarish to‘g‘risidagi ajrim

arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim

**Arizani qabul qilishni rad etish asoslari FPKning 194-moddasida ko‘rsatilgan. Sud arizani ish yuritishga qabul qilishni quyidagi hollarda rad etadi, agar:**

- 1) arz qilinayotgan talab sudga taalluqli bo‘lmasa;
- 2) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma’muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da‘vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to‘g‘risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo‘lsa;
- 3) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, hakamlik sudining ish yuritishida ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni

bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa;

4) ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hakamlik sudining qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bo‘lsa, bundan fuqarolik ishlar bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno;

5) ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hakamlik muhokamasini tugatish to‘g‘risida chiqarilgan ajrim bo‘lsa, bundan hakamlik sudida ushbu nizoni qo‘rib chiqish vakolati mavjud emasligi sababli hakamlik muhokamasi tugatilganligi holati mustasno.

Sudyaning ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etishi sudga ikkinchi marta murojaat etishga to‘sqinlik qiladi. Agar talab sudga taalluqli bo‘lmasa, ajrimda sudya arizachi qaysi organga murojaat qilishi lozimligini ko‘rsatishi shart.

FPKning 194-moddasida ko‘rsatilgan asoslardan tashqari arizani qabul qilishni rad etishga asos bo‘ladigan holatlar ham mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Oila kodeksining 39-moddasiga binoan er xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotinining roziligidisiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas. Bolaning otasi deb qayd etilmagan hollarda ham er bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotinining roziligidisiz nikohdan ajralish to‘g‘risida da‘vo qo‘zg‘atishga haqli emas. Ushbu qoida bola o‘lik tug‘ilgan yoki 1 yoshgacha yashamay, vafot etgan hollarga ham tatbiq qilinishi lozim.

Sudya FPKning 194-moddasida ko‘rsatilgan asoslarga

ko‘ra arizani qabul qilishni rad etar ekan, bu haqda ariza tushgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida asoslantirilgan ajrim chiqaradi. Basharti ish sudga taalluqli bo‘lmasa, sudya ajrimda arizachi qaysi organga murojaat qilishi kerakligini yoki ish qo‘zg‘atishga to‘sinqil qilayotgan holatlarni qanday bartaraf etishni ko‘rsatishi shart. Ariza ilovalar va ajrimning nusxasi bilan birgalikda da‘vogarga qaytariladi.

### **8.5. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashning tushunchasi va ahamiyati**

**Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash** fuqarolik ishlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqish hamda hal qilishni ta’minalash maqsadida sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual xarakatlарining majmuini o‘zida ifoda etuvchi birinchi instansiya sudida ish yuritishning mustaqil bosqichi hisoblanadi.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash barcha sud muhokamasining asosi hisoblanadi. Sud muhokamasining yakuniy natijasi ko‘p jihatdan ushbu bosqichning sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash jarayonida sud‘ya va protsess ishtirokchilarining protsessual faoliyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayonda eng avvalo taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipiga qat‘iy amal qilish lozim bo‘ladi.

Sudya arizani qabul qilib, fuqarolik ishi qo‘zg‘atish haqidagi ajrim chiqarganidan keyingina ishni sud muhokamasiga tayyorlashga kirishishga haqli (FPK 201-modda). Fuqarolik ishini qo‘zg‘atmasdan turib, ishni sud muhokamasiga tayyorlash yuzasidan harakatlarni bajarishi mumkin emas.

Har qanday fuqarolik ishini sud muhokamasiga tayyorlashda qayd etilgan vazifalarning barchasi amalga oshirilishi shart bo‘lib, ulardan birontasining bajarilmasligi ishning sudda ko‘rilishining cho‘zilishi va qaror qabul qilishda xatolikka olib keladi. Ishni sud muhokamasiga

tayyorlashga yetarli e'tibor qaratmaslik xatolikka yo'l qo'yilishi va oqibatda sud qarorlarining yuqori sud instansiyasi tomonidan bekor qilinishiga sabab bo'ladı.

Sudya qayd etilgan ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni o'zining ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrimida ko'rsatishi va qachonki, belgilangan barcha harakatlarni amalga oshirganidan keyingina, ishni ko'rish uchun tayinlashi lozim.

## **8.6. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashning maqsadi va vazifaları**

Ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlarining chiqarilishi ko'p jihatdan ishni sudda ko'rishga tayyorlash vazifalarining qay darajada amalga oshirilishiga ham bog'liq bo'ladi. FPKning 201-moddasida **ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifaları** sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko'rishda amal qilinishi lozim bo'lgan qonunni aniqlash;
taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek nizoni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni aniqlash;
ishni hal qilish uchun zarur bo'lgan dalillar doirasini aniq-lash va ularning o'z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta'minlash;
ishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxslar tarkibi to'g'risidagi masalani hal qilish;
taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan zarur bo'lgan dalillarni taqdim etilishi;
taraflarni yarashtirish.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlash jarayonida FPKning 201-moddasida nazarda tutilgan

taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko‘rishda amal qilinishi lozim bo‘lgan qonunni aniqlash kabi vazifani to‘g‘ri amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga amal qilmaslik sud tomonidan ishni ko‘rishda amal qilinishi lozim bo‘lgan qonunlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi, ishga ishga daxldor bo‘lma gan taraflarning jalb etilishi kabi oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida sudya ishga daxldor bo‘lma gan tarafni almashtirish, sherik ishtirokchilik masalalariga alohida e’tibor berishi talab etiladi. Zero, FPKning 201-moddasida ishni sudda ko‘rishga tayyorlashning muhim vazifalari sifatida ishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslar tarkibi masalasini hal etish belgilab qo‘yilgan. Masalan, sud mehnatga oid nizoli ishlarni, xususan yetkazilgan zararni undirish haqidagi ishlarni suda ko‘rishga tayyorlashda jamoaning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha jamoaning barcha a’zolarini sherik javobgar sifatida protsessga jalb qilish choralarini ko‘rishi lozim. Shuningdek, ayrim hollarda xodimga yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash jarayonida zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan mansabdor shaxsnинг g‘ayriqonuniy xatti-harakat (harakatsizlik)lar sodir etganligi aniq bo‘lib qoladi. Bunday hollarda sudya mazkur shaxsni albatta sherik javobgar sifatida ishda ishtirok etish uchun jalb etishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu sherik javobgar sifatida tegishli javobgarning protsessual holatini aniqlab olishga ham imkon yaratadi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash bosqichida sudya taraflarni yarashtirish choralarini ko‘rishi muhim hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda ham da’vo tartibida ish yuritishda taraflarni kelishtirish va kelishuv bitimiga erishish muayyan bir fuqarolik ishlari bo‘yicha ish yuritish tuga-tilishining a’lo darajadagi natijasi hisoblanishi qayd etiladi.

Taraflar o‘rtasida kelishuv bitimini tuzish ehtimolining mavjudligini aniqlash va uning huquqiy oqibatlarini tushuntirish ishlarini amalga oshirishda sudya tomonidan ishni tayyorlash tartibida taraflarni so‘roqlash muhim

ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim sudyalar ishni sudda ko'rish uchun tayyorlash tartibida taraflarni so'roqlash masalasiga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Vaholanki, zarur bo'lgan hollarda, ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida suda taraflarni so'roq qilishi mumkin. Bunda suda:

1) da'vogarni o'zi arz qilingan talablarning mohiyati bo'yicha so'roq qiladi, undan javobgar bildirishi mumkin bo'lgan e'tiroz-larni aniqlaydi va, agar bu zarur bo'lsa, da'vogarga qo'shimcha dalillar takdim etishni taklif qiladi, shuningdek arz qilingan talablaridan voz kechish huquqini hamda voz kechipshing huquqiy oqibatlarini tushuntiradi;

2) ishning holatlari bo'yicha javobgarni so'roq qiladi, da'vogarning talabiga qarshi uning qanday e'tirozlar borligini va bu e'tirozlar qanday dalillar bilan tasdiqlanishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek javobgarga da'vogarning talablarini tan olish yoxud qarshi talablar qo'zg'atish huquqini tushuntiradi, alohida murakkab ishlar bo'yicha esa, javobgarga ish yuzasidan yozma tushuntirishlar taqdim etishni taklif qiladi. Javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda uning tomonidan yozma tushuntirishlar va dalillar taqdim etilmaganligi ishni ishdagi mavjud dalillar bo'yicha ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi;

3) taraflardan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish ehtimolini aniqlaydi va kelishuv bitimning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi (FPKning 203-moddasi).

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bosqichida suda FPKning 106-moddasida ko'rsatilgan da'voni ta'minlash choralarini ko'rish huquqiga ega. Da'voni ta'minlash choralarini ko'rmaslik ish yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarorlarining ijrosini qiyinlashtirishi yoki uni bajarib bo'lmaydigan qilib qo'yishi mumkin.

## **8.7. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha suda tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlarning hajmi va mazmuni**

Sudya nizoni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hal etilishini ta’minlash uchun turli protsessual harakatlarni sodir etishga haqlidir. Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo‘yicha harakatlari FPKning 204-moddasida belgilangan. Unga muvofiq, sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) ishga uchinchi shaxslarning jalb etilishi yoki kirishishi to‘g‘risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etishiga yo‘l qo‘ylgan, mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarni FPKning 203-moddasiga muvofiq so‘roq qiladi;
- 2) ishni ko‘rishda vakillarning qatnashishi masalasini hal qiladi;
- 3) ishda prokurorning ishtirok etishi to‘g‘risidagi va sud protsessida ishtirok etish uchun tegishli davlat boshqaruvi organini jalb etish haqidagi masalani hal qiladi;
- 4) sherik da’vogarlarning, sherik javobgarlar va uchinchi shaxslarning ishga kirishishi to‘g‘risidagi masalani hal qiladi, shuningdek ishga daxldor bo‘lmagan javobgarni almashtirish haqidagi masalani hal kiladi;
- 5) guvochlarni sud majlisiga chaqirish to‘g‘risidagi masalani hal qiladi;
- 6) tashkilotlardan yoki fuqarolardan yozma va ashyoviy dalil-larni talab qilib oladi yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sudga taqdim etish uchun bu dalillarni olishga doir so‘rovlar beradi;
- 7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini inobatga olgan holda, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb etish to‘g‘risidagi masalani hal qiladi;
- 8) kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, joyga chiqib ko‘zdan kechirishni amalga oshiradi;
- 9) boshqa sndlarga sud topshiriqlari yuboradi;
- 10) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi;
- 11) bir turdagи ishlarni birlashtirish va bir nechta talabni alohida ish yuritishga ajratish to‘g‘risidagi masalani hal

qiladi;

- 12) da'voni va dalillarni ta'minlash masalasini hal qiladi;
- 13) taraflarni yarashtirish choralarini ko'radi;
- 14) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish to'g'risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga bunday sud majlisida ishtirok etish huquqini tushuntiradi.

a. Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida boshqa zarur protsessual harakatlarni ham amalga oshiradi. Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari suda tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmagan holda ajrim bilan rasmiylashtiriladi.

## **8.8. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatları**

FPKning 202-moddasida ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatları mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash ariza qabul qilingan va fuqarolik ishi qo'zg'atilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash uchun belgilangan ushbu o'n kunlik muddat sudning asoslantirilgan ajrimi asosida o'ta murakkab ishlar bo'yicha yigirma kungacha uzaytirilishi mumkin, masalan, mulk huquqini tan olish va tugatish (shu jumladan, bitimlar, meros qabul qilish, davlat mulkini xususiylashtirish) yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish, shuningdek ekspertiza o'tkazishni talab qiladigan, sud topshirig'ini yuborish, ishni ko'rayotgan sud faoliyati hududidan tashqarida bo'lган fuqaro va tashkilotlardan materiallarni talab qilib olish bilan bog'liq hollarda. Bunda, suda ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatini uzaytirish haqida asoslantirilgan ajrim qabul qilishi shart.

Aliment undirish, fuqaroning sog'ligiga shikast yetishi yoki uning vafoti munosabati bilan yetkazilgan zararni to'lash

shuningdek, boquvchisini yo‘qotganligi, mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatining uzaytirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sudya ishni yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko‘rishga tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida ma’lum qiladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig‘iga binoan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1. Sudyaga kelib tushgan arizalarni o‘rganadi va ularni ko‘rish yuzasidan takliflar kiritadi, sud hujjatlari loyihamalarini tayyor-laydi;

2. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda, shu jumladan ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlashda va boshqa shaxslarni jalb qilish to‘g‘risidagi masalani hal etishda ishtirok etadi;

3. Sud protsessini tayyorlashni va o‘tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi;

4. Arizalar va murojaatlar, shuningdek ko‘rilishi keyinga qoldirilgan yoki ish yuritish to‘xtatib turilgan ishlar o‘z vaqtida ko‘rilishi ta’minlanishini tashkil etadi;

5. Taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilarini ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida xabardor qiladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig‘iga binoan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin (FPK 172-moddasi).

## **8.9. Sud chaqiriqlari va sud xabarları**

Sudda ishni muhokama qilinishining vaqt va joyi haqida yoki sudning qanday protsessual harakatni amalga oshirish haqidagi axborotlar bilan manfaatdor shaxslarni boxabar

qilish – sud majlisida manfaatdor shaxslarning shaxsan ishtirok etish huquqini amalga oshirish kafolatidir. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga xabar berish sudning majburiyati va sudda ishni muhokama qilishni amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi. Qonunga muvofiq sud chaqiruv qog‘ozidan foydalanadi. U xabar berishning shartlar majmuasiga rioya qilishni nazarda tutadi:

1) Sud chaqiruv qog‘ozi sudda ishtirok etayotgan taraflarga sudga kelishi uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirdagina jo‘natiladi.

2) Sudda ishtirok etayotgan shaxslarga xabar berish uchun sud, sud chaqiruv qog‘ozidan foydalanadi. Shaxslarning kelishi qonun yoki sud tarafidan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Haqiqatning qaror topishida ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan hollarda shaxslarga, guvoh, ekspert, tarjimon, mutaxassislarga chaqiriqlar jo‘natiladi. Ularga sud majlisiga yoki alohida protsessual harakatni amalga oshirish joyiga kelish talabi ko‘rsatilgan. Bu shaxslarning barchasi uchun sudga kelish majburiydir.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud chaqiruv qog‘ozi yoki FPKning 156-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilganidek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va guvohdar sud chaqiruv qog‘ozlari, zarur hollarda esa buyurtma xatlar, telefonogrammalar, telegrammalar va xabardor qilinganlik fakti qayd etilishini ta’minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali sudga chaqiriladi hamda sudning ayrim protses-sual harakatlari to‘g‘risida xabardor qilinadi.

Sudga chaqirish to‘g‘risidagi sud chaqiruv qog‘ozi yoki boshqa chaqiriqning mazmuni FPKning 157-moddasida belgilangan. Haqiqatning qaror topishida ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan hollarda shaxslarni chaqirish uchun faqatgina o‘rnatilgan shakldagi sud chaqiruv qog‘ozilaridan foydalaniladi.

3) Sud chaqiruv qog‘ozilarning yetkazib berilishi lozim bo‘lgan manzillar sudga berilgan arizada ko‘rsatilishi shart. Fuqarolik ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng o‘z manzili

o‘zgarganligi haqidagi ma’lumot ishda ishtirok etuvchi har bir shaxsning majburiyati bo‘lib qoladi (FPKning 163 va 188-moddalar). Sudga o‘z manzili o‘zgargan-ligi haqidagi ma’lumotni taqdim etmagan yoki o‘z manzilini noto‘g‘ri ko‘rsatgan shaxslarga tegishli javobgarlik belgilangan.

Da‘vogar va javobgarning ishlayotgan manzili aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, sud qonunda nazarda tutilgan holatlarda xabar berishi lozim bo‘lgan shaxslarga, ko‘rsatilgan manzilga sud chaqiruv qog‘ozini jo‘natishi mumkin. Sud chaqiruv qog‘ozini yetkazib berilishi sud tarafidan belgilanadi.

Sudning chaqiruv qog‘ozi yoki boshqa xabarnoma chaqirilayotgan shaxsga taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs tomonidan ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha yetkazib beriladi. Agar fuqaro sudga ma’lum qilingan manzilda haqiqatda yashamasa, sudning chaqiruv qog‘ozi yoki boshqa xabarnoma uning ish yoki o‘qish joyiga yuborilishi mumkin. Sudning chaqiruv qog‘ozi yoki boshqa xabarnoma aloqa tashkiloti orqali topshirilganligi to‘g‘risida tilxat olish yo‘li bilan yoki xat-hujjat tashuvchi orqali yuboriladi. Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) ishda ishtirok etuvchi shaxsning roziligi bilan unga ish bo‘yicha chaqirilayotgan boshqa shaxsga topshirish uchun sudning chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani berishi mumkin. Sudning chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani yetkazib berish vazifasi yuklatilgan shaxs hujjatning ikkinchi nusxasini chaqiriluvchining uni olganligi to‘g‘risidagi imzosi bilan sudga qaytarishi shart. Ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan elektron pochta manzili ko‘rsatilgan taqtsirda, sudning chaqiruv qog‘ozi yoki boshqa xabarnoma elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin (FPKning 159-moddasi).

Sud chaqiruv qog‘ozida qaysi shaxsning ismi ko‘rsatilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga beriladi. Agarda shaxsning o‘zi bo‘lmasa, uning yaqin qarindoshlariga berishi ham mumkin. Sud chaqiruv qog‘ozini qabul qilgan shaxs uni olganligi haqida imzo qo‘yishi lozim. Shaxsning sud chaqiruv qog‘ozini olganligi haqida imzo qo‘yishdan bosh tortishi sud chaqiruv

qog‘ozini qo‘lga berilganligi bilan teng hisoblanadi.

FPKning 161-moddasi talabida sudning chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortish oqibatlari keltirilgan. Unga ko‘ra: chaqiriluvchi o‘z nomiga yuborilgan sudning chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortsa, uni keltirgan shaxs sudning chaqiruv qog‘oziga yoki boshqa xabarnomaga tegishli belgi qo‘yib, uni sudga qaytaradi. Chaqiriluvchi sudning chaqiruv qog‘ozini yoxud boshqa xabarnomani qabul qilib olishdan bosh tortganligi haqidagi belgi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yoki ish beruvchi (ma’muriyatning mansabдор shaxsi) yohud o‘quv muassasasi tomonidan yoki kamida ikki nafar fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi. Chaqiriluvchi sudning chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani qabul qilishdan bosh tortganligi yoki axborot tizimi orqali elektron tarzda xabardor qilingan shaxsnинг uzrsiz sabablarga ko‘ra kelmaganligi ishni muhokama qilishga to‘sqinlik qilmaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxsning yashash joyi noma’lum bo‘lganida sud FPKning 164-moddasiga muvofiq ish tutadi. Joylashgan manzili noma’lum bo‘lgan javobgarga nisbatan qonunda alohida holatlar ko‘zda tutilgan. FPKning 164-moddasiga ko‘ra javobgarning amaldagi turish joyi noma’lum bo‘lsa, javobgarning oxirgi yashash joyidagi aloqa tashkiloti, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yoxud oxirgi ish joyidagi ish beruvchi (ma’muriyatning mansabдор shaxsi) sud chaqiruv qogozining yoki boshqa xabarnomaning ikkinchi nusxasiga mazkur organlar yoki tashkilotlar sud chaqiruv qog‘ozini yoki boshqa xabarnomani olganligi va uni chaqiriluvchining turish joyi noma’lumligi sababli unga topshirishning imkonи bo‘lмаганлиги haqida yozib yuborgan ma’lumot sudga kelib tushgach, sud ishni muhokama qilishga kirishadi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Da'vo arizasi nima?
2. Da'vo arizasining tuzilishi va mazmuni haqida gapiring.
3. Arizani qabul qilishni rad qilishning qanday asoslari mavjud?
4. Ishni sud muhokamasiga tayyorlashning qanday vazifalari mavjud?
5. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha sudya tomonidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlarning nimalardan iborat?
6. Ishni sud muhokamasiga tayyorlash qancha muddatda amalga oshiriladi?
7. Sudga chaqirish to'g'risidagi sud chaqiruv xatining mazmuni nimalardan iborat?
8. Sud chaqiruv xatini qabul qilib olishdan bosh tortishning qanday oqibatlari mavjud?
9. Javobgarni qidirish uchun qanday asoslar bor?

## **1-kazus**

16 yoshli A. ismli shaxs aliment undirish to‘g‘risidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Sud FPKning 195-moddasining 1-bandiga ko‘ra, ya’ni ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligi asosida da’vo arizasini qaytargan.

**Savol:** 1) Sud tomonidan kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganmi?

2) Da’vo arizasini qabul qilishni qaytarish qaysi hollarda yo‘l qo‘yiladi?

## **2-kazus**


S. ishga tiklash haqidagi da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Sudya da’vogarga xodimni ishdan bo‘shatish haqidagi buyruq nusxasini taqdim etish majburiyatini yukladi. Da’vogar esa korxona rahbari ushbu buyruqning nushasini berishdan bosh tortganligini ko‘rsatgan. Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash tartibida sudyda javobgar zimmasiga ishdan bo‘shatish haqidagi bo‘yruq nusxasini va S. ning mehnat faoliyati bilan bog‘liq kasaba uyushmasi tomonidan beriladigan tavsifnomani topshirish majburiyatini yukladi. Sud tomonidan tayinlangan muddat ichida javobgar tomonidan ushbu hujjatlar sudga taqdim qilinmagan. Shu munosabat bilan sudyda korxona rahbari va kasaba uyushmasi raisi zimmasiga sud jarimalarini solish haqida ajrim chiqqangan.

**Savol:** Sudning harakatlari to‘g‘rimi?

## **9-BOB. SUD MUHOKAMASI**

### **9.1. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud majlisi va uning qismlari**

Fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish protsessual qonunchilik belgilab bergan qat’iy tartibda o‘tkaziladi. Sud bajariladigan ishlar hajmiga qarab quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin:



**Sud ishining tayyorgarlik qismi** ishni mazmunan ko‘rib chiqish imkoniyatining mavjudligini aniqlashga qaratilgan protsessual harakatlar tizimini tashkil etadi.

Ishni ko‘rish uchun tayinlangan vaqtida sudyalar (sudyalar) majlis zaliga kiradi, sud majlisini ochib, qanday ish ko‘rilishini e’lon qiladi. So‘ngra sud majlisining kotibi ish bo‘yicha chaqirilganlardan kimlar kelganligini, kelmaganalarga chaqiruv qog‘ozni topshirilgan-topshirilmaganligini, ularning kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini sudga ma’lum qiladi.

Sud kelganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek mansabdon shaxslar va vakillar, shu jumladan advokatning ham vakolatini tekshiradi. O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga ko'ra, advokatning muayyan ishni olib borishga vakolatli ekanligi order bilan tasdiqlanadi. Advokatning ishda ishtirok etishga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Raislik qiluvchi tarjimonga uning vazifasi sud ish yuritayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning tushuntirishlarini, ko'rsatuvarlarini, arzlarini, bu shaxslarga esa, tushuntirishlarning, ko'rsatuvlarning, arzlarning, o'qib eshittiriladigan hujjatlarning mazmunini, shuningdek raislik qiluvchining farmoyishlarini, ish bo'yicha sudning hal qiluv qarori va ajrimini tarjima qilib berishdan iborat ekanligini tushuntiradi. Raislik qiluvchi tarjimonni bila turib, yolg'on tarjima qilsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasi bo'yicha javobgar bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi. O'z navbatida, bu ish sud majlisining tayyoragarlik qismida amalga oshirilishi sudda til bilmaslik oqibatida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarining hamda qonunbzilishining oldini olishga qaratiladi.

Sud majlisining tayyorgarlik qismidagi navbatdag'i harakat guvohlarning kelgan-kelmaganligi tekshirilgach, sud majlisida hozir bo'lgan guvohlarni sud majlisi zalidan chiqarish hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida raislik qiluvchi so'roq qilingan guvohlarning so'roq qilinmagan guvohlar bilan muomalada bo'lmasligi uchun choralar ko'radi.

Guvohlar sud zalidan chiqarib yuborilganlaridan so'ng raislik qiluvchi sudning tarkibini (sudyani) e'lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, sud majlisining kotibi sifatida kimlar qatnashayotganligini ma'lum qiladi va ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularni rad qilish to'g'risida arz qilish huquqlarini tushuntiradi.

Quyidagi hollarda sudya ishni ko'rishi mumkin emas va

rad qilinishi lozim, agar u:

1) shu ish ilgari ko‘rilganida suda sifatida ishtirok etgan bo‘lsa va FPK talablariga muvofiq ishni ko‘rishda takror ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmasa;

2) ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lsa yoxud uning holisligi va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa;

3) shu ish ilgari ko‘rilganida hakamlik sudining sudyasi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisining kotibi, guvoh va vakil sifatida ishtirok etgan bo‘lsa;

4) taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo‘lsa;

5) ishni ko‘rayotgan hay’at tarkibiga kiruvchi sudyaning qarindoshi bo‘lsa (FPK 21-moddasi).

FPK 21-moddasining 2 va 4-bandlarida ko‘rsatilgan rad qilish asoslari prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Agar ekspert, mutaxassis va tarjimon taraflar yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga xizmat yuzasidan yoxud boshqacha tarzda qaram bo‘lsa, agar ekspert va mutaxassis ham taftish o‘tkazgan yoxud xulosa bergen bo‘lib, ularning materiallari mazkur ishni qo‘zg‘atishga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, ularni rad qilish to‘g‘risida ariza berilishi mumkin (FPKning 22-moddasi).

FPKning 20-moddasiga muvofiq, ishni birinchi instansiya sudida ko‘rgan suda, agar sudning hal qiluv qarori appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi tomonidan bekor qilingan bo‘lsa, bu ishni takroran ko‘rishi mumkin emas. Ishni birinchi instansiya sudida ko‘rgan suda shu ishni appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudida ko‘rishi ishtirok etishi mumkin emas. Ishni appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rishi ishtirok etgan suda shu ishni birinchi, kassatsiya, nazorat instansiyasi sudida ko‘rishi ishtirok etishi mumkin emas.

Undan tashqari, ishni kassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishi ishtirok etgan suda shu ishni birinchi, appellatsiya yoki nazorat instansiyasi sudida ko‘rishi ishtirok etishi

mumkin emas.

Ishni nazorat tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ko'rishda ishtirok etgan suda shu ishni birinchi instansiya, appellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida yoxud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida nazorat tartibida ko'rishda ishtirok eta olmaydi. Ishni nazorat tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida ko'rishda ishtirok etgan suda shu ishni birinchi instansiya, appellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida yoxud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atida nazorat tartibida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Sud majlisining tayyorgarlik qismidagi navbatdag'i protsessual harakat ishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning FPKning 40-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish hisoblanadi. Bu haqda sud majlisining bayonnomasida ko'rsatib o'tiladi.

FPKning 205-moddasiga ko'ra, suda ish yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida muhokama qilishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi hamda taraflar va sud protsessining boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqt va joyi haqida xabardor qilish yuzasidan choralar ko'radi.

Ish protsessual huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari ishtirokida ko'rib chiqishlari kerak. Biroq sud protsessida barcha shaxslarning ham ishtirokini to'la ta'minlashning har doim iloji bo'limganligi sababli fuqarolik protsessual qonunchilik ularning sud majlisiga kelmaganliklari oqibatini nazarda tutadi. Unga ko'ra, FPKning 223-moddasiga asosan sud ish muhokamasini quyidagi hollarda keyinga qoldirishi mumkin:

- 1) tartib fuqarolar tomonidan ommaviy tarzda buzilganda;
- 2) raislik qiluvchi tomonidan ogohlantirilganidan so'ng prokuror yoki advokat uning farmoyishlariga bo'y sunmaganida;
- 3) taraflar (uchinchi shaxslar) tomonidan sud majlisidagi tartib buzilganda;
- 4) o'ziga sud chaqiruv qog'oz'i yoki boshqa xabarnomalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'limgan

ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud majlisiga kelmaganda;

5) tegishli tarzda xabardor qilingan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan biror-biri sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmaganda;

6) tegishli tarzda xabardor qilingan taraflar sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmaganda, agar ulardan birortasidan ham sud muhokamasi ularning ishtirokisiz o'tkazilishi to'g'risida ariza kelib tushmagan bo'lsa;

7) sud majlisiga guvoh, tarjimon, ekspert yoki mutaxassis kelmaganda, agar ularning ishtirokisiz ishni ko'rish imkonи bo'lmasa;

8) da'vogar ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishga rozi bo'lmasa;

9) qarshi da'vo taqdim etilganda;

10) sud majlisi yuritishda texnik vositalaridan, shu jumladan videkonferensaloqa tizimidan foydalanilganda texnik nosozlik-lar kelib chiqqanda;

11) qo'shimcha dalillar takdim etish yoki talab qilib olish zarur bo'lganda;

12) ishda ishtirok etish uchun boshqa shaxslar jalb qilinganda yoki boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilganda.

Keyinga qoldirilgan ishni ko'rish kelgan joyidan davom ettiriladi. Biroq, agar ish FPKning 39-moddasida sanab o'tilgan yangi shaxslarni jalb qilish uchun keyinga qoldirilgan bo'lsa, ishni ko'rish yangidan boshlanadi.

Sud majlisining vaqtি va joyi to'g'risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, da'vogar e'tiroz bildirmasa, ish sirtdan ish yuritish tartibida ko'riliши mumkin. Ishni bunday tartibda ko'rish haqida sud ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma'lumot bo'lishi lozim.

Ishda ishtirok etuvchi shaxsning vakili ishni sudda ko'rish vaqtি va joyi to'g'risida xabardor qilingan bo'lishiga qaramay, sudga kelmaganligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Prokuror yoki advokatning uzrsiz sabablar bilan

kelmaganligi to‘g‘risida sud xususiy ajrim chiqaradi va bu haqda tegishli yuqori turuvchi prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma’lum qiladi.

**Ishni mazmunan ko‘rishni boshlash qismi** raislik qiluvchining ish to‘g‘risidagi ma’ruzasidan boshlanadi. So‘ngra raislik qiluvchi da‘vogardan o‘z talablarini quvvatlash-quvvatlamasligini, javobgardan da‘vogarning talablarini tan olishmasligini va taraflarning ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashni istash-istamasliklarini so‘raydi.

Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da‘vagar talablarini tan olganligi yoki taraflar erishgan kelishuv bitimining shartlari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi va tegishlichcha, da‘vogar, javobgar yoki ikkala taraf tomonidan imzolanadi. Agar da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligi, javobgarning da‘vogar arz qilgan talablarni tan olganligi yoki taraflarning kelishuv bitimi ularning sudga yuborgan yozma arizalarida ifodalangan bo‘lsa, mazkur arizalar ishga qo‘sib qo‘yilib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi.

Da‘vogarning arz qilgan talablaridan voz kechganligini qabul qilishdan yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin sud da‘vogarga yoki taraflarga tegishli protsessual harakatlar qilishning oqibatlarini tushuntiradi.

Ish to‘g‘risida ma’ruza qilinganidan so‘ng, sud da‘vogar va uning tomonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxsning, javobgar va uning tomonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxsning, shuningdek ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ariza bergen prokuror, shuningdek boshqa shaxslar arz qilgan talablarini bo‘yicha tushuntirishlar berish yoki ularni asoslash uchun birinchi bo‘lib so‘zga chiqadilar. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bir-birlariga savollar berishga haqlidirlar.

Sud taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini eshitib, guvohlarni, ekspertlarni so‘roq qilish hamda boshqa dalillarni tekshirish

tartibini belgilaydi.

Har bir guvoh sud majlisida alohida so‘roq qilinadi va so‘roqdan so‘ng, agar sud unga ilgariroq ketishga ruxsat bermasa, to ishni ko‘rib chiqish tamom bo‘lguncha sud majlisi zalida qoladi. Raislik qiluvchi guvohni so‘roq qilishdan oldin uning shaxsini, yoshini, mashg‘ulot turimi, shu ishga aloqasini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatini aniqlaydi, shuningdek uni bila turib yolg‘on ko‘rsatuv bergenlik uchun Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantiradi. Shundan keyingina guvohga savollar berilishi mumkin, chunonchi guvoh kimning arizasi bo‘yicha chaqirilgan bo‘lsa, ana shu shaxs va uning vakili birinchi bo‘lib, so‘ngra esa, ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar guvohga savollar beradi. Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan guvohga savollarni birinchi bo‘lib da‘vogar beradi.

**Sud muzokaralari** ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlaridan iborat bo‘ladi. Sud muzokarasida qatnashuvchilar o‘z nutqlarida sud aniqlamagan holatlarni, shuningdek sud majlisida tekshirilmagan dalillarni vaj qilib keltirishga haqli emaslar.

FPKning 244-moddasi sud muzokaralarida so‘zga chiquvchilar uchun qat‘iy tartibni belgilaydi. Unga ko‘ra, sud muzokaralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nutqlaridan iborat bo‘ladi. Sud muzokaralari ishtirokchilari o‘z chiqishlarida sud tomonidan aniqlamagan holatlarga, shuningdek sud majlisida tekshirilmagan dalillarga asoslanishga haqli emas. Dastlab da‘vogar va uning vakili, keyin javobgar hamda uning vakili so‘zga chiqadi. Boshlangan sud protsessida nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilgan uchinchi shaxs va uning vakili taraflardan keyin so‘zga chiqadi. Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bildirmagan uchinchi shaxs va uning vakili uchinchi shaxs ishda kaysi da‘vogarning yoki javobgarning tarafida ishtirok etayotgan bo‘lsa, shu da‘vogar dan yoxud javobgardan keyin so‘zga chiqadi. Boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan

manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan prokuror, shuningdek davlat boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning vakillari yoki ayrim fuqarolar sud muzokalarida birinchi bo‘lib so‘zga chiqadi. Sud tomonidan sud protsessida ishtirok qilishga jalb etilgan yoki protsessga o‘z tashabbusi bilan kirishgan davlat boshqaruvi organlarining vakillari sud muzokalarida taraflar va uchinchi shaxslardan keyin so‘zga chiqadi. Sud muzokalarari ishtirokchilari birbirlariga luqma tashlashi mumkin. Oxirgi luqma huquqi doimo javobgar va uning vakiliga tegishli bo‘ladi.

Rasmiy jihatdan sud muzokalarlardagi chiqishlarning davomiy-ligini cheklay olmaydi. Biroq FPKning 211-moddasiga ko‘ra, raislik qiluvchi ko‘rilib chetlatish huquqiga ega. Shuning uchun sudya agar notiq ish mohiyatidan chetga chiqsa, uni to‘xtatish huquqiga ega.

Sud muzokalaralaridan so‘ng boshqa shaxslar tomonidan boshlangan protsessda ishtirok etayotgan **prokuror ishning mohiyati bo‘yicha o‘z fikrini** bayon etadi. Agar sud muzokalararini eshitgach, sudya ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan yangi holatlarni aniqlash yoki yangi dalillarni tekshirishni zarur deb topsa, ishni mazmunan ko‘rishni tiklash to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Ishni mazmunan ko‘rish tamom bo‘lganidan keyin, sud muzokalarari umumiy tartibda o‘tkaziladi.

Sud muzokalarini eshitgach, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqadi, bu haqda raislik qiluvchi sud majlisida hozir bo‘lganlarga e’lon qiladi.

**Sud hal qiluv qarorini chiqarish va uni e’lon qilish qismi** sud majlisining yakunlovchi qismi hisoblanadi. Mazkur qismda ishni mazmunan ko‘rishning yakuni sudning hal qiluv qarori tarzida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi.

Sud muzokalararini eshitgach, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqadi, bu haqda raislik qiluvchi sud majlisida hozir bo‘lganlarga e’lon qiladi.


Hal qiluv qarori sudya tomonidan alohida xonada

(maslahat-xonada) qabul qilinadi, yozma ravishda tuziladi va sudya tomonidan imzolanadi. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishiga doir konstitutsiyaviy prinsipning eng muhim kafolatlaridan biri hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishidir. Muhokama xonasida faqat ishda ishtirok etgan sudyalargina bo‘lishi talab etiladi. Hal qiluv qarorini qabul qilish vaqtida boshqa shaxslarning hozir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Agar hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa, ushbu holat protsessual huquq normalarining buzilishi, deb baholanadi va hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi (FPKning 377-moddasi 5-bandı).

## **9.2. Ish ko‘rishni keyinga qoldirish**

Ish ko‘rishni keyinga qoldirish bir qator oqibatlarni yuzaga keltiradi. Xususan, ishni ko‘rish keyinga qoldirilgan taqdirda, keyinga qoldirilgan ishni ko‘rish qolgan joyidan davom ettiriladi. Biroq, FPKning 39-moddasida sanab o‘tilgan yangi shaxslarni, xususan, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, ariza beruvchilar va sudda ko‘rilayotgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo‘yicha boshqa manfaatdor shaxslar, prokuror, ishda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarni jalb qilish uchun keyinga qoldirilgan ishlar bundan mustasno. Chunki bunday holda ishni ko‘rish yangidan boshlanishi lozim.

Fuqarolik protsessual kodeksining 223-moddasida sud ish muhokamasini quyidagi hollarda keyinga qoldirishi mumkin:



Sud ishni sud majlisida ko'rish imkonini bo'lмаган boshqa hollarda ham muho kamani keyinga qoldirishi mumkin.

Sud muho kamasi uni keyinga qoldirish uchun asos bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga, sud muho kamasingin FPKda nazarda tutilgan

muddati doirasida keyinga qoldirilishi mumkin.

Sud ish muhokamasini keyinga qoldirganda, keyingi sud majlisining vaqtini belgilaydi, bu haqda hozir bo‘lgan shaxslarga imzo qo‘ydirgan holda e’lon qiladi. Sudga kelmagan va sud protsessida ishtirok etish uchun yangidan jalb qilinadigan shaxslar keyingi sud majlisining vaqtini to‘g‘risida FPKning **16-bobida** nazarda tutilgan tartibda xabardor qilinadi.

Ish ko‘rishni keyinga qoldirish, shuningdek ish yuritishni to‘xtatib turishdan o‘zining asosi, huquqiy oqibati, muddati va shikoyat berish tartibi bilan o‘zaro farqlanadi.

### **9.3. Sudda ish yuritishni to‘xtatish**

<b>Sudning ish yuritishni to‘xtatib turish majburiyati (FPKning 116-moddasi)</b>	<b>Sudning ish yuritishni to‘xtatib turish huquqi (FPKning 117-moddasi)</b>
1) ishda taraf bo‘lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ysa yoki ishda taraf bo‘lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda;	1) taraf O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotganda yoki mazkur shaxslar davlatning biror-bir majburiyatini bajarish uchun jalb qilinganda;
2) fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo‘qotganda;	2) taraf davolash muassasasida bo‘lganda, shuningdek taraflardan birida sudga kelishga to‘sinqilik qiladigan, tibbiyot muassasasining ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik mavjud bo‘lganda;
3) javobgar – fuqaro O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismida bo‘lganda yoki O‘zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlarining harakatdagi qismidagi da‘vogar – fuqaro tegishli iltimosnoma bilan murojaat qilganda;	3) FPKning 165-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgar qidirilayotganda;

<p>4) mazkur ishni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sud, jinoyat ishlari bo'yicha sud, ma'muriy sud yoki iqtisodiy sud tomonidan ko'rيلayotgan boshqa ish yoki masala yuzasidan, shuningdek tergov olib borilayotgan ish yuzasidan qaror qabul qilguniga qadar ko'rish imkonni bo'Imaganda;</p>	<p>4) taraf ishni ko'rib chiqish muddatidan ortiq muddatda xizmat safarida bo'lгanda, bundan ishda tashkilot vakillari ishtirok etayotgan hollar mustasno;</p>
<p>5) taraf chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida yoki uning ijrosini to'xtatib turish haqida chet davlatning vakolatli organiga iltimosnoma berganda.</p>	<p>5) sud tomonidan ekspertiza tayinlanganda;</p>
<p>6) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda.</p>	<p>6) FPKning 103 va 363-moddalariga muvofiq sud tomonidan sud topshirig'i yuborilganda.</p>

## **Sudda ish yuritishni to'xtatib turish muddatlari FPKning**

**118-moddasini bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, ish yuritish quyidagi vaqtga qadar to'xtatib turiladi:**

1) FPK 116-moddasining 1 va 2-bandlarda nazarda tutilgan hollarda – huquqiy voris ishga kirishguniga yoki ishga jalb qilinguniga qadar yoxud muomalaga layoqatsiz shaxsga qonuniy vakil tayinlanguniga qadar;

2) FPK 116-moddasining 3-bandida nazarda tutilgan hollarda – tarafning O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari-ning harakatdagisi qismida bo'lishi tugaguniga qadar;

3) FPK 116-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda – sudning hal qiluv qarori yoki hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoki ma'muriy tartibda ko'rيلayotgan ish bo'yicha qaror chiqarilguniga yohud tergov tamom bo'lguniga qadar;

4) FPK 116-moddasining 5-bandida nazarda tutilgan

hollarda – chet davlat sudining yoki hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi yoxud uning ijrosini to‘xtatib turish haqidagi iltimosnomasi chet davlatning vakolatli organi tomonidan hal qilinguniga qadar;

4<sup>1</sup>) FPK 116-moddasining 6-bandida nazarda tutilgan hollarda — mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tugaguniga qadar, biroq oltmis kundan ortiq bo‘limgan muddatda;

5) FPK 117-moddasining 1-bandida nazarda tutilgan hollarda – tegishincha tarafning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lishi tugaguniga yoki mazkur shaxslar davlat majburiyatini bajarib bo‘lguniga qadar;

6) FPK 117-moddasining 2-bandida nazardatutilgan hollarda – taraf davolash muassasasidan chiqquniga yoki tarafning sudga kelishiga to‘sinqinlik qilayotgan kasallik tuzalguniga qadar;

7) FPK 117-moddasining 3-bandida nazarda tutilgan hollarda – javobgarni qidirish tugallanganiga qadar;

8) FPK 17-moddasining 4-bandida nazarda tutilgan hollarda – taraf qaytguniga qadar;

9) FPK 117-moddasining 5-bandida nazarda tutilgan hollarda – ekspertiza o‘tkazish bo‘yicha harakatlar tugaguniga qadar;

10) FPK 117-moddasining 6-bandida nazarda tutilgan hollarda – sud topshirig‘ini ijob etish bo‘yicha harakatlar tugaguniga qadar to‘xtatib turiladi.

Sudning ish yuritishni to‘xtatib turish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat qilinishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Ish yuritish uni to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar barham topgach, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga muvofiq yoki sudning tashabbusi bilan tiklanadi.

Ish yuritish tiklanganida sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarda chaqiradi.

Sud ishini to‘xtatish sud qaroriga ko‘ra amalga oshadi va yuqoridagi sudsizlarga shikoyat arizasi bilan murojat qilish

mumkin. To‘xtatilgan sud ishi yana sudning o‘z tashabbusi yoki ishda ishtirok qilayotgan shaxslarning iltimoslariga ko‘ra qayta davom qildiriladi.

#### **9.4. Arizani ko‘rmasdan qoldirish**

**FPKning 122-moddasiga muvofiq, sud quyidagi hollarda arizani ko‘rmasdan qoldiradi, agar:**

- 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 2) manfaatdor shaxs nomidan ariza ish yuritishga vakolati bo‘lmagan shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;
- 3) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa;
- 4) taraflar o‘rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa;
- 5) ishni o‘zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasa, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;
- 6) ishni o‘zining ishtirokisiz muhokama qilishni iltimos qilmagan da’vogar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha sudga kelmasa, javobgar esa ishni mazmunan ko‘rishni talab qilmasa;
- 7) alohida tartibda yuritiladigan ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli huquq to‘g‘risida nizo kelib chiqsa;
- 8) xotini homilador bo‘lgan vaqtida yoki bola tug‘ilganidan keyin bir yil davomida er xotinining roziligesiz nikohni bekor qilish to‘g‘risida da‘vo taqdim etgan bo‘lsa;
- 9) da’vogar tomonidan arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida ariza berilgan bo‘lsa;

10) da'vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10<sup>1</sup>) da'vogar nizoni javobgar bilan mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish orqali hal qilish tartibiga rioya etmagan bo'lsa, basharti bu mazkur toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

10<sup>2</sup>) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish haqida iltimosnama bilan arz qilgan taraflar uni amalga oshirish muddati tugaganidan so'ng sud majlisiga uzrli sabablarsiz kelmasa;

10<sup>3</sup>) taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa;

11) mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'g'risidagi ariza qonunda belgilangan muddatdan oldin yoki egasiz mol-mulkni (ashyoni) aniqlash va hisobga olishning qonunda nazarda tutilgan tartibi buzilgan holda berilgan bo'lsa.

Arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi. Ajrimda sud ishning hal etilishiga to'sqinlik qilayotgan, FPK 122-moddasining 2, 5, 6, 7, 8, 10 va 11-bandlarida sanab o'tilgan holatlarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishi shart.

Sud FPK 122-moddasining 1, 3 va 4-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirib, ajrimda davlat bojini qaytarish va da'veoni ta'minlash yuzasidan ko'rilmagan choralarini bekor qilish haqida ko'rsatadi. FPK 122-moddasining 5, 6 va 7-bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha arizani ko'rmasdan qoldirish haqidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli.

Sud qonunda ko'rsatilgan hollarda arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimni bekor qilishi mumkin. Masalan, agar taraflar sud majlisiga uzrli sabablarga ko'ra kela olmanliklarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etsalar, da'vogar yoki javobgarning iltimosnomasiga binoan sud FPKning 122-moddasi 5 va 6-band-lariga asosan arizani ko'rmasdan qoldirish

to‘g‘risida chiqargan o‘z ajrimini bekor qiladi. Sudning bunday iltimosnomani qanoatlan-tirishni rad etish haqidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi va xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 123-moddasi).

Sudning arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimi ishning ilgarilashiga keyingi harakatlanishiga to‘sinqlik qilishi mumkin. Shuning uchun ham mazkur ajrimlar sud tomonidan ajrim topshirilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar appellatsiya instansiyasi sudiga sudning hal qiluv qaroridan alohida shikoyat berishlari, prokuror esa, protest keltirishi mumkin.

### **9.5. Hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish**

#### **Sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi:**

- 1) ish sudga taalluqli bo‘lmasa;
- 2) fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning, iqtisodiy sudning yoki ma’muriy sudning yoxud chet davlat vakolatli sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da’vogarning arz qilingan talablaridan voz kechishini qabul qilish to‘g‘risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi ajrimi mavjud bo‘lsa;
- 3) da’vogar arz qilingan talablaridan voz kechgan va sud bu voz kechishni qabul qilgan bo‘lsa;
- 4) taraflar kelishuv bitimi tuzgan va u sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa;
- 5) hakamlik sudining ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan hal qiluv qarori mavjud bo‘lsa, bundan sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berishni rad etgan hollar mustasno;
- 6) ish bo‘yicha taraflardan biri bo‘lgan fuqaroning vafotidan so‘ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka

yo'l qo'ymasa;

7) ish bo'yicha taraf bo'lib qatnashayotgan tashkilot tugatilgan bo'lsa (FPKning 124-moddasi).

8) Ish yuritish sudning ajrimiga binoan tugatiladi. Agar ish yuritish ishning sudga taalluqli bo'lmanligi sababli tugatilsa, sud arizachi qaysi organga murojaat qilishi kerakligini ko'rsatishi shart bo'ladi. Ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha nizo yuzasidan sudga ikkinchi marta murojaat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

## **9.6. Sud majlisining bayonnomasi**

Har bir sud majlisi to'g'risida, shuningdek sud majlisi zalidan tashqarida qilingan har bir alohida protsessual harakat to'g'risida bayonnomada tuziladi (FPKning 276-moddasi).

Bayonnomada barcha muhim harakatlar to'liq va aniq aks ettiriladi, chunonchi ularning amalga oshish tartibi qanday bo'lsa, bayonnomada ham shunday bo'ladi.

Sud majlisining bayonnomasida ishni ko'rishning yoki alohida protsessual harakatlarni amalga oshirishning barcha muhim jihatlari aks ettirilishi lozim.

**Sud majlisining bayonnomasida, xususan, quyidagilar ko'rsatiladi:**

- 1) sud majlisi bo'lib o'tgan yil, oy, kun va joy;
- 2) sud majlisi boshlangan va tamomlangan vaqt;
- 3) ishni ko'rayotgan sudning nomi, sudyaning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda sud majlisining kotibi;
- 4) ishning nomi va raqami:
  - a. ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va odil sudlovga ko'maklashayotgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to'g'-risidagi ma'lumotlar;
  - b. sudning taraflar va protsessning boshqa ishtirok-chilariga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirganligi;
  - c. ushbu moddaning 5-bandida ko'rsatilgan shaxslarga

sud chaqiruv qog‘ozlari va boshqa xabarnomalar topshirilganligi to‘g‘risidagi hamda ular sud majlisiga kelmaganligining sabablari haqidagi ma’lumotlar;

d. raislik qiluvchining barcha farmoyishlari va sudning alohida xonaga (maslahatxonaga) chiqmasdan chiqargan ajrimlari;

e. ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari;

f. sudga taqdim etilgan barcha yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning maslahatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

g. ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning o‘z xulosalarini og‘zaki tushuntirishlari, mutaxassislarning tushuntirishlari, ashyoviy va yozma dalillarni ko‘zdan kechirishga taalluqli ma’lumotlar;

h. sud muzokaralarining mazmuni va prokurorning fikri;

i. sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori o‘qib eshittirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (FPK 277-modda).

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar o‘zлari ish uchun ahamiyatli deb hisoblagan holatlarni bayonnomaga kiritish to‘g‘risida iltimosnomalar taqdim etishga haqlidirlar. Taraflarning, uchinchi shaxslarning o‘zлari qo‘ygan talablardan butunlay yoki qisman voz kechganligi, qo‘yilgan talablarga iqrorligi, ishni kelishuv bitimi bilan tamomlash to‘g‘risidagi arizalari bayonnomaga kiritilib, tegishli bo‘lishiga qarab, taraflarning biri yoki ikkalasi tomonidan imzolanadi.

Majlis bayonnomasida sud ishining borishi to‘la va holis o‘z aksini topishi uchun javobgarlikni qonun sud majlislarida raislik qiluvchilar zimmalariga yuklaydi. Bayonnomaga imzo chekishdan oldin raislik qiluvchi uning mazmuni bilan diqqat bilan tanishishi va kotibga zarur o‘zgartirishlarni kiritishni taklif qilishi lozim.

FPKning 279-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining bayonnomasi bilan tanishib chiqishga va unda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni yoki uning to‘liq emasligini u imzolangan kundan e’tiboran besh kun ichida ko‘rsatib, bayonnomaga yuzasidan yozma ravishda fikr-mulohazalar

bildirishga haqli. Bayonnomaga doir berilgan fikr-mulohazalarni raislik qiluvchi ko'rib chiqadi va u ushbu fikrlarga qo'shilgan taqdirda, bu fikr-mulohazalarning to'g'riligini tasdiqlaydi hamda ularni sud majlisining bayonnomasiga qo'shib qo'yadi. Raislik qiluvchi berilgan fikr-mulohazalarga qo'shilmasa, ular sud majlisida ko'rib chiqiladi. Berilgan fikr-mulohazalar barcha hollarda ham ishga qo'shib qo'yilishi kerak. Bayonnomaga doir fikr-mulohazalar ular topshirilgan kundan e'tiboran yetti kun ichida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Biroq, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning kelmaganligi bayonnomma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Sud protsessi ishtirokchilarini sud majlisining audio yoki videoyozuvi bilan tanishish huquqiga ega. Sud majlisining audio yoki videoyozuvlari ko'chirma nusxasi sud protsessi ishtirokchilariga ishni ko'rgan sudning ruxsati bilan beriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Sudda ish ko'rish deganda nimani tushunasiz va uning ahamiyati qanday?
2. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisi qanday qismlarga bo'linadi?
3. Ish ko'rishni keyinga qoldirishning qanday asoslari mavjud?
4. Qaysi hollarda sudda ish yuritish to'xtatilishi mumkin?
5. Arizani ko'rmasdan qoldirishning qanday asoslari mavjud?
6. Ish yuritishni tugatishning arizani ko'rmasdan qoldirishdan qanday farqi bor?
7. Sud majlisi bayonnomasining mazmuni haqida gapiring.

## **1-kazus**

**R.** tuman xalq ta'limi bo'limiga ish haqi undirish haqida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Sudning ajrimiga ko'ra, taraflar sud majlisiga uzrli sabablersiz kelmaganliklari uchun da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilgan.

*Savol: 1. Sudning ajrimi asoslimi?*

*2. Arizani ko'rmasdan qoldirish asoslarini ayting?*

## **2-kazus**

Da'vogar **T.** merosni bo'lish to'g'risidagi da'vo arizasi bilan fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudiga 2018 yil 1 avgustda murojaat qilgan. Sud ishni 2018 yil 18 avgust, 23 sentabr kunlari uchun ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirilgan. Ish materiallariga ko'ra, sud javobgarni tegishli tarzda sud majlisining vaqt va joyi to'g'risida xabardor qilingani haqida ma'lumot mavjud emas.

*Savol: 1) Sudning harakati to'g'rimi?*

*2) Sud qaysi hollarda ish ko'rishni keyinga qoldirishi mumkin?*

### **3-kazus**

Da'vogar S. sudga da'vo arizasi bilan murojaat etib, javobgar A.ni uydan ko'chirishni so'ragan. Da'vo arizasi sud tomonidan 2018 yil 2 aprel kuni ish yurituvga qabul qilingan.

Javobgar ishni ko'rish vaqtি va joyi to'g'risida tegishlichcha ogohlantirilishiga qaramay, tijorat ishlari bilan Rossiya Federatsiyasiga ketgan va sud uning tijorat maqsadida ketganliklari to'g'risida qo'shnisi A. ning tushuntirish xati asosida ish yuritishni to'xtatish to'g'risida ajrim chiqargan.

*Savol: 1) Tumanlararo sudning ajrimi asoslimi?  
2) Sud qaysi hollarda ish yuritishni to'xtatishga haqli bo'ladi?*

### **4-kazus**

Da'vogar A.Jo'rayev sudga B.Mallayevaga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo bilan murojaat etgan.

Sudda ish ko'rish vaqtida javobgar vafot etganligi sababli sud FPKning 124-moddasiga 6-bandiga asosan ish yuritishni tugatish haqida ajrim chiqargan.

*Savol:1) Birinchi instansiya sudining ajrimi asoslimi? Sud qaysi hollarda ish yuritishni tugatadi?*

## **10-BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HAL QILUV QARORI VA AJRIMLARI**

### **10.1. Sud hujjatlari turlari**



### **10.2. Sud hal qiluv qarori tushunchasi va ahamiyati**

Fuqarolar va tashkilotlarning subyektiv huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud protsessida turli xil fuqarolik ishlari hal qilinadi. O‘z navbatida, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish jarayonida sudning xulosalari muayyan protsessual shaklda belgilangan tartibda chiqariladigan sud hujjatlari tarzida ifoda etiladi.

Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qaroriga **hal qiluv qarori** deb aytildi (FPKning 249-moddasi). Bunday hal qiluv qarori sud tomonidan ko‘rilayotgan asosiy masalalarga javob tariqasida taraflardan da’vo talablari bo‘yicha, alohida tartibda ko‘riladigan ishlar bo‘yicha qabul qilinadi. Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qilmaydigan qaroriga **ajrim** deb aytildi (FPKning 271-moddasi).

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori yuqorida qayd etilgan birinchi instansiya sudining qarorlari mazmunini tavsiflovchi jihatlardan tashqari quyidagi o‘ziga xos belgilarga ham ega hisoblanadi:

**Birinchidan**, sud hal qiluv qarori – odil sudlovni amalgam oshiruvchi organning qarori hisoblanadi. Mazkur belgi birinchi instansiya sudining barcha qarorlari uchun xarakterli bo‘lsa-da, biroq mazkur xususiyat hal qiluv qarori uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, hal qiluv qarori nizoni mazmunan hal qiladigan sudning protsessual hujjati hisoblanadi. Boshqa sud qarorlaridan farqli ravishda hal qiluv qarorlari O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi (FPKning 249-moddasi ikkinchi qismi).

**Ikkinchidan**, sud hal qiluv qarori huquqni qo‘llash akti sifatida sud muhokamasiga yakun yasaydi, taraflar o‘rtasidagi nizoli moddiy huquqiy nizoni hal qiladi, qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni va buzilgan huquqlarni tiklaydi. Boshqa hujjatlar kabi sud hal qiluv qarori ham amaldagi qonun hujjatlari asosida qabul qilinadi va huquq normasini yaratmaydi.

**Uchinchidan**, sud hal qiluv qarori ishni mazmunan ko‘rish natijasida va protsessual shaklda chiqariladi. Sud bevosita sud majlisida ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlaydi va uning yakunida nizoni mazmunan hal qiladi. Fuqarolik protsessual qonunchilik sud hal qiluv qarorlarini chiqarish tartibi va ushbu jarayonda yechiladigan masalalarga oid normalarni belgilaydi. Qonun bilan hal qiluv qarorining mazmuni, hal qiluv qarorining yozuvidagi xatolar va ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish, uni tushuntirish, ijrosini kechiktirish va uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi va ijro etish masalalari mustahkamlab qo‘ylgan.

**Sudning hal qiluv qarori** – bu nizoni mazmunan hal qiluvchi va buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlar yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni tiklovchi, ishni mazmunan ko‘rish asosida sud tomonidan qonunda nazarda utilgan protsessual shaklda qabul qilinadigan protsessual hujjat hisoblanadi.

Har bir fuqarolik ishi bo'yicha bitta hal qiluv qarori chiqariladi. Hal qiluv qarori sud ishlarini yuritish turlarining buyruq tartibida ish yuritish turidan boshqa barcha turlarida chiqarilishi mumkin. Bular da'vo tartibidagi ishlar hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlardir. Mazkur sud ishlarini yuritish davomida fuqarolik protsessual qonunda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga rioya qilgan holda hal qiluv qarori chiqariladi. Lekin shu bilan birga qonunda ushbu toifadagi ishlar uchun ayrim istisno va qo'shimcha qoidalarni ham nazarda tutishi mumkin.

## **10.2. Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yiladigan talablar**

**Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan muhim talab uning qonuniy bo'lishi hisoblandi.** Sud ishda talab qilinayotgan holatlardan qat'i nazar, moddiy huquq normasini qo'llash yoki qo'llashni rad etish haqida qaror chiqaradi, lekin har qanday holatda ham huquqiy normaning mazmunini izohlaydi va uni ish holatlariga nisbatan tadbiq etadi. Fuqarolik ishlari yuritilayotganda jarayonning barcha bosqichida, buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanganligi hal qiluv qarorining bekor qilinishiga asos bo'ladigan protsessual normalarga qat'iy va aniq rioya qilinishi lozim (FPKning 377-moddasi).

Shunday qilib, sud ishlarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, boshqa qonun hujjatlarini ham qo'llaydi. Chunki nizoli munosabatni tartibga soladigan huquq normalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo'llaydi, bunday normalar mayjud bo'lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmunidan kelib chiqqan holda hal etadi. Sud O'zbekiston

Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomasiga muvofiq chet davlatning huquq normalarini ham qo'llaydi (FPKning 14-moddasi).

Zero, hal qiluv qarorining qonuniyligi sudlar tomonidan umum e'tirof etilgan prinsip va normalarga, mamlakat xalqaro shartnomalariga rioya etilishini anglatadi. Shuning uchun ham, agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo'llaniladi (FPKning 1-moddasi uchinchi qismi).

Bu qoida, birinchi navbatda xalqaro pakt va kelishuvlarda: 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1950-yil 4-noyabrda qabul qilingan "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari muhofazasi haqida"gi Yevropa Konvensiyasi, BMTning Bosh Assambleyasida 1966-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt va "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt va boshqa shartnomalarda mustahkamlangan inson huquqlariga nisbatan tadbiq etiladi.

**Hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan navbatdagi talab uning asosli bo'lishidir.** Sud hal qiluv qarorini faqat sud majlisida tekshirilgan materiallar bilan asoslashi belgilangan.

Hal qiluv qarorining asosliligi uning qonuniyligi bilan uzviy bog'liq. Agar sud hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yilgan birinchi talab, ya'ni uning qonuniy bo'lishi hal qiluv qarorining huquqiy tomoni bo'lsa, asoslilik esa uning faktologik tomoni hisoblanadi.

Darhaqiqat, moddiy huquq normalarini to'g'ri tatbiq etish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlab olish talab etiladi. Hal qiluv qarorida sud muhokamasida ishtirok etgan taraflar tomonidan to'liq bayon qilingan, ishni hal etishda muhim ahamiyat kasb etgan holatlarning barchasi bayon etilsa hamda taraflarning huquq va majburiyatlarini

belgilovchi holatlarni tasdiqlovchi dalillar keltirilsa asosli, deb hisoblanadi.

Isbotlash uchun isbotlash predmetini tashkil qiluvchi faktlar tegishli bo‘lib, ular oxir oqibat tegishli moddiy huquq norma-larini qo‘llash bilan aniqlanadi. Agar ish bo‘yicha yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar belgilanmasa, qaror asosli emas, deb topiladi va yuqori instansiya sudlari tomonidan bekor qilinadi. Shuning uchun ham sud hal qiluv qarorida qaror bilan belgilangan faktlarni tasdiqlovchi dalillar ko‘rsatilishi lozim. Faktlarni isbotlan-masligi qarorning asosli emasligidan darak beradi.

Sud hal qiluv qarori bilan tan olingan holatlar agar belgilangan tartibda tasdiqlangan va isbotlash vositalari orqali tasdiqlangan bo‘lsa, u isbotlangan, deyiladi.

Agar javobgar arz qilingan talabni tan olsa, sud hal qiluv qarorining asoslantirish qismida faqat arz qilingan talabning tan olinganligi va uning sud tomonidan qabul qilinganligi ko‘rsati-lish bilan cheklanadi. Arz qilingan talablar tan olinsa, boshqa holatlar qayd etilmaydi (FPKning 253-moddasi to‘rtinchı qismi).

### **10.3. Hal qiluv qarorining mazmuni**

Sudning hal qiluv qarori protsessual hujjat sifatida aniq va ravshan ifodalangan quydagi **to‘rt qismdan**:



Har bir qism o‘zining matni va mazmuniga ega bo‘lib, ular birligida sud hal qiluv qarorini tashkil qiladi. Shuning uchun hal qiluv qarorini yozishda sudlar FPKning 253-moddasi bilan belgilangan birin-ketinlikka riosa qilishlari talab etiladi.

**Hal qiluv qarorining kirish qismi.** Sud hal qiluv qarori

chiqarilayotgan qarorning nomi, ya’ni “**Hal qiluv qarori**” degan yozuv bilan boshlanadi. Kirish qismida sud hal qiluv qarorini O’zbekiston Respublikasi nomidan chiqarishi albatta ko’rsatilishi shart.

**Hal qiluv qarorining kirish qismida, shuningdek quyidagilar ko’rsatilishi talab etiladi:**

hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqt va joyi;  
hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi;  
sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi;  
taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar;  
nizo predmeti.

**Sud hal qiluv qarorining bayon qismi** ishning aniq holatlariga ko’ra ancha keng hajmli bo’ladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismi taraflar va boshqa shaxslar ish holatlarini qanday bayon qilgan bo’lsalar shunday tuziladi. Ushbu qismda da’vo talablarini, javobgar e’tirozlarining qisqacha mazmuni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlari aks ettiriladi. Da’vogarning da’voni o’zgartirganligi (da’voning asosini yoki predmetini o’zgartirish), da’vo talablarining miqdorini oshirish yoki kamaytirish, da’vadan voz kechish) shu yerda ko’rsatilmog’i kerak. Ushbu ma’lumotlar qanoatlantirish kerak bo’lgan da’vo predmetini aniqlashda kerak bo’ladi. Sud o’zgartirilgan talablar yuzasidan qaror chiqarishi lozim. Ammo da’vadan to‘liq voz kechilishi sud tomonidan qabul qilinsa, sud qaror emas, balki ish yuritishni tugatish haqidagi ajrimni qabul qiladi. Hal qiluv qarorining bayon qilish qismida, shuningdek taraflar va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning protsessual ahamiyat kasb etuvchi arzlari ham ko’rsatilishi mumkin.

**Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida** sudning ish bo’yicha chiqargan xulosasining faktik va huquqiy asoslari bayon etilishi lozim. Jumladan, hal qiluv qarorining ushbu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to‘g’risidagi sud xulosalariga asos bo’lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalar, shuningdek, nizoli

munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me'yorlari (fuqarolik, oila, yer, mehnat, uy-joy to'g'risidagi va boshqa qonunlar) keltirilmog'i, qonunning nomi, moddasi, bandi, boshqa qonun hujjatlarining soni va qabul qilingan sanasi hamda protsessual huquqiy me'yorlari ko'rsatilmog'i lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida sud taraflar topshirgan hujjatlarni, sud majlisida aniqlangan faktlarni tahlil qilib, taraflar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida chiqarilgan xulosa va bu munosabatlarga berilgan yuridik bahoni ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, sud hal qiluv qarorining ushbu qismida dalillarga baho beriladi, qanday faktlar aniqlangan deb hisoblangani va da'vogarning qanday talablari yoki javobgarning qanday e'tirozlarini to'g'ri deb topilgani va qanday qonunlarga binoan to'g'ri deb hisoblangani ko'rsatib o'tiladi.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida ish holatlari sud tomonidan qanday belgilangan bo'lsa, shunday yoziladi, ish bo'yicha dalillar tahlil qilinadi, ish bo'yicha qo'llaniladigan moddiy huquq normalari aniqlab olinib, ularning izohi beriladi.

Sud o'z xulosalarini sud muhokamasida o'rganilgan ish holatlari, tasdiqlangan dalillar bilan asoslaydi.

Agar javobgar da'veni to'liq tan olsa va bu qonunga zid bo'lmasa, hech kimning qonuniy manfaatlarini buzmasa, sud tan olishni tasdiqlash bilan cheklanadi. Aks holatda esa, da'veni tan olish sud tomonidan tasdiqlanmaydi.

Agar da've da've qilish muddati yoki sudga murojaat qilish muddatini uzsiz sabablarga ko'ra o'tkazib yuborganligi uchun rad etilsa, hal qiluv qarorining asoslantirish qismida boshqa ish holatlari ko'rsatilmaydi. Agar protsessual masalalar yuzasidan arizalar berilgan bo'lsa, sud bu masalalar yuzasidan qabul qilgan qarorini asoslantirib beradi.

Zarur holatlarda sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlarini ham qo‘llashi lozim. Hal qiluv qarorining xulosa qismida tegishli me’yorlarning mazmuni bayon etilganda bu talabga rioya qilinmog‘i lozim (masalan, hal qiluv qarorining darhol ijro etilishga karatilgan hollarda FPKning 267-moddasiga qo‘llanishi). Agar javobgar da’voni tan olsa, asoslantirish qismida faqat da’vo talabining tan olinganligi va uning sud tomonidan qabul qilinganligi ko‘rsatilishi mumkin.

**Hal qiluv qarorining xulosa qismida** taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi va yuridik shaxsning nomi to‘liq keltirilishi, da’vo talablarining qanoatlantirilganligi (to‘liq yoki qisman) yoki butunlay yoxud qisman rad etish haqidagi sudning xulosasi aniq aks ettirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko‘rsatilishi shart. Hal qiluv qarorining xulosa qismi qarorni ijro etish chog‘ida tushunmovchiliklar va nizolar vujudga kelmasligi uchun tushunarli va aniq tarzda ifoda etilmog‘i kerak.

Moddiy huquqiy munosabatlarning xususiyatiga qarab hal qiluv qarorlarining xulosa qismlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Sud pul mablag‘larini undirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorida undirilishi lozim bo‘lgan pul summalarini undirish davrini, asosiy qarzning, zararlarning, neustoykaning hamda foizlarning umumiy mikdorini alohida-alohida aniqlagan holda ko‘rsatadi (FPKning 257-moddasi).

Sud javobgar zimmasiga mol-mulkni yoki pul summalarini olib berish bilan bog‘liq bo‘limgan muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatishni nazarda tutuvchi hal qiluv qarorini qabul qilish chog‘ida, qarorning o‘zida, agar javobgar hal qiluv qarorini belgilangan muddat ichida bajarmasa, da’vogar shu harakatlarni javobgarning hisobidan amalga oshirishga va zarur xarajatlarni keyinchalik javobgardan undirib olishga haqli ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Agar mazkur harakatlar faqat javobgar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lsa, sud hal qiluv qarorida uni

ijro etish kerak bo‘lgan muddatni belgilab qo‘yadi (FPKning 259-moddasi).

Sud hal qiluv qarorining xulosa qismida, shuningdek qarorni ijro qilish uchun qabul qilingan choralar ko‘rsatiladi. Masalan, qonunda belgilangan alohida hollarda ish holatlariiga qarab, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etish, uni ijro etish muddati va qarorni darhol ijro etish shartlari ko‘rsatilishi mumkin.

FPKning 246-moddasiga ko‘ra sudya yoki sud ishni mazmunan ko‘rib bo‘lganidan so‘ng shu sud majlisining o‘zidayoq darhol uzil-kesil qaror shaklida hal qiluv qarori chiqaradi.

Asoslantirilgan hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismi ishni ko‘rish tugallangan kuni e’lon qilingan hal qiluv qarorining kirish va xulosa qismiga so‘zma-so‘z to‘g‘ri kelmog‘i lozim. Ishni ko‘rish tugatilgan kuni hal qiluv qarorining e’lon qilingan kunidagi kabi asoslantirilgan hal qiluv qarori chiqarilgan kun deb ko‘rsatiladi. Hal qiluv qarorining e’lon qilingan xulosa qismi hamda asoslantirilgan hal qiluv qarori sudya (sud tarkibi) tomonidan imzolanib, ishga qo‘shiladi. Asoslantirilgan hal qiluv qaroriga nisbatan appellatsiya shikoyati yoki protest keltirish muddati hal qiluv qarori bilan tanishish uchun belgilangan kunning ertasidan boshlab hisoblanadi.

### **10.5. Birinchi instansiya sudining ajrimlari**

Sud ajrimlari hal qiluv qarorlaridan farqli o‘laroq, sud muhokamasi davrida, qaror chiqarilganidan keyin, hatto ijro bosqichidagi turli protsessual masalalarni hal qilish bo‘yicha chiqarilishi mumkin. Undan tashqari, chet davlatga nisbatan da‘vo taqdim etish, da‘vo ta‘minlanishi va undiruv (FPKning 362-moddasi), chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O‘zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriq bilan murojaat qilish (FPKning 363-moddasi), chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv

qarorlarini **tan olish hamda** ijro etish (FPKning 364-moddasi) masalalari ham sud ajrimlari bilan hal etiladi.

Shunday qilib, birinchi instansiya sudi tomonidan chiqariladigan **ajrim** ishni mazmunan hal qilmaydigan qaror hisoblanadi.

FPKning mazmunidan (271, 272-moddalari) kelib chiqib, birinchi instansiya sudining ajrimlari quyidagi turga ajratish mumkin:

- **sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladigan ajrimlar;**

- **sud tomonidan murakkab bo‘lмаган масалалар hal etilganida o‘z joyida chiqariladigan ajrimlar.**

Sud majlisi bayonnomasiga qayd qilib qo‘yiladigan ajrimlar sudning alohida xonasi (maslahatxonasi)ga kirmasdan, o‘z joyida chiqariladi. Boshqa barcha holatlarda ajrimlar sudning alohida xonasi (maslahatxona)da alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladi.

Alohida protsessual hujjat shaklida chiqariladigan ajrimlar sud hal qiluv qarorlari kabi to‘rt qismidan iborat.

Sud ajrimlarining **kirish qismida** ajrimning chiqarilgan vaqt va joyi, sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar haqidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi. **Bayon qismida** nizo predmeti va ajrim bilan hal qilinayotgan masalaning mohiyati, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlari ko‘rsatiladi. **Asoslatirish qismida** sudning xulosasiga olib kelgan asoslar va sud qo‘llagan qonunlar keltiriladi. **Xulosa qismida** esa, sudning hal etilayotgan masala yuzasidan xulosasi, ajrim ustidan shikoyat berish (protest keltirish) tartibi va muddati ko‘rsatiladi.

Sud tomonidan o‘z joyida chiqariladigan ajrimda yuqoridaqgi ajrimlardan farqli ravishda kirish qismi va shikoyat qilish tartibi va muddati ko‘rsatilmaydi (FPKning 272-moddasi).

Sud ajrimlari shikoyat qilinadigan (protest keltiriladigan) va shikoyat qilinmaydigan (protest keltirilmaydigan) ajrimlarga ham bo‘linadi. Qonun bo‘yicha qat’iy va shikoyat qilib bo‘lmaydigan (protest keltirilmaydigan) ajrimlar

chiqarilishi bilanoq qonuniy kuchga kiradi. Masalan, sudning nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarni protsessga jalb etish haqidagi ajrimi ustidan shikoyat qilinmaydi va ular chiqarilishi bilan darhol ijro etiladi. Shuningdek, hal qiluv qarori chiqaril-guniga qadar alimentlar undirish to‘g‘risidagi sudning ajrimi darhol ijro etiladi (FPKning 187-moddasi).

Xususiy ajrimlar sudning boshqa ajrimlaridan o‘zining maqsadi bilan alohida ajralib turadi. Sud fuqarolik ishini ko‘rayotganida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar tomonidan qonuniylik va huquq-tartibot buzilganligini aniqlasa, FPKning 275-moddasiga ko‘ra, xususiy ajrim (qaror) chiqarib, uni tegishli organlar va mansabdor shaxslarga yuboradi. Ushbu shaxslar xususiy ajrimning (qarorning) nusxasini olgan kundan e’tiboran bir oylik muddat ichida o‘zлari ko‘rgan choralar to‘g‘risida sudga xabar qilishlari talab etiladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Sud qarorlari deganda nimani tushunasiz va uning mazmunini tavsiflovchi qanday jihatlar mavjud?
2. Sud qarorlarining turlari haqida gapiring.
3. Sud qarorlarini o‘zaro farqlovchi jihatlari nimada?
4. Sud hal qiluv qarorlarining o‘ziga xos belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Sud hal qiluv qarorlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
6. Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qanday talablar qo‘yiladi?
7. Sud hal qiluv qarorining tarkibiy qismi haqida gapiring.
8. Hal qiluv qarorini chiqqagan sud tomonidan undagi kamchi-liklarini tuzatishning qanday tartiblari mavjud?
9. Qo‘srimcha hal qiluv qarori chiqarish uchun nimalar asos bo‘ladi?
10. Sudning hal qiluv qarorini qonuniy kuchi deganda

nimani tushunasiz?

11. Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishi qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?
12. Sudning qaysi hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi?
13. Birinchi instansiya sudining ajrimlari deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlari bor?
14. Xususiy ajrim nima va uning boshqa ajimlardan qanday farqi mavjud?

### **1-kazus**

A. ishga tiklash, majburiy progul uchun ish haqi undirish va ma'naviy zararni undirish haqidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan. Sudda ishning ko'riliши davomida da'vogar A. o'ziga yetkazilgan ma'naviy zararni asoslovchi dalillar keltirib, tegishli tushuntirishlar bergen bo'lsada, lekin bu xususda sudning hal qiluv qarorida hech narsa ko'rsatilmagan.

*Savol: 1. Sud tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yilganmi?*

*2. Ushbu masala qanday hal bo'lishi lozim?*

### **2-kazus**

T. uy-joydan ko'chirish haqida **M.** ga nisbatan sudga da'vo bilan murojaat qilgan. **M.** esa qarshi da'vo takdim etib, oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'ragan.

Sudning hal qiluv qaroriga ko'ra **T.** ning da'vosi rad etilib, **M.** ning qarshi da'vosi qanoatlantirilgan.

Sud adliya boshqarmasiga oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirgan notariusga nisbatan tegishli chora ko'rish haqida xususiy ajrim chiqargan.

*Savol: Sud qachon xususiy ajrim chiqaradi?*

## **11-BOB. SIRTDAN ISH YURITISH**

### **1-§. Sirdan ish yuritish tushunchasi va ahamiyati**

**Sirtdan ish yuritish** deganda sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida qonunda belgilangan tartibda xabardor qilingan javobgarning sud majlisiga kelmaganligi, kelmaganligining uzrli sabablari borligi haqida xabar bermaganligi, ishni uning ishtirokisiz ko‘rish to‘g‘risida murojaat qilmaganligi, da‘vogarning bunga e’tiroz bildirmaganligi va natijada ishni javobgarning ishtirokisiz ko‘rib hal qilish tushuniladi. Bunday sud jarayonlarida hech kimning huquq va manfaatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda, **birinchidan**, tegishli protsessual tartib va qoidalar buzilmaydi, **ikkinchidan**, da‘vogarning roziligi asosida ish ko‘rishga yo‘l qo‘yiladi, **uchinchidan**, javobgarning huquqlari buzilmasligi ta’milanadi.

“Sirtdan hal qiluv qarori chiqarish” nomli 19-bob<sup>8</sup> fuqarolik protsessual qonunchiligidagi yangi institut hisoblanib, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan Fuqarolik protsessual kodeksida ilk bor o‘z aksini topgan edi. 2018-yil 1-apreldan e’tiboran kuchga kirgan yangi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi<sup>9</sup>da “**Sirtdan ish yuritish**” ga bag‘ishlangan **26-bob (280-292-moddalar) o‘z ifodasini topgan.**

Sirtdan ish yuritishning **ahamiyati** quyidagicha ifoda-lanadi:

**Birinchidan**, taraflarning sud oldidagi huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashlariga imkoniyat yaratish;

**Ikkinchidan**, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning mavjud protsessual tartibga rioya qilishlarini ta’minlash;

---

<sup>8</sup> 1997 йил 30 августдаги Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига биринчи марта “Сиртдан ҳал қилув қарори чиқариш” номли 19-боб (224-236-моддалар) киритилган эди.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2018 йил, 4-сон, 65-модда.

**Uchinchidan**, jismoniy va yuridik shaxslarning odil sudlovni amalga oshirishga bo‘lgan mas’uliyatini kuchaytirish;

**To‘rtinchidan**, vaqtini tejash, protsessual muddatlarga rioya qilishni ta’minlashga qaratilgan.

## 2-§. Sirtdan ish yuritish asoslari va tartibi

Fuqarolik ishini sirtdan ko‘rib chiqish jarayonida qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjud bo‘lib, o‘z navbatida ularga ryoa qilinishi ish yuzasidan chiqarilajak hal qiluv qarorining qonuniy, asosli vaadolatli bo‘lishining kafolati hisoblanadi. Javobgar sud jarayonida ishtirok etmagan taqdirda, ishni sirtdan ko‘rib hal qilish mumkin bo‘ladi va bu sirtdan ish yuritishning birinchi sharti hisoblanadi.

**Sirtdan ish yuritishning shartlari** (asoslari) quydagicha tasniflanadi:

**Birinchidan**, sud majlisining vaqtini va joyi to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmasa;

**Ikkinchidan**, javobgar tegishli tartibda xabardor qilinganligi haqida ishda ma’lumot mavjud bo‘lsa;

**Uchinchidan**, ishni sirtdan javobgarsiz ko‘rishga da’vogar e’tiroz bildirmasa;

**To‘rtinchidan**, tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga takroran kelmasa, sud da’vogarning fikridan qat’i nazar,

**Beshinchidan**, ishni sirtdan ko‘rish haqida sud ajrim chiqarsa, ishni sirtdan ish yuritish tartibida ko‘radi.

**Sirtdan ish yuritish tartibining o‘ziga xos xususiyatlari:**

- sirtdan ish yuritishda sud ishda mavjud dalillarni tekshirish bilan kifoyalanadi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vaj va iltimoslarini e’tiborga oladi;

- da’vogar tomonidan da’voning predmeti yoki asosi, da’vo talablari miqdori o‘zgartirilganda sud mazkur sud

majlisida ishni sirtdan ish yuritish tartibida ko‘rishga haqli emas. Bu holda ishni ko‘rish da’vo arizasini da’vo predmeti yoki asosi, da’vo talablari miqdori o‘zgartirilgan holda javobgarga topshirish uchun keyinga qoldiriladi;

- agar sud majlisiga kelmagan javobgardan ishni uning ishtirokisiz ko‘rish haqida ariza kelib tushsa, ish sirtdan ish yuritish tartibida emas, umumiy tartibda ko‘rilishi lozim.

### **3-§. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori va uning mazmuni**

**Sudning hal qiluv qarori** – odil sudlov akti bo‘lib, ishga oid dalillardan foydalangan holda ishning haqiqiy holatini ochish, moddiy va protsessual huquq normalarini tadbiq etish orqali fuqarolarning hamda yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarni o‘zida ifodalaydi.

Umumiyl qoidaga ko‘ra, hal qiluv qarori kirish, bayon, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo‘ladi.

Sirtdan chiqarilgan **hal qiluv qarorining kirish qismida** hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqt va joyi, hal qiluv qarorini chiqargan sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek nizo predmeti ko‘rsatiladi. Shuningdek, hal qiluv qarorining boshida “Sirtdan” degan jumla ishlatiladi.

Sirtdan chiqarilgan **hal qiluv qarorining bayon qismida** javobgarning e’tirozlari mavjud bo‘lmaydi. Agar ishda javobgarning tushuntirishlari mavjud bo‘lsa, u qatnashmagan holda ushbu tushuntirishlar va e’tirozlar tahlil etilganligi albatta belgilab qo‘yilishi lozim bo‘ladi.

Sirtdan chiqarilgan **hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida**, umumiyl asoslarda chiqarilgan sud hal qiluv qarorlaridan farqli ravishda javobgarning tushuntirish va e’tirozlarini aks ettiruvchi holatlar va ushbu holatlarni tasdiqlovchi dalillar berilmaydi, chunki sud bunday ma’lumotga ega bo‘lmaydi, jumladan hal qiluv qarorining

ushbu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to‘g‘risidagi sud xulosalariga asos bo‘lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalari, shuningdek nizoli munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me’yorlari (fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to‘g‘risidagi va boshqa qonunlar) keltirilmog‘i, qonunning nomi, moddasi, bandi hamda protsessual huquq normalari ko‘rsatilmog‘i lozim. Zarur holatlarda sud O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlarini ham qo‘llashi lozim bo‘ladi.

**Hal qiluv qarorining xulosa qismida** taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi to‘liq keltirilishi, da‘vo talablarini qanoatlantirilganligi (to‘liq yoki qisman) haqidagi sudning qisqa va aniq xulosasi aks ettirilishi lozim. Shuningdek, sud xarajatlarining taqsimlanishi, sirtdan hal qiluv qarori ustidan shikoyat va protest keltirish muddati va tartibi aniq ko‘rsatilishi lozim.

#### **4-§. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan ariza va shikoyat berish (protest keltirish) uchun asoslar, uni qayta ko‘rish tartibi**

Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko‘rishing o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda ham da‘vogarning, ham javobgarning manfaatlari e’tiborga olinib, shikoyat berish (protest keltirish)ning turli usullaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. Fuqarolik protsessual kodeksining 285-moddasiga asosan, javobgar hal qiluv qarorini sirtdan chiqargan sudga shu hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin 15 kun ichida uni qayta ko‘rish haqida ariza berishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish vaqt va joyi haqida xabardor qiladi, ularga ushbu ariza va unga ilova qilingan materiallarning ko‘chirma nusxalarini yuboradi (**FPKning 287-moddasi**).

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib

chiqish to‘g‘risidagi ariza u kelib tushgan paytdan e’tiboran o‘n kun ichida sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Sud majlisining vaqtি va joyi haqida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi arizani ko‘rib chiqish uchun to‘sinqinlik qilmaydi. Sud arizani ko‘rib chiqib, ajrim chiqaradi. Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish haqidagi yoki sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinmaydi (protest keltirilmaydi) (**FPKning 288-moddasi**).

Sud sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqib, o‘zining ajrimi bilan:

arizani qanoatlantirmay qoldirishga;

sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni ilgarigi tarkibdagi yoki boshqa tarkibdagi sud tomonidan mazmunan ko‘rib chiqishni tiklashga haqli (**FPKning 289-moddasi**).

Agar sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishda sud tarafning sud majlisiga kelmaganligiga uzrli sabablar borligini va bu haqda sudni o‘z vaqtida xabardor qilish imkoniyati bo‘lmanligini hamda taraf sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorining mazmuniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan dalillarni taqdim qilayotganligini aniqlasa, sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni mazmunan ko‘rib chiqish tiklanishi lozim (**FPKning 290-moddasi**).

Sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarori ushbu qarorni qabul qilgan sud tomonidan bekor qilingan taqdirda, ishni mazmunan ko‘rib chiqish tiklanadi va FPKda nazarda tutilgan qoidalar asosida olib boriladi. Sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, ish yangidan ko‘rib chiqilganda qabul qilingan hal qiluv qarori sirtdan qabul qilingan deb tan olinmaydi. Javobgar bu hal qiluv qarori sirtdan qabul qilingan qaror sifatida qayta ko‘rib chiqilishini so‘rab, ariza berishga haqli emas (**FPKning 291-moddasi**).

Sirtdan hal qiluv qarori ham umumiy qoidaga ko‘ra,

FPKning 43-bobida ko'rsatilgan sud hujjatining qonuniy, asosli, va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv qo'zg'atish tartibida qayta ko'rildi hamda sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori ham qonuniy kuchga kirganidan so'ng ijro etiladi. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga asosan, sudlar o'zları qabul qiladigan sud hujjatlari (hal qiluv qarori, ajrim, qaror) asosida ijro varaqalari beradi va bu bevosita ijro hujjati sanaladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida sirtdan hal qiluv qarori chiqarish institutining vujudga kelish tarixi va sabablarini tushuntiring?
2. Sirtdan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring?
3. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori va uning mazmunini izohlang?
4. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarori ustidan ariza va shikoyat berish (protest keltirish) uchun asoslarni tushuntiring?
5. Sirtdan chiqarilgan hal qiluv qarorini ijro etish xususiyatlarini izohlang?

### **Kazus**

Ko'p qavatli binolardan birida yashovchi da'vogar Umarov A. javobgar Sherzodova M.ga nisbatan uy-joyga yetkazilgan zararni undirish to'g'risida sudga murojaat qiladi. Bir necha marta suddan chaqiruv qog'ozi olganiga qaramay, javobgar Sherzodova M. xizmat komandirovkalarini bahona qilib, sud majlisiga kelmaydi. Sudya da'vogarning roziligi bilan sud majlisini ochiq deb e'lon qilib, ishni ko'ra boshlaydi. Da'vogar sud majlisida uy-joyga yetkazilgan zarar da'vo arizasi berayotganda noto'g'ri hisoblanganligini, keyinchalik uyni ta'mirlash davomida zararning aniq qiymati chiqqanligini, da'vo qiymati 4 million emas, balki 7 million so'm ekanligini ko'rsatadi. Sud da'vogar va guvohlarning ko'rsatuvarlarini tinglab, uy-joy shirkat xo'jaligi texnik

xodimining xulosasini eshitib, mahalla qo‘mitasidan berilgan ma’lumotnomani ko‘rib chiqib, ish bo‘yicha sirtdan hal qiluv qarori chiqarib, unda javobgardan da’vogar foydasiga 7 million so‘m undirib berish to‘g‘risida ko‘rsatib o‘tiladi.

*Savol: Sud majlisida protsessual normalar buzilganmi? Sirtdan ish ko‘rishda aynan qaysi protsessual harakatlar amalga oshirilishi mumkin emas?*

## **12-BOB. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH**

### **12.1. Sud buyrug‘i tushunchasi va ahamiyati**

Sudyalarning ish hajmini kamaytirish, shu orqali odil sudlovni ta’minlashning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim usullaridan biri – sudda ishlarni soddalashtirilgan tartibda hal etish usullarini rivojlantirishdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 8-fevralida matbuotda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik sud ish yurutuvining protsessual asoslarini takomillashtirish belgilanganligi bejiz emas.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishlari uchun qo‘srimcha qulayliklar yaratish hamda da’vo arizalari va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko‘rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni yanada soddalashtirish maqsadida fuqarolik ishlarni sudda ko‘rish va hal qilishning bir muncha soddalashtirilgan tartibi “Buyruq tartibida ish yuritish” joriy etilgan.<sup>10</sup>

Darhaqiqat, fuqarolik ishlarni ko‘rish va hal qilish tartibini belgilovchi fuqarolik protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida fuqarolik ishlarni bo‘yicha sudlarga kelib tushayotgan da’vo arizalari, ariza va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko‘rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni imkonli boricha soddalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Zero, fuqarolik ishlarni ko‘rib chiqishning dastlabki jarayonlarini soddalashtirish sudyalar yurituvidagi ish

---

<sup>10</sup> Мамасиддиков М.М., Мирзаев У.С. Буйруқ тартибида иш юритиш // Илмий–амалий қўлланма. -Тошкент: “Adabiyot uchqunlari”. 2015. – 204 б.

yuklamalarining kamayishiga olib keladi.

*Sud buyrug‘i nizosiz talablar bo‘yicha sud o‘tkazmasdan berilgan  
sud hujjatidir.*

**Sud buyruqlari o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi belgilari bilan sud qarorlaridan farqlanadi:**

***birinchidan***, sud buyrug‘i ishni mazmunan ko‘rmasdan, mavjud yozma hujjatlar asosida chiqariladi. Sudya ushbu holatda guvoh ko‘rsatmalarini, ekspert xulosalarini tekshirmaydi, taraflarning tushun-tirishlari va uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitmaydi;

***ikkinchidan***, arz qilingan talabning mazmuni bo‘yicha sud buyrug‘i ariza sudga kelib tushgan kundan e’tiboran uch kun ichida suda tomonidan chiqariladi. Sud hal qiluv qarori chiqarilib, hal etiladigan fuqarolik ishlari esa sudda ko‘rishga tayyorlab bo‘lingan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘riliши lozim;

***uchinchidan***, buyruq tartibida ish yuritish jarayonida taraflar sifatida undiruvchi va qarzdor e’tirof etiladi;

***to‘rtinchidan***, sud buyrug‘i faqat qonunda belgilangan asoslar (FPKning 171-moddasi) mavjud bo‘lgandagina chiqariladi. Sud buyrug‘i nizosiz talablar yuzasidan chiqarilib, qonunda belgilan-magan asoslar yuzasidan chiqarilishi mumkin emas;

***beshinchidan***, sud buyrug‘ini chiqarish uchun qator shartlar mavjud bo‘lishi talab etiladi. *Birinchi shart* shundan iboratki, undiruvchi sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza bilan birga qarzdorning o‘z zimmasiga olgan majburiyatini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. *Ikkinci shart* – taqdim etilgan hujjatlar ishning mohiyatini o‘zida to‘laqonli aks ettirishi lozim. *Uchinchi shart* nizoning mavjud bo‘lmasisligi;

**oltinchidan**, sud buyrug‘i ijro hujjati kuchiga ega bo‘lib, sud hujjatlarini ijro etish uchun qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<sup>11</sup>

## 12.2. Sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha talablar

**Mamlakatimizning fuqarolik protsessual qonunchiligidagi sud buyruqlarini chiqarishning quyidagi talablar o‘z ifodasini topgan:**


- 1) talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo‘lsa;
- 2) talab yozma bitimga asoslangan va qarzdor tomonidan tan olingan bo‘lsa;
- 3) kommunal xizmatlar yoki aloqa xizmatlari to‘lovi bo‘yicha qazrdorlikni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 4) voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalb etish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab arz qilingan bo‘lsa;
- 5) hisoblangan, lekin xodimga to‘lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini undirish haqida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 6) fuqarolardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 7) ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovlar muddatida to‘lanmaganligi sababli ushbu to‘lovlarini undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 8) ko‘p kvartirali uyning joylari mulkdorlaridan majburiy badallar va to‘lovlarini undirish to‘g‘risida talab arz qilingan bo‘lsa;
- 9) yozma bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, undiruvni

<sup>11</sup> Мамасиддиков М.М., Мирзаев У.С. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексининг “Бўйруқ тартибида иш юритиш” номли 20<sup>1</sup>-бобига шарх. / Илмий–амалий кўлланма. –Тошкент: “АЛ–ФАБА–СЕРВИС”. 2008. –126 б.

qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan ko'char mol-mulkka qaratish to'g'risida talab arz qilingan bo'lsa (FPKning 171-moddasi).

### 12.3. Buyruq tartibida ish yuritishni qo'zg'atish tartibi va asoslari

Sudda buyruq tartibida ish yuritish quyidagi to'rt bosqichdan iborat bo'ladi:



**Ish yuritishni qo'zg'atish** buyruq tartibida ish yuritishning dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur bosqichda, avvalo, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini belgilab olish lozim.

Undiruvchi ish qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladi. Shu o'rinda undiruvchi tomonida bir necha shaxslar ishtirok etishi ham mumkin. Masalan, agar bir necha shaxslar qarzdor bilan bir turdag'i moddiy huquqiy munosabatda bo'lsalar, ular birgalikda sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo'ladilar. Ta'kidlash joizki, qarzdorlar tomonidan ham sherik ishtirokchilikka yo'l qo'yiladi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik undiruvchi nomidan

uning manfaatlarini himoya qilib vakilning ishtirok etishini istisno etmaydi. Xususan, voyaga yetmagan farzandlar uchun ularning qonuniy vakillari aliment undirish to‘g‘risidagi talab bilan murojaat qilishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, farzandning manfaatlarini ko‘zlab prokuror, vasiylik va homiylik organlari ham aliment undirish bo‘yicha sud buyrug‘ini chiqarish yuzasidan sudga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin. Sud buyrug‘ini chiqarish bo‘yicha boshqa talablar bilan tegishli davlat organlari ham sudga murojaat qilishlari mumkin.

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizalar FPKning 33-moddasiga ko‘ra, sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari bo‘yicha beriladi. Unga ko‘ra, arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga beriladi. Tashkilotlarga nisbatan arizalar ular davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi sudga beriladi.

Shuningdek, protsessual qonunchilik sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizalar uchun da‘vogarning tanlashi bo‘yicha sudlovlik qoidalari ham belgilaydi. Xususan, aliment undirish haqidagi talab bilan arz qilinganda, arizalar FPKning 34-moddasiga ko‘ra, yashash joyi noma‘lum bo‘lgan javobgarga nisbatan da‘volar uning mol-mulki turgan joydagi yoki uning ma’lum bo‘lgan so‘nggi yashagan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 4-soni qarorida tushuntirish berilishicha, sud buyrug‘i chiqarish haqidagi talab FPKda belgilangan sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalariiga amal qilingan holda sudga beriladi. Shu bilan birgalikda voyaga yetmagan farzandning ta’minoti uchun aliment undirish haqidagi talab undiruvchi yashayotgan joydagi sudga, ijro qilish joyi ko‘rsatilgan notarial tasdiqlangan

bitimga asoslangan talab ushbu talab bajarilishi lozim bo‘lgan joydagi sudga taqdim qilinishi ham mumkin.

Sud buyrug‘i qonunda belgilangan tartibda, shuningdek aniq ro‘yxatda ko‘rsatilgan talablar asosida amalga oshiriladi. Bitimlarning yozma, notarial tartibda tasdiqlangan bitimlarga asoslanganligining ahamiyati shundan iboratki, bitimning bunday shakllari undiruvchi va qarzdor o‘rtasida mavjud bo‘lgan moddiy huquqiy munosabatlarni to‘liq namoyon qilib, ularni ruyobga chiqarishga imkon beradi.

Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida beriladi.

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizada talablar bayon qilinib, uni asoslovchi holatlar va tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish bilan kifoyalanadi. Lekin shunday bo‘lsa-da, sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizalarning mazmuniga alohida e’tibor berish lozim. Unda ariza berilayotgan sudning nomi, undiruvchi va qarzdor shaxsning aniq manzili, joylashgan joyi va agar ulardan biri yuridik shaxs bo‘lsa, uning rekvizitlari, undiruvchining talabi va talabga asos bo‘lgan holatlar, to‘lanmagan to‘lovlar summasining hisob-kitobi va undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida turgan ko‘char mol-mulkning tavsifi, arz qilingan talabni tasdiqlovchi va ilova etilayotgan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatilishi lozim. Sud buyrug‘ini berish to‘g‘risidagi arizada, shuningdek undiruvchi yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi mumkin. Agar undiruvchi tomonidan ko‘char mol-mulk talab qilinayotgan bo‘lsa, arizada ushbu mol-mulkning qiymati ham ko‘rsatilishi talab etiladi.

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza undiruvchi

yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Vakil tomonidan berilayotgan arizaga uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat ilova etilishi lozim. Buyruq tartibida ish yuritish undiruvchining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning soddalashtirilgan usuli ekanli-gidan kelib chiqib, sudlar arizani qabul qilishda undiruvchining vakili tomonidan berilgan arizada vakilning nomi va manzili ko'rsatilishi shart emasligini nazarda tutishlari lozim. Undiruvchi tomonidan vakilga sud buyrug'ini olish va ijroga qaratish vakolati berilgan holatlar bundan mustasno (Plenum qarorining 3-bandi).

Agar ariza FPKning 172-moddasi talablariga javob bermasa yoki davlat boji to'lanmagan bo'lsa, sudya sud buyrug'ini chiqarish haqidagi arizani qabul qilib, o'z ajrimi bilan undiruvchiga kamchiliklarni bartaraf etish yoxud davlat bojini to'lash uchun ko'pi bilan uch kun muhlat berishi mumkin. Undiruvchi belgilangan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, davlat bojini to'lasa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kundan qabul qilingan hisoblanadi. Aks holda, sudya qonun talabiga muvofiq arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Sudlar sud buyrug'i chiqarish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish asoslarini sud buyrug'i chiqarishni rad etish asoslaridan farqlay bilish kerak. Chunki, FPKning 175-moddasida ko'rsatilgan sudya sud buyrug'ini berish to'g'risidagi arizani qabul qilishni FPKning 194-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etadi. Sudya arizani qabul qilishni quyidagi hollarda ham rad etadi, agar:

- 1) arz qilingan talab FPKning 171-moddasida nazarda tutilmagan bo'lsa;
- 2) qarzdor O'zbekiston Respublikasi sudlari yurisdiksiyasi doirasidan chetda bo'lsa;
- 3) huquq to'g'risida nizo mavjud deb hisoblansa.
- 4) Arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida sudya ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kunlik muddat

ichida ajrim chiqaradi.

Arizani qabul qilish rad etilganligi undiruvchining shu talab bo'yicha da'vo ishini yuritish tartibida da'vo takdim etish imkoniyatiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar undiruvchi sudyaning ko'rsatmalariga muvofiq, u belgila-gan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, davlat bojini to'lasa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kuni berilgan hisoblanadi. Aks holda, suda FPKning 175-moddasiga muvofiq arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Fuqarolik protsessual qonun talablariga javob bergen holda sudga taqdim etilgan buyruq chiqarish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinadi.

#### 12.4. Sud buyrug'ini chiqarish

Fuqarolik protsessual qonunchilikda sud buyrug'ini chiqarish uchun protsessal muddat belgilangan bo'lib, unga ko'ra sud buyrug'i ariza kelib tushgan kundan e'tiboran **uch kun** ichida suda tomonidan chiqariladi. Sud buyrug'ini berish to'g'risidagi masalani suda undiruvchi va qarzdorni chaqirmsandan hal etadi. Sud buyrug'i ishni mazmunan ko'rmasdan, sudyaning yakka o'zi tomonidan chiqariladigan hujjat hisoblanadi. Ushbu o'rinda suda guvoh ko'rsatmalarini va ekspert xulosalarini tekshirmaydi, undiruvchi va qarzdorning tushuntirishlarini eshitmaydi, u mavjud hujjatlar asosida o'z buyrug'ini chiqaradi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2006-yil 3-fevraldagagi "Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 19-bandida, FPKning 178-moddasi talablari sud buyrug'i hal qiluv qaroridan farq qilib, unda bayon va asoslantiruvchi qismlar mavjud bo'lmasdan, talablarni qanoatlantirishga asos bo'lgan moddiy qonun normasini ko'rsatish bilan chegaralanishiga sndlarning e'tibori qaratilishi yuzasidan tushuntirishlar beriladi.

## **Sud buyrug‘ining kirish qismida quyidagilar ko‘rsatiladi:**

- ish yuritishning tartib raqami va buyruq berilgan sana;
- sudning nomi, buyruq bergan sudbyaning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- undiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);
- qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki joylashgan yeri (pochta manzili);

Sudya o‘z buyrug‘ida undiruvchining talabini qondirish uchun asos bo‘lgan qonunni ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Bir qarashda bu sud buyrug‘ining asoslantiruvchi qismiga o‘xshasada, lekin ushbu qismda hujjatlar, boshqa faktik holatlar tekshirilmaydi va huquqiy tahlil etilmaydi.

## **Sud buyrug‘ining xulosa qismida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:**

- talabni qanoatlantirish uchun asos bo‘lgan qonun;
- undirilishi lozim bo‘lgan pul summalarining miqdori yoki undiruv qaratilayotgan, qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta’minoti sifatida turgan ko‘char mol-mulk, uning tavsifi va bahosi;
- neustoyka miqdori, agar uning undirilishi qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa;
- qarzdordan undirilishi lozim bo‘lgan davlat bojining summasi;
- arz qilingan talabga qarshi qarzdor tomonidan e’tiroz bildirish muddati va tartibi.

Voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to‘g‘risidagi sud buyrug‘ida 178-moddaning 1-5, 9, 10-bandlarida nazarda tutilgan ma’lumotlardan tashqari quyidagilar ko‘rsatiladi: qarzdorning tug‘ilgan sanasi va joyi, ta’minoti uchun aliment undirilishi lozim bo‘lgan har bir bolaning ismi va tug‘ilgan sanasi, qarzdordan har oyda undiriladigan to‘lovlar mikdori hamda ularni undirish muddati.

Sud buyrug‘ining yozuvidagi xatolarni va ochiq ko‘rinib turgan arifmetik xatolarni tuzatish sudning tashabbusi yoxud undiruvchi-ning yoki qarzdorning arizasi bo‘yicha ushbu buyruq qanday tartibda berilgan bo‘lsa, shunday tartibda sudning ajrimi asosida amalga oshiriladi.

## 12.5. Sud buyrug‘ini bekor qilish

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 170-moddasiga muvofiq, sud buyrug‘i ijro hujjati kuchiga ega ekanligi belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagи “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra, sud buyrug‘i ijro hujjati hisoblanadi.

Sud buyrug‘i bo‘yicha undiruv buyruq berilganidan keyin va sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik protsessual qonunchilik sud buyrug‘i chiqarilganidan keyin sudyaga uning ko‘chirma nusxasini darhol qarzdorga yuborish majburiyatini yuklaydi. Sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida qarzdor arz qilingan talabga qarshi o‘z e’tirozlarini buyruqni chiqargan sudga yuborishga haqli bo‘ladi. FPKning 179-moddasi talabida sud buyrug‘i chiqarilganidan keyin sud uning ko‘chirma nusxasini darhol qarzdorga yuborishi lozim. Sud buyrug‘i sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Amaldagi FPKning 181-moddasida ko‘rsatilgan sud buyrug‘ini bekor qilish asoslari qarzdor huquqlarining kafolati hisoblanadi. Qarzdor arz qilingan talabga qarshi e’tirozlarini buyruqni bergan sudga sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda yuborishga haqli. Bunday holda suda sud buyrug‘ini bekor qilib, bu haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimda suda

undiruvchi bildirgan talab da'vo ishini yuritish tartibida takdim etilishi mumkinligini tushuntiradi. Sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimning ko'chirma nusxasi ajrim berilganidan keyin uch kundan kechiktirmay undiruvchiga va qarzdorga imzo qo'ydirib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Aliment undirish to'g'risidagi sud buyrug'i ijro ishini yuritish bo'yicha undiruv tugaguniga qadar undiruvchining arizasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan sudga e'tiroz tushmasa, suda sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug'ini ijro etishga taqdim qilish uchun undiruvchiga beradi. Undiruvchining iltimosiga ko'ra, sud buyrug'i ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuborilishi ham mumkin. Qarzdordan davlat bojini undirish maqsadida sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug'inining alohida nusxasi ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuboriladi. Qonun talabiga ko'ra, qarzdorning davlat boji miqdori yuzasidan keltirgan e'tirozlari sud buyrug'ini bekor kilish uchun asos bo'la olmaydi, chunki davlat foydasiga davlat boji undirish undiruvchi va qarzdor o'rtasidagi munosabatlarga daxldor emas. Faqat asosiy talablar yuzasidan bildirilgan e'tirozlargina sud buyrug'ini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Sud buyrug'iga nisbatan e'tiroz bildirish uchun qonunda belgilangan o'n kunlik muddatning qarzdor tomonidan o'tkazib yuborilganligi sud tomonidan uzrli deb topilgan taqdirda, sud uning arizasiga asosan ushbu muddatni tiklashi mumkin. Muddatni tiklash haqida ariza bilan murojaat qilinmasdan turib, muddat o'tkazilgandan so'ng berilgan shikoyatlar sud tomonidan ko'rilmaydi va muallifga qaytariladi.

FPKning 179-moddasida ko'rsatilgan qarzdor tomonidan e'tirozlar taqdim qilinishi mumkin bo'lgan o'n kunlik muddat protsessual muddatlar toifasiga kirishi sababli ushbu muddatlarga nisbatan FPKning 15-bobida ko'rsatilgan talablar qo'llanilishi, shu jumladan, o'tkazib yuborilgan protsessual muddatni uzaytirishni rad etish yoki tiklashni rad etish haqidagi sud ajrimi ustidan FPKning

155-moddasiga muvofiq xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud buyrug‘i shaklida qabul qilinadigan sud qarorlari barcha subyektlar uchun majburiy hisoblanadi va respublika hududida so‘zsiz ijro etilishi lozim. Bunda sud buyruqlari boshqa sud hujjatlaridan, ularni ijroga qaratishda, ijro varaqasini berishni talab qilishda farq qiladi, chunki sud buyrug‘ining o‘zi ijro hujjati bo‘lib hisoblanadi va bevosita ijro etiladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Sud buyrug‘ini chiqarish asoslarini aytинг.
3. Iqtisodiy ishlar bo‘yicha chiqarilgan sud buyruqlarining fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan sud bo‘yrug‘idan farqli jihatlari nimada?
4. Buyruq tartibida ish yuritishni qo‘zg‘atish tartibi qanday?
5. Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizaga qo‘yilgan talablar va arizani sud tomonidan qabul qilishni rad etish asoslarini bayon eting.
6. Sud buyrug‘ining sud hal qiluv qaroridan farqi nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. Sud buyrug‘ini bekor qilish tartibi haqida gapiring.

### **1-kazus**

Da’vogar Rasulova G. javobgar Rasulov O.ga nisbatan 2018-yil 5- avgustda farzandi ta’mnoti uchun aliment undirish hamda o‘ziga ham bolasi uch yoshga to‘lgunga qadar moddiy yordam berish to‘g‘risida sud buyrug‘i chiqarishni so‘ragan.

Sud arizaga asosan sud buyrug‘i chiqargan.

**Savol: Sud buyrug‘i to‘g‘ri chiqarilganmi?**

## **2-kazus**

Da'vogar Rashidov G. javobgar Raximov O.ga nisbatan qarz undirish haqida sud buyrug'i chiqarishni so'rab Mirobod tumanlararo sudiga murojaat qilgan. Sud ushbu ish nizoli ekanligini aytib, sud buyrug'i chiqarishni rad qilgan.

*Savol: Sudning harakatlari to'g'rimi?*

**13-BOB. OILAVIY-HUQUQIY  
MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQADIGAN  
ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL  
XUSUSIYATLARI (NIKOHDAN AJRATISH,  
ALIMENT UNDIRISH, OTALIKNI BELGILASH)**

**13.1. Nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlarni sudda  
ko'rishning protsessual xususiyatlari**

Nikohning tugatilishi bilan bog'liq ishlar deganda nikohdan ajratish (OK<sup>12</sup>ning 40-moddasi); nikohni bekor qilish (OKning 43-moddasi); nikohni haqiqiy emas deb topish (OKning 50-moddasi); er-xotinning mol-mulkini bo'lish (OKning 27-moddasi); nikoh shartnomasini o'zgartirish, bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish (OKning 32-33-moddalari) hamda nikoh munosabatlariga oid mulkiy va nomulkiy xarakterdagi boshqa nizolar nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 7-bob (37-56-moddalar)ni nikohning tugatilish asoslari, turlari va tartibiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deb yozib qo'yilgan<sup>13</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasida nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 18 yosh qilib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsnинг to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarining iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagisi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.


---

<sup>12</sup> Izoh: Bunday keyin matnda "O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi" "OK" deb beriladi.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasida nikoh tuzish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.<sup>14</sup> Nikoh tuzish nikoh-lanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo‘lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alovida hollar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi normalariga asosan, nikohga kirishning o‘ziga xos talablari mavjud:



### Nikohdan ajratish bilan bog‘liq ishlarning taalluqliligi

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasining ikkinchi qismi va 14-moddasi.

ikki guruhgaga: Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (FHDYo)<sup>15</sup> va sud organlarida ko‘rib hal qilishga bo‘linadi.

**Nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi ishlar** O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 43-moddasiga muvofiq, er-xotindan birining arizasi bo‘yicha, ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiy bolalari borligidan qat’iy nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalgalashiriladi, agar er-xotindan biri sud tomonidan :

- 1) bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa;
- 2) ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa;

Yuqoridagi holatlarda agar bolalar haqida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo‘lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta’mnot berish uchun mablag‘ to‘lash haqida nizo mavjud bo‘lsa, ularning nikohi sud tartibida bekor qilinadi<sup>16</sup>.

Bunday hollarda arizaga qo‘srimcha ravishda quyidagilar ilova qilinadi:

♦ er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo‘qolgan deb topilganligi to‘g‘risida qonuniy kuchga kirgan sud qarori;

♦ er (xotin)ning uch yildan kam bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to‘g‘risida qonuniy kuchga kirgan sud hukmidan ko‘chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning nikohi o‘rtada bolalari va mol-mulki yuzasidan

<sup>15</sup> Изоҳ: Бундан кейин матнда “Фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш органлари” “ФХДЁ” деб юритилади. Вазирлар Махкамасининг 2016 йил 14 ноябрдаги 387-сон қарорига 1-илова сифатида қабул қилинган Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш коидалари // Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2016 й., 50-сон, 566-модда; Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.04.2018 й., 09/18/270/1028-сон, 11.08.2018 й., 09/18/638/1690-сон).

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2011 йил 20 июлдаги 06-сонли “Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича конунчиликни кўллаш амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 4 ва 5-бандлари.

nizo yo‘qligi to‘g‘risidagi roziligin i fodalovchi hujjatlar bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 34-moddasida ko‘rsatilgan **da‘vogarning tanlashi bo‘yicha sudlovlik qoidalariga ko‘ra**, bedarak yo‘qolgan deb yoxud ruhiy holati buzilganligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek uch yildan kam bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi da‘volar da‘vogarning xohishiga ko‘ra o‘z yashash joyidagi sudda ko‘rilishi mumkin.

Agar da‘vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek nogironligi yoki og‘ir kasalligi tufayli u javobgar yashab turgan joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga borishga qiyalsa, nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi da‘volar da‘vogarning yashaydigan joyidagi sudga taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 41-moddasiga binoan, sudning nikohdan ajratish asoslari belgilangan bo‘lib, agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 39-moddasiga ko‘ra, arning nikohdan ajratish to‘g‘risida talab qo‘yishini man etadigan hollar quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda, ya’ni xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinining roziligesiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 44-moddasiga ko‘ra, nikohdan ajratish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar belgilangan bo‘lib, nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta‘minot berish uchun mablag‘ to‘lash tartibi, bu mablag‘ning miqdori yoxud er xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishga doir kelishuvni

ko‘rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Agar yuqorida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha er va xotin o‘rtasida kelishuv bo‘lmagan taqdirda, shuningdek ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariiga zid ekanligi aniqlangan taqdirda **sud**:

**nikohdan  
ajratilganda  
n keyin  
voyaga  
yetmagan  
bolalar ota-  
onasining  
qaysi biri  
bilan  
yashashini  
aniqlashi**

**voyaga  
yetmagan  
bolalarga  
ta’milot  
berish  
uchun ota-  
onaning  
qaysi  
biridan va  
qancha  
miqdorda  
aliment  
undirilishini  
aniqlashi**

**er va  
xotinning  
(ulardan  
birining)  
talabiga  
ko‘ra  
ularning  
birgalikdagi  
mulki  
bo‘lgan mol-  
mulkni  
bo‘lishi**

**er  
(xotin)dan  
ta’milot  
olishga haqli  
bo‘lgan  
xotin  
(er)ning  
talabiga  
ko‘ra ana  
shu ta’milot  
miqdorini  
belgilashi  
shart**

Mol-mulkni bo‘lish uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo‘lgan hollarda, sud mol-mulkni bo‘lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi. Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganida to‘yni o‘tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 48-moddasiga ko‘ra, sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli sud qarorlari bekor qilingan hollarda, nikoh er-xotinning birgalikdagi arizasiga ko‘ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin. Agar er (xotin) yangi nikohna kirgan bo‘lsa, nikohni tiklash mumkin emas.

### **13.2. Alimentga doir ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari**

Bolalarning aliment olish huquqlari hamda ota-onalarning aliment berish majburiyatlari ota-onasiga g‘amxo‘rligining asosini tashkil etadi. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berish shartligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Ota-onaning voyaga yetmagan bolaga aliment to‘lash majburiyati uning bolaga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish shakli hamda moddiy jihatdan ta’minlash majburiyati sanaladi.

Aliment “**alimentium**” so‘zidan olingan bo‘lib, “oziq-ovqat, ta’minot” degan ma’nolarni anglatadi. Aliment – voyaga yetmagan bolalarni mulkiy huquqlaridan biri, yashash manbai, ta’minot shakli sanaladi. U bolalarning ota-onasi o‘zarो nikohda yoki nikohda turmasligidan, shuningdek nikohi haqiqiy emas deb topilishidan qat’iy nazar to‘lanadi. Faqat bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida aliment to‘lovchi ota-onasiga sifatida ko‘rsatilgan yoki bolaga nisbatan otalik belgilangan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida **aliment huquq va majburiyatlarining** quyidagi, ya’ni:

- ◆ ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ ota-onasiga qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ bolalar muassasalariga joylashtirilgan bolalarga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan aliment huquq va majburiyatlar;
- ◆ qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-birlariga

nisbatan aliment huquq va majburiyatları kabi turları mavjudligi belgilangan.

**Aliment majburiyatları quyidagi shakllarda, ya'ni:**

Aliment majburiyatlarını ixtiyoriy amalga oshirish



Aliment majburiyatlarını kelishuv yo'li bilan amalga oshirish



Aliment majburiyatları sud tomonidan majburiy tartibda amalga oshiriladi

Aliment majburiyatlarını yuqoridagi ixtiyoriy yoki kelishuv asosida amalga oshirish shakllari aliment to'lovchi bilan aliment oluvchi o'rtasidagi erkin, ixtiyoriy aliment to'lovlarini to'lashda ko'rindi.

**Aliment to'lashning ixtiyoriy shaklida** aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdag'i mablag' olayotgan joyida to'lanadi.

Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar bola voyaga yetguniga qadar bo'lgan davr uchun, shu jumladan ko'chmas yoki ko'char mulk yoxud boshqa qimmatli ashyoni berish yo'li bilan oldindan to'lanishi mumkin.<sup>17</sup>

Alimentning bunday shaklida aliment to'lovchi shaxsan o'zi yoki pochta orqali tegishli pul mablag'larini topshirishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, aliment oluvchi bankda maxsus hisob raqami ochib, unga aliment to'lovlarini

<sup>17</sup> Оила кодексининг 135-моддаси. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги ЎРҚ-459-сонли Қонунига асосан учинчи қисм билан тўлдирилган — Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/459/0536-сон).

o‘tkazishi mumkin.

**Aliment to‘lashning kelishuv shakli** – nikoh shartnomasida yoki alohida kelishuv asosida ixtiyoriy tarzda vujudga keladi. Kelishuv ota-onalarning o‘zaro nikohda yoki nikohdan ajrashganliklaridan qat’i nazar tuzilishi mumkin.

**Aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish joiz, jumladan:**

- 
- 1 • aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to‘lash tartibi) aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs bilan aliment oluvchi o‘rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo‘lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi
  - 2 • aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim
  - 3 • aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi
  - 4 • notarial tartibda tasdiqlangan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo‘ladi
  - 5 • aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv taraflarning o‘zaro roziligi bilan istalgan vaqtida o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, uni o‘zgartirish yoki bekor qilish ham o‘sha shaklda amalga oshiriladi

- 6 • taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolida jiddiy o'zgarishlar yuz berganda hamda aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida ular o'zaro kelisha olmaganda, manfaatdor taraf kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqli
- 7 • sud aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish masalasini hal qilishda taraflarning e'tiborga loyiq har qanday manfaatini hisobga olishga haqli
- 8 • voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak
- 9 • alimentlar: aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlarda; vaqtiga vaqtida pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; bir yo'la pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda to'lanishi mumkin

Ota-onaloyiqa yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota-onaloyiqa kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-onaloyiqa kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rtdan bir qismi; ikki bola uchun — uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarining miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin (Oila kodeksining 99-moddiysi).

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.<sup>18</sup>

**Aliment undirishning majburiy shakli** sud tomonidan amalga oshiriladigan harakat bo‘lib, bu o‘z navbatida qonunda ko‘rsatilgan aliment majburiyatlariga doir normalar buzilganda yoki o‘sha majburiyatlar aliment to‘lovchi tomonidan bajarilmaganda tegishli mablag‘ sud tartibida aliment to‘lovchidan majburiy tartibda undiriladi. Sud tartibida aliment undirishga buyruq tartibida hamda sudning hal qiluv qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Aliment undirish yuzasidan sudga da’vo arizasi bilan ota-onadan biri yoki ota-onalardan aliment undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha voyaga yetmaganlar sudda o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini shaxsan himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, aliment olish huquqiga ega bo‘lgan boshqa subyektlar, shuningdek prokuror, vasiylik va homiylik organi murojaat qilishga haqli.

Oila kodeksining 142-moddasiga ko‘ra, aliment o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun aliment to‘lovchiga nisbatan javobgarlik belgilangan. Aliment to‘lashdan qasddan bosh tortish o‘z oqibatlariga ko‘ra, aliment to‘lovchini ota-onalik huquqidan mahrum qilishga (Oila kodeksining 79, 116-moddasi), aliment to‘lovchini jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi (Jinoyat kodeksining 122-moddasi).

Voyaga yetmagan bolalar ta’mnoti uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa, uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta’mnoti, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak”.

---

<sup>18</sup> (99-модданинг иккинчи қисми Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги ЎРҚ-459-сонли Конуни таҳририда — Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/459/0536-сон).

### **13.3. Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari**

Oilaviy-huquqiy munosabatlarga oid normalar ichida otalikni belgilash to‘g‘risidagi masalalar oila huquqining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Oila qonunchiligidagi otalikni belgilash masalasi o‘zaro nikohda bo‘lmaidan shaxslar o‘rtasida bola tug‘ilishi va unga nisbatan nasl-nasab belgilanishi munosabati bilan vujudga keladi. Odatda otalik tushunchasi negizida biologik va yuridik asoslar mavjud bo‘lib, ular bирgalikda otalikni belgilash munosabatlarini vujudga keltiradi. Oila kodeksi normalariga binoan otalikni belgilash deb o‘zaro nikohda bo‘lmaidan shaxslardan tug‘ilgan bolaga nisbatan qonunda belgilangan tartibda FHDYo yoki sud organlarida nasl-nasabning belgilanishiga aytildi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning taalluqliligin FHDYo organi yoki sudga taalluqli ishlar deb turkumlash mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi talab qaysi organga, ya’ni FHDYo organi yoki sudga yoxud sudning qaysi ish yuritish turiga taalluqli bo‘lishidan qat‘i nazar, otalikni belgilash to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish uchun yagona asos bu-bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o‘rtasida FHDYo organida qayd etilgan nikohning bo‘lmasligidir. Boshqa holatlar esa, otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni da’vo yoki alohida ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilishiga turlichcha ta’sir qiladi. Masalan, bolaning 1968-yil 1-oktyabrgacha yoki undan keyin tug‘ilganlik vaqtida da’vo tartibida ish yuritishga imkon bersa, alohida tartibida ish yuritishda esa ushbu sana otalikni tan olish va otalik faktlarini belgilashga sabab bo‘ladi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi talabning FHDYo organiga taalluqli bo‘lishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo‘lishi kerak:

- ◆ bolaning onasi bilan o‘zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxs o‘rtasida FHDYo organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

- ◆ bolaning onasi bilan o‘zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning bирgalikdagi arizasining mavjudligi;

- ◆ ona vafot etganda, ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo‘lma ganda, ona onalik huquqidan mahrum qilinganda o‘zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi;
- ◆ bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida ota homiysining vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining mavjudligi.

Otalikni sud yo‘li bilan belgilashda sudya ish qo‘zg‘atish jarayonida dastlab talabning oila qonunchiligining tegishli normalariga mos kelish-kelmasligini, talabning sudga taalluqli ekanligini, talabning qaysi turkumdagagi ish yuritish tartibida ko‘rilihini hal qilishi lozim.

Da’voli ishlarni sudga taalluqligining umumiyligi qoidalariga asoslangan holda otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning sudga taalluqli ekanligini quyidagi shartlarda ko‘rish mumkin:

bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o‘rtasida FHDYo organida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi

bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o‘rtasida FHDYo organiga birgalikda topshirilgan arizaning bo‘lmasligi

otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning otalikni tan olganlik haqidagi vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo‘lmasligi

bolaning asoslar amalga kiritilgandagan keyin, ya’ni 1968 yil 1 oktyabrdan keyin tug‘ilgan bo‘lishi

otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning hayot ekanligi

FHDYo organiga otalikni belgilash to‘g‘risida ariza beruvchi subyektlar sifatida ota-onas, voyaga yetmagan otanoning qonuniy vakili, muomalaga layoqatsiz otaning homisiy yoki vasiylik va homiylik organlarini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, FHDYo organida otaning arizasi asosida otalikni belgilashga quyidagi holatlarda, ya’ni ona vafot etganda; ona sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda; onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati yoki uning yashash joyini belgilashning imkoniyati bo‘lmasganda; ona onalik huquqidan mahrum qilinganda yo‘l qo‘yiladi. Bunday holatlarda vasiylik va homiylik organining roziligi olinib, arizaga onaning o‘limi haqidagi guvohnoma nusxasi, onasi muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to‘g‘risidagi sud qarorining nusxasi, onaning onalik huquqidan mahrum etilganligi to‘g‘risidagi sud qarorining nusxasi, ichki ishlar organlarining olti oydan ortiq muddat davomida bolaning onasi haqidagi ma‘lumotlarning mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomasi ilova qilinadi. Shuningdek, arizaga yuqoridagi holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari hamda vasiylik va homiylik organining roziligi ifodalangan hujjat ilova qilinishi kerakligi ta’kidlangan.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning da’voli ishlar turkumiga mansubligini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi FPKning 33-moddasiga asosan, umumiy qoida bo‘yicha javobgarning doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joyidagi sudga beriladi. Agar javobgarning yashash joyi noma’lum bo‘lsa, uning mol-mulki turgan joydagi yoki uning oxirgi yashash joyidagi sudga murojaat qilinadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi FPKning 34-moddasiga ko‘ra, fuqarolarning huquq va manfaatlari himoyasini ta’minalash maqsadida da’vogar aliment undirish to‘g‘risidagi, otalikni belgilash haqidagi va mayib bo‘lganlik hamda sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik yoxud boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zarar o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da’volarni o‘zi yashab turgan joydagi sudga ham taqdim etishi mumkin va sudlovililikning bunday shakli muqobil (alternativ) sudlovililik deb yuritiladi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning alohida ish yuritish tartibida ham ko‘rib chiqilishini inobatga olsak, bunday turkumdagи arizalar arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi (**O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 296-moddasi**).

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishda’vo qo‘zg‘atish va alohida ish yuritish tartibida amalgaloshiriladi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni da’vo qo‘zg‘atish tartibida sudda ko‘rib hal qilish uchun quyidagi **maxsus shartlarning bo‘lishi** talab etiladi:

1) bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o‘rtasida FHDYo organlarida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;

2) bolaning onasi bilan otaligi taxmin qilinayotgan shaxs o‘r-tasida otalikni belgilash to‘g‘risida birgalikdagi arizaning mavjud emasligi;

3) otaligi taxmin qilinayotgan shaxsning hayot ekanligi;

4) ona vafot etganda, ona muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo‘lmaganda, ona onalik huquqidан mahrum qilinganda o‘zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo‘lmasligi;

5) bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganida ota homiysining vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan arizasining bo‘lmasligi;

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha yuqoridagi maxsus shartlar bilan birgalikda sudga murojaat qilishning quyidagi umumiyl shartlari ham amal qiladiki, bularga: da’vogarning fuqarolik protsessual huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lishi; ishning sud organlariga taalluqli va uning sudlovga tegishli ekanligi; sudning aynan o‘sha taraflar o‘rtasida, aynan bir predmet to‘g‘risida va aynan bir asoslar bo‘yicha chiqqan nizo yuzasidan qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorining yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimining bo‘lmasligi kabi holatlar kiradi. Bizning nazarimizda, otalikni sud yo‘li bilan


belgilash to‘g‘ri-sida da’vo qo‘zg‘atgan ona protsessual ma’noda da’vogar deb e’tirof etilishi mumkin. Lekin ish bo‘yicha ona haqiqiy da’vogar hisoblanmay, barcha hollarda da’vogar bola bo‘lib qolaveradi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi fuqarolik ishini da’vo qo‘zg‘a-tish tartibida ko‘rib chiqishdan tashqari, alohida ish yuritish tartibida ko‘rib hal qilishga ham yo‘l qo‘yiladi. Oila kodeksining 62-moddasi to‘rtinchchi qismida bolaning onasi bilan nikohda bo‘lman, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ta’kidlangan.

Qonunchilikda alohida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktini belgilash kabi turlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ushbu faktlarni belgilash arizachiga qarindoshlik, qaramog‘ida bo‘lganlik, merosga bo‘lgan huquqni belgilash, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasini olish va boshqa shu kabi faktlarni belgilashga imkon tug‘diradi.

Aloida ish yuritish tartibida otalikni belgilash xususiyatlaridan biri – bu bolaning onasi bilan nikohda bo‘lman, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsnинг vafot etganlik fakti hisoblanadi. Bu haqda amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi 4-qismida, bolaning onasi bilan nikohda bo‘lman, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda, uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Ushbu turkumdagи ishlarni to‘g‘ri tushunish va aniq belgilash maqsadida ularga taalluqlilik shartlarini izohlab o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunonchi, **otalikni tan olish faktini belgilash uchun quyidagi shartlar** bo‘lishi talab etiladi:



19

### *Otalik faktini belgilashga doir shartlar quyidagilardan iborat:*

- ◆ bolaning onasi bilan o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs o'rtasida FHDYo organlarida qayd etilgan nikohning mavjud emasligi;
- ◆ bolaning onasi bilan nikohda bo'limgan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsnинг vafot etganligi;
- ◆ bolaning onasi bilan nikohda bo'limgan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxsnинг bola tug'ilishiga qadar birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritgan bo'lishi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganligi yoki otalikni tan olganlikni tasdiqlovchi boshqa dalillarning bo'lishi shartligi (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 62-moddasi);

<sup>19</sup> 1968 йил 27 июнда қабул килинган “ССР Иттифоқи ва ииттифоқдош республикаларнинг никоҳ ва оила тўғрисидаги қонун асослари”ни тасдиқлаш тўғрисидаги қарорига кўра, суд тартибида оталикни белгилашга мазкур Асослар кучга киритилганидан, яъни 1968 йил 1 октябрдан кейин туғилган болаларга нисбатан жорий этилиши белгиланди.

♦ bolaning 1968-yil 1-oktabrдан keyin tug‘ilgan bo‘lishi.

Hozirgi vaqtida 1968-yil 1-oktabrgacha tug‘ilgan bolalarning hammasi voyaga yetganligi sababli bunday ishlarning deyarli kam uchrashi kuzatilmoqda. Shunga qaramasdan, hozirda ham amaliyotda otalikni tan olish va otalik faktini belgilashda bolaning 1968-yil 1-oktabrgacha yoki undan keyin tug‘ilgan bo‘lishi asosiy shartlardan biri ekanligiga sudlar tomonidan e’tibor berilmoqda.

Alohiba ish yuritish tartibida otalikni belgilash uchun sudga murojaat qilish maqsadlarini umumiy va maxsus turlarga bo‘lish mumkin.

### Umumiy maqsadlar

- ona va bola manfaatlarini butun choralar bilan himoya qilish, har bir bolaning baxtli bolaligini ta’minlab berish, har bir insonning oilaga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, oilada bolalar tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan birga qo’shib olib borish kabilalar nazarda tutilsa

### Maxsus maqsadlar

- FHDYo organidagi tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftariга ota haqidagi ma’lumotlarni kiritish, bola otasining kimligini his qilishi, bola otasining qarindoshlari bilan munosabatga kirishishi, bola uchun aliment undirilishi, merosdan hissa undirish yoki merosga egalik huquqini belgilash tushuniladi

## NAZORAT SAVOLLARI:

1. Nikohni tugatishga oid ishlarni tasniflang?
2. Nikohdan ajratish asoslarini tushuntiring?
3. Nikohdan ajrashish sabablarini ko‘rsating?
4. Aliment turlarini aytинг?
5. Aliment to‘lash (undirish)ning shakllari haqida ma’lumot bering?
6. Alimentni sud tartibida undirish asoslari, tartibi va protsessual xususiyatlarini tushuntiring?
7. Alimentni sudga qadar to‘lash usullarini tushuntiring?
8. Aliment to‘lamaganlik uchun qanday huquqiy oqibatlar kelib chiqadi?
9. Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning taalluqliligi va sudlovligini tushuntiring?
10. Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni da’vo qo‘zg‘atish tartibida sudda ko‘rish asoslari va tartibini tushuntiring?
11. Alovida ish yuritish tartibida otalikni tan olish va otalik faktining belgilanishi hamda ularning da’vo tartibida otalikni belgilashdan farqli jihatlarini sanab o‘ting?
12. Otalikni belgilash ishlari bo‘yicha isbotlash va dalillarni ko‘rsating?

### **1-kazus**

Satimova Xosiyat sobiq turmush o‘rtog‘i Satimov Xushnudga nisbatan 2014-yil 22-sentabrda bir nafar farzandi ta’mnoti uchun aliment undirish haqida Bekobod tumanlararo sudiga murojaat qilgan va ish hali ko‘rib tugallanmagan. 2014-yil 2-noyabrdra Satimova Xosiyat sobiq turmush o‘rtog‘i Satimov Xushnudga nisbatan bir nafar farzandi ta’mnoti va o‘zining ta’mnoti uchun aliment undirish haqida Bo‘ka tumanlararo sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilgan va ish bo‘yicha 2014-yil 24-noyabrdra hal qiluv qarori chiqarilgan.

- **Vaziyatga huquqiy baho bering? Aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarning sudlovligini tushuntiring?**
- **Satimova Xosiyatning protsessual harakatlariga baho bering?**

## **2-kazus**

Qosimov 2018-yilda sudga da’vo bilan murojaat qilib, Qodirova bilan 2015-yildan oila qurib yashab kelganligini, o‘zaro kelishmovchiliklar sababli 2016-yildan buyon boshqa ayol bilan shar’iy nikohdan o’tib yashab kelayotganliklarini va u bilan o‘rtalarida ikki nafar farzandlari borligini ko‘rsatib, Qodirova bilan tuzilgan nikohdan ajratishni so‘ragan. Sud da’voni qanoatlantirgan.

Apellatsiya instantsiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qilib, ish yuritishni tugatgan. Bunga asos qilib Qodirovaning ishni sudda ko‘rish vaqtida homilador bo‘lganligini ko‘rsatgan. Ish hujjatlariga qaraganda, Qodirova o‘zining homilador ekanligi to‘g‘risida appellatsiya instantsiyasi sudi majlisida og‘zaki ko‘rsatma bergan va ushbu og‘zaki ko‘rsatmaga asosan sud birinchi instantsiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilgan.

Qosimovning nazorat tartibida shikoyatiga ilova qilingan tibbiy ma’lumotnomadan ko‘rinishicha, Qodirova 2018-yil davomida ayollar maslahatxonasiga murojaat qilmagan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati appellatsiya instantsiyasi sudining ajrimini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rish uchun yubordi.

**Savol: 1) Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati apellyatsiya instantsiyasi sudining ajrimini bekor qilishi uchun asoslar mavjudmi? 2) Mazkur ish qanday hal etilishi lozim?**

## **3-kazus**

A. sudga T. ga nisbatan 2008-yilda tug‘ilgan o‘g‘li S. ni otaligini belgilash haqida da’vo bilan murojaat qilgan. Birinchi instantsiya sud da’voni rad etgan.

Apellatsiya instantsiyasi sudi hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirgan. Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati 2012-yil 8-fevralda sud qarorlarini bekor qilib, ish yuritishni tugatdi.

Ish hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, A. bilan T. o‘zaro nikohda bo‘lgan davrida, ya’ni 2008-yilda. S. tug‘ilgan bo‘lib, uning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasiga T. bolaning otasi ekanligi to‘g‘risida aniq yozuv kiritilgan.

**Savol: 1) Birinchi instantsiya sud va apellyatsiya instantsiyasi sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar nimada?**

## **14-BOB. MEHNATGA OID NIZOLI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI**

### **14.1 Mehnat nizolarining taalluqligi va sudloviligi**

Mehnat nizolarining taalluqligi deganda mehnat nizolari mazmuni bo'yicha qaysi organ tomonidan ko'rib hal qilinishi anglashiladi. Mehnat nizolarining taalluqligi, ya'ni ularning qayerda ko'rib chiqilishi lozimligi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 269 va 276-moddalari hamda FPKning 26-moddasi bilan tartibga solinadi. Yakka tartibdagi mehnat nizolarida nizoning xususiyati va uni keltirib chiqaruvchi huquqiy munosabat hamda nizolashuvchi shaxslarning tarkibi, ayrim hollarda esa nizoning predmeti taalluqlilikni belgilovchi asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Mehnat nizosining taalluqlilagini belgilashda, avvalo, nizoning qaysi turda ekanligini, yakka tartibdagi nizo bo'lsa, uning xususiyatini; mehnat qonunchiligini qo'llash yoki yangi mehnat shartlarini belgilash bo'yicha va yana qaysi huquqiy munosabatlardan kelib chiqqanini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Xususan, mehnatga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan, ammo boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mehnat ishlarining taalluqligini belgilash shular jumlasidandir. Masalan, ishga joylashtirish, ishga qabul qilishni rad etish bilan bog'liq mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasida ko'rish uchun taalluqli bo'lmaydi. Shuningdek, mazkur komissiya nafaqa to'lash bilan bog'liq mehnat nizolarini ham ko'rib, hal qilish vakolatiga ega emas. Shuning uchun ham mehnat nizolarining yuqoridagi xususiyatlari alohida e'tibor berishlik talab etiladi, aks holda mehnat ishlarining taalluqligligi noto'g'ri belgilanishi hamda ish ko'rishga vakolatli bo'lmasan organ tomonidan chiqarilgan qaror bekor qilinishi mumkin.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mazkur nizoli ishlarni ko'rib hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- 1) mehnat nizolari komissiyasi;
- 2) fuqarolik ishlari bo'yicha sud;
- 3) bo'ysinuv tartibida yuqori turuvchi organlar.

Yakka tartibdag'i mehnat nizolarining yuqoridagi organlarning qaysi biriga taalluqli bo'lishini belgilash ushbu nizoning mazmuniga, huquqiy munosabatlarning turiga, unda ishtirok etuvchi subyektlar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 260-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat nizolari bo'yicha xodim mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita tuman (shahar) sudlariga murojaat etishga haqlidir. Mehnat nizolari komissiyasi o'n kunlik muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa yoki hal etmasa, manfaatdor xodim ushbu nizoni ko'rishni tuman (shahar) sudiga o'tkazishga haqlidir (Mehnat kodeksining 267-moddasi).

**Bevosita fuqarolik ishlari bo'yicha tuman, tumanlararo (shahar) sudlarida ko'rilishi lozim bo'lgan mehnat nizolarining ro'yxati Mehnat kodeksining 269-moddasida o'z ifodasini topgan.** Unga ko'ra mehnat nizolari quyidagi hollarda bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rib chiqiladi:

- 1) agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo'lsa;
- 2) ular mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'i nazar, ishga tiklash to'g'risida, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqt va asoslari ta'rifini o'zgartirish to'g'risida, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lashga doir bo'lsa;
- 3) ular xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararning to'lanishi haqida bo'lsa;
- 4) ular mehnat vazifalarini bajarayotganda xodimning

sog‘lig‘iga shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni (shu jumladan ma’naviy zararni) yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to‘lanishi haqida bo‘lsa;

5) ular Mehnat kodeksi 78-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qilish rad etilganligi haqida bo‘lsa, ya’ni ish beruvchi tomonidan taklif qilingan shaxslarni ishga qabul qilmaslik, ish beruvchi qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo‘lgan (belgilangan kvota hisobidan ishga yuborilgan nogironlar va o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarni; homilador ayollarni va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarni tegishinchaligini ularning homiladorligi yoki bolasi borligini vaj qilib) ishga qabul qilmaslik yuzasidan kelib chiqqan nizolar ham bevosita sudlarda ko‘rib hal qilinadi;

6) ular ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo‘lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismida sanab o‘tilgan mehnat nizolaridan boshqa nizolar ham xodimning xohishiga ko‘ra bevosita tuman (shahar) sudlarida ko‘riladi.

Mansabdor shaxslar tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to‘lash to‘g‘risidagi mehnat nizolari, agar mansabdor shaxs yetkazgan zarar iqtisodiy nizoni ko‘rib chiqish paytida aniqlangan bo‘lsa, iqtisodiy sudlar tomonidan ham ko‘rib chiqiladi.

Mehnat nizosi mehnat nizolari komissiyasida ko‘rilmagan degan vaj bilan xodimning arizasini ko‘rib chiqishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mehnatga oid nizoli ishlar yuzasidan sudda da’vo qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilish uchun nizoli ish qaysi sudning sudloviga tegishli bo‘lishligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Mehnat nizoli ishlarining

sudlovligini aniqlash birinchi instansiya sudining qaysi birida mazkur nizo hal qilinishini aniqlash demakdir. Umumiy qoida bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha arizalar javobgarning doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga beriladi.

Tashkilotlarga nisbatan ariza ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga beriladi (FPKning 33-moddasi).

Mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning aksariyati (masalan, ishga tiklash, avvalgi ish joyiga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish ta'rifini o'zgartirish, mehnatga haq to'lash to'g'risidagi nizoli ishlar) javobgar ish beruvchi joylashgan joydagi sudlarda qo'zg'atiladi. Lekin xodimlar tomonidan yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi da'volar bilan korxona joylashgan sudga murojaat qilish mumkinligini qonun istisno qilmaydi. Darhaqiqat, FPKning 34-moddasiga muvofiq, fuqaroning yoki yuridik shaxsnинг mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar zarar yetkazilgan joyda ham taqdim qilinishi mumkinligi mazkur nizoli ishlar uchun da'vogarning tanlashi bo'yicha (muqobil) sudlovlik joriy qilinganligidan dalolat beradi. Shuningdek, FPKning 34-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganlik yoxud boquvchisi ish bilan bog'liq holda vafot etganligi natijasida ko'rilgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volarni da'vogar o'zi yashab turgan joyda ham taqdim etishi mumkin.

#### **14.2. Mehnatga oid nizoli ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar**

Mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarda taraflar korxona, tashkilot, muassasa va xodimlar hisoblanib, ular o'rtasida nizo mehnat qonunchiligini qo'llash borasida yuzaga kelib, sudlarda ko'rish uchun tegishli bo'ladi.

Sudda buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish maqsadida da'vo arizasi taqdim etish huquqini amalga

oshirishning muhim shartlaridan biri protsessual harakatlarni amalga oshirishga qobiliyatli bo‘lish, ya’ni protsessual muomala layoqatiga ega bo‘lish hisoblanadi.

Sudda o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir. Fuqaro 18 yoshga to‘lgach, fuqarolik protsessida shaxsan ishtirok etishi, protsessual harakatlarni amalga oshirishi va o‘ziga tegishli protsessual huquqlardan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Voyaga yetmagan, ya’ni yoshi o‘n to‘rtdan o‘n sakkizgacha bo‘lgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiyalar tomonidan himoya qilinadi (FPKning 42-moddasi).

Mazkur qoidadan istisno ravishda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha xodimlarning fuqarolik muomala layoqati 15 yoshdan boshlanadi. Mehnat kodeksining 77-moddasiga ko‘ra, xodimlarning mehnat huquq layoqati umumiy qoida bo‘yicha 16 yoshdan boshlanadi. Voyaga yetmagan xodim sudda boshqa turkum-dagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar yuzasidan protsessual muomala layoqatiga ega bo‘lmasligi mumkin, lekin mehnat ishlari bo‘yicha o‘zining protsessual huquq va majburiyatlarini to‘la hajmda amalga oshirish huquqiga ega. Xususan, FPKning 42-moddasiga muvofiq, mehnat bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardan va olingen ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha voyaga yetmaganlar sudda o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlарини shaxsan himoya qilish huquqiga ega ekanliklari e’tirof etiladi.

Mehnat ishlari bo‘yicha sudga shaxsan murojaat qilish huquqiga yoshidan qat’i nazar barcha xodimlar haqli bo‘ladi. Shunday ekan, sudya mehnat ishlari bo‘yicha 18 yoshga to‘limgan xodimning da’vo arizasini FPKning 195-moddasi 1-bandiga ko‘ra, ya’ni ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligini asos qilib qaytarishi mumkin emas.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun suda o'z tashabbusi bilan ularning ota-onalarini, farzandlikka olganlar yoki homiyalarini sud protsessiga jalb qilishi mumkinligi fuqarolik protsessual qonunchiligidagi o'z aksini topgan (FPKning 42-moddasi). Ushbu huquqiy norma voyaga yetmagan xodimlarning protsessual muomalaga layoqatini cheklashga qaratilmay, balki voyaga yetmagan shaxslarning sudda huquqlarini himoya qilinishining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarda boshqa turkumdagagi ishlardan farqli ravishda birgalikda ishtirok etuvchilar ko'plab uchraydi. Masalan, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda bir xil asos bilan bir necha xodimlar ishdan bo'shatilishi mumkin va ushbu xodimlar sudda sherik da'vogarlar sifatida e'tirof etiladi.

Mehnat nizolarida uchinchi shaxslar ham ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 184-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimlarni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimlarni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga yoki boshqa ishga o'tkazishga farmoyish bergen mansabdor shaxsni uchinchi shaxs sifatida ishda ishtirok etish uchun javobgar tomoniga jalb qilishi shart.

Sud mehnat shartnomasining bekor qilinishi yoki boshqa ishga o'tkazish ochiqdan-ochiq qonunga xilof bo'lganligini aniqlasa, shu protsessning o'zidayoq aybdor mansabdor shaxs zimmasiga majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ish bajarilgan vaqt uchun haq to'lash natijasida tashkilotga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash majburiyatini yuklaydi. Bunday hollarda mansabdor shaxsdan undiriladigan summaning

miqdori mehnat qonunchiligiga ko‘ra, yetkazilgan zarar o‘mini qoplash uchun to‘lanadigan haq miqdori mansabdar shaxsning uch oylik maoshidan ortib ketmasligi lozim.

Ishga tiklash to‘g‘risidagi ishlarda mansabdar shaxsni jalb etishdan maqsad, mehnat qonunchiligini buzilishini va regress da`voni oldini olish hamda xodimga yetkazilgan zararni mansabdar shaxsdan undirishdan iboratdir.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rilishida vakillarning ishtiroki o‘zining maqsadi va vazifalari bilan vakillikning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Mehnatga oid nizoli ishlarda xodimning vakili sifatida xodim ishlayotgan korxonaning kasaba uyushmasi qo‘mitasi ishtirok etishi mazkur turkumdagи ishlarning o‘ziga xos protsessual xususiyatlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 20-moddasiga muvofiq, kasaba uyushmalari, ularning korxonadagi saylab qo‘yiladigan organlari, xodimlar tomonidan saylab qo‘yiladigan organlari, ish beruvchilarning vakillik organlari mehnatga oid munosabatlarning subyektlari sifatida qatnasha oladilar.

Xodimning vakillik organi bo‘lmish kasaba uyushmalari mehnat nizolarini ko‘rvuchi organlarda xodimlar manfaatini himoya qilish huquqiga ega bo‘lib, ushbu huquqni o‘z vakillari orqali bajaradilar.

#### **14.3. Mehnat nizolari bo‘yicha sudda ish qo‘zg‘ atish, tayyorlash va ichni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat qonunchiligiga ko‘ra, quyidagilar mehnat nizosini ko‘rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar:

- 1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi;
- 2) mehnatning huquq bo‘yicha inspektori;
- 3) beruvchi, mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo‘lмаган taqdirda, shuningdek unga xodim tomonidan

yetkazilgan zararni qoplash haqidagi nizolar bo'yicha;

4) prokuror.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 270-moddasiga ko'ra sudga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat etish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

ishga tiklash nizolari bo'yicha – xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab **bir oy**;

xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha – zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab **bir yil**;

boshqa mehnat nizolari bo'yicha – xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab **uch oy**.

Ushbu belgilangan muddatlar uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, bu muddatlar sud yoki mehnat nizolari komissiyasi tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Xodimning sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi.

Sudda fuqarolik ishlari yozma shaklda ariza berish yo'li bilan qo'zg'atiladi (FPKning 189-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 277-moddasiga muvofiq, mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlari bo'yicha sudga murojaat qilgan da'vogarlardan da'vo arizalari uchun davlat boji undirilmaydi. Bu esa mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlaridan biri bo'lib, xodimlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora sifatida e'tirof etiladi. Xuddi shu kabi norma O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 329-moddasida ham nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, da'vogarlar - ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan umumiylar yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

Mehnat ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshirishga fuqarolik ishini qo‘zg‘atganidan so‘ng kirishadi. Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risida ajrim chiqarilishi suda tomonidan ishni sudda ko‘rishga tayyorlash harakatlarini boshlaganligidan dalolat beradi.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash bo‘yicha sudyaning amalga oshirishi lozim bo‘lgan protsessual harakatlari FPKning 204-moddasida o‘z ifodasini topgan. Masalan, ish beruvchining tashabbusi bilan ishdan bo‘shatilgan yoki boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni ishga tiklash to‘g‘risidagi nizoni sudda ko‘rishga tayyorlash bosqichida suda bu to‘g‘risida buyruq bergen mansabdon shaxsni javobgar tomonidan turib ishtirok etish uchun uchinchi shaxs sifatida jalg etish masalasini hal qiladi. Shuningdek, suda mehnat nizolari yuzasidan sud majlisida davlat boshqaruvi organlari, mehnat jamoasi va jamoat tashkilotlari vakillarining ishtirok etish masalasini hal qiladi. Shu o‘rinda, mehnat intizomini buzish, ish beruvchining mol-mulkiga zarar yetkazish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha mehnat jamoasining vakilini jalg etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari vakillarining sud majlisiga jalg qilish sudyaning ajrimi asosida hal qilinadi. Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashning muhim protsessual xususiyatlari mazkur turkumdag‘i ishni sudda ko‘rishga tayyorlash uchun maxsus muddatlarning joriy etilganligidir. Xususan, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha ishni sudda ko‘rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab o‘n kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim (FPKning 202-moddasi).

Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rish muddatlarida o‘ziga xos protsessual xususiyatlar mavjudligini alohida qayd etish lozim. Jumladan, FPKning 207-moddasiga muvofiq, mehnat ishlari birinchi instansiya sudi tomonidan sudda ko‘rishga

tayyorlab bo'lingan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay ko'riliши lozim.

### **Mehnatga oid nizolarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari quyidagilar:**

- 1) da`vogarning davlat boji to'lashdan ozod qilinishi;
- 2) xodimning sog'ligiga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo'yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi;
- 3) protsessual huquqiy vorislikka yo'l qo'yilmasligi (masalan, ishga tiklashda);
- 4) mehnat nizolari da'vo tartibida yoki sud buyrug'i tartibida ko'riliши mumkin;
- 5) mehnat nizolari qisqa muddatda ko'rildi (FPKning 207-moddasi);
- 6) mehnat nizolari bo'yicha sud hal qiluv qarori darhol ijro etiladi (FPKning 266-moddasi);
- 7) mehnat nizolari bo'yicha sud hal qiluv qarorini qaytarma ijroga yo'l qo'yilmasligi;
- 8) mehnat nizolari bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni sudga murojaat qilishga haqli ekanligi.

#### **14.5. Mehnatga oid nizolar bo'yicha sudning hal qiluv qarori va ijrosi**

Mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlar tomonidan qabul qilinadigan hal qiluv qarorlari to'liq ravishda FPKning 249–253-moddalari talablariga javob berishi lozim.

Mehnatga oid ishlar bo'yicha chiqariladigan sud hal qiluv qarorlarining kirish qismida hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt va joy, hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, prokuror, agar ish ochiq yoki yopiq sud majlisida ko'rildigan bo'lsa, bu haqdagi ma'lumot, ko'rيلayotgan ishning nomi, qanday korxona, tashkilot va muassasa tomonidan da'vo berilganligi (to'liq nomi bilan), agar da'vo prokuror yoki bo'ysunuv tartibidan yuqori turuvchi ish beruvchi tomonidan berilgan

bo‘lsa, qaysi yuridik shaxs manfaati ko‘zlanganligi, da’vo arizada ko‘rsatilgan yoki sud tomonidan jalb etilgan barcha javobgarlar (familiya, ismi va sharifi ko‘rsatilgan holda), da’vosining summasi ko‘rsatilishi kerak.

Mehnat ishlari bo‘yicha sud hal qiluv qarorining bayon qilish qismida da’vogarning talabi, javobgarning e’tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini aks ettirishi kerak.

Mehnat ishlari bo‘yicha sud hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, sudning ish holatlari to‘g‘risidagi xulosalari asoslangan dalillar, sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligi haqidagi xulosalari, sud amal qilgan moddiy va protsessual huquq normalari ko‘rsatilishi kerak. Arz qilingan talab javobgar tomonidan tan olingan taqdirda, asoslantiruvchi qismda faqat arz qilingan talabning tan olinganligi va uning sud tomonidan qabul qilinganligi ko‘rsatilishi mumkin.

Ushbu turkumdagisi ishlar yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarorining xulosa qismida sudning arz qilingan talablarni qanoatlantirishi yoxud butunlay yoki qisman rad etish to‘g‘risidagi xulosasi, da’vogarning foydasiga javobgardan (yoki har bir javobgar) undiriladigan zararning aniq summasi, sud xaratjatlarining miqdori, uning taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko‘rsatilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 266-moddasiga ko‘ra, xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo‘lмаган ish haqini undirib berish to‘g‘risidagi; mayib bo‘лганлик yoki sog‘liqqa boshqacha tarza shikast yetishi, shuningdek boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash uchun to‘lovlar undirish to‘g‘risidagi; mehnat shartnomasi g`ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g`ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to‘g‘risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta‘rifini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarori darhol ijro etiladi.

### Nazorat savollari

1. Mehnat nizolari taalluqliligi va sudlovlilagini tushuntiring.
2. Mehnat nizolari bo'yicha sudga murojaat qilish muddatlarini aytинг?
3. Mehnat nizolarini sudda ko'rishning protsessual xususiyatlarini aytинг?
4. Mehnat nizolari bo'yicha sud hal qiluv qarorini ijro etish tartibini tushuntiring?

### **1-kazus**

Nurmatova sudga da'vo bilan murojaat etib, 2018-yil 1-oktyabrda nafaqaga chiqishi munosabati bilan "Jizzax pochtasi" AJning Zarbdor filiali direktori lavozimidan ozod qilish to'g'risida ariza bergan bo'lsa-da, mehnat faoliyatini davom ettirganligini, 2018 yil 19 oktyabrda ish beruvchining buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 99-moddasi, ya'ni xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqdan bexabarligini ko'rsatib, ishga tiklash va majburiy progul vaqtiga uchun haq undirishni so'ragan.

Sudning hal qiluv qarori bilan da'vo rad qilingan. Kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o'zgarishsiz goldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sud qarorlarini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yubordi.

*Savol: Ushbu masalada xodimni o‘z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi ish beruvchining buyrug‘i qonuniymi? Birinchi instansiya sudining xatoliklari nimada?*

## **2-kazus**

Zaripova fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudiga ishga tiklash to‘g‘risidagi da’vo bilan murojaat qilgan. Da’vo arizasida ko‘rsatilishicha, 2018-yil 10-mayda uning bilan ish beruvchi o‘rtasida 2018-yil 10-noyabrgacha bo‘lgan muddatga mehnat shartnomasi tuzilgan bo‘lib, uch oylik dastlabki sinov belgilangan.

Bosh direktorning 2018-yil 19-iyul oyidagi 156-sonli buyrug‘iga ko‘ra, Zaripova bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 82-moddasiga ko‘ra, ya’ni sinov natijasi qoniqarsiz bo‘lganligi uchun bekor qilingan.

*Savol: Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudi tomonidan mehnat qonunchiligining qaysi me’yorlari buzilgan? Qaysi hollarda xodim bilan mehnat shartnomasi tuzilganda dastlabki sinov belgilanmaydi?*

## **15-BOB. UY-JOYGA OID NIZOLI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI**

### **15.1. Uy-joyga oid nizolarning turlari**

Uy-joy nizolarini obyekti va subyektiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Davlat uy-joy fondidan foydalanish bilan bog'liq nizolar;

2) Xususiy uy-joy fondi bilan bog'liq nizolar.

<b>O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001-yil 14-sentabrdagi "Uy-joy nizolari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarorida ko'rsatilishicha:</b>	
<b>Davlat uy-joy fondiga quyi-dagilar kiradi:</b> <p>mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'lgan, mahalliy budgetga tushgan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha boshqa tushumlar hisobidan barpo etilgan uy-joylar fondi;</p> <p>mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo'lgan, mahalliy budget mablag'lari hisobidan barpo etilgan, xususiy, munisipal uy-joy fondidan olib ularning balansiga berilgan fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalananmagan, kam ta'minlangan toifalari uchun xususiylashtirish huquqisiz ijara shartnomalari asosida foydalani-layotgan aniq maqsadli kommunal uy-joy fondi;</p> <p>davlat korxonalari, muassasa va tashkilotlarning to'la xo'jalik yurituvida yoki operativ bosh-qaruvida bo'lgan idoraga qarashli</p>	<b>Xususiy uy-joy fondiga quyi-dagalar kiradi:</b> <p>fuqarolarning mulki bo'lgan uy-joy fondi (yakka tartibdag'i turar-joy binolari, xususiylashtirilgan, qurilgan hamda sotib olingan kvartiralar na uylar, uy-joy hamda uy-joy qurilish kooperativlariga qarashli uylardagi pay badallari to'liq miqdorda to'langan kvartiralar, hadya, ayrboshlash shartnomalari hamda meros huquqi va O'zbekiston Respublikasi FKning 187-moddasi asosida olingan kvartiralar va uylar);</p> <p>xo'jalik shirkatlari va jamiyat-lari, kooperativlar, jamoat birlash-malari, jamoat fondlari hamda boshqa nodavlat yuridik shaxslarning mulki bo'lgan hamda ularning mablag'lari hisobidan qurilgan yoki kim oshdi savdosida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda (oldisotdi, hadya, meros, va h.k. shartnomalar) olingan kvartiralar va uylar.</p>

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi “Yakka tartibda qurilgan uygaga bo‘lgan mulk huquqi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham sudga taalluqli uy-joyga oid nizolarni quyidagi turlari ko‘rsatilgan:

a) uygaga yoki uning bir qismiga (ulushga) bo‘lgan mulk huquqini e‘tirof etish haqidagi;

b) umumiy ulushli mulk huquqi asosida bir necha shaxsga yoki umumiy birligida mulk huquqi asosida erxotinda tegishli uydan ulushni ajratib berish (uyni bo‘lish) haqidagi;

v) tegishli hokimiyatdan ruxsat olingan holda uyning va yordamchi imoratlarning ustiga, yoniga qo‘sishma imoratlar qurish yoki ularni qayta qurishlarga nisbatan umumiy ulushli mulknинг boshqa ishtirokchilarini e‘tirozlari bo‘lganligi haqidagi;

g) uydan foydalanish tartibini belgilash haqidagi;


d) ishtirokchilarning umumiy ulushli mulk bo‘lgan uydagi ulushlari miqdorini o‘zgartirish haqidagi;

e) ishtirokchining umumiy ulushli mulk bo‘lgan uydagi ulushini imtiyozli asosda sotib olish huquqi haqidagi;

j) uyning oldi-sotdi, ayriboshlash, hadya va boshqa shartnomalarni haqiqiy emas deb topish haqidagi;

z) o‘zboshimchalik bilan qurilgan uygaga nisbatan qonunda nazarda tutilgan hollarda mulk huquqini e‘tirof etish haqidagilar.

## **15.2 Uy-joy oid nizolarning taalluqliligi va sudlovililigi**



O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash, yordamchi xonalarни qayta qurish va o'zgartirishga rozilik berish masalalarini hal qilish mahalliy davlat hokimiyati organlari va ijara beruvchilarning vakolatiga tegishli ekanligidan kelib chiqib, bunday masalalar bo'yicha da'volar sudga taalluqli emasligi ko'rsatilgan.

Turar-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 104-113-moddalarida ko'rsatilgan, ya'ni turar joylar o'zboshimchalik bilan egallangan hollarda uyning yemirilish xavfi bo'lgan hollar bunday uylarda yashovchilarni xizmat bilan bog'liq bo'lgan turar joylardan, yotoqxonalardan va mehmonxonalardan ko'chirish to'g'risidagi ishlar sudlarga taalluqli bo'lmasdan, ma'muriy organlarga, ya'ni prokuratura organlariga taalluqli bo'ladi. Turar joylarni o'zboshimchalik bilan egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslar prokuror sanksiyasi asosida ma'muriy tartibda ko'chiriladilar (Uy-joy kodeksi 70-moddasi).

Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni qaysilari sudga taalluqli ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida tushuntirishlar berib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Uy-joy nizolari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qaroriga ko'ra, sudlar quyidagi nizolarni hal etishga vakolatli:

- xususiy va davlat uy-joy fondlariga qarashli turar-joylarni ijara beruvchi hamda ijara oluvchilar, ularning oila a'zolari o'rtasidagi uy-joy munosabatlari bo'yicha

vujudga kelgan nizolar;

- uy-joy qurish yoki uy-joy kooperativi bilan fuqarolar o'rtasidagi uy-joy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar;
- davlat uy-joy fondining turar-joyiga berilgan hujjatni (orderni) haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi nizolar;
- ijara shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish to'g'risidagi nizolar;
- Uy-joy kodeksining 71-74, 79, 85-moddalarida ko'rsatilgan assoslар bo'yicha turar-joydan ko'chirish bilan bog'liq nizolar;
- fuqarolik huquq majburiyatlari asosida vujudga keladigan uy-joy bilan bog'liq nizolar;
- yer uchastkalari davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan vujudga keladigan nizolar.

Davlat uy-joy fondidagi turar-joyni xususiylashtirishni amalga oshirishda fuqaro va mulkdorlarning huquqini himoya qilish munosabati bilan vujudga keluvchi nizolarni sudga taalluqli bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1997-yil 2-maydagi "Xususiylashtirilgan turar-joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" gi qarorida ko'rsatilgan.

Turar joyni almashtirish to'g'risidagi nizolar ham sudga taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 107-moddasiga ko'ra, turar joyning mulkdori va uning voyaga yetgan oila a'zolari, hamda u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, uy-joy qurilish kooperativi a'zosi va pay jamg'armasining qismiga huquqi bo'lgan uning oila a'zolari o'rtasida turar joyni almashtirish to'g'risida kelishuvga erishilmagan bo'lsa, ulardan har biri egallab turgan joyini turli uylar, kvartiralardagi turar joylarga majburan almashtirishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar.

Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning sudlovligi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu ishlarda xududiy sudlovlikning mustasno sudlovlik qoidalari qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik

protsessual kodeksining 35-moddasiga ko‘ra, imoratga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to‘g‘risidagi da’volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqlidir.

Meros qoldiruvchining kreditorlari meros vorislar tomonidan qabul qilinguniga qadar qo‘zg‘atgan da’volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan hududdagi sudning sudloviga tegishlidir.

Demak, yuqoridagi qoidadan ko‘rinib turibdiki, mazkur turdagи ishlar uy-joy joylashgan joydagi sudning sudloviga tegishli bo‘ladi.

#### **4-§. Uy-joyga oid nizolar bo‘yicha sudda ish qo‘zg‘atish, tayyorlash, sudda ko‘rish va hal qiluv qarorini ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha sudga huquqi buzilgan shaxslar, hokimiyatlar, tashkilotlar, Davlat mulkini boshqarish qo‘mitasining turar joy masalalari bo‘yicha bo‘limlarining hududiy organlari va prokuror murojaat qilishga haqidirlar.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 189-moddasiga ko‘ra, da’vo arizasida ariza berilayotgan sudning nomi, da’vogar va javobgarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), ularning yashash joyi, agar da’vogar yoki javobgar tashkilot bo‘lsa, uning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda rekvizitlari, da’vogarning talabi, da’vogar o‘zining talablariga asos qilib ko‘rsatayotgan holatlar, bu holatlarni tasdiqlaydigan dalillar, arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ko‘rsatiladi. Ushbu ishlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat boji stavkalari to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan, umumiy asoslarga ko‘ra davlat boji to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida ko‘rsatilishicha, sudlar turar joylarni xususiylashtirish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan berilgan da’vo arizalarni qabul

qilishda davlat uy-joy fondi tasarrufida bo‘lgan tuman (shahar) hokimining, korxona, tashkilot, muassasa ma`muriyatining turar joyni xususiylashtirish haqidagi tegishli farmoyishi va egalik huquqini beruvchi davlat orderi borligini tekshirishlari, bunday hujjatlar mayjud bo‘lsa, ularni ish materiallariga qo‘shish uchun talab qilib olishlari kerak. Shuningdek, fuqaro turar joyni xususiylashtirish huquqiga ega ekanligi, unga xususiylashtirishning imtiyozli asoslari qo‘llanishi mumkinligi aniqlanishi lozim.

Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda sudya FPKning 203-204-moddalarida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Shuningdek, uy-joyga oid munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko‘rishga tayyorlashda ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini belgilab olishi, ishga jalg qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar doirasasi (masalan, mahalliy davlat hokimiyat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, uy-joy ijarasi shartnomasi shartlaridan (masalan, kvartira haqini undirish, zararni undirish va h.k.), uy-joyda ro‘yxatda turuvchi oila a`zolari va voyaga yetmagan oila a`zolari, uchinchi shaxslarni jalg qilishi lozim.

**Fuqaroni turar-joyga bo‘lgan huquqini yo‘qotish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashda quyidagi hujjatlar talab qilinadi:**

Shaxsiy hisob varaqasi; nizoni uyda bo‘lgan va bo‘lmagan vaqtini tasdiqlovchi hujjatlar (uy daftaridan ko‘chirma, aktlar, xatlar, uy boshqaruvi, o‘quv muassasasi, voyenkomatning ma’lumotnomasi); javobgarni nizoli uyda noilojlikdan bo‘lmaganligini tasdiqlovchi hujjat; javobgarning turar-joyga bo‘lgan huquqi qonuniy saqlanishini tasdiqlovchi hujjat (voyenkomatning ma’lumotnomasi, qo‘riqlash guvoxnomasi, ish va o‘qish joydan ma’lumotnoma).

**Ko‘chirish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga**

### **tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.**

Xususan, boshqa turar-joy berган holda xizmat turar-joylaridan ko‘chirish Uy-joy kodeksining 8-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Bunday ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashda korxona korxonalar ro‘yxatida mayjudligi va ushbu korxona, muassasa, tashkilotga tegishli turar-joy maydoni mayjudligi aniqlanishi kerak. Fuqaroni xizmat turar-joyidan ko‘chirish to‘g‘risidagi da’voni sudda ko‘rishga tayyorlashda sudya quyidagi faktlarni tasdiqlovchi hujjatlar va dalillarning mayjudligini oydinlashtirishi lozim: nizoli xizmat turar-joyi mayjudligini tasdiqlovchi, bu turar-joy shaxsga mehnat munosabatlari bilan bog‘liq holda berilganmi, fuqaroni korxona, muassasa va tashkilot bilan mehnat munosabatlari uzelganligini hamda fuqaro qonunda belgilangan imtiyozlardan foydalanmayotganligini tasdiqlovchi hujjatlar talab qilinadi.

**Birga yashashning imkoniyati yo‘qligidan fuqaroni ko‘chirish to‘g‘risidagi da’volarni sudda ko‘rishga tayyorlashda** sud javobgarga nisbatan turmush qoidalarini buzganligi uchun qanday harakatlar qilinganini aniqlashi lozim. Shuningdek sud birga yashash imkon bermayotgan faktni tasdiqlovchi hujjat. Masalan, kasallik yoki kasbiy faoliyat (musiqiy asboblar chalish ).

**Turar-joyni bo‘lish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashda** ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi ham aniqlanadi, ya’ni mulk huquqiga ega bo‘lgan barcha shaxslar, shuningdek ishning natijasidan manfaatdor shaxslar ishga jalb qilinishi lozim. Uyni natura shaklida bo‘lish faqat (mulkdorlar) umumiy ulushli mulkdorlar o‘rtasida amalga oshiriladi, shuning uchun mulkdorlarni aniqlash lozim va ularni so‘roq qilish lozim.

**Mulkdorlar o‘rtasidagi uy-joydan foydalanish tartibini belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashda** sudya quyidagi xujjalarni talab qilishi lozim: uyga nisbatan taraflarning egalik huquqi

majudligini tasdiqlovchi hujjatlar (uy-joy huquqiy ro'yxatdan o'tkazgan-ligi haqidagi yakka tartibdag'i imoratlarni hisobga olish va nazorat qilish bo'limidan (YaTIHONQB) ma'lumotnama, oldi-sotdi, hadya, ayirbosh-lash shartnomalari, meros haqidagi guvohnoma, sudning hal qiluv qarori va boshqalar), uy plani, mulkdorning oilasi haqidagi ma'lumotnama, davlat boji to'langanligi haqidagi chipta. Bunday holda sud mulkdorlarning da'volari bo'yicha umumiylashda bo'lgan uy-joydan foydalanish tartibini belgilashga haqli.

Ushbu toifadagi ishlar sud tomonidan umumiylashda ko'rib chiqiladi. Sudda ish ko'rib chiqilganidan so'ng, hal qiluv qarori chiqaradi. Uy-joyga oid nizoli ishlar bo'yicha hal qiluv qarori sud tomonidan fuqarolik protsessual qonunchiligi normalari hamda turar joyga oid munosabatlarni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi va Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga to'liq rioya qilgan holda chiqarilishi lozim.

Mazkur ishlar bo'yicha ham hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarorining chiqarilgan vaqt va joyi, hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi, sudyaning familiyasi (sud tarkibi), sud majlisining kotibi, taraflar, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar, shuningdek, nizo predmeti ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qismida da'vogarning talablari, javobgarning e'tirozlarining qisqacha mazmuni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlarini aks ettiriladi. Hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida sudning ish bo'yicha chiqargan xulosasining faktik va huquqiy asoslari bayon etilishi lozim. Jumladan, hal qiluv qarorining bu qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari, ishning holatlari to'g'risidagi sud hulosalariga asos bo'lgan dalillar, sud u yoki bu dalilni rad qilishda asoslangan xulosalar, shuningdek, ushbu munosabatni tartibga soluvchi moddiy huquq me'yordi keltirilmog'i, qonunning nomi,

moddasi, bandi, boshqa qonun xujjatlarining soni va qabul qilingan sanasi hamda protsessual huquqiy me'yorlari ko'rsatilishi shart. Zarur holatlarda sud O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlarini ham qo'llashi mumkin.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi to'liq keltirilishi, da'vogar talablarining qanoatlantirilganligi (to'liq yoki qisman) yoki butunlay yoxud qisman rad etish haqidagi sudning xulosasi aniq aks ettirilgan bo'lishi shart. Shuningdek, sud harajatlarining taqsimlanishi, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish (protest keltirish) muddati va tartibi ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 268-moddasiga ko'ra, fuqarolarni binodan ko'chirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha hal qiluv qarori darhol ijro etishga yo'l qo'yilmaydi. Uy-joyga oid ishlar bo'yicha sud hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida umumiy tartibda ijro etiladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Uy joyga oid nizolarning qanday turlarini bilasiz?
2. Uy-joyga oid ishlar qaysi organlarga taalluqli?
3. Uy-joyga oid ishlarning sudlovliligi qanday?
4. Uy-joyga oid ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning protsessual huquqiy holatini tushuntiring?
5. Uy-joyga oid ishlar bo'yicha sudga taqdim etiladigan da'vo arizaga qanday hujjatlar ilova qilinadi?
6. Uy-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashda sudya tomonidan qanday protsessual harakatlar amalga oshiriladi?
7. Uy-joyga oid nizoli ishlar yuzasidan sudning hal qiluv qarorida nimalar ko'rsatiladi?
8. Uy-joyga oid nizoli ishlar bo'yicha sud qarorlarini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlarini aytинг?

## **1-kazus**

Tuman hokimligi sudga da'vo bilan murojaat etib, uylar jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan Sobirov ko'chasi 5-uyda yashovchi **Sh.** ni oila a'zolari bilan ko'chirishni so'rigan.

Sud da'voni qanoatlantirib, **Sh.** ni oila a'zolari bilan Sobirov ko'chasi 5-uydan boshqa uyga ko'chirgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati 2018-yil 15-fevralda sud qarorlarini bekor qilib, da'voni rad qilish haqida yangi hal qiluv qarori chiqardi.

Aniqlanishicha, uylar jamoat ehtiyoji uchun olib qo'yilishi munosabati bilan Sobirov ko'chasidagi 5-uy buzilishi lozim bo'lgan. Bu oila yashab kelgan uy buzilgan taqdirda, ularga har bir kishi hisobiga 16 kv.metr dan kam bo'lmanan miqdorda turar-joy ajratilishi lozim. **Sh.** ning oila a'zolari 9 kishidan iborat bo'lib, **Sh.** ga ajratilgan Komilov ko'chasidagi 18-uyning umumiy maydoni 36,84 kv.metrni tashkil qilgan.

**Savol: 1) Birinchi va appellatsiya instansiyasi sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik nimada?**

**2) Mazkur masala qanday hal etilishi lozim?**

## **2-kazus**

Aliyev sudga da'vo bilan murojaat qilib, Hakimovani oila a'zolari bilan uydan ko'chirishni so'rigan. Javobgar Hakimova esa Aliyev va notarial idoraga nisbatan qarshi da'vo taqdim qilib, oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'rigan.

Sud Aliyevning da'vosini qanoatlantirib, javobgar Hakimovaning qarshi da'vosini rad etgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati protestga asosan ishni ko'rib, appellatsiya instansiyasi sudining

ajrimini va birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilgan.

Ishdag'i mavjud materiallarga qaraganda, er-xotinlar I.Hakimov va Sh.Hakimovalar suddagi tushuntirishlaricha, Aliyevdan olgan 10.200.000 so'm qarz evaziga notarial tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasiga asosan uyni Aliyevga rismiylashtirib bergenliklarini ko'rsatganlar. Aliyev sudda, Sh.To'rayeva undan olgan 10.200.000 so'm qarzini kelishilgan uch oylik muddatda qaytarmaganidan so'ng, nizoli uyni notarial tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasiga asosan o'z nomiga rasmiylashtirib olganligini ko'rsatgan.

Oldi-sotdi shartnomasi qarz evaziga amalga oshirilganligini sudda notarius Abbosov va guvoh T.Hakimovlar ham tasdiqlashgan.

**Savol: 1) Birinchi instansiya va appellatsiya instansiya sudsulari tomonidan qanday xatoliklarga yo'l qo'yilgan?**

**2) Mazkur masala qanday hal etilishi lozim?**

## **16-BOB. ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH**

### **16.1. Alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va uning turlari**

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonun-chiligiga ko‘ra alohida tartibda ish yuritish fuqarolik sud ishlarini yuritish turlaridan biri hisoblanadi.

**Alohida tartibda ish yuritish** bu – fuqarolik sud ishlarini yuritishning bir turi sifatida huquq to‘g‘risida nizo bo‘lmanagan va manfaatdor shaxslarning arizasi bo‘yicha ish yuritishdir.

Alohida tartibda ko‘riladigan ishlarda huquq to‘g‘risida nizoning yo‘qligi va buning natijasida taraflarning mavjud bo‘lmasligi bu turkumdagи sud ishlarini yuritishni mustaqil turi sifatida e’tirof etish uchun asos bo‘ladi.

Alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning turlari mam-lakatimiz FPKning 293-moddasida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi;
- 2) bolani farzandlikka olish (bundan buyon matnda farzandlikka olish deb yuritiladi) haqidagi;
- 3) fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi;
- 4) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi;
- 5) shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stat-sionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
- 6) shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;
- 7) voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatlil deb e’lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi;
- 8) mol-mulkni (ashyon) egasiz deb topish haqidagi;

9) taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqtsirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) to‘g‘risidagi;

10) yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi.

### **Alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning da’vo tartibida ko‘riladigan ishlardan farqi:**

<b>Alohida tartibda ko‘riladigan:</b>	<b>Da’vo tartibida ko‘riladigan ishlar:</b>
Faqat sudga taalluqli bo‘ladi.	Sudga yoki tegishli davlat organlariga taalluqli bo‘ladi. (Masalan, aliment undirish to‘g‘risidagi ishlar agar taraflar o‘rtasida kelishuv mayjud bo‘lsa notarial organga).
Arizalar faqat arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi.	Ariza odatda javobgar yashab turgan joydagi sudga beriladi.
Prokuror ishtirok etishi shart bo‘lgan ishlar FPKda ko‘rsatilgan (FPKning 307-moddasida fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ishlar, FPKning 313-moddasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish yoki muomallaqaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlarda).	Da’vo tartibida ko‘riladigan ishlarda ham ayrimlarida prokuror ishtirok etishi shartligi fuqarolik protsessual qonunchilikda emas, balki boshqa qonun hujjatlarida belgilangan (Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlar, boshqa turar joy bermasdan fuqarolarni uy-joydan ko‘chirish to‘g‘risidagi ishlarda).
Sudning hal qiluv qarori shu ishni ko‘rib, hal qiluv qarori chiqargan fuqarolik sudi tomonidan bekor qilinadi (Masalan, FPKning 309-moddasi).	Sudning hal qiluv qarori yuqori sudlar tomonidan appellatsiya, kas-satsiya va nazorat tartibida bekor qilinadi (FPKning 375, 377-moddalari). Agar sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarorini javobgar tomonidan qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida ariza berilgan bo‘lsa, mazkur ariza sud tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, ushbu sirtdan qabul qilingan hal qiluv qarori shu sud tomonidan bekor qilinishi mumkin (FPKning 289-moddasi).

<p>Hal qiluv qarorlari darhol ijro etilmaydi.</p>	<p>Ayrim fuqarolik ishlari bo'yicha qabul qilingan sudning hal qiluv qarorlari darhol ijro etiladi (Masalan, alimentlar undirish to'g'risidagi, xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo'Imagan ish haqini undirib berish to'g'risidagi, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshhqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek boquv-chisining o'limi natijasida ko'rildigan zararni qopplash uchun to'lovlar undirish to'g'risidagi, mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishiga o'tkazilgan xodimni avvalqa ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi, sudda ishni ko'rish vaqtida javobgar da'veoni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to'liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari)</p>
---	---

## 16.2. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tartibida belgilash

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlarini chiqarish fuqarolar hamda tashkilotlarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tartibida belgilashning o'zi bir necha turlarga bo'linadi. Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi fuqapolap yoki tashkilotlapning shaxsiy, mulkiy huquqlapi vujudga kelishi, o'zgapishi yoki tugashiga sabab bo'ladigan quyidagi faktlapni sud tartibida belgilash ko'rsatilgan:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalari;

- 2) shaxs birovning qaramog‘ida ekanligi;
  - 3) otalikni tan olish (belgilash), bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganligi, shuningdek tug‘ilgan vaqt;
  - 4) farzandlikka olishni, nikohni, nikohdan ajratishni va o‘limni qayd etilganligi;
  - 5) er-xotindan biri vafot etganligi oqibatida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin bo‘lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatda nikoh munosabatlarida bo‘lganligi;
  - 6) shaxsning huquqini belgilovchi hujjatlarda (jamoat birlashmalariga a’zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari beradigan guvohnomalar bundan mustasno) ko‘rsatilgan familyasi, ismi yoki otasining ismi uning pasportidagi yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasidagi familyasi, ismi yoki otasining ismi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishliligi yoxud tegishli emasligi;
  - 7) baxtsiz hodisa;
  - 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish;
  - 9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktlarini aniqlash to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radi (FPKning 462-moddasi).
- Yuqorida ko‘rsatilgan yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar ro‘yxati qat’iy emasligiga sudlar alohida e’tibor berishi lozim. Chunki, boshqa yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar ham sudga taalluqli ekanligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida tushuntirishlar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra, quyidagi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar ham sud tartibida belgilanadi:
- otalik faktlarini, otalikni qayd qilish faktlarini, 1968-yil 1-oktabrgacha tug‘ilgan bolalarga nisbatan otalikni tan olganlik (belgilaganlik) faktlarini;

- ixtironi joriy etish faktlarini, taklifni ratsionalizatorlik sifatida tavsiflanganlik faktlarini;
- binoga, payga, avtomobilga va boshqa maxsus ro'yxatdan o'tkaziladigan mulkka egalik qilish faktlarini;
- nikohdan ajralishmasdan, lekin oilaviy munosabatlar tugatilganidan so'ng imoratni er-xotindan birining mablag'lariga qurilganlik faktlarini, sug'urta guvohnomasining qarashliligi faktlarini;
- fuqaroni yoki uning ota-onasini Ikkinchı Jahon urushi davrida evakuatsiya qilinganlik faktlarini ham belgilashga haqlidirlar.

Shu o'rinda aytish joizki, amaldagi qonunlarda belgilashning boshqacha (sudsiz) tartibi nazarda tutilgan faktlarini belgilash to'g'risidagi arizalar sud tartibida ko'riliши mumkin emas. Jumladan, mehnat stajini (pensiya tayinlash uchun, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va bola tug'ilishi munosabati bilan nafaqa tayinlash uchun, ish haqiga foiz qo'shimchalarni qo'shib hisoblash uchun, uzoq yillar qilgan xizmati uchun bir yo'la mukofot puli to'lash uchun va h.k.), fuqarolarning yoshini belgilash to'g'risidagi, haqiqiy harbiy xizmatni o'taganlik, partizan otryadida bo'lganlik, janglarda yaralanganlik, oliv o'quv yurtini, kollej, o'rta maktabni va boshqa o'quv yurtlarini bitirganlik faktlarini belgilash to'g'risidagi, partiya, kasaba uyushmalari hujjalarni, pasport va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan beriladigan guvohnomalarini tegishliligi faktlarini belgilash to'g'risidagi arizalar sudda ko'rilmaydi.

Darhaqiqat, mazkur turkumdag'i ishlar bo'yicha arizalar arizachi yashab turgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga beriladi. Arizaning mazmuni va protsessual rasmiylashtirilish tartibi FPKning 189-moddasiga rioya qilingan holda tuziladi. Arizada muayyan faktni aniqlash arizachiga qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi ko'rsatilishi, shuningdek arizachining tegishli hujjalarni olish imkoniyatiga ega emasligini yoxud yo'qolgan

hujjatlarni tiklab bo‘lmasligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak (FPKning 296-moddasi). Ushbu turkumdagи arizalar uchun eng kam ish haqining 10 foizi miqdorda davlat boji to‘lanadi.

### **16.3. Bolani farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlар**

Mamlakatimizda ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ko‘maklashish, ularni joylashtirish va turmushini yo‘lga qo‘yishda, shuningdek farzandsiz oilalar uchun farzandlikka olish instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farzandlikka olish natijasida bolaning hamda uni farzandlikka oluvchilarining manfaatlarini uyg‘unligi va hamohangligi yuz beradi. O‘z navbatida, ushbu jarayonda ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ushbu jarayonlarda qonuniylikni ta’minlashga ham alohida e’tibor berish talab etiladi. Bu esa farzandlikka olishning ma’muriy tartib-taomillari o‘rniga qonunchilikda belgilangan protsessual tartib asosida sud tomonidan amalga oshirilishining belgilanishiga olib keldi. Darhaqiqat, bolani farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlarning sud tomonidan ko‘riliishi va hal etilishi, ushbu jarayonlarda sud nazoratining ta’milanishi ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza bolani farzandlikka olishni istagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudiga beriladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishni istovchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar farzandlikka

olish to‘g‘risidagi arizani farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyidagi tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudiga, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyat yoki Toshkent shahar sudiga beradi (FPKning 298-moddasi).

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- ✓ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning (uning) yashash joyi;
- ✓ farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi va tugilgan sanasi, uning yashash (turgan) joyi, farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi to‘g‘risidagi, aka-uka va opa-singillari borligi yoki yo‘qligi haqidagi ma‘lumotlar;
- ✓ farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) farzandlikka olish to‘g‘risidagi iltimosini asoslovchi holatlar va mazkur holatlarni tasdiqlovchi dalillar;
- ✓ farzandlikka oluvchilar (oluvchi) bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnama yozuviga tegishli o‘zgartirishlar kiri-tishni istagan taqdirda – farzandlikka olinayotgan bolaning familiyasini, ismini, otasining ismini, tug‘ilgan sanasini (ko‘pi bilan bir yilga), farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilgan joyini (agar bola o‘n yoshdan oshmagan bo‘lsa) o‘zgartirish haqidagi, bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnama yozuviga farzand-likka oluvchilarni (oluvchini) ota-onsa (ota yoki ona)sifatida qayd etish haqidagi iltimos.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza farzandlikka oluvchilar

(oluvchi) tomonidan imzolanadi (FPKning 299-moddasi).

Bu jarayonda farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Bularga:

- nikohda turgan shaxslar (shaxs) tomonidan farzandlikka olinganda – farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) nikoh tuzilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasining ko‘chirma nusxasi;

- er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinganda – boshqasining roziligi. Agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo‘lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma’lum bo‘lsa, shuningdek bu holatlarni tasdiqllovchi hujjatlar mavjud bo‘lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi;
- nikohda turmagan shaxs tomonidan farzandlikka olinganda – farzandlikka oluvchi pasportining ko‘chirma nusxasi va nikohda turmasligi haqidagi ma’lumotnomasi;
- farzandlikka oluvchilarning (olvuchining) sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga karshi kurash va narkologiya muassasalaridan, shuningdek OITSga karshi kurash markazidan ma’lumotnomalar);
- fuqaro farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi hujjat, bundan Oila kodeksi 154-modda-sining ikkinchi – beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan hollar mustasno;
- farzandlikka oluvchilarning (olvuchining) ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi yoki boshqa daromad manbalari haqidagi ma’lumotnomasi;
- turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqllovchi hujjat.

Sudda ushbu toifadagi ishlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rilishi hamda hal etilishini ta’minalash hamda bu haqdagi ariza-lar bilan murojaat qiluvchi shaxslarga qulaylik yaratish maqsadida protsessual qonun farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizalarga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxatini belgilaganligini ham alohida qayd etish lozim. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining boshqa davlat fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizasiga ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagilar ilova qilinadi:

- ❖ farzandlikka olinayotgan bolaning O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organining roziligi;

- ❖ farzandlikka olinayotgan bola qonuniy vakilining va bola qaysi davlat fuqarosi bo‘lsa, o‘scha davlat vakolatlari organining roziligi;
- ❖ farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomasi yozuvidan ko‘chirma;
- ❖ farzandlikka olinayotgan bolaning sog‘lig‘i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;
- ❖ o‘n yoshga to‘lgan farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga, shuningdek familiyasi, ismi, otasining ismi o‘zgartirilishi mumkinligiga va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) uning ota-onasi (otasi yoki onasi) sifatida qayd etilishiga roziligi, bundan Oila kodeksining 156-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Oila kodeksining 156-moddasasi ikkinchi qismining uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi xatboshilarida ko‘rsatilgan hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Bunda taqdim etiladigan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Agar ushbu modda ikkinchi qismining beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan hujjat O‘zbekiston Respublikasi hududida berilgan bo‘lsa, legalizatsiya qilinishi yoki apostil qo‘yilishi hamda tarjima qilingan bo‘lishi to‘g‘risidagi talablar ushbu hujjatga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lidan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olish to‘g‘risidagi arizasiga ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan hujjatlar, shuningdek farzandlikka oluvchilar qaysi davlat fuqarosi bo‘lsa, o‘scha davlat (bola O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lidan shaxslar tomonidan farzandlikka olinayotganda – ushbu shaxslar qaysi davlatda doimiy yashash joyiga ega

bo'lsa, o'sha davlat) vakolatli organining ularning yashash sharoitlari haqidagi va farzandlikka oluvchi bo'la olish imkoniyatlari to'g'risidagi xulosasi, tegishli davlat vakolatli organining farzandlikka olinayotgan bolaning ushbu davlatga kirishi va mazkur davlat hududida doimiy yashashi uchun ruxsatnomasi, farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonasi vakillariga farzandlikka olingan bola haqida axborot berish va bola bilan muloqot qilish imkoniyatini berish to'g'risidagi notarial tasdiqlangan majburiyati ilova kilinadi.

Chet el fuqarolari bo'lgan yoki fuqaroligi bo'limgan farzandlikka oluvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo'yilgan bo'lishi kerak. Bunda taqdim etiladigan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan hujjatlar sudga ikki nusxada takdim etiladi (FPKning 300-moddasi).

Farzandlikka olish to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlashda ajrim chiqaradi, unga ko'ra farzandlikka olinayotg'an bolaning yashash (turgan) joyidagi vasiylik va homiylik organlari zimmasiga farzandlikka olishning asosli ekanligi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi to'g'risida sudga xulosa taqdim etish majburiyati yuklanadi.

Vasiylik va homiylik organining farzandlikka olishning asosli ekanligi to'g'risidagi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosasiga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi kerak:

→ farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyi yoki farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash joyi bo'yicha vasiylik va homiylik organi tomonidan tuzilgan farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;

- Farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash sharoit-larini tekshirish dalolatnomasida boshqa ma'lumotlar bilan birga Oila kodeksining 152-moddasida nazarda tutilgan farzandlikka olish uchun to'siqlar borligi yoki yo'qligi ko'rsatilishi shart;
  - farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnama yozuvidan ko'chirma;
  - farzandlikka olinayotgan bolaning sog'lig'i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;
  - o'n yoshga to'lgan farzandlikka olinayotgan bolaning farzand-likka olishga, shuningdek familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgartirilishi mumkinligiga va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) uning ota-onasi (otasi yoki onasi) sifatida qayd etilishiga roziligi, bundan Oila kodeksining 156-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;
  - bola ota-onasining (otasining yoki onasining) uning farzandlikka olinishiga roziligi, o'n olti yoshga to'lмаган ota-onaning bolasi farzandlikka olinayotganda esa ota-ona qonuniy vakillarining ham roziligi, qonuniy vakillar mavjud bo'lмаган taqdirda esa vasiylik va homiylik organining roziligi, bundan Oila kodeksining 160-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno;
  - bolaning qarindoshlari bo'lмаган, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tomonidan farzandlikka olinganda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni va farzandlikka olishga nomzodlarni hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasida farzandlikka olinayotgan bola to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oilasiga tarbiyaga olish yoki bolaning qarindoshlari tomonidan, ushbu qarindoshlarning fuqaroligi va yashash joyidan qat'i nazar, farzandlikka olinishi imkoniyati mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjatlar.
- Boshqa davlat fuqarosi bo'lган bolani yoki fuqaroligi

bo‘lman shaxs bo‘lgan bolani O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olishda vasiylik va homiylik organining farzandlikka olish asosli ekanligi to‘g‘risidagi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosasiga ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan hujjat ilova qilinishi kerak.

► Zarur bo‘lgan hollarda, sud boshka hujjatlarni (ma’lumotlarni) ham talab qilib olishi mumkin (FPK 301-moddasi).

Sud farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlarni farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlarining vakillari, shuningdek prokuror albatta ishtirok etgan holda ko‘rib chiqadi. Zarur hollarda, sud farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasini (otasini yoki onasini), uning qarindoshlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni, shuningdek o‘n yoshga to‘lgan bolaning o‘zini ishda ishtirok etishga jalgilishi mumkin.

Sud farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlarni sudning yopiq majlisida ko‘rib chiqadi (FPKning 302-moddasi).

Sud farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishni mazmunan ko‘rib chiqib, farzandlikka olish haqidagi arizani qanoatlantirish to‘g‘risida yoxud uni qanoatlantirishni butunlay yoki qisman rad etish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olingan bolaning tug‘ilganligini qayd etish daftariга o‘zgartirishlar kiritish uchun zarur bo‘lgan farzandlikka olingan va farzandlikka oluvchilar (oluvchi) haqidagi barcha ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olinayotganda uning manfaatlarini ko‘zlab, agar farzandlikka oluvchi erkak bo‘lsa, onasining xohishiga ko‘ra yoki agar farzandlikka oluvchi ayol bo‘lsa, otasining xohishiga ko‘ra, shuningdek agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo‘lsa, vafot etgan ota yoki ona ota-onasining (buvaning yoki buvining) iltimosiga

ko'ra sudning farzandlikka olish to'g'risidagi qarorida farzandlikka olingen bolaning otasi yoki onasi bilan yoxud vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlari bilan huquqiy munosabatlari saqlanib qolishi ko'rsatib o'tiladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, farzandlikka oluvchilar (oluvchi) va farzandlikka olinayotgan bolaning o'zaro huquq va majburiyatlari farzandlikka olingen bolaning tug'ilganligini qayd etish daftariga zarur o'zgartishlar kiritilgan kundan e'tiboran belgilanadi. Sud farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch kun ichida ushbu hal qiluv qaroridan ko'chirma nusxasini farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganligi ro'yxatga olingen joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart (FPKning 303-moddasi).

Farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etish da'vo ishlarini yuritish tartibida hamda oila to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi (FPKning 304-moddasi).

#### **16.4. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rish tartibi**

Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish instituti alohida tartibda ko'rildigan ishlarning bir turi sifatida ham fuqarolik huquqi ham fuqarolik protsessual huquqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lgan deb e'lon qilish shartlari va asoslari fuqarolik qonunchiligidan ko'rsatilgan bo'lsa, fuqarolik protsessual qonunchilikda esa ushbu turkumdagи ishlar bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish hamda ushbu ishlar bo'yicha hal qiluv qarori chiqarish va uning huquqiy oqibatlari to'g'risidagi qoidalar mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga ko‘ra, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

Yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo‘lmasa, bedarak yo‘qolgan deb hisoblash muddati yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo‘lmasan taqdirda esa – keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish uchun asoslar FKning 36-moddasida berilgan. Bu qoidaga ko‘ra, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo‘lgan kundan e’tiboran kamida ikki yil o‘tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan kun vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning o‘lgan kuni deb hisoblanadi. O‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan fuqaro vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda, sud uning taxmin qilingan halokat kunini ushbu fuqaroning o‘lgan kuni deb topishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish bunday fuqaroning huquq va burchlari borasida uning o‘limi olib kelishi mumkin

bo‘lgan oqibatlarni vujudga keltiradi.<sup>20</sup>

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki o‘lgan deb e’lon qilish uchun fuqarolik qonunchilikda belgilangan muddatlar o‘tganidan keyingina sudga manfaatdor shaxslar tomonidan ariza berilishi mumkin. Mazkur turkumdag‘i ishlar faqat fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli bo‘lib, ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi. Ushbu arizalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sonli “Davlat boji stavkalari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida davlat boji to‘lanadi.

Ariza fuqarolik protsessual qonunchiligining 189-moddasida ko‘rsatilgan talablar asosida rasmiylashtirilgan bo‘lishi talab etiladi. Mazkur turdag‘i ishlar bo‘yicha ariza sud tomonidan qabul qilingandan keyin, sudya umumiylashtirilgan bo‘yicha arizachi yashab turgan joydagi sudga tayyorlash bosqichini amalga oshiradi. Mazkur bosqich sud muhokamasining keyingi faoliyatida sudning samarali faoliyat yuritishi hamda qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlari chiqarishi uchun tamal toshi vazifasini bajaradi. Shuning uchun, ushbu turdag‘i ishlar bo‘yicha, sudya ishni sudda ko‘rishga tayyoplashda bedapak yo‘qolgan odam to‘g‘pisida kimlap (qapindosh-upug‘lapi, bipga ishlovchilap va shu kabilap) ma’lumot bepa olishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek, bedapak yo‘qolganning ma’lum bo‘lgan so‘nggi yashash joyi va ish joyidagi tegishli tashkilotlapdan (ichki ishlap organlapidan, fuqapolapning o‘zini o‘zi boshqapish organlapidan) bedapak yo‘qolgan odam to‘g‘pisida bor ma’lumotlapni so‘pab oladi.

Sudya arizani qabul qilib olgach, ayni vaqtida vasiylik va homiylik organiga bedarak yo‘qolganning mol-mulkini saqlash, shuningdek, boshqapish uchun shaxs tayinlashni taklif qilishi mumkin (FPKning 306-moddasi). Shuningdek, fuqaroni doimiy yashash joyida yashamayotganligini

---

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Расмий нашр. - Тошкент, Адлия вазирлиги. 2018.

tasdiqllovchi dalillar (fuqaroning doimiy yashayotgan joyida yashamayotganligi haqida mahalla qo‘mitasidan ma’lumotnomma, adres byurosidan ma’lumotnomma, qidiruv e’lon qilingan bo‘lsa, qidiruv ishlar tugallanganligi haqida hujjat va b.). Uning mol-mulki qarovsiz va qaramog‘idagi shaxslar ta’minotsiz qolganligi haqidagi ma’lumotlar talab qilib olinadi.<sup>21</sup>

Mazkur turkumdagи ishlar bo‘yicha sud albatta prokurorni xabardor qilishi shart. Chunki, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ishlar albatta prokuorning ishtirokida ko‘pilishi shartligi to‘g‘risidagi qoida fuqarolik protsessual qonunchilikda hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyruqlarida mustahkamlangan.

Sudya ishni yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko‘rishga tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, arizachi va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida ma’lum qiladi. Mazkur turkumdagи ishlarni fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiyligini qoidalariiga muvofiq ko‘rib chiqilishi to‘g‘risida fuqarolik protsessual qonunchilikda belgilangan.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish yoki o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan umumiyligini qoidalarga asosan ko‘rib chiqiladi va hal qiluv qarori chiqariladi. Sudning fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi hal qiluv qarori bedarak yo‘qolgan shaxsning mol-mulki tupgan joydagi vasiylik va homiylik organining bu mulkka nisbatan boshqaruvchi tayinlashi uchun asos bo‘ladi. Sudning fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish haqidagi hal qiluv qarori fuqapolik holati aktlarini qayd etish organining fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftariga mazkur fuqaroni o‘lgan deb yozib qo‘yishi uchun asos bo‘ladi.

Agar bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib

---

<sup>21</sup>Жамолов Б., Бобобқулов А. Фуқаролик ишларини судда кўришга тайёрлаш. –Тошкент, Ўзбекистон Республикасининг Олий суди. 2005. –Б. 252-253.

kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda sudga chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Ushbu ariza sud tomonidan ko‘rib chiqiladi va yangi hal qiluv qarori bilan o‘zining ilgapigi hal qiluv qarorini bekop qiladi.

Shuningdek, vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelganida FKning 37-moddasida nazarda tuilgan huquqiy oqibatlar kelib chiqadi. Ya’ni, vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o‘tib qolgan mavjud mol-mulkini o‘ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli, Fuqarolik kodeksning 229-moddasi ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo‘lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to‘lamagan bo‘lsalar, bu holda to‘lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o‘tadi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to‘lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkonи bo‘lmasa, uning qiymati to‘lanadi.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo‘yicha davlatga o‘tgan va sotib yuborilgan bo‘lsa, fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ishlarni quyidagi jadval asosida qiyosiy tahlil etish mumkin.

<b>Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishning moddiy-huquqiy asosi:</b>	<b>Fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish moddiy-huquqiy asosi:</b>
Fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasligi	1) Fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil davomida ma'lumotlar bo'lmasligi; 2) basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'lgan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida 6 oy mobaynida ma'lumot bo'lmasligi; 3) harbiy harakatlar muno-sabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida 2 yil o'tgan bo'lishi.
Ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi.	Ariza arizachi yashab turgan joydagi sudga beriladi.
Huquqiy oqibati: nikohni bekor qilishga; mol-mulk turgan joydagi vasiylik va homiylik organining bu mulkka nisbatan boshqaruvchi tayinlashi uchun asos bo'ladi.	Huquqiy oqibati: fuqarolik holati dalolatnomalarni qayd etish organining fuqarolik holati dalolatnomalarni qayd etish daftariga mazkur fuqaroni o'lgan deb yozib qo'yish uchun asos bo'ladi. meros ochilishiga olib keladi.
Ishni ko'rishda: albatta prokuror ishtirok etadi.	Ishni ko'rishda: albatta prokuror ishtirok etadi.

## **16.5. Fuqaroni muomala layoqatini cheklash va muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-

moddasiga ko‘ra, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Agar spirtli ichimliklarni yoki giyovandlik vositalarini suiiste’mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi (FKning 31-moddasi).

Spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste’mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a’zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bergen arizalar bo‘yicha qo‘zg‘atilishi mumkin (FPKning 310-moddasi).

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi ariza alternativ sudlovlikka asosan mazkur fuqaroning yashab turgan joydagi sudga beriladi, agar bu shaxs shifoxonada bo‘lsa, shifoxona joylashgan joydagi sudga beriladi. Ushbu ariza mazmuni FPKning 189-moddasi talablariga binoan yozilishi kerak. Arizada fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish haqidagi arizada spirtli ichimliklarni yoki giyoxvandlik moddaori va psixotrop moddalarni suiiste’mol qiluvchi shaxs o‘z oilasini moddiy jihatdan og‘ir ahvolga solib qo‘yayotganligidan dalolat beruvchi holatlar ko‘rsatilishi kerak. Ariza sud tomonidan qabul qilinganidan so‘ng ishni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda sudya fuqaroning

spirtli ichimliklar, giyohvand moddalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishini tasdiqlovchi dalillar (ichki ishlar tomonidan tuzilgan dalolatnomalar, mayda bezorilik uchun javobgarlikka tortilganligi haqida sudning qarori, tibbiy ma'lumotnoma, spirtli ichimliklar iste'mol qilgan holda ishga kelganligini sababli ishdan chetlash-tirilganligi yoki ishdan bo'shatganligi haqida buyruq va boshqalar), o'z oilasini moddiy jihatdan qiyin ahvolga solib qo'yanligini tasdiqlovchi ma'lumotlar, muomala layoqati cheklanganligi haqida ish qo'zg'atilgan shaxsning mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnoma (xususan ish haqi, nafaqa, mavjud mulklar, oila a'zolarining soni va qaramog'ida bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma)larni talab qilib oladi.

Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlab bo'lidan keyin ishni sudda ko'rishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ishni sudda ko'rishga tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan albatta shu shaxsning o'zi, vasiylik va homiylik organlari vakili va prokuror ishtirok etishi shart. Agap fuqapo (javobgap) sud majlisiga kelmasa, FPKning 143-moddasiga ko'ra sud majlisiga majburiy keltiriladi.

Ushbu ishlar umumiy asoslaridan kelib chiqib, umumiy muddatlarda ko'rib chiqiladi. Sudning fuqaponi muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'pisidagi hal qiluv qapopi chiqarilishi muomala layoqati cheklangan shaxsga homiy tayinlashi uchun asos bo'ladi.

Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydagi, agar bu shaxs davolash muassasiga joylashtirilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan xudduddagi sudga beriladi.

Sudya arizani olgach, ishni sudda ko'rishga tayyorlash tartibida, fuqarolarning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi to'g'risidagi manfaatdor shaxslar tomonidan to'plangan va sudga taqdim etilgan hujjatlarni yetarli bo'lidanida, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-ruhiy ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqarolarni muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishni sud prokurorning vasiylik va homiylik organlari vakilining ishtiroki bilan ko‘radi. Ishi ko‘rilayotgan fuqarolarning sog‘lig‘i imkon bersa, u sudga chaqiriladi.

Sudning fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori muomalaga layoqatsiz shaxsga vasiy tayinlash uchun asos bo‘ladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, sud fuqaroning o‘zi, uning homysi, shuningdek FPKning 310-moddasida sanab o‘tilgan tashkilotlar va shaxslar bergen arizaga binoan fuqaroning muomala layoqatini cheklashni va unga nisbatan belgilangan homiylikni bekor qilish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqaradi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, sud vasiy, shuningdek FPKning 310-moddasida sanab o‘tilgan tashkilotlar va shaxslar bergen arizaga binoan, sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga asoslanib, sog‘aygan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish haqida hal qiluv qarori qabul qildi (FPKning 315-moddasi).

Ruhiy kasalligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar tuzalgani holda sud FPKning 310-moddasida ko‘rsatilgan tashkilotlar va shaxslar bergen arizaga binoan sud-ruhiy ekspertizaning xulosasiga asoslanib, muomalaga layoqatli deb topilishi hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekor qilish haqida hal qiluv qarorini chiqarilishi lozim. Bu turkumdagi ishlar ishni alohida tartibda yuritish talablariga asosan ko‘riladi. Sudga fuqaroning o‘zini, uning homiysini, shuningdek FPKning 310-moddasida ko‘rsatilgan davlat organlari, tashkilotlar jalb qilinadi.

FKning 30-moddasi uchinchi qismida ko‘rsatilgan hollarda fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish uchun sud vasiyning, shuningdek FPKning 310-moddasida ko‘rsatilgan davlat organlari, tashkilotlar va shaxslarning, sud-psixiatriya ekspertizasining ekspertini ishtirokida ishni mazmunan ko‘radi.

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bilan bog‘liq sud xarajat-lari arizachidan undirilmaydi. Agar sud

ariza fuqaroning oila a'zolari tomonidan insofsizlik qilib, asossiz ravishda fuqaro-ning muomala layoqatini cheklash yoki uni muomala layoqatidan mahrum etish maqsadida ataylab berilgan deb topsa, sud xarajatlarini oila a'zolaridan undiradi (FPKning 316-moddasi).

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish	Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish
<b>Asos:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1) spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va psixotrop moddalarni muntazam ravishda suiste'mol qilish;</li> <li>2) oilani moddiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yish.</li> </ul>	<b>Asos:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1) tibbiy mezoni – ruxiy kasalligi;</li> <li>2) yuridik mezoni: <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'zining xatti-harakatlarining oqibatini tushunmaydi;</li> <li>- o'zining xatti-harakatlarini boshqara olmaydi.</li> </ul> </li> </ul>
<b>Arizachi:</b> <p>Oila a'zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari.</p>	<b>Arizachi:</b> <p>Oila a'zolari, vasiylik va xomiylit organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari.</p>
<b>Sudlovililik:</b> <p>Ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydag'i, agar bu shaxs da'volash muassasasiga joylash-tirilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi.</p>	<b>Sudlovililik:</b> <p>Ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydag'i, agar bu shaxs da'volash muassasasiga joylashtirilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi.</p>
<b>Ishni ko'rishda:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1) prokuror ishtirot etishi shart;</li> <li>2) vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirot etishi shart;</li> <li>3) shu fuqaroning ishtirot etishi shart.</li> </ul>	<b>Ishni ko'rishda:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>1) prokuror ishtirot etishi shart;</li> <li>2) vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirot etishi shart;</li> <li>3) fuqaroning sog'ligi imkon bersa ishtirot etadi.</li> </ul>
Sud majlisiga kelmasa FPKning 143-moddasi qoidalari	-

qo'llaniladi, ya'ni majburiy tartibda olib kelinadi va eng kam ish haqining 5 baravarigacha miqdorda jarima solinadi.	
Sudning fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori muomala layoqati cheklangan shaxsga homiy tayinlanishi uchun asos bo‘ladi.	Sudning fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori muomalaga layoqatsiz shaxsga vasiy tayinlanishi uchun asos bo‘ladi.

## **16.6. Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlar**

Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlар tibbiy yordam ko‘rsatishning bir turi hisoblanadi. Bu huquqiy munosabatlар subyektlar o‘rtasida ixtiyoriy va majburan davolanish jarayonida vujudga kelib, inson sog‘lig‘ini yaxshilashga qaratilgan va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat bir xil usul va vositalar asosida amalga oshiriladi. Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlarni sud tartibida ko‘rilishi turli xil huquqbazarliklarni oldini oladi.

Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibi va xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasining FPKning 32-bobida belgilangan. Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning o‘ziga xos protsessual xususiyatlari mavjud.

Shaxsni g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza sudga shaxs yotgan

psixiatriya muassasasi tomonidan beriladi. Mazkur ariza fuqarolik ishlarining sudlovlik qoidalaridan kelib chiqib, psixiatriya muassasasi joylashgan yerdagi sudga beriladi. Ariza FPKning 189-moddasi talablaridan kelib chiqib, rasmiylashtiriladi va unda g‘ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar hamda shifokor psixiatrlardan iborat komissiyaning shaxsning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo‘lishi zarurligi to‘g‘risidagi asoslantirilgan xulosasi arizaga ilova qilinadi.

Sud arizani qabul qilish bilan bir paytda arizani sudda ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan muddatda shaxsning psixiatriya statsionarida bo‘lib turishi masalasini hal etadi.

Mazkur ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash vaqtida sud FPKning 201, 204-moddalarida ko‘rsatilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozim. Xususan, huquqiy munosabatni tartibga solib turuvchi qonunni, ishda ishtirot etuvchi shaxslar doirasini aniqlashi kerak. Mazkur ishlar sudda FPKning 318-moddasiga muvofiq shaxsni psixiatriya statsionariga yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ish sud tomonidan statsionarga yotqizilayotgan shaxsning qonuniy vakili va statsionarga yotqizishning asosliligi to‘g‘risida xulosa bergen komissiya tarkibidagi shifokor psixiatr, prokuror, shuningdek shaxs yotgan psixiatriya muassasasi vakili ishtirokida o‘n kunlik muddat ichida ko‘rib chiqiladi. Sud majlisiga psixiatriya muassasasi vakilining uzsiz sabablarga ko‘ra kelmaganligi arizani ko‘rib chiqishga monelik qilmaydi, biroq sud uning kelishini shart deb topishi mumkin.

Mazkur toifadagi ishlarda prokuror ishtiroti majburiyidir.

Ushbu ishlar sudda ko‘rib chiqilganidan so‘ng hal qiluv qarori chiqaradi. Sudning arizani qanoatlantirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori shaxsni psixiatriya statsionariga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

## **16.7. Shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlar**

Shaxsni sil kasalligiga karshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibi FPKning 33-bobi 320-323-moddalarida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan yoki uning yashash (turgan) joyidagi sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi tomonidan beriladi. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga gayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi joylashgan yerdagi yoki uning yashash (turgan) joyidagi sudda ko‘rib chiqiladi (FPKning 320-moddasi).

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga gayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining tibbiy tekshiruvdan va (yoki) davolanishdan bo‘yin tovlayotgan mazkur shaxsni gayriixtiyoriy tartibda yotqizish zarurligi haqidagi xulosasi qabul qilingan kundan e’tiboran bir sutka ichida beriladi. Xulosada davolash o‘tkaziladigan muddat ko‘rsatiladi.

Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning

sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limida gayriixtiyoriy tartibda yotishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ariza ushbu muassasa tibbiy komissiyasining shaxsning davolanishda bo‘lgan muassasada yotishi muddatini uzaytirish zarurligi haqidagi xulosasi asosida beriladi. Xulosada davolash o‘tkaziladigan muddat ko‘rsatiladi (FPKning 321-moddasi).

Shaxsni sil kasalligiga karshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga gayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ish sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni sil kasalligiga karshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga gayriixtiyoriy tartibda yotqizish to‘g‘risida yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqida ariza berilgan kundan e’tiboran uch kunlik muddatda sud tomonidan mazkur shaxs dispanser hisobida turgan yoxud davolanayotgan sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining vakili – tibbiy komissiyasi a’zosi, sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsning vakili, shuningdek prokuror ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan, ishi sudda ko‘rib chiqilayotgan shaxs, agar uning sog‘lig‘i holati imkon bersa, sud majlisiga chaqirilishi mumkin.

Sil kasalligiga qarshi kurash muassasasi vakilining – tibbiy komissiyasi a’zosining, sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxs vakilining sud majlisiga uzsiz sababga ko‘ra kelmaganligi ishni ko‘rib chiqishga monelik qilmaydi, biroq sud bu shaxslarning kelishini shart deb topishi mumkin (FPKning 322-moddasi).

Sudning arizani qanoatlantirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan shaxsni tegishincha sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo‘limiga g‘ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo‘ladi (FPKning 323-moddasi).

## **16.8. Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi ishlar**

Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibi FPKning 34-bobida belgilangan.

O‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o‘zi yashab turgan joydagi sudga o‘zini to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilishni rad etganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lganda voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinadi.

Voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ish sud tomonidan arizachi, uning ota-onasi (ulardan biri) yoki farzandlikka oluvchilar (olvuchchi) yoki homiy, shuningdek vasiylik va homiylik organining vakili hamda prokuror ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Sud voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish to‘g‘risidagi arizani mazmunan ko‘rib chiqib, uni qanoatlantirish yoki rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga etmagan shaxs sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran to‘liq muomalaga layoqatli (emansipatsiya qilingan) deb e’lon qilinadi.

## **16.9. Mol-mulkni (ashyon) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ishlar**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 191-moddasiga ko‘ra, egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum bo‘lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ko‘chmas

ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko‘chmas mol-mulkni davlat ro‘yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko‘chmas ashyo, hisobga olingandan keyin bir yil muddat o‘tgach, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo‘lgan organ yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi bu ashyni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan davlat mulkiga o‘tmagan deb hisoblangan egasiz ko‘chmas ashyo uni tashlab ketgan mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo‘lga kiritilishi mumkin.

Egasiz ashylarni aniqlash va hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

**Yodda saqlang!** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 21 yanvardagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan “Egasiz turar joylarni aniqlash, ularni hisobga olish va davlat mulkiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizom mazkur ishlarni ko‘rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur nizomning 11-bandiga ko‘ra, quyidagi hollarda:  
egasi ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tayotganda;

egasi davolanish, o‘qish, mehnat faoliyati munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib ketganda;

egasi Qurolli Kuchlar saflarida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotganda;

egasi O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot muassasalarida uzoq muddat davolanayotganda turar joyni hisobga olishga yo‘l qo‘ymaydi.

Yuqoridagi qoidadan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, mulkni (ashyni) egasiz deb topish sud orqali hal etiladi. Demak, FPKning 327-moddasiga ko‘ra, mol-mulkni (ashyni) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza davlat mol-mulkini boshqarish vakolatiga ega organ yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan mol-mulk (ashyo)

turgan joydagi sudga beriladi.

Mulk joylashgan joydagi sudga ariza berilishi mustasno sudlovilik qoidasidan kelib chiqadi (FPKning 35-moddasi). Ushbu ishlar bo'yicha arizalar mulk hisobga olingan kundan e'tiboran uch yil o'tgandan so'ng berilishiga sudlar e'tiborni qaratish lozim. Chunki, ushbu muddat o'tmasdan turib, ariza taqdim etiladigan bo'lsa, sudya arizani qabul qilishni rad etish lozim. Mazkur muddatga rioya qilinmasligi moddiy huquq normalarini buzilishi hisoblanib, oqibatda sud qarorini yuqori sudlar tomonidan bekor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu ishlar bo'yicha ariza FPKning 189-moddasi talablariga rioya qilingan holda taqdim etilishi va unda qaysi mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish lozimligi ko'rsatilishi, shuningdek mol-mulk (ashyo) egasini belgilashning imkon yo'qligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak.

Sudya arizani qabul qilganidan so'ng, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko'rishga tayyorlaydi.

Shundan keyin, mol-mulk (ashyo) kimga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumot berishi mumkin bo'lgan shaxslarni (mol-mulkning (ashyoning) mulkdorlari, unga amalda egalik qilib turganlar, qo'shnilar va boshqalarni) aniqlaydi, shuningdek moliya organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan mol-mulkka doir mavjud ma'lumotlarni so'raydi. Shuningdek, amaliyot xodimlari ham ushbu ishlarni sudda ko'rishga tayyorlashda, mol-mulk to'g'risidagi hujjatlar, mahalladan mulkning egasi vafot etganligi yoki egasi yo'qligi to'g'risidagi hujjatlar, uy-joy boshqarmalardan mulkni ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi hujjat, va qonunda belgilangan muddatlarga e'tibor berish kerakligini ta'kidlashadi.<sup>22</sup>

---

<sup>22</sup> Жамолов Б., Аликулов Б. Фуқаролик ишларини судда кўришга тайёрлаш. –Тошкент, Ўзбекистон Республикаси Олий суди. 2005. -140 б.

## **16.10. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash to‘g‘risidagi ishlar**

Alohibda tartibda ko‘riladigan ishlarning bir turi sifatida taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash to‘g‘risidagi ishlar o‘zining sudda ko‘rib chiqilishidagi xususiyatlari bilan boshqa ishlardan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 331-moddasiga ko‘ra, shaxs pul mablag‘lari qo‘yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to‘g‘risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qiymatli hujjatni yo‘qotgan taqdirda, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda, suddan yo‘qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish va yo‘qolgan hujjat bo‘yicha huquqlarini tiklash to‘g‘risida iltimos qilishi mumkin.

Mazkur ishlar bo‘yicha arizalar taqdim etuvchiga deb hujjat bepgan muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi. Ushbu ariza ham FPKning 189-moddasida ko‘rsatilgan umumiy talablarga javob berishi, undan tashqari FPKning 331-moddasida belgilangan ma’lumotlar, ya’ni hujjat qanday vaziyatda yo‘qolganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergen muassasaning, hujjatning nomi ko‘rsatilgan bo‘lishi, hujjatning alohibda belgilari va yo‘qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi iltimos bayon qilinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda ularga bo‘lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizalarning sudlar tomonidan ko‘rilishi to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandida ko‘rsatilishicha, FPKning 331-moddasida ko‘rsatilgan yo‘qotilgan hujjatning alohibda belgilari deb – hisob soni, nazorat varaqasi (talon)ning soni, omonat qo‘yilgan kun, omonat bo‘yicha operatsiya amalga oshirilgan kuni, omonatning miqdori yoki qolgan

qismi, obligatsiya raqamlari, saqlash uchun topshirilgan qimmatliklarning tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi.

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda ularga bo‘lgan huquqlarni tiklash haqidagi ariza sud tomonidan qabul qilinganidan keyin, suda FPKning 332-moddasida nazarda tutilgan quyidagi protsessual harakatlarni amalga oshirish haqida ajrim chiqaradi:

1) ariza beruvchining hisobidan ommaviy axborot vositalarida e’lon chiqarish to‘g‘risida;

2) taqdim etuvchiga deb hujjat bergen muassasaning yo‘qolgan hujjat bo‘yicha to‘lovlarini amalgalash oshirishini va pul berishini ish sudda ko‘rilmuniga qadar taqiqlash haqida ajrim chiqaradi.

Sud ajrimining ko‘chirma nusxasi hujjatni bergen muassasaga yuboriladi. Ajrim chiqarish rad etilganligi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, matbuotda chiqariladigan e’lonning mazmunida FPKning 333-moddasida nazarda tutilgan qoidalar o‘z aksini topishi kerak. Ular quyidagilar:

1) hujjat yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza tushgan sudning nomi;

2) arizachining familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;

3) hujjatning nomi va farqlovchi belgilari;

4) yo‘qolganligi to‘g‘risida ariza berilgan hujjatni saqlovchiga ommaviy axborot vositalarida e’lon chiqqan kundan e’tiboran uch oy muddat ichida o‘zining mazkur hujjatga bo‘lgan huquqlari haqida sudga arz qilishi to‘g‘risidagi taklif.

Mazkur e’lon chiqqan kundan e’tiboran uch oy muddat o‘tquniga qadar hujjatni saqlovchi, ya’ni hujjatni topib olgan shaxs ajrim chiqargan sudga o‘zining hujjatga bo‘lgan huquqlari to‘g‘risida ariza berishi va shu bilan birga hujjatning asl nusxasini taqdim etishi shart. Hujjat

yo‘qolganligi to‘g‘risida e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oylik muddat o‘tguniga qadar sudga hujjatni saqlov-chidan ariza tushgan taqdirda, sudya ajrim chiqarib, unda hujjati yo‘qolganligi haqida ariza bergan shaxsga hujjatni olib qo‘yish to‘g‘risida hujjatni saqlovchiga nisbatan umumiy tartibda da‘vo taqdim etish uchun muddat beradi va bu haqda hujjatni saqlovchini xabardor qiladi. Bu muddat ikki oydan oshmasligi kerak (FPKning 335-moddasi).

Agar e'londa ko‘rsatilgan muddat ichida hujjatni saqlovchidan ariza tushmasa, sud ishni ko‘rishga tayinlaydi va ish ko‘riladigan kun to‘g‘risida arizachi ham, hujjatni bergan muassasa ham xabardor qilinadi. Biroq, ularning kelmasligi ishni ko‘rishga to‘sinqilik qilmaydi.

### **16.11. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlar**

Fuqarolik protsessual institut sifatida yo‘qolgan sud ishini tiklash fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi shaxslarga o‘zlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan sud ishi bo‘yicha yo‘qotilgan protsessual hujjatlarni tiklash imkonini beradi. Yo‘qolgan sud ishini tiklash fuqarolik ishini qayta ko‘rishni maqsad qilmaydi, balki avval sudda mazmunan ko‘rilgan ish bo‘yicha chiqarilgan hujjatlarni tiklashni nazarda tutadi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlar FPKning 37-bobining 340 – 345-moddalarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, yo‘qolgan sud ishini yuritish sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning, prokurorning arizasiga binoan, shuningdek sudning tashabbusiga ko‘ra tiklanishi mumkin. Yo‘qolgan sud ishini yuritish to‘liq yoki uning sud fikriga ko‘ra tiklanishi zarur bo‘lgan qismi tiklanadi. Sudning hal qiluv qarori yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimi, agar ular ish yuzasidan chiqarilgan bo‘lsa, tiklanishi shart.

Mazkur ishning o‘ziga xos xususiyati arizachi yo‘qolgan

sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda sud tomonidan qilingan sud xarajatlarini to‘lashdan ozod etiladi. Bila turib yolg‘on ariza berilganda sud xarajatlari arizachidan undirib olinadi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza ishni ko‘rib chiqqan sudga beriladi va bu arizada ishga doir batafsil ma‘lumotlar bo‘lishi kerak. Arizachida saqlanib qolgan va ishga daxldor bo‘lgan hujjatlar yoki ularning ko‘chirma nusxalarini, basharti ular belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo‘lsa ham, arizaga ilova qilinadi.

Sud yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishda ishning saqlanib qolgan qismlaridan, sud ishini yuritish yo‘qolguniga qadar ushbu ishdan fuqarolar va tashkilotlarga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko‘chirma nusxalaridan, shuningdek ishga daxldor bo‘lgan boshqa hujjatlardan foydalanadi. Sud protsessual harakatlarni bajarish chog‘ida hozir bo‘lgan shaxslarni, zarur hollarda esa, yo‘qolgan sud ishini ko‘rib chiqqan sud tarkibiga kirgan shaxslarni ham guvoh sifatida so‘roq qilishi mumkin.

Sudning yo‘qolgan hal qiluv qarorini yoki ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimni tiklash haqidagi hal qiluv qarorida sud tiklanayotgan sud hujjatining mazmuni sudga taqdim etilgan va yo‘qolgan ish bo‘yicha sud protsessining barcha ishtirokchilari ishtirokida sud majlisida tekshirilgan qanday aniq ma‘lumotlar asosida aniqlangan deb hisoblashi ko‘rsatiladi.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi hal kiluv qarorining asoslantiruvchi qismida, shuningdek qanday dalillar sud tomonidan tekshirilganligi va yo‘qolgan sud ishini yuritish bo‘yicha qanday protsessual harakatlar sodir etilganligi isbotlanganligi haqidagi sudning xulosalari ko‘rsatiladi. To‘plangan materiallar yo‘qolgan sud ishini yuritishni aniq tiklash uchun yetarli bo‘lmasa, sud ajrim chiqarib, ish yuritishni tugatadi. Bu holda arizachi umumiyl tartibda da‘vo taqdim etishga haqli.

Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va ahamiyati haqida gapiring?
2. Alohida tartibda ish yuritish turlarini sanab bering?
3. Alohida tartibda ish yuritishning da'vo tartibida ko'rildigan ishlardan farqli jihatlarini ko'rsatib bering?
4. Alohida tartibda ish yuritishning buyruq tartibida ko'rildigan ishlardan farqli jihatlarini ko'rsatib bering?
5. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar turlarini ko'rsatib bering?
6. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni sud tomonidan qabil qilish shartlarini tushuntiring?
7. Bolani farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarni tushntiring?
8. Shaxsni sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi ishlar suda qanday tartibda ko'rildi?
9. Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statcionariga yotqizish bilan fuqaroni muomala layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni o'zaro farqi nimada?
10. Mol-mulkni (ashyonii) egasiz deb topish to'g'risidagi ishlar haqida gapirib bering.
11. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'g'risidagi ishlar haqida gapirib bering.
12. Fuqaroni muomala layoqati deganda nimani tushunasiz?
13. Fuqaroni muomala layoqatini cheklash asoslarini aytib bering?
14. Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) to'g'risidagi

ishlarni sudda ko‘rish tartibini ayting?

15. Yo‘qolgan sud ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.

### **1-kazus**

**R.** o‘zining “yahudiy” millatiga mansub ekanligi faktini belgilab berish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qildi. Ushbu faktning belgilanishi pasportiga tegishli ma’lumotni kiritish uchun kerakligini ko‘rsatgan. Sud arizachini “yahudiy” millatiga mansub ekanligi faktini belgilash to‘g‘risida hal qiluv qarorini chiqardi.

**Savol: 1) Sudning harakatlari to‘g‘rimi?**

### **2-kazus**

**D.** Tumanlararo sudga murojaat qilib, xotini bo‘lmish **T.** ni muomalaga layoqatsiz deb topishni hamda uning qaramog‘ida bo‘lgan farzandi **R.** ni uning tarbiyasiga olib berishni so‘rab, sudga ariza bilan murojaat qilgan. Arizaga **T.** ning ruxiy kasalliklar shifoxonasida davolanayotgani to‘g‘risidagi ma’lumotnomani ilova qilgan. Sud majlisiga arizachi **D.** va **T.** davolanayotgan shifoxona vakili jalb etilgan. Shifoxona vakili **T.** haqiqatda ruxiy kasallikka chalinganligi to‘g‘risida ko‘rsatma bergen.

Sud **T.** ni muomala layoqati cheklash to‘g‘risida hamda uning tarbiyasida bo‘lgan **R.** ni arizachi **D.** ning qaramog‘iga olib berish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilgan.

**Savol:**

**1) Sudning hal qiluv qarori asoslimi?**

**2) Mazkur ish qanday hal etilishi lozim?**

## **17-BOB. HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORLARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN ISHLARNI YURITISH**

### **17.1. Hakamlik sudlarida nizolarni ko‘rishning ahamiyati va afzalliklari**

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi xo‘jalik nizolari iqtisodiy sud bilan bir qatorda hakamlik sudlari tomonidan ham ko‘rib chiqilishi ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab qo‘ylgan edi. Keyinchalik hakamlik sudlarining tashkil etilishi va faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi “**Hakamlik sudlari to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullandi va 2007-yildan e’tiboran kuchga kirdi.

Hakamlik sudlari huquq to‘g‘risidagi nizoni, kelishmovchiliklarni ko‘rish va hal qilish uchun taraflarning xohish-idorasiga muvofiq erkin tanlandigan nodavlat sudining bir shakli hisoblanadi. Binobarin u doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlaridan iborat bo‘lib, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarini hal etuvchi nodavlat organidir.

Hakamlik sudlarida nizolarni ko‘rishning quyidagi afzallik jihatlarini ta’kidlab o‘tish mumkin:

- taraflarda sudyani mustaqil tanlash imkoniyati mavjud. Taraflar doimiy faoliyat ko‘rsatadigan hakamlik sudlarida mazkur sudni tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatdagi hakamlik sudyalarini orasidan tanlashlari mumkin. Muvaqqat hakamlik sudi

sudyasini esa hakamlik bitimi taraflari o‘zaro kelishuv asosida tanlaydilar;

- nizolar bitta instansiyada hal etiladi. Hakamlik sudlari qandaydir bir tizimni tashkil etmaydi va bir-biriga bo‘ysunmaydi, ya’ni hakamlik sudining yuqori turuvchi instansiyasi mavjud emas;

- ish ko‘rish qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunda hakamlik sudida nizoni ko‘rib chiqish muddati belgilanmagan. Mazkur muddat taraflar o‘rtasida tuziladigan hakamlik bitimida yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan hakamlik sudlarining reglamentida ko‘rsatiladi;

- hakamlik sudi xarajatlari nizolarni iqtisodiyusdular va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ko‘rish va hal etish uchun ketadigan sud xarajatlardan bir necha bor kam, qolaversa, hakamlik sudlariga taqdim etilgan da‘vo arizalaridan davlat boji undirilmaydi;

- hakamlik sudi muhokamasi maxfiylik tartibida olib boriladi va oshkor qilinishi mumkin emas. Hakamlik sudyasi hakamlik muhokamasi davomida o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari rozilgisiz oshkor qilishga haqli bo‘lmaydi;

- hakamlik muhokamasi taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining nizomi va reglamentida sud muhokamasi taraflar va sud uchun qulay bo‘lgan joyda o‘tkazilishi belgilab qo‘yiladi.<sup>23</sup>

---

<sup>23</sup> Мамасиддиков М.М., Рўзиназаров Ш.Н., Масадиков Ш. Ҳакамлик муҳокамаси ҳақида нималар билиш керак? Амалий қўлланма. - Тошкент: infoCOM.UZ МЧЖ нашриёти. 2010. - 146 б.

## **17.2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslari va uning o‘ziga xos jihatlari**

Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlar jumlasiga:

1) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to‘g‘risidagi;

2) hakamlik sudlarining hal kiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish haqidagi arizalar bo‘yicha ishlar kiradi.

Sudlar FPKning 346-moddasida sanab o‘tilgan ishlarni FPKning 38-40-boqlarida ko‘rsatilgan istisno va qo‘shimchalar bilan birga fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiyligini qoidalariga binoan ko‘rib chiqadi.

Hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan ushbu qarorni olgan kundan e’tiboran **o‘ttiz kun** ichida fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza berish yo‘li bilan nizolashishi mumkin. Hakamlik sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga taalluqli nizoga doir hal qiluv qarori yuzasidan huquqlari va majburiyatlarini haqida hakamlik sudi hal qiluv qarorini qabul qilgan, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslar ham nizolashishi mumkin. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan joydagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risida ariza berilganligi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ijrosi yuzasidan ish yuritishni fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan nizo bo‘yicha ish yuritish tugallanganiga qadar to‘xtatib turadi (FPKning 349-moddasi).

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida beriladi va hal qiluv qarori yuzasidan nizolashayotgan hakamlik muhokamasi tarafi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

**Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish**

to‘g‘risidagi arizada quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning nomi;
- 2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, uning joylashgan yeri;
- 3) hakamlik muhokamasi taraflarining nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo‘lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;
- 4) hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;
- 5) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarorini olgan sana;
- 6) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi talab va mazkur qaror qanday asoslar bo‘yicha nizolashilayotganligi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- 1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko‘chirma nusxasi mazkur hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudining hal qiluv qarori ko‘chirma nusxasidagi hakamlik sudyasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak;
- 2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi;

3) hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi talabni asoslash uchun taqdim etiladigan hujjatlar;

4) belgilangan tartibda va miqtsorda davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza javobgarlar soniga qarab ko‘chirma nusxalari bilan birga fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafining vakili tomoni-dan berilgan bo‘lsa, unga ishonchnoma yoki vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza FPKning 349-moddasi birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan talablar, shuningdek ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo‘lsa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud FPKning 194-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan bunday arizani qabul qilishni rad etadi (FPKning 350-moddasi).

Sudya ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimos-nomasiga binoan sud muhokamasiga tayyorlayotganda hal qiluv qarori fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda nizolashilayotgan ishning materiallarini hakamlik sudidan ushbu Kodeksda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan talab qilib olishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun to‘sqinlik qilmaydi.

Sud ishni sud majlisida ko‘rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun FPKning 352-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e’tirozlarni asoslash uchun sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudi

aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas (FPK 351-moddasi).

Hakamlik sudining hal qiluv qarori, agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risida ariza bergen hakamlik muhokamasi tarafi quyidagilarni isbotlovchi dalillarni taqdim etsa, fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan bekor qilinishi kerak:

1) hakamlik bitimining qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarini bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalaridan ajratib olish mumkin bo'lsa, hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalari bo'lgan qismi bekor qilinishi mumkin;

3) hakamlik sudi tarkibining yoki hakamlik muhokamasining "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 15, 16 va 25-moddalar qoidalariga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablari buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to'g'risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqtি va joyi haqida zarur tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o'z tushuntirishlarini taqdim eta

olmaganligini.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo'lmasa, hakamlik sudining hal qiluv qarori sud tomonidan bekor qilinishi lozim.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ushbu Kodeksda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga ko'ra ajrim chiqaradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi yoki hakamlik sudi hal qiluv qarorini bekor qilishni rad etish haqidagi ajrimida quyidagilar ham ko'rsatlishi lozim:

1) hakamlik sudining nizolashilayotgan hal qiluv qarori to'g'risidagi va mazkur qaror qabul qilingan joy haqidagi ma'lumotlar;

2) nizolashilayotgan hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini to'liq yoki qisman bekor qilishga yoxud arizachining talabini to'liq yoki qisman qanoatlantirishni rad etishga doir ko'rsatma.

Hakamlik sudi hal qiluv qarorining bekor qilinganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yangidan murojaat etishiga yoki ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat etishiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik bitimi haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligi yoinki nizo hakamlik muhokamasining

predmeti bo‘lishi mumkin emasligi oqibatida fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan to‘liq yoki qisman bekor qilingan bo‘lsa, hakamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga binoan sudga murojaat etishi mumkin.

### **17.3. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish**

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi masala hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga chiqarilgan bo‘lsa, o‘sha tarafning arizasiga binoan fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv karorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza qarzdor yashaydigan joydagi yoki turgan joydagi yoxud, agar qarzdor yashaydigan joy yoki turgan joy noma’lum bo‘lsa, uning mol-mulki turgan yerdagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga beriladi (FPKning 354-moddasi).

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida beriladi va hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi birining foydasiga qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

#### **Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizada quydagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:**

- 1) ariza berilayotgan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning nomi;
- 2) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi, joylashgan yeri;
- 3) hakamlik muhokamasi taraflarining familyasi,

ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo‘lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan sana;

5) ariza bilan murojaat etgan hakamlik muhokamasi tarafi

hakamlik sudining hal qiluv qarorini olgan sana;

6) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi talab.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi arizada telefonlar, fakslar raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma‘lumotlar ko‘rsatilishi mumkin.

**Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinadi:**

1) hakamlik sudi hal qiluv qarorining tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko‘chirma nusxasi mazkur hakamlik sudining raisi tomonidan tasdiqlanadi, muvaqqat hakamlik sudi hal qiluv qarorining ko‘chirma nusxasidagi hakamlik sudyasining imzosi notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak;

2) hakamlik bitimining tegishli tarzda tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi;

3) belgilangan tartibda va mikdorda davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza qarzdorlarning soniga qarab ko‘chirma nusxalar bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza hakamlik

muhokamasi tarafining vakili tomonidan berilgan bo'lsa, unga ishonchnoma yoki vakilning vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza hakamlik sudining hal qiluv qarorini ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilishi mumkin. Mazkur muddat fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan taqdirda, o'tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza FPKning 354-moddasida nazarda tutilgan talablar, shuningdek ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, fuqarolik ishlari bo'yicha sud FPKning 194-moddasida nazarda tutilgan qoidalari bo'yicha bunday arizani qabul qilishni rad etadi (FPKning 355-moddasasi).

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza FPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan suda tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Sudya ishni hakamlik muhokamasi tarafining iltimosnomasiga binoan ijro varaqasi so'rالayotgan ish materiallarini hakamlik sudidan FPKda dalillarni talab qilib olish uchun nazarda tutilgan qoidalari bo'yicha talab qilib olishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hakamlik muhokamasi taraflarini sud majlisining vaqtini va joyini to'g'risida xabardor qiladi. Sud majlisining vaqtini va joyini haqida zarur tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi ishni ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi. Sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish uchun FPKning 357-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjudligini yoki mavjud emasligini bildirilgan talablar va e'tirozlarni asoslash uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taqdim etilgan dalillarni tekshirish yo'li bilan aniqlaydi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishni sud majlisida ko'rib chiqayotganda

hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoxud hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi ariza FPKning 349-moddasi uchinchchi qismida ko'rsatilgan fuqarolik ishlari bo'yicha sudning ish yurituvida bo'lsa, mazkur hal qiluv qarorini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilayotgan sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishni qarzdorning iltimosnomasiga binoan keyinga qoldirishi mumkin (FPKning 356-moddasi).

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy iじro etish uchun ijro varaqasi berishni hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo'lsa, o'sha taraf:

1) hakamlik bitimi qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra haqiqiy emasligini;

2) hakamlik sudi hal qiluv qarorining hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to'g'ri kelmaydigan nizo bo'yicha chiqarilganligini yoxud unda hakamlik bitimi doirasidan chetga chiquvchi masalalar bo'yicha xulosalar mavjudligini. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorida hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalarni bunday bitim bilan qamrab olinmaydigan masalalar bo'yicha xulosalardan ajratib olish mumkin bo'lsa, sud hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat hakamlik bitimi bilan qamrab olinadigan masalalar bo'yicha xulosalar mavjud bo'lgan qismi uchun ijro varaqasi beradi;

3) hakamlik sudi tarkibining yoki hakamlik muhokamasing "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 15, 16 va 25 moddalariga qoidalariga muvofiq emasligini;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarori "Hakamlik

sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasining birinchi va uchinchi qismlari talablar buzilgan holda chiqarilganligini;

5) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflaridan qaysi biriga qarshi qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha taraf hakamlik sudyalarini saylash (tayinlash) to‘g‘risida yoki hakamlik sudi majlisining vaqt va joyi haqida zarur tarzda xabardor qilinmaganligini hamda shu sababli u hakamlik sudiga o‘z tushuntirishlarini taqdim eta olmaganligini;

6) hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik muhokamasi taraflari uchun hali majburiy bo‘limganligini yoki bekor qilinganligini yoxud uning ijrosi sud yoki iqtisodiy sud tomonidan to‘xtatib turilganligini isbotlovchi dalillarni taqdim etgan hollardagina rad etadi.

Agar hakamlik sudi tomonidan ko‘rib chiqilgan nizo qonunga muvofiq hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lmasa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etadi (FPKning 357-moddasi).

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha FPKda hal qiluv qarori qabul qilish uchun nazarda tutilgan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimida quyidagilar ham ko‘rsatilishi lozim:

1) hal qiluv qarorini qabul qilgan hakamlik sudining nomi va tarkibi;

2) hakamlik muhokamasi taraflarining familiyasи, ismi, otasining ismi (nomi);

3) hakamlik sudining hal qiluv qarori to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

4) hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish yoki ijro varaqasi berishni rad etish uchun ko‘rsatma.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish rad etilganligi hakamlik muhokamasi taraflarining, agar hakamlik sudiga murojaat etish imkoniyati yo‘qolmagan bo‘lsa, hakamlik bitimiga muvofiq hakamlik sudiga yangidan murojaat etishiga yoki FPKda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat etishiga to‘sqin-lik qilmaydi. Agar hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish hakamlik bitimining haqiqiy emasligi oqibatida yoki hal qiluv qarori hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoki uning shartlariga to‘g‘ri kelmaydigan nizo bo‘yicha chiqarilganligi yoxud unda hakamlik bitimida qamrab olinmagan masalalar bo‘yicha to‘xtamlar mavjudligi yoinki nizo hakamlik muhokamasining predmeti bo‘lishi mumkin emasligi oqibatida fuqarolik ishlari bo‘yicha sud tomonidan to‘liq yoki qisman rad etilgan bo‘lsa, hakamlik muhokamasi taraflari bunday nizoni hal qilish uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga binoan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat etishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ajrimi darhol ijro etilishi kerak (FPK 358-moddasi).

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Hakamlik sudlarida nizolarni ko‘rishning ahamiyati va afzalliklari haqida gapiring?
2. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslarini aytib bering?
3. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishning o‘ziga xos jihatlari?
4. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish deganda nimani tushunasiz?
5. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etishda ijro varaqasining ahamiyati nimada?

### **1-kazus**

Tadbirkor S.Umarov hakamlik sudiga da’vo arizasi taqdim etgan. Da’vogar da’vo arizasi bilan birga da’voni ta’minalash to‘g‘risida iltimosnama kiritib, javobgarning egaligida mavjud bo‘lgan mol-mulkarning sud tomonidan nizo ko‘rib chiqilgunga qadar uni xatlab qo‘yilishi lozimligini ko‘rsatib o‘tgan. Hakamlik sudi da’voni ta’minalash choralarini qo‘llash to‘g‘risida ajrim chiqargan. Javobgar hakamlik sudining mazkur ajrimi ustidan vakolatli sudga shikoyat kiritdi. Vakolatli sud arizani ish yurituviga qabul qilib arizani ko‘rib chiqish uchun sud majlisi tayinladi.

**Savol:** **1. Hakamlik sudining da’voni ta’minalash to‘g‘risidagi ajrimi ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntiring? 2. Da’voni ta’minalash bilan dalilni ta’minalash o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring?**

### **2-kazus**

Tadbirkor V.Soliyev va tadbirkor S.Jumanovlar o‘rtasida shartnomalar shartlari asosida kelib chiqqan nizo bo‘yicha hakamlik sudiga da’vo arizasi taqdim etilgan. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudining binosi kapital ta’mirlanayotganligi sababli nizoni ko‘rish uchun hakamlik sudi tadbirkor S.Jumanovning joylashgan binosida vaqtincha foydalanib, nizoni ko‘rib chiqib hal qiluv qarori chiqaradi.

Da'vogar V.Soliyev hakamlik sudining hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, hakamlik sudi javobgar S.Jumanovning joylashgan binosida vaqtincha foydalaniib, unga moddiy bog'langan deb hisoblab S.Jumanov manfaatida chiqarilgan hal qiluv qarorini noqonuniy hisoblashni so'raydi.

**Savol:** 1. **Hakamlik muhokamasi o'tkaziladigan joy qanday belgilanadi?** 2. **Hakamlik sudining binosidan tashqarida o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlar qaysi tarafga yuklanadi?**

## **18-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLARINING, FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI**

### **18.1. Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessida ishtiroki va ishlarning sudloviligi**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 359-moddasiga ko'ra, chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga ega va ular fuqarolik protsessual huquqlardan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanadi.

Chet el tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga ega va ular o'z manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlarining maxsus cheklanishiga yo'l qo'yilgan davlatlarning fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob tariqasidagi cheklovlar belgilanishi mumkin.

Chet el fuqarolarining sud himoyasiga bo'lgan huquqi nafaqat milliy qonunchilikda, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ham o'z aksini topgan. Masalan, 1993-yilgi "Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlар to'g'risida"gi Minsk konvensiyasi 1-moddasiga muvofiq, konvensiya ishtirokchi – davlatlarning fuqarolari, shuningdek, ularning hududlarida yashovchi boshqa shaxslar shartnoma a'zolari bo'lgan barcha davlatlarning hududlarida shu davlatning fuqarolari singari o'zlarining shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish huquqiga ega.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishda ishtirok etib, ish materiallarini bilan tanishib chiqish, ulardan

nusxalar olish, dalillar taqdim etish hamda ularni tekshirishda bevosita ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga savollar berish, iltimosnomalar taqdim qilish, boshqa shaxslarning vajlariga e'tiroz bildirish kabi huquqlarga ega. Ular sud ishlari yuritiladigan tilni bilmasalar, ishga taalluqli materiallar bilan o'z ona tilida to'liq tanishib chiqish, ona tilida ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, sudda so'zlash, arz bilan murojaat etish va iltimosnomalar taqdim etish huquqiga ega, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda tarjimonning xizmatidan foydalanish huquqi ta'minlanadi. Sud hujjatlari esa ularning ona tillariga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan sudga da'vo arizasi bergenida davlat boji O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 19-avgustdagи 423-sonli "Xorijiy valyutadagi davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'limgan boshqa to'lovlar stavkalari to'g'risida"gi qarorida belgilangan stavkalar va tartibda chet el valyutasida undiriladi.

Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loaqla bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining sudloviga tegishli bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, FPK bilan belgilanadi (FPKning 361-moddasi).

MDH davlatlari o'rtasida sudlovlik masalalari 1993-yilgi "Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk konvensiyasi bilan belgilanadi. Unga ko'ra, konvensiya ishtirokchidavlatlarining hududida yashash joyiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan da'volar, ularning qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'iy nazar, ushbu davlatlarning sudlariga beriladi. Yuridik shaxslarga nisbatan da'volar uning boshqaruv organi, vakolatxonasi yoki filiali joylashgan

hududdagi davlatlarning sudlariga beriladi.

## **18.2. Chet davlatlarga nisbatan da'volar va sudga doir topshiriqlar berish**

Chet davlatga nisbatan da'vo taqdim etilishiga, da'vening ta'minlanishiga va undiruvning chet davlatning O'zbekiston Respublikasidagi mol-mulkiga qaratilishiga faqat tegishli davlatning vakolatli organlari roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakillari hamda ularga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari faqat O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki xalqaro huquq normalari bilan belgilanadigan doiradagina O'zbekiston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha sudining yurisdiksiyasida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni (chaqiruv qog'ozlari va boshqa hujjatlarni topshirish, taraflar va guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, joyida ko'zdan kechirish va hokazo) bajarish to'g'risida belgilangan tartibda bergan topshiriqlarini ijro etadi. Bundan quyidagi hollar mustasno:

1) topshiriqn ni ijro etish O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonun hujjatlarning asosiy prinsiplariga zid bo'lsa;

2) topshiriqn ni ijro etish sudning vakolati doirasiga kirmasa.

Chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risida topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlari bilan aloqada bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi (FPkning 363-

moddasi).

### **18.3. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O‘zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriqlar bilan murojaat qilishi**

O‘zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni (chaqiruv qog‘ozlari va boshqa hujjatlarni topshirish, taraflar va guvohlarni so‘roq qilish, ekspertiza o‘tkazish, joyida ko‘zdan kechirish va hokazo) bajarish to‘g‘risida belgilangan tartibda bergan topshiriqlarini ijro etadi. Bundan quyidagi hollar mustasno:

1) topshiriqni ijro etish O‘zbekiston Respublikasi suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonun hujjatlarining asosiy prinsiplariga zid bo‘lsa;

2) topshiriqni ijro etish sudning vakolati doirasiga kirmasa.

Chet davlat sudlarining ayrim protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida ijro etiladi. O‘zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risida topshiriqlar bilan murojaat qilishi mumkin.O‘zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlari bilan aloqada bo‘lish tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Masalan, 1954-yil 1-martdagи “Fuqarolik protsessi masalalari bo‘yicha Gaaga konvensiyasi”ning 8-moddasiga ko‘ra, konvensiya ishtirokchi davlatlarining sud hokimiyatlari fuqarolik yoki savdo ishlari bo‘yicha ikkinchi davlatning vakolatlari organlariga protsessual harakatlarni amalga oshirishni so‘rab sud topshiriqlari bilan murojaat qilishlari mumkin.

1993 yilgi Minsk konvensiyasining 6-moddasiga ko‘ra, ishtirokchi – davlatlar protsessual yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan bir-biriga huquqiy yordam

ko'rsatadilar. Jumladan, protsessual hujjatlarni tuzish va yuborish, ko'zdan kechirish, tekshirishlarni amalga oshirish, ashyoviy dalillarni yuborish, ekspertiza o'tkazish, taraflar, uchinchi shaxslar, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlar, ekspertlarni so'roq qilish, shaxslarni qidirish, ularni jinoiy javobgarlikka jaib qilish uchun yetkazib berish yoki hukmni ijroga qaratish, fuqarolik ishlari bo'yicha sud hal qiluv qarorlarini tan olish va ijro qilish, ijro hujjatlari, shuningdek, boshqa hujjatlar taqdim qilinadi.

#### **18.4. Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijro etish**

Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlari, agar bu O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa, tan olinadi hamda ijroga qaratiladi.

Chet davlat sudlarining fuqarolik ishlari yuzasidan hal qiluv qarorlari, jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan hukmlarining jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning o'rnini qoplashga oid qismi, shuningdek chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) fuqarolik nizolari bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorlari O'zbekiston Respublikasining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari tomonidan tan olinishi hamda ijroga qaratilishi mumkin.

Chet davlat sudlarining yoki chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarori, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, u qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch yil muddat ichida majburiy ijroga qaratilishi mumkin.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ariza hal qiluv qarori

foydasiga chiqarilgan nizo tarafi tomonidan qarzdorning yashash joyidagi yoki turgan joyidagi sudga, agar yashash joyi va turgan joyi nomalum bo'lsa, uning mulki turgan joydagi sudga beriladi.

Mazkur arizada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

1) ariza berilayotgan sudning nomi;

2) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) nomi va joylashgan yeri;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), yashash joyi yoki turgan joyi (pochta manzili), shuningdek, agar ariza vakil tomonidan berilayotgan bo'lsa, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;

4) undiruvchi e'tirof etilishini va ijro etilishini iltimos qilayotgan chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarori haqidagi ma'lumotlar;

5) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish hamda ijroga qaratish to'g'risida undiruvchining iltimosnomasi;

6) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Arizada undiruvchining yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Ariza undiruvchilarning soniga qarab ko'chirma nuxxalari bilan birga sudga beriladi, bundan elektron hujjat tarzida yuboriladigan ariza mustasno.

**Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizaga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:**

1) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) undiruvchi tan olinishi va ijroga

qaratilishini iltimos qilayotgan hal qiluv qarorining chet davlat yoki O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma nusxasi;

2) hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirganligi to‘g‘risidagi rasmiy hujjat, agar bu qaror matnining o‘zidan kelib chiqmasa;

3) hal qiluv qarori ilgari tegishli chet davlat hududida ijro etilgan bo‘lsa, uning ijro etilganligi to‘g‘risidagi hujjat;

4) hal qiluv qarori o‘z zarariga chiqarilgan va protsessda ishtirok etmagan taraf ishni ko‘rib chiqish vaqt va joyi to‘g‘risida o‘z vaqtida hamda tegishli tarzda xabardor qilinganligiga oid hujjat;

5) vakilning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki boshqa hujjat;

6) agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida davlat bojini to‘lashdan ozod qilish nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;

7) mazkur moddaning 1 – 5-bandlarida ko‘rsatilgan hujatlarning, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tiliga qilingan, belgilangan tartibda tasdiqlangan tarjimasi (FPKning 367-moddasi).

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi ariza, agar O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, u sudga kelib tushgan kundan e’tiboran **bir oydan** oshmaydigan muddatda sud majlisida ko‘rib chiqiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi. Sud majlisining vaqt va joyi haqida belgilangan tartibda xabardor qilingan shaxslarning sudga kelmaganligi ishni ko‘rib chiqish uchun

to'sqinlik qilmaydi.

Sud arizani ko'rib chiqishda sudga taqdim etilgan, arz qilingan talablarni va bildirilgan e'tirozlarni asoslovchi dalillarni tekshirish yo'li bilan holatlarni aniqlaydi.

Sud arizani ko'rib chiqishda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini qaratishni ijroga qaratishni quyidagi hollarda to'liq yoki qisman rad etadi, agar:

1) hududida hal qiluv qarori qabul qilingan davlatning qonuniga binoan u qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa;

2) hal qiluv qarori o'z zarariga qabul qilingan taraf ishni ko'rib chiqish vaqt va joyi to'g'risida o'z vaqtida hamda belgilangan tartibda xabardor qilinmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra sudga o'z tushuntirishlarini taqdim eta olmagan bo'lsa;

3) ishni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga yoki qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi sudining mutlaq vakolatiga tegishli bo'lsa;

4) O'zbekiston Respublikasi sudining ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa;

5) O'zbekiston Respublikasi sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizoga doir ish mavjud bo'lib, u yuzasidan ish yuritish chet davlat sudida ishni yuritish qo'zg'atilganidan oldin qo'zg'atilgan bo'lsa;

6) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini majburiy ijroga qaratish muddati o'tgan bo'lib, bu muddat sud tomonidan

tiklanmagan bo'lsa;

7) taraf nizoning vakolati bo'lmanan chet davlat sudi tomonidan hal etilganligini isbotlovchi dalilni taqdim etgan bo'lsa;

8) hal qiluv qarori chet davlatning vakolatli organi tomonidan bekor qilingan bo'lsa;

9) hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasining chet davlat sudi yoki chet davlat hakamlik sudi (arbitraji) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq xalqaro shartnomalari ishtirokchisi bo'lmanan chet davlat sudi tomonidan chiqarilgan bo'lsa;

10) chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, xavfsizligiga zarar yetkazsa yoki qonun hujjatlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lsa.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham rad etilishi mumkin (FPKning 370-moddasi).

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud FPKning 24-bobida belgilangan qoidalarga binoan ajrim chiqaradi.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi ish bo'yicha sud ajrimida, shuningdek quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) nomi va joylashgan yeri;

undiruvchining va qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi);

chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining

(arbitrajining) undiruvchi tan olinishi va ijroga qaratilishini so‘rayotgan hal qiluv qarori to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish haqidagi yoxud uni e’tirof etishni va ijro etishni rad qilish to‘g‘risidagi ko‘rsatma.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi sud ajrimi ustidan FPKda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini ijro etish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitrajining) hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida ajrim chiqargan sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar deganda kimlarni tushunasiz?
2. Chet el fuqarolari va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning protsessual huquqiy holati qanday belgilanadi?
3. Chet davlat sudlarining topshiriqlari bilan ijro qilinadigan qanday protsessual harakatlarni bilasiz?
4. Qanday hollarda chet davlat sudlarining topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan ijro etilmaydi?
5. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet davlat sudlari va arbitrajlarining hal qiluv qarorlari qanday tartibda ijro qilinadi?

### **19-BOB. SUD HUJJATLARINI QAYTA KO‘RISH (APELLATSIYA, KASSASIYA, NAZORAT TARTIBIDA VA YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO‘YICHA QAYTA KO‘RISH)**

## **19.1. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) (asoslari, protsessual tartibi, vakolatlari)**

Respublikamizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mantiqiy davomi sifatida 2000 yil 14 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>24</sup>ning e’lon qilinishi, 2000-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuning qabul qilinishi va shu asosda 2000-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga appellatsiya, cassatsiya institutlariga oid yangi bobning vujudga kelishi bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘simechalar<sup>25</sup>ning kiritilishi umumiy yurisdiksiya sndlari tarkibida fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sndlarning ixtisoslashuvi, sud qarorlarini appellatsiya tartibida qayta tekshirish institutining joriy etilishi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari hamda erkinliklarini himoya qilinishi kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadlari va vazifalarini kafolatlaydi.

2018-yil 1-apreldan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 44-bobi (383-402-moddalar) “Appellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish”ga bag‘ishlangan.

Appellatsiya tartibida ish ko‘rishning asosiy **mazmuni** birinchi instansiya sudining qarorlarini qonunda belgilangan asoslar va muddatlarga muvofiq, vakolatli organlar tomonidan appellatsiya tartibida qayta ko‘rilishiga aytildi.

Ushbu faoliyatning **ahamiyati** shundaki, birinchi instansiya sndlari tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini qayta

---

<sup>24</sup> Ўзбекистон Республикасининг қонун хужжатлари тўплами. - 2000. - №3. 30-модда.

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикасининг қонун хужжатлари тўплами. - 2000. - №3. 30-модда.

tekshirish vositasi hisoblanib, bu bosqich orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligi tekshiriladi, shu tariqa fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga erishiladi.

### **YODDA TUTING !!!**


**Apellatsiya instansiyasida ish yuritish** - fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi hisoblanib, bevosita birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini qayta tekshirish vositalaridan biri sanaladi. Apellatsiya instansiada ish yuritish uchun ikkita asos, ya'ni appellatsiya protesti va appellatsiya shikoyati berilgan va qonunda belgilangan tartibda sudlar tomonidan ish yuritish uchun qabul qilingan bo'lishi lozim.

**Apellatsiya tartibida ish ko'rishning o'ziga xos protsessual xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'r-satib o'tish lozim bo'ladi:**

- ◆ appellatsiya instansiyasi sudi qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlarini qayta ko'rish vositasi ekanligi;
- ◆ ishlarni maxsus vakolat berilgan yuqori instansiya tomonidan hay'at tarkibidagi sudyalar tomonidan ko'riliishi;
- ◆ appellatsiya shikoyati (protesti) ni berishda va ishni appellatsiya instansiyasida ko'rishda maxsus muddatlarga rioya qilinishi;
- ◆ appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi ning hal qiluv qarorlarini to'liq tekshirib chiqishi shartligi;
- ◆ appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan ishning yakuni sifatida qonunda belgilangan mazmundagi ajrim chiqarishga yo'l qo'yilishi va h.k.

Yuqoridagi protsessual xususiyatlar appellatsiya instansiysi faoliyatini boshqa sud instansiyalari faoliyati bilan o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlarini bilishga ko'maklashadi.

Taraflar va ishda ishtirok etishga jalg qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatları haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar sudning hal qiluv qarori ustidan ushbu qaror chiqarilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida appellatsiya tartibida shikoyat qilishi, prokuror protest keltirishi mumkin.



Apellatsiya shikoyati (protesti) appellatsiya instansiyasi sudi nomiga yo'llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqargan sudga beriladi.

Sud ishni appellatsiya tartibida ko'rayotganda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshiradi. U yangi dalillarni o'r ganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. **Apellatsiya instansiyasi sudi sud hujjatini to'liq hajmda tekshirib chiqishi shart.**

<b>Sud ishni appellatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan:</b>
--

- 1) hal qiluv qarorini, qarorni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ishni yangidan ko'rish uchun o'tkazmasdan hal qiluv qarorini, qarorni o'zgartirishga yoki hal qiluv qarorini, qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;
- 3) hal qiluv qarorini, qarorni qisman yoki butunlay bekor qilishga hamda arizani ko'rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga haqli.

Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi (qarori) chiqarilishi bilanoq **darhol qonuniy kuchga kiradi**.

## **19.2. Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish (vazifasi, asoslari, protsessual tartibi, vakolatlari)**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining “Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan kassatsiya shikoyati berish (protesti keltirish)” deb nomlangan 38-bobi 2000-yil 14-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunga muvofiq kiritilgan bob sanaladi. Hozirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida 45-bob (403-421-moddalar) “Kassatsiya instansiyasi sudida ish yuritish” deb nomlanadi.

Shu davrga qadar fuqarolik protsessual qonunchiligidagi kassatsiya sudlov instansiyasi amalda faoliyat yuritayotgan edi. Apellatsiya instansiyasining vujudga kelishi munosabati bilan amaldagi kassatsiya instituti yangi jihatlar bilan yanada takomillashtirildi. Endilikda nazariya va amaliyotda sud qarorlarini qayta tekshirishning appellatsiya, kassatsiya, nazorat va yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish yuritish bosqichlaridan foydalanimoqda.

Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari va

ajrimlarini cassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining **vazifasi** respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining mazmun-mohiyatini ro'yobga chiqarish, sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolik ishlarini hal qilishda moddiy va protsessual huquq normalariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash va shu orqali sud qarorlarini qonuniy, asosli vaadolatli chiqarilishiga erishish, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini yanada kuchaytirish kabilarga qaratilgan.

Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini cassatsiya tartibida qayta tekshirish institutining **mohiyati** ushbu institutning vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi:

**Birinchidan**, Fuqarolik protsessual kodeksida sud qarorlarini qonuniy, asosli vaadolatli bo'lislini ta'minlashga qaratilgan qayta tekshirish bosqichining mayjudligi;

**Ikkinchidan**, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmining (shikoyat berish, protest keltirish orqali) yaratilganligi;

**Uchinchidan**, cassatsiya instansiysi sudining ishni ko'rish doirasi, muddatlari va sudning vakolatlarining keng qamrovli ekanligi va boshq.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 403-moddasiga ko'ra, **taraflar va ishda ishtirok etishga jalg qilingan boshqa shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatları haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar sudning qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rilmagan hal qiluv qarori ustidan u qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy ichida cassatsiya tartibida shikoyat qilishi va prokuror protest keltirishi mumkin. Bundan tashqari, birinchi instansiya sudining**

appellatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimlari ustidan cassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran olti oy ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sudning hal qiluv qaroridan alohida holda shikoyat qilishi hamda prokuror protest keltirishi mumkin.

taraflar
ishda ishtirok etishga jalg qilingan boshqa shaxslar
ishda ishtirok etishga jalg qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlar haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslar
prokuror (muayyan ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o’z vakolati doirasida protest keltirishga haqli)

**Kassatsiya tartibida murojaat qilish huquqini vujudga keltiruvchi sabab** sud hujjatining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish sanaladi.

**Kassatsiya tartibida murojaat qilish obyekti (predmeti)** sudning qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarori, shuningdek birinchi instansiya sudining appellatsiya tartibida ko‘rilmagan, qonuniy kuchga kirgan ajrimlari.

Mazkur holatlarda cassatsiya instansiyasiga cassatsiya shikoyati, xususiy shikoyat, cassatsiya protesti, xususiy protest beriladi.

**Kassatsiya shikoyatlari (protestlarini) ko‘radigan sudlar:**

1) Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari – tegishli fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudining, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

2) O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi – hududiy

harbiy sudlarning va O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan;

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari ustidan berilgan cassatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko‘radi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) cassatsiya instansiyasi sudi nomiga yo‘llanadi, lekin hal qiluv qarorini, ajrimni, qarorni chiqargan sudga beriladi.

#### **Ishni cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish muddatlari (FPKning 415-moddasi)**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi cassatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha kelib tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi kerak. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi cassatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha kelib tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi kerak. Alohida hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o‘rinbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Ishni cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rish muddati uzaytirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish ko‘riladigan kun to‘g‘risida oldindan xabardor qilinishi kerak.

**Kassatsiya instansiyasi sudining ishni ko‘rish doirasi (FPKning 416-moddasi)** sud ishni cassatsiya tartibida ko‘rayotganida sud hujjatlarining qonuniyligi, asoslanti-rliganligi va adolatlilikini tekshiradi. Sud yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

### Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari:

- 1) hal qiluv qarorini, qarorni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ishni yangidan ko'rishga yubormasdan hal qiluv qarorini, qarorni o'zgartirishga yoxud butunlay yoki qismanbekor qilishga va yangi hal qiluv qarori, qaror chiqarishga;
- 3) Fuqarolik protsessual kodeksining 122 va 124-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra hal qiluv qarorini, qarorni qisman yoki butunlay bekor qilishga va arizani ko'rmasdan qoldirishga yoki ish yuritishni tugatishga haqli.

Kassatsiya instansiyasi sudi hay'at tarkibida ishni ko'rib chiqadi, ishni yakuni sifatida ajrim chiqaradi, bunday ajrim esa **darhol** qonuniy kuchga kiradi.

### **19.3. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni nazorat tartibida tekshirish**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining **46-bob (422-436-moddalar)** qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qayta tekshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu institutning maqsadi va vazifasi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirishga qaratilgan.

Sud qarorlarini nazorat tartibida tekshirishning **maz-muni** quyidagilarda ko‘rinadi:

**Birinchidan**, ushbu institut fuqarolik protsessining muhim va mustaqil bosqichi sanaladi;

**Ikkinchidan**, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarirlarni nazorat tartibida tekshirish faoliyatini amalga oshiradi;

**Uchinchidan**, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarirlarni nazorat tartibida tekshirish orqali ularning qonuniy, asosli va adolatli ekanligini ta’minlaydi;

**To‘rtinchidan**, nazorat tartibida sud qarorlarini tekshirish faoliyati qonunda ko‘rsatilgan (FPKning 422-424-moddasi) maxsus subyektlar tomonidan amalga oshiriladi;

**Beshinchidan**, nazorat tartibida sud qarorlarini tekshirish va qayta ko‘rish faoliyatida maxsus subyektlar nomiga nazorat tartibida protest keltirish to‘g‘risidagi ariza berish yo‘li bilan fuqarolarning ishtiroki ta’minlanishiga yo‘l qo‘yiladi.

**Oltinchidan**, nazorat tartibida sud qarorlarini qayta ko‘rishda aniq protsessual qoidalar (maxsus subyektlar, sudga murojaat qilish muddati, ish ko‘rish doirasi, ishni talab qilib olish, sud qarorlari ijrosini to‘xtatib turish, ishni nazorat tartibida ko‘rayotgan sudning vakolatlari va boshq.) mustahkamlangan bo‘ladi.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarirlarni nazorat tartibida tekshirishning **ahamiyati** shundaki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasi ta’minlanadi hamda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarirlarni qonuniy, asosli va adolatli ekanligini nazorat tartibida tekshirish imkoniyati tug‘iladi hamda fuqarolarning odil sudlovni amalga oshirish tizimiga bo‘lgan hurmat va ishonchi yanada ortadi.




**Sud hujjatlari ustidan nazorat tartibida shikoyat qilish huquqi** ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari haqidagi masala sud tomonidan hal etilgan shaxslarga berilgan.

**Nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar:**

**O‘zbekiston Respublikasi har qanday sudining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining protestlariga ko‘ra;

**O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosarlarining protestlariga ko‘ra, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosarlarining protestlariga ko‘ra, bundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining qarorlari mustasno.



Nazorat tartibidagi shikoyat (protest) birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori **qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran bir yil ichida** bevosita O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi.

Nazorat tartibidagi shikoyat shikoyatga ilova qilingan materiallar bilan birga, zarur hollarda esa ishni talab qilib olgan holda **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi tomonidan o'rganiladi.**

Shikoyatni o'rganish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining **sudyasi o'z ajrimi bilan** quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) sud hujjatlarini nazorat tartibida qayta ko'rish uchun asoslar mavjud emasligi to'g'risida;

2) shikoyatni ish bilan birga mazmunan ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish haqida.

Qabul qilingan qaror to'g'risida nazorat tartibida shikoyat bergen shaxsga uch kunlik muddatda xabar qilinadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi** nazorat tartibidagi shikoyatni (protestni) ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risidagi ajrim chiqaradi.

Protest kelib tushgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazish to'g'risida ajrim chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi o'zi chiqargan ajrim bilan birga shikoyatni (protestni) ish bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga o'tkazadi.

#### **Nazorat instansiysi sudi ishni nazorat tartibida ko'rib chiqqanda** quyidagilarga:

1) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o'zgarishsiz, nazorat tartibidagi shikoyatni (protestni) esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni to'liq yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudi yoki appellatsiya yoxud

kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan ko‘rishga yubormasdan, yangi hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilishga;

4) Fuqarolik protsessual kodeksida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qisman yoki to‘liq bekor qilishga va arizani to‘liq yoki qisman ko‘rmasdan qoldirishga yoxud ish yuritishni tugatishga;

5) ish bo‘yicha ilgari qabul qilingan sud hujjatlaridan birini o‘z kuchida qoldirishga haqli.

#### **19.4. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish**

**O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining**

**47-bobi (437-445-moddalar)** qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish masalalariga bag‘ishlanadi.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorlarini qayta tekshirish instituti fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sanalib, qonunda belgilangan asoslarga muvofiq fuqarolik ishlarining mazmuni bo‘yicha (takroran) qayta ko‘rish sharoitini yaratadi hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan “sud xatosi”ni oldini olish va lozim bo‘lganda tuzatish imkoniyatini beradi.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rishning **maqsadi** qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonunda belgilangan asoslarga binoan **qayta tekshirish** hamda lozim bo‘lganda **qayta ko‘rishga** qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 437-moddasida qayta ko‘rish **asoslari** belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari,

ajrimlar va qarorlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'riliши mumkin:

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlar yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'riliши mumkin.

**Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun quyidagilar asos bo'ladi:**

1) arizachiga noma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar, agar ular ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lsa;

2) sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan, qonunga xilof, asossiz yokiadolatsiz qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan holatlar, ya'ni guvohning bila turib bergen yolg'on ko'rsatuvi, ekspertning bila turib bergen yolg'on xulosasi, atayin noto'g'ri qilingan tarjima, qalbaki hujjatlar yoki ashyoviy dalillar;

3) taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki sudyalarining mazkur ish bo'yicha qonunga xilof, asoslantirilmagan yoxud adolatsiz sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo'lgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

4) sud hal qiluv qarorining, hukmining, ajrimining yoki qarorining yoxud shu hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan boshqa organ qarorining bekor qilinishi.

**O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 438-moddasida** hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'radigan sudlar tizimi berilgan bo'lib, unga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yangi ochilgan holatlar bo'yicha ushbu hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan yangidan ko'rildi. Apellatsiya, cassatsiya yoki nazorat instansiysi sudlarining qaysi ajrimlari va qarorlari bo'yicha birinchi

instansiya sudining hal qiluv qarori o‘zgartirilgan yoxud yangi hal qiluv qarori qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha qarorlar va ajrimlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish sud hujjatini o‘zgartirgan yoki yangi hal qiluv qarori qabul qilgan sud tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 439-moddasiga asosan, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni qayta ko‘rish haqidagi **ariza hal qiluv qarorini, ajrimni yoxud qarorni chiqargan sudga ishtirok etgan shaxslar yoki prokuror tomonidan** beriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladigan holatlar ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran **uch oy muddat ichida** berishi mumkin.

Ariza bilan murojaat etgan shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra, o‘tkazib yuborilgan arizani berish muddati, agar iltimosnomasi qayta ko‘rish uchun asos bo‘ladigan holatlar ochilgan kundan e’tiboran **olti oydan** kechiktirmay berilgan bo‘lsa va sud muddatni o‘tkazib yuborish sabablarini uzrli deb topsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 442-moddasiga ko‘ra, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko‘rish to‘g‘risidagi ariza sudga kelib tushgan kundan e’tiboran **bir oydan oshmagan muddatda** sud majlisida, arizachini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko‘riladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi arizani ko‘rishga to‘sinqinlik qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 443-moddasiga asosan, sud yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko‘rish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib, uni **qanoatlanadiradi va hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni bekor qiladi yoxud ishni qayta ko‘rishni rad qiladi**. Ajrim ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tilxat olib topshiriladi yoki ularga pochta orqali yoxud elektron hujjat tarzida yuboriladi.

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni yangi ochilgan

holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqidagi **arizani qanoatlantirish yoki rad qilish to'g'risidagi sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest)** berilishi mumkin.

Hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni qayta ko'rish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, ish sud tomonidan **umumiylasoslarda (ya'ni belgilangan tartib bo'yicha boshidan, yangidan)** ko'rildi.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual qonunchiligidagi appellatsiya institutining vujudga kelishi haqida tushuncha bering?
2. Sud qarorlarini appellatsiya tartibida bekor qilish asoslarini izohlab bering?
3. Kassatsiya tartibida shikoyat va protest keltirish huquqi berilgan subyektlar haqida ma'lumot bering?
4. Appellatsiya, kassatsiya tartibida ish yuritishning farqlarini aytинг.
5. Hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarga nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo'lган shaxslar doirasini izohlang?
6. Sud qarorlarini nazorat tartibida ko'rayotgan sudning vakolatlariga to'xtaling.
7. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish asoslarini izohlang.
8. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning nazorat tartibida ish ko'rishdan farqli jihatlarini tushuntiring.

## **1-kazus**

**M.** 2017-yilda sudga da'vo bilan murojaat qilib **X.** bilan nikoh davrida 2010-yilda NEXIA rusumli avtomashinani sotib olganliklarini, **X.** 2014- yil 21-avgustda uning roziligini olmasdan avtomashinani akasi **E.** ga hadya qilganligini ko'rsatib, hadya shartnomasini haqiqiy emas deb topishni so'rangan.

Sud **M.** ning da'vosini qanoatlantirgan.

Apellatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qilib, **M.** ning da'vosini rad qilish haqida yangi hal qiluv qarori chiqargan. Apellatsiya instansiyasi sudi **M.** da'vo muddatini uzrsiz sabablarga ko'ra o'tkazib borganligi haqida xulosaga kelgan va shu asosda da'voni rad qilgan.

**Savol:** 1) **Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimi asoslimi?**

**2) Mazkur masala qanday hal etilishi lozim?**

## **2-kazus**

Artikxodjayev javobgarlar viloyat bojxona boshqarmasi va Toychibayevga nisbatan 17.440 kg. metallarni ro'yhatdan chiqarish haqida da'vo bilan sudga murojaat qilgan. Sudning hal qiluv qarori bilan da'vo qanoatlantirilgan.

Kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yuborgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atining ajrimi bilan viloyat sudi kassatsiya instansiyasining ajrimi bekor qilindi.

Aniqlanishicha, kassatsiya instansiyasi sudi ish yuzasidan guvohlar so'roq qilinmaganligini, Artikxodjayevning mulkdor ekanligi tekshirilmaganligini, mulk qayerdan, qanday bahoda va qancha miqdorda sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar ishga qo'shilmaganligini asos qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yuborgan.

**Savol:1) Kassatsiya instansiyasi sudining kamchiliklarini ko'rsating?**

**2) Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini sanab bering?**

### **3-kazus**

Norqulova uy-joy oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy deb topish to‘g‘risida Mamatqulovga nisbatan sudga da’vo bilan murojaat qilgan. Sud da’voni qanoatlantirgan.

Kassatsiya instansiyasi sudi hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirgan.

Oliy sud fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati sud qarorlarini bekor qilib, ishni yangidan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yubordi. Ishga oid hujjatlarga qaraganda, nizoli uy Mamatqulovning nomiga rasmiylashtirilganligi sababli, zero nizoli uy nikoh davomida olingan bo‘lsada, ishga Mamatqulovning xotini Avazova jalb qilinmagan.

**Savol: 1) Birinchi instansiya va kassatsiya instansiyasi sudining kamchiliklari nimadan iborat?**

**2) Sud qarorlarini nazorat tartibida bekor qilish uchun nima asos bo‘ladi?**

## **20-BOB. SUD HUJJATLARINING IJROSI**

### **20.1. Sud hujjatlarini majburiy ijro etishning ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 5-bo‘limi “Sud hujjatlarining ijrosi” deb nomlanib, unda quyidagi normalar belgilangan: sud hujjatlarini ijroga qaratish; ijro varaqasi; ijro varaqasi berish; sud tomonidan ijro varaqasini yuborish; ijro varaqasining yoki sud buyrug‘ining dublikatini berish; ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati; ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatining uzilishi; ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash; hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishi, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish; ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish; ijro ishini yuritishni tiklash; ijro varaqasini qaytarib olish va yangi ijro varaqasi berish; qaytarma ijro; sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalaning bиринчи instansiya sudi tomonidan hal qilinishi; sud hujjatining kaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalaning appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi tomonidan hal qilinishi; alohida toifadagi ishlar bo‘yicha qaytarma ijroning o‘ziga xos jihatlari va yo‘qolgan ijro ishini yuritishni tiklash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850-sonli Farmonida 2017-yil 1-iyulga qadar elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini, shuningdek odil sudlovga erishishning ilg‘or mexanizmlarini kengroq joriy etish orqali odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilashni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish va kiritishi nazarda tutildi.

## **20.2. Ijro harakatlarini amalga oshirishning umumiylar shartlari**

Jamiyatimizda olib borilayotgan keng qamrovli sud-huquq sohasidagi islohotlar zamirida sud hujjatlarini to'laqonli ijro etish, buzilgan huquqlar va qonuniy manfaatlarni to'laligicha tiklash va shu orqali sud hokimiyatining mavqeini oshirish, sudlar tomonidan chiqarilayotgan odil sudlov hujjatlarining ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish muammosi yotadi.

Buzilgan huquqlar va qonuniy manfaatlarni sud orqali himoya qilishga oid halqaro tajriba shundan dalolat beradiki, shaxs huquqlari va manfaatlarini to'la-to'kis himoya qilishda sudlov organlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish o'ziga xos o'rinn tutadi. Darhaqiqat, qonuniy va asosli chiqarilgan deb qaraladigan sud hal qiluv qarori bilan huquq buzilgan bo'lsa, bunda huquqni to'la va har tomonlama tiklanishiga erishishning o'zi bo'lmaydi. Buning uchun avvalo ushbu sud qarori to'liq ijro etilishi lozim bo'ladi. Zero, sud hujjatlari lozim darajada ijro etilmas ekan, sudlar tomonidan qabul qilingan odil sudlov hujjatlarining tarbiyaviy va amaliy ahamiyatiga putur yetishi mumkin.

Sud hujjatlari ular qonuniy kuchga kirgandan keyin ijroga qaratiladi, bundan uning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda darhol ijro etilishi hollari mustasno. Sud hujjatining majburiy ijrosi, agar FPKda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi (FPKning 446-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi FPKning 447-moddasi talabida ijro varaqasi sud tomonidan berilgan, undiruvchining sud hujjatini majburiy ijro etishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjat ekanligi qayd etilgan.

Har bir sud hujjati bo'yicha bitta ijro varaqasi beriladi. Biroq, agar ijro turli joylarda yoki bir nechta undiruvchining foydasiga amalga oshiriladigan bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga binoan ijro joyini yohud hal qiluv qarori ijrosining

har bir ijro varaqasiga tegishli qismini aniq ko'rsatgan holda bir necha ijro varaqasi beradi. Bir nechta javobgardan pul summalarini undirish to'g'risidagi hal qiluv qarori asosida javobgarlarning soni bo'yicha bir nechta ijro varaqasi beriladi. Bunda, agar solidar javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va solidar javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi kerak. Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan undiruvchiga beriladi yoki sud hujjati konuniy kuchga kirgandan so'ng besh kun ichida undiruvchining iltimosnomasiga ko'ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi, bundan sud hujjati chiqarilishi bilanoq ijro varaqasi berilib, darhol ijro etiladigan hollar mustasno.

Jinoyat sodir qilish natijasida yetkazilgan zararni undirish, alimentlarni undirish, mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik, shuningdek boquvchi vafot etganligi natijasida ko'rilgan zararning o'rnini qoplash, xodim bilan mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilish yohud xodimni g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazishda yoki sudning ishga tiklash to'g'risidagi hal qiluv qarorini bajarmaganlikda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslardan pul summalarini undirish, davlat daromadiga pul mablag'larini undirish hollarida sud o'z tashabbusiga ko'ra ijro varaqasini ijro etish uchun yuboradi.

Davlat foydasiga mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro varaqasi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng uch ish kuni ichida sud tomonidan qarzdorning joylashgan yeridagi davlat ijrochisiga yuboriladi. Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin (FPKning 449-moddasi).

Ijro varaqasining yoki sud buyrug'ining asl nusxasi yo'qotilgan hollarda, sud hujjatini chiqargan sud undiruvchining yohud davlat ijrochisining arizasiga ko'ra, ijro varaqasining dublikatini berishi mumkin. Dublikat berish haqidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'riladi, biroq ularning kelmaganligi dublikat berish to'g'risidagi masalani hal etish

uchun to'sqinlik qilmaydi. Dublikat berish to'g'risidagi ariza bunday ariza sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sud majlisida ko'rildi. Sudning dublikat berish to'g'risidagi masalaga doir ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Xususiy shikoyatda (protestda) xususiy shikoyat (protest) bergen shaxsning yoki uning vakilining telefonlari va fakslari raqamlari, elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin.

Shu o'rinda, ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, sudning hal qiluv qarori majburiy tartibda ijro etish uchun, agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, u qonuniy kuchga kirgan paytdan e'tiboran uch yil ichida taqdim etilishi mumkin. Davriy to'lovlarni undirish uchun berilgan ijro varaqalari bu to'lovlardan undiriladigan butun davr ichida ijroga taqdim etilishi mumkin. Ijro varaqasi ijroga taqdim etilguniga qadar o'tgan vaqt uchun davriy to'lovlardan ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatlar doirasida undiriladi. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarning o'tishi har bir to'lov muddati tugagan kundan e'tiboran boshlanadi. Agar sud tomonidan ijro varaqasi berilguniga qadar sud hujjatining ijrosi kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib ijro etilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa, unda ijro varaqasini taqdim etish muddati qaysi vaqtdan boshlanishi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksining 452-moddasi bayoniga ko'ra ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatining uzilishi, ya'ni, ijroga takdim etish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, ijro varaqasining ijroga takdim etilishi, shuningdek hal qiluv qarorining qisman ijro etilishi bilan uziladi. Muddat uzilgandan so'ng uning o'tishi yangidan boshlanadi, bunda oldingi o'tgan vaqt yangi muddatga qo'shib hisoblanmaydi. Ijro varaqasi to'liq yoki qisman undirilmay qaytarilgan taqdirda, ijro varaqasini ijroga takdim etish uchun yangi muddatni hisoblash ijro varaqasi undiruvchiga qaytarilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Shu o‘rinda, ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash haqidagi norma FPK 453-moddasi tartibida belgilangan bo‘lib, ijro varaqasini ijroga takdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, sud uzrli deb topgan sabablarga ko‘ra tiklanishi mumkin. O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza sud hujjatini chiqargan sudga yoki u ijro etiladigan joydagি sudga beriladi. Ariza sudga kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida sud majlisida, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko‘riladi, biroq bu shaxslarning kelmagan-ligi o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun to‘sinqinlik qilmaydi. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, u undiruvchi va qarzdorga yuboriladi. O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad qilinganligi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud hujjatining ijrosini qiyinlashtiradigan ob’ektiv holatlar mayjud bo‘lgan takdirda, sud undiruvchining, qarzdorning yoki davlat ijrochisining arizasiga binoan hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga yohud uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishiga yo‘l qo‘yishga, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirishga haqli. Agar vakolatli davlat organining qarorida yoki taraflarning kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sud hujjatining ijrosini kechiktirish yohud bo‘lib-bo‘lib ijro etish uchun ko‘pi bilan bir yil muddat berilishi mumkin. Qarzdorga sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uning bo‘lib-bo‘lib ijro etilishiga yo‘l qo‘yish chog‘ida, sud ushbu FPKning 9-bobida nazarda tutilgan tartibda uning ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rishi mumkin. Sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib ijro etish, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish haqidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda sud tomonidan ko‘riladi. Arizani ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, uning ko‘chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek sud hujjatining ijrosi davlat ijrochisining ish yurituvida bo‘lgan takdirda, davlat

ijrochisiga yuboriladi. Ajrim ustidan FPKda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi mumkin (FPKning 454-moddasi).

### **20.3. Ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish, tugatish va tiklash asoslari**

Sud davlat ijrochisi sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo‘zg‘atgan ijro ishini yuritishni qonunda nazarda tutilgan hollarda, undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasi bo‘yicha to‘xtatib turishi yoxud tugatishi mumkin. Sud tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida qo‘zg‘atilgan ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish va tugatish shu sud tomonidan yoki davlat ijrochisi joylashgan yerdagi sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro ishini yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasi o‘tkazmagan holda sud tomonidan ko‘riladi. Ijro ishini to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan ajrim chiqarilib, uning ko‘chirma nusxasi undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek davlat ijrochisiga yuboriladi. Ajrim ustidan FPKda nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

FPKning 456-moddasida ijro ishini yuritish uni to‘xtatib qo‘yish uchun asos bo‘lgan sabablar yoki holatlar bartaraf etilganidan keyin, ushbu ishni to‘xtatib qo‘ygan sud tomonidan undiruvchining, davlat ijrochisining arizasiga ko‘ra tiklanadi. Ijro ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda, taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasini o‘tkazmagan holda sud tomonidan ko‘riliishi belgilab qo‘yilgan. Ijro ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqarilib, uning ko‘chirma nusxasi

undiruvchiga, qarzdorga, shuningdek davlat ijrochisiga yuboriladi. Sudning ijro ishini yuritishni tiklashni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan FPKda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sud o‘zi tomonidan yozuvdagি xatolar, arifmetik xatolar bilan berilgan, shuningdek o‘zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasini undiruvchining, qarzdorning, davlat ijrochisining arizasiga yoki o‘zining tashabbusiga ko‘ra taraflarni chaqirmagan va sud muhokamasini o‘tkazmagan holda qaytarib olishga hamda uning o‘rniga yangi ijro varaqasini berishga haqli. Yozuvdagи xatolar, arifmetik xatolar bilan berilgan yoki o‘zgartirilgan (bekor qilingan) sud hujjati asosida berilgan ijro varaqasi uni bergen sudga undiruvchi yoki davlat ijrochisi tomonidan ijro etilmasdan qaytariladi.

Ijro etilgan sud hujjati bekor qilingan va ish yangidan ko‘rib chiqilganidan keyin talablarni qanoatlantirishni to‘liq yoki qisman rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarori qabul qilingan yoxud ish yuritishni tugatish to‘g‘risida yoki arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan taqdirda, bekor qilingan sud hujjati bo‘yicha javobgardan da‘vogarning foydasiga undirilgan narsalarining barchasi javobgarga qaytarib berilishi lozim (hal qiluv qarorining qaytarma ijrosi). Agar ijro etilmagan sud hujjati bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan bo‘lsa va da‘voni to‘liq yohud qisman rad etish to‘g‘risida yangi sud hujjati qabul qilingan bo‘lsa yoki ishni yuritish tugatilgan yoki da‘vo ko‘rmasdan qoldirilgan bo‘lsa, sud sud hujjatining bekor qilingan yohud o‘zgartirilgan tegishli qismi bo‘yicha undirishni to‘liq yoki qisman tugatish to‘g‘risidagi sud hujjatini qabul qiladi.

Yo‘qolgan ijro ishini yuritish sud tomonidan ishda ishtirok etgan shaxslarning, ijro ishini yuritish taraflarining, davlat ijrochisining, prokurorning arizasiga ko‘ra, shuningdek ijro hujjatini bergen sudning yoki boshqa organning tashabbusi

bo‘yicha tiklanishi mumkin. Yo‘qolgan ijro ishini yuritish to‘liq tiklanadi yoki uning sud fikriga ko‘ra tiklanishi zarur bo‘lgan qismi tiklanadi. Yo‘qolgan ijro ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ariza sud hujjati ijro etiladigan joydagi sudga beriladi. Arizada ijro ishini yuritish to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Arizachida saqlanib qolgan va ijro ishini yuritishga daxldor bo‘lgan hujjatlar yoki ularning ko‘chirma nusxalari arizaga ilova kilinadi. Sud ishni ko‘rayotganda ijro ishini yuritishning saqlanib qolgan qismidan, ish yo‘qolguniga qadar undan jismoniy va yuridik shaxslarga olib berilgan hujjatlardan, bu hujjatlarning ko‘chirma nusxalaridan, shuningdek ijro ishini yuritishga daxldor bo‘lgan boshqa ma’lumotnomalar va hujjatlardan foydalanadi. Sud ijro harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan yoki hozir bo‘lgan shaxslarni guvoh sifatida so‘roq qilishi mumkin.

Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha sud ajrim chikaradi, uning ko‘chirma nusxalari ijro ishining taraflariga va davlat ijrochisiga yuboriladi. To‘plangan materiallar yo‘qolgan ijro ishini yuritishni aniq tiklash uchun yetarli bo‘lmasa, sud ajrim chiqarib, ijro ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqishni tugatadi. Bu holda arizachi umumiylar tartibda da’vo takdim etishga haqli.

Arizachi yo‘qolgan ijro ishini yuritishni tiklash to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilishi chog‘ida sud tomonidan qilingan sud xarajat-larini to‘lashdan ozod qilinadi. Bila turib yolg‘on ariza berilganda sud xarajatlari arizachidan undirib olinadi (FPKning 462-moddasi).

#### **20.4. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalaning hal qilinishi**

Ish yangidan ko‘rish uchun o‘ziga topshirilgan sud o‘z tashabbusi bilan qaytarma ijro to‘g‘risidagi masalani ko‘rishi va uni yangi sud hujjatida yoki ajrimida hal qilishi shart bo‘lib, shu bilan ish yuritish tamomlanadi. Ishni yangidan

ko‘rayotgan sud bekor qilingan sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalani hal qilmagan takdirda, javobgar bu sudga qaytarma ijro to‘g‘risida ariza berishga haqli. Bu ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda, sud majlisida ko‘riladi. Biroq bu shaxslarning kelmaganligi sud oldiga qo‘yilgan masalaning hal etilishi uchun to‘sinqinlik qilmaydi. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi ariza davlat boji to‘lanmagan holda umumiy da’vo muddati ichida berilishi mumkin. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi ariza ariza kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda sud tomonidan ko‘riladi. Arizaga ilgari qabul qilingan sud hujjatining ijrosini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi. Sud hujjatining kaytarma ijrosi to‘g‘risidagi arizani ko‘rish natijalari bo‘yicha ajrim chiqariladi. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi ariza qanoatlantirilgan taqdirda, sud undirilgan pul mablag‘larini, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarish uchun ijro varaqasi beradi (FPKning 459-moddasi).

Sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalaning appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiysi sudi, agar u o‘zining ajrimi yohud qarori bilan hukuq to‘g‘risidagi nizoni uzil-kesil hal kilsa yoki ish yuritishni tamomlasa, sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masalani hal qilishi yohud uni hal qilish uchun birinchi instansiya sudiga topshirishi shart.

Agar yuqori sudning ajrimida yoki qarorida sud hujjatining qaytarma ijrosi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha hech qanday ko‘rsatma bo‘lmasa, javobgar birinchi instansiya sudiga tegishli ariza berishga haqli. Birinchi instansiya sudi bu arizani FPKning 459-moddasi qoidalariga binoan ko‘rib chiqadi va hal qiladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha pul summalarini undirish to‘g‘risidagi, intellektual mulk ob‘ektlaridan foydalanganlik uchun haq undirish haqidagi, alimentlar undirish

to‘g‘risidagi, mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganlik, shuningdek boquvchining vafot etishi natijasida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi ishlar bo‘yicha sud hujjatlari bekor qilingan taqdirda, agar bekor qilingan sud hujjati da‘vogar bergen soxta ma‘lumotlarga yohud u taqdim etgan qalbaki hujjatlarga asoslangan bo‘lsa, sud hujjatining qaytarma ijrosiga yo‘l qo‘yiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Sud hujjatlarini ijroga yuborish tartibi va muddatlarini aytинг.
2. Sud ijro hujjatining mazmuniga qo‘yiladigan talablarni tushuntiring.
3. Sud hujjatlarini majburiy ijro etish asoslarini aytинг.
4. Darhol ijro etilishi lozim bo‘lgan sud hujjatlari haqida gapirib bering?
5. Sud hujjatining qaytarma ijrosi tushunchasi va uni amalga oshirish tartibi qanday?

### **Kazus**

Yaqinda menga nisbatan fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudi tomonidan kommunal to‘lovlarni 6 oydan buyon to‘lay olmaganim sababli sud buyrug‘i chiqarilgan ekan.

Sud buyrug‘ining nusxasini pochta orqali 10 kundan keyin oldim. Lekin bunga e’tibor bermay yurdim. Oradan 20 kunlar o‘tgach, davlat ijrochisi kelib ko‘rsatilgan summani to‘lash haqida ogohlantirib ketdi.

Mening qaramog‘imda nogiron farzandim borligini, o‘zim bozorda pishiriq sotib kun ko‘rishimni, yaqinda bir yarim oydan keyin katta o‘g‘lim Rossiyadan kelib 500 ming so‘mni to‘lashini aytdim. Lekin ikkinchi marta sud davlat ijrochisi kelganida uyimdagи muzlatgich, tarozi, kir yuvish mashinamni olib ketdi. Qanday yo‘l tutishim kerak?

**Vaziyatga huquqiy baho bering.**

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR:**

### **1. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, – Toshkent: Adolat, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Rasmiy nashr. Adolat, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent, Adolat, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida” gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-yil, 1-2-son, 10-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2001-yil, 9-10-son, 168-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-yil, 2-son, 42-modda.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijroetish to‘g‘risida”gi Qonuni. (o‘zgartish va qo‘srimchalari bilan) //O‘zbekiston Respublikasi Oliy MajlisAxborotnomasi. 2001-yil, 9-10-son, 169-modda.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudsleri to‘g‘risida” gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2006-yil, 42-son, 416-modda.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018 y., 03/18/482/1447-son; 30.07.2019 y., 03/19/551/3493-son; 15.01.2020 y., 03/20/602/0052-son)
10. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy

bazasi, 07.01.2020 y., 03/20/600/0023-son, 14.03.2020 y., 03/20/610/0299-son, 21.05.2020 y., 03/20/619/0622-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4850-son Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi, 22.10.2016 y., 209 (6644)-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivoj-lantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4966-son Farmoni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017-yil, 27 fevral, 8-son, 109-modda.

14. O‘zbekiston Respublikasining “Sudyalar oliv kengashi to‘g‘risida”gi qonuni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017-yil 6-aprel, 14-son, 214-modda.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.

## **2. O‘qish uchun adabiyotlar**

1. Shorahmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.

2. Shoraxmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlari. – Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2010. – 960 b.

3. Egamberdiyev E. Sud ishlarini yuritish muammolari. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. – 72 b.
4. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiyl qism. Darslik. / Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. O.Okyulov. – Toshkent: TDYU, 2014. – 534 b.
5. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish tartibi. Amaliy qo‘lanma. –Toshkent. Baktria press, 2016.
6. Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) . – Toshkent: TDYU, 2018. – 300 b.
7. Мамасиддиқов М.М., Ёдгоров Х.Б., Давлетов Ў.М. Фуқаролик процессуал ҳукуки (Умумий қисм) / Дарслик. –Тошкент, ҲТИ нашриёти. 2018. -340 б.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-BOB. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI TUSHUNCHASI, TIZIMI VA PRINTSIPLARI.....	5
2-BOB. FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI VA SUDLOVLILIGI.....	30
3-BOB. FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISH ISHTIROKCHILARI .....	42
4-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR .....	67
5-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA DA'VO.....	88
6-BOB. SUD XARAJATLARI .....	103
7-BOB. PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI VA PROTSESSUAL MUDDATLAR .....	114
8-BOB. FUQAROLIK ISHLARINI QO'ZG'ATISH VA SUD MUHOKAMASIGA TAYYORLASH .....	122
9-BOB. SUD MUHOKAMASI.....	141
10-BOB. BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING HAL QILUV QARORI VA AJRIMLARI .....	162
11-BOB. SIRTDAN ISH YURITISH.....	169
12-BOB. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH .....	181
13-BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQADIGAN ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI (NIKOHDAN AJRATISH, ALIMENT UNDIRISH, OTALIKNI BELGILASH).....	194
14-BOB. MEHNATGA OID NIZOLI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI.....	214
15-BOB. UY-JOYGA OID NIZOLI ISHLARNI SUDDA KO'RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI.....	227
16-BOB. ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH .....	238

17-BOB. HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORLARI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN ISHLARNI YURITISH.....	274
18-BOB. FUQAROLIK PROTSESSIDA CHET EL FUQAROLARI VA TASHKILOTLARINING, FUQAROLIGI BO'LМАGAN SHAXSLARNING ISHTIROKI.....	289
19-BOB. SUD HUJJATLARINI QAYTA KO'RISH (APELLATSIYA, KASSATSIYA, NAZORAT TARTIBIDA VA YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH).....	299
20-BOB. SUD HUJJATLARINING IJROSI .....	316
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR .....	327

**MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH  
ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA  
XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**

**FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI**

**YURIDIK TEXNIKUM O'QUVCHILARI  
UCHUN DARSLIK**

Muharrir	?????????
Badiiy moharrir	?????????
Sahifalovchi	?????????
Texnik moharrir	???????

Bosishga 00.00.2019 da ruxsat etildi  
Bichimi 84x108 1/32  
Bosma tabog'i 17,4. Shartli bosma tabog'i 13,2  
Garnitura «Times». Ofset qog'ozi  
Adadi ???? nusxa. Buyurtma № ??

Original maket «?????????????»  
nashriyotida tayyorlandi.  
«?????????????????» MChJ  
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., ??????? ko'chasi, 6.  
Tel.: (????????)  
E-mail: ??????@mail.ru